Artikova Nargiz Shuxratovna

MUTAXASSISLIKKA KIRISH

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

Artikova Nargiz Shuxratovna

MUTAXASSISLIKKA KIRISH

Oliy o'quv yurtlarining
60110500 – Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi
talabalari uchun mo'ljallangan

Toshkent
«Sarbon LLS»
2024

UO'K 373.3
KBK 74.26
A-14

Artikova N.SH. Mutaxassislikka kirish. O'quv qo'llanma. – T.: "Sarbon LLS", 2024. 410 b.

Taqrizchilar:

Mamadaliyev K.R. - *Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti, p.f.f.d. (PhD).*

Kurbanova A.T. - *O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti dotsenti, p.f.f.d. (PhD).*

O'quv qo'llanma oliy ta'lim muassasalarida "Mutaxassislikka kirish" fanini o'qitish uchun yordamchi manba sifatida yaratilgan. Unda "Mutaxassislikka kirish" fanidan ma'ruza mashg'ulotlarini tashkil etish uchun mo'ljallangan mavzular bo'yicha ishlanmalar berilgan. O'quv qo'llanmada talabalar hemis platformasi, kredit modul tizimi, o'quv-tarbiya jarayonida ruhiy holatni boshqarish malakasi, sinf rahbar vazifalari, kommunikativ qobiliyat, pedagogik texnika va malakalarini rivojlantirishga doir mashg'ulotlarining ishlanmalari tavsiya etiladi.

UO'K 373.3
KBK 74.26

O'quv qo'llanma Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 25-iyundagi 218-sonli buyrug'iga asosan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-9397-3-0

MUNDARIJA

1-bob

Kirish 5
1. Mutaxassislik fanlari – pedagogik fan. Mutaxassislikka kirish fanining maqsadi va vazifalari 7
2. Talabalar hemis platformasi, kredit modul tizimi 21
3. Boshlang'ich ta'lim bakalavrlarining kasbiy faoliyat turlari. O'qituvchilik kasbi, uning huquqiy, demokratik jamiyatdagi o'rni ...30
4. Fanlarni o'rganishda adabiyotlar bilan ishlash, adabiyotlarni tahlil etish va ular bilan mustaqil ishlash texnologiyalarini o'zlashtirish 39
5. Mustaqil ta'lim, uning turlari va bajarilishi 53
6. Kurs ishi, bitiruv malakaviy ishni yozish tartibi 63
7. Boshlang'ich sinflarda ta'lim-tarbiyaga an'anaviy va pedagogik texnologik yondashuv 73
8. Pedagogik mahorat asoslari va uning tarkibiy qismlari 85
9. Boshlang'ich sinf Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi mazmuni. Fanga oid kompetnesiyalarni shakllantiish 109
10. Boshlang'ich sinf darslariga qo'yilgan talablar. Qo'llaniladigan o'quv vositalari va ularning vazifalari. Dars turlari 120
11. Boshlang'ih sinf o'qituvchisining me'yoriy hujjatlari 131
12. Savod o'rgatish, tayyorlov davri o'qish darslarida interfaol metodlaridan foydalanish 143
13. O'quvchilar bilim, ko'nikma hamda malakalarini baholash va nazorat turlari 157
14. Didaktik o'yinlar texnologiyasi va uning boshlang'ich adabiy ta'limdagi o'rni 174
15. O'quvchilarda mustaqil kitobxonlikni shakllantirish tizimi 180

2-bob

1. Maktabdagi tarbiyaviy ishlar tizimida sinf rahbarining faoliyati, tashkil etish metodlari 190
2. Boshlang'ich sinflarda aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasining didaktik printsiplari 201
3. Boshlang'ich ta'limda aniq va tabiiy fanlarni o'qitishda o'quv dasturi, darslik, multimedia ilovali metodik qo'llanmalar. Ulardan foydalanish texnologiyasi 214
4. Boshlang'ich sinflarda texnologiya ta'limining mazmuni ..235

5. O'quvchilarning mehnat tarbiyasida mehnat an'analarining o'rni 253
6. Boshlang'ich sinfda matematika o'qitishni tashkil qilish shakllari 261
7. Ta'limning darsdan tashqari yordamchi shakllari (to'garak, matematika kechasi va boshqa turlari) 270
8. Ixtisoslashtirilgan boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish 286
9. Boshlang'ich sinf matematika darslarida mantiqiy masalalar ustida ishlash 297
10. Interfaol ta'lim vositasida o'quvchilarda mustaqil fikrlash madaniyatini shakllantirish va kompetentli yondashuv 317
11. Boshlang'ich sinda tabiiy fanlarni o'qitishda STEAM yondashuv 331
12. Boshlang'ich sinflarda aniq va tabiiy fanlardan ochiq darslarni o'tkazish va darsni tahlil qilish 341
13. Boshlang'ich maktabda integratsiyalashgan ta'limdan foydalanish 354
14. Inklyuziv ta'limni rivojlantirishda psixologik-pedagogik yondashuv 365
15. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi va pedagogik faoliyatda yuzaga keladigan kasbiy muammolarni bartaraf etish strategiyalari 386
Glossariy 402
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati 405

KIRISH

"Mutaxassislikka kirish" kursi boshlang'ich ta'lim yo'nalishi o'quv rejasiga kiritilgan umumkasbiy fanlardan biri hisoblanadi. Ushbu o'quv qo'llanmaning asosiy maqsadi "Boshlang'ich ta'lim" yo'nalishi namunaviy o'quv rejasidan o'rin olgan "Mutaxassislikka kirish" fani dasturiga muvofiq, talabalarga boshlang'ich sinf o'qituvchisining faoliyati, maqsadi, vazifalari va asosiy tushunchalari, pedagogik jarayonlarni tashkil etish usullari, umumiy qonuniyatlarini o'rganishga qaratilgan.

O'quv qo'llanmani tayyorlash jarayonida, undan o'rin olgan har bir mavzu qayta ishlanib, pedagogik jarayonlar xususiyatlarini o'zida aks ettiradigan misollar va yangi ilmiy ma'lumotlar bilan boyitildi. Shu maqsadda oxirgi yillarda qo'shni va uzoq xorijiy mamlakatlarda chop etilgan boshlang'ich sinf o'qituvchisi faoliyatiga oid darsliklar, o'quv qo'llanmalar bilan bir qatorda monografiyalar va ilmiy maqolalar ma'lumotlaridan ham foydalanildi. Ushbu o'quv qo'llanmani yozishda mualliflar o'zlarining ko'p yillik ilmiy va pedagogik faoliyati davomida, shuningdek, xalq ta'limi sohalaridagi fanlarni o'qitish borasida to'plagan tajribalariga tayandilar. O'quv qo'llanmaning katta qismi boshlang'ich sinf dasturiga muvofiq darsliklarga bag'ishlangan.

«Mutaxassislikka kirish» fani oliy o'quv yurtlarining birinchi kurs talabalarini hozirgi xalqaro ahvol, davlatimizning ichki va tashqi siyosati, ularning vazifalari, o'quv jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, o'qitish jarayonining asosiy shakllari, o'quv rejasining mazmuni, ilmiy-tadqiqot ishlari, talabalarning huquq va burchlari, talabalarning bo'sh vaqtdan foydalanishlari, mustaqil ishlashni to'g'ri tashkil etishi kabilar bilan tanishtiradi.

Fanni o'qitishdan maqsad –mutaxassislikka kirish fani O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida tutgan o'rni va roli, boshlang'ich ta'lim fanlari, ona tili, matematika, texnologiya va tabiiy fanlarni to'gri o'qitish xususiyati to'g'risidagi

tasavvurlarni shakllantirishdan iborat.

Fanning vazifasi – boshlang'ich sinf fanlarini o'qitish metodikasiga oid umumiy masalalar bilan tanishtirish, o'quv jarayonida innovatsion texnologiyalar, o'qitish jarayonida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etish, shakl va metodlarini, o'quv mashg'ulotlarini modellashtirish va ularni integratsiya qilish texnologiyasi, me`yoriy hujjatlarni o'rganish va ilmiy, uslubiy tahlil qilish malakalarini shakllantirishdan iborat.

1-mavzu: Mutaxassislik fanlari – pedagogik fan. Mutaxassislikka kirish fanining maqsadi va vazifalari.

Reja:

1. Mutahassislikka kirish fanining maqsadi va vazifalari
2. Mutahassislikka kirish fanining fanning asosiy manbalari
3. Mutahassislikka kirish fanining boshqa fanlar bilan aloqasi
4. Bugungi kunda yetishtirilayotgan mutaxassis kadrlar sizning nigohingizda.

***

Tayanch tushunchalar: Zamonaviy o'qituvchi, o'quv darsliklari, o'quv va metodik qo'llanmalar, mashg'ulot matnlari, tarqatma va elektron materiallar, pedagogik, psixologik va tegishli mutaxassisliklarga doir ensiklopediyalar, lug'atlar.

***

1) "**Mutaxassislikka kirish**" fanini o'qitishdan maqsad, talabalarni Oliy va ta'lim tizimining ahamiyati va mohiyatiga oid ilmiy yangiliklar, yangi samarali metod va texnologiyalar yaratish omillari bilan tanishtirish. Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi bo'yicha tayyorlanayotgan kadrlar kelgusida boshlang'ich sinflarni boshqarishi, ta'lim tizimlariga fan va texnika yutuqlarini joriy qila olishi, zamonaviy texnologiyalarni keng ko'lamda boshqarishi, o'z sohasining bilimdoni bo'lishi kerak.

Fanning vazifasi:

Fanning asosiy vazifasi bu talabalarga zamonaviy bilim olish uslublaridan foydalanishni shakllantirishdir. Ayniqsa bunda internet tarmog'idan foydalanish, biblioteka tizimlarida ishlash, ilmiy jurnal va boshqa manbalardan ilmiy ma'lumotlar to'plash to'g'risida boshlang'ich bilim berilishiga katta e'tibor qaratilgan.

2) Talabalar tomonidan "Mutaxassislikka kirish" fanining puxta o'zlashtirilishi uchun zamonaviy ta'lim turlari, pedagogik texnologiyalar, jahon ta'limining eng ilg'or yutuqlaridan izchil foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Fan asoslarini o'zlashtirishda o'quv darsliklari, o'quv va metodik qo'llanmalar, mashg'ulot matnlari, tarqatma va elektron materiallar, pedagogik, psixologik va tegishli mutaxassisliklarga doir ensiklopediyalar, lug'atlar, o'qitishning texnik vositalari, zamonaviy axborot texnologiyalari kabilardan o'rinli foydalaniladi.

Mashg'ulot, seminar, laboratoriya mashg'ulotlarining ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalari yordamida tashkil etilishi ta'minlanadi.

Fanni o'qitish jarayonida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim turlari (dasturiy, modul, innovatsion, interfaol, muammoli, rivojlantiruvchi, masofaviy va mustaqil ta'lim, o'yin texnologiyalari), o'qitishning samarali shakllari, zamonaviy metodlari, vositalari, pedagogik va axborot texnologiyalarini muntazam qo'llash nazarda tutilgan.

"**Mutaxassislikka kirish**" fanini o'qitishda quyidagi interfaol metodlarni qo'llash ta'lim jarayonining muvaffaqiyatini ta'minlaydi: "Bumerang", "Baliq skleti", "Nilufar guli", "Aqliy hujum", "Klaster", "Keys", "Charxpalak", "Qarorlar shajarasi", "Venn diagrammasi", "Qanday?", "Nima uchun?" va hokazo.

3) "Mutaxassislikka kirish" fanining boshqa fanlar bilan aloqasi.

Mazkur fan –Aksiologiya, Umumiy psixologiya, Yosh

va pedagogik psixologiya, Yosh psixologiyasi va gigienasi, O'zbek adabiyoti, Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari, Ma'naviyatshunoslik, Informatika va axborot texnologiyalari, Etika, Estetika, Madaniyatshunoslik va o'qitish metodikasi kabi fanlar bilan uzviy aloqada o'rganiladi.

4) Ta'lim tarbiya jarayonlarida yangi pedtexnolgiyalarni qo'llash zamon talabiga aylandi. Bu ta'lim jarayonini hozirgi ilm fan yutuqlaridan orqada qolmasligi uchun uning talabiga javob beradigan mutaxassis kadrlarni tarbiyalashni taqozo etadi. Bu o'qituvchilar oldida ham yangi talablarni qo'yadi. Zamonaviy o'qituvchi kelajak bunyodkori, yangi pedagogik texnologiyalar, nazariyalar, konsepsiyalarning muallifi, ishlab chiqaruvchisi, tadqiqotchisi, foydalanuvchisi va targ'ibotchisi ekanligini chuqur his etishi lozim. Bu undan mustaqillik tafakkuriga va zamonaviy dunyoqarashga ega bo'lishni taqozo etadi. Zamonaviy o'qituvchi dars jarayonida «aktyor» emas, aksincha «rejissor» bo'lishi kerakligini anglashi lozim. U o'z o'quvchi-talabalarini fanga ijodkorlik nuqtai nazari bilan qarashlarini tashkil qilishi, ularda izlanuvchanlik xususiyatlarini shakllantirishi va albatta, yangi pedagogik texnologiya usullaridan foydalangan holda darsni tashkil etishi kerak bo'ladi. Bundan tashqari o'qituvchi o'quvchini turli vaziyatlarda to'g'ri fikr yurita olish, fikrlarni taqqoslay olish, taxlil etish, muhokama yuritish, o'z fikrini ma'lum bir tizimda ifodalay olish ko'nikmalarini hosil qilishda faqat bir xil o'qitish metodidan foydalanmay, o'qitish metodlarini o'zaro aloqada qo'llashni taqozo etadi.

Ilm fan va ta'lim taraqqiy etgan mamlakatlarda ta'lim tizimining bosh maqsadi – bu raqobatbardosh pedagoglarni yetishtirish va yuqori malakali kadrlar tayyorlash orqali ta'lim sifatini oshirish ko'rsatishdir. Rivojlangan mamlakatlarda kasbiy ta'limning jamiyat taraqqiyotida tobora ahamiyati kengayib bormoqda. Yuqori malakali kadr tayyorlashda ta'lim, ilm–fan va amaliyot qay darajada o'zaro bog'langan, o'zaro xamkorlikka erishgan bo'lsa, professional ta'limdan natija

shunchalik ko'p bo'ladi.

AQSH, Fransiya, Yaponiya kabi intellektual rivojlangan bir qator davlatlar tajribasining tahlilining ko'rsatishicha barcha pog'onalarda tayyorlanayotgan kadrlar raqobatbardoshliligi va kadrlar tayyorlashning sifati etib belgilanishi lozim. **Ya'ni bugungi kun boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi, kelajak pedagogi quyidagilar asosida shakllanishi muhim.**

–ilm–fan va amaliyotning o'zviy bog'langanligi;

– ilm-fan, pedtexnologiya, innovatsiya va integratsiya borasidagi erishilgan eng so'nggi yutuqlarga asoslanib ishlab chiqilgan kasbiy ta'lim dasturlari hamda ta'lim muassasalari turlarining rang–barangligi;

– ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv–uslubiy adabiyotlari xamda moddiy–texnikaviy bazasi bilan ta'minlanganligi;

– professional ta'lim tizimiga yuqori malakali o'qituvchilar va mutaxassislarni jalb qilinganligi;

–ta'lim jarayonining informatsiyalashtirilganligi va kompyuterlashtirilganligi;

– kadrlar tayorlash sifatini xolisona baholash va nazorat qilish tizimining qo'llanilganligi;

– intellektni o'lchash va baholash, qobiliyat va shaxsiy sifatlarni o'lchash va baholash, ularning o'sishi muammolari bo'yicha, shuningdek kasbga yo'naltirish muammolari bo'yicha psixologik–pedagogik izlanishlar, tadqiqot ishlarining bajarilganligi bilan belgilanadi.

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishini bitiruvchi bakalavrlarning kasbiy tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan umumiy talablar:

• Ilmiy dunyoqarash bilan bog'lik tizimli bilimlarga ega bo'lishi; gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar asoslarini, joriy davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy muammolar , konflektlar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olishi;

• Vatanimiz tarixini bilishi, ma'naniy,milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o'z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqlol g'oyasiga asoslangan faol xayotiy nuqtai iazarga ega bo'lishi;

• tabiat va jamiyatda kechayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lishi, tabiat va jamiyat rivojlanishi haqidagi bilimlarni egallashi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asoslarda hayotda va o'z kasb faoliyatida foydalana bilishi;

• insonning boshqa insonga, jamiyatga va atrof muhitga munosabatini belgilovchi huquqiy hamda ma'naviy mezonlarni bilishi, kasb faoliyatida ularni hisobga ola bilishi;

• axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, o'z kasb faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;

• tegishli bakalavriat yo'nalishi bo'yicha raqobotbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi,

• yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;

• sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida ilmiy tassavvur hamda e'tiqodga, o'zini jismoniy chiniqtirish uquv va ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.

Boshlang'ich talim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy faoliyatlariga qo'yiladigan malaka talablari quyidagicha:

1. Pedagogik faoliyatida:

-ta'lim mazmunini belgilash tamoyillari va mezonlariga rioya etish, o'quv materiallarini tanlash va tizimlashtirishga doir zamonaviy yondashuvlarni hisobga olish, o'quv materiallarini modellashtirish;

-yaxlit pedagogik jarayonning umumiy qonun, qonuniyat va tamoyillariga amal qilish, ta'lim-tarbiya jarayonida gnoseologik, tashkiliy, psixologik, didaktik, sotsiologik va kibernetik qonunnyatlarning uyg'unligiga erishish;

-ta'lim-tarbiya jarayoni tarkibiy qismlari (maqsad, natija,

mazmun, shakl, metod va vositalar)ning o'zaro aloqadorligi va umumiyligini hisobga olish;

-ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning asosiy va yordamchi shakllaridan unumli foydalanish; o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini samarali tashkil etish va o'tkazish;

-ta'lim-tarbiyaning xilma-xil metodlarini, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni oqilona tanlay olish, ijodiy yondashuv asosida metod va texnologiyalarning milliy mentalitetga mosligini ta'minlash qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

2. Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

-ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda talim yo'nalishlaridagi fanlar va ularni o'qitish metodikasiga oid mavzularda tadqiqot olib borish;

-internet tarmog'ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagn ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;

-ta'lim yo'nalishlaridagi fanlarga oid ilmiy to'plamlar, mahalliy va chet el ilmiy-tadqiqot yutuqlarini o'rganish;

-ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;

-ma'lumotlarni jamlash, qayta tayyorlash, mavzu bo'yicha ilmiy ma'lumotlarni tizimli tahlil qilish;

-tadqiqot natijalari va ishlanmalarni tatbiq etish qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

3. Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatida:

-ma'naviy-ma'rifiy ishlarni rejalashtira olishi, uni tashkil etish metodikasini egallash, o'quvchilar ongiga milliy istiqlol g'oyasini singdirish;

-o'quvchilarda mafkuraviy va axborot xurujlariga qarshi immunitetni yuzaga keltirish metod va texnologiyalarini bilishi;

-globallashuv sharoitida kechayotgan jarayonlarda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni va ta'siri haqida tushuntirish ishlarini olib borish;

-mahallalarda ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha

individual suhbat o'tkazish;

-milliy urf-odat va marosimlarni o'tkazishda, umuminsoniy qadriyatlar, mehr-muruvvat, bag'rikenglik, vatanparvarlik, sadoqat kabi yuksak insoniy fazilatlarni ochib berish qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

4. Tashkiliy-boshqaruv faoliyatda:

-pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalangan holda ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish;

-atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;

-jamoada ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va boshqarish;

-fikrlar har xil bo'lgan sharoitda to'g'ri qaror qabul qilish;

-bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishning natijalarini baholash qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

Kadrlar hayotiy tsiklining **uchta asosiy bosqichida**, ya'ni ularning malakasi yuqori bo'lishini ta'minlashda kompleks yondoshishi "Milliy dastur" strategiyasining negizida yotadi.

Birinchi bosqichda kadrlarga bo'lgan extiyoj diagnoz qilinadi. Shaxs, jamiyat va rivojlanayotgan davlatning kelajagi extiyojlaridan kelib chiqqan xolda muayyan talablar aniqlanadi. Bunda oldindan aniqlanuvchi ildam malaka saviyasi o'rganiladi.

Ikkinchi bosqichda kadrlar tayyorlash amalga oshiriladi. Bunda o'rnatilgan malaka saviyasi ta'minlanadi. Kerakli dasturlar va metodik ta'minot boyitiladi.

Uchinchi bosqichda kadrlardan kasbiy faoliyati doirasida foydalanish bilan bog'lik bosqichda ta'minlangan malaka saviyasi qo'shimcha kasbiy ta'lim (yoki o'zi mustaqil bilim olish) , o'z ustida ishlash imkoniyatlardan oqilona foydalanishi va yangiliklar asosida pedagogic imkoniyatlarini kengaytirib borishi kerak bo'ladi.

Kadrlarning tasnifiy tavsifi, davlat ta'lim standartlari, me'yorlar, ta'lim mazmunini, moddiy texnika bazasini, moliyalashtirishni, professor–o'qituvchilar tarkibini, ta'lim muassasasining o'quv–ilmiy–ishlab–chiqarish va boshqa faoliyatlarini aniqlovchi Nizomlar va boshqa hujjatlar Milliy dastur markaziy strategiyasining huquqiy-me'yoriy bazasi bo'lib hisoblanadi.

Yuqoridagi dolzarb vazifalarni hisobga olgan xolda ushbu ma'ruzalar matni universitetning boshlang'ich ta'lim fakulteti Boshlang'ich ta'limy o'nalishi talabalari uchun 30 soatli ma'ruza, 30 soatli amaliy mashg'ulot, 180 soatli mustaqil ta'lim shaklida majburiy fan sifatida 1–kursda o'tilishi lozim bo'lgan "Mutahassislikka kirish" fani bo'yicha tayyorlandi.

Mutahassislikka kirish fani o'quv yurtlarining qisqacha taraqqiyot tarixi, ularning tuzilishi va vazifalari, o'quv jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, o'qitish jarayonining asosiy shakllari, o'quv rejasining mazmuni, ilmiy–tekshirish ishlari, o'qish va ilmiy ishlarni bajarishda texnika vositalaridan foydalanish, talabalarning huquq va burchlari, kundalik ish rejimi va mustaqil ishlashni to'g'ri tashkil etish, kitob ustida ishlash, tabiat muhofazasi, bibliografiya texnikasi kabilarni talabalarga tanishtiradi.

Talabalar kurs materiallarini o'zlashtirish uchun nimalar qilishlari lozimligi, o'zlashtirishni hisobga olish, talabalarni oraliq, joriy, yakuniy nazorat va reyting ishlariga tayyorlash, hamda ularni kredit modul bilan tanishtirish, talabalar o'quv–tadqiqot va ilmiy – tekshirish ishlarining asosiy mazmuni, ularning turmushi, madaniyati va dam olishini tashkil etish, o'quv – mehnat va turmush nafosati kabi sohalarga ham "Mutahassislikka kirish" fanida alohida o'rin ajratiladi.

Olinayotgan bilimlar talabalarning ongiga to'la singib borishi, bo'lajak mutahassislarning hayotiy maqsadlalariga aylanishi kerak bo'lgan asosiy masaladir.

"Mutahassislikka kirish" fanining maqsadi talabalarda

pegagogning faoliyati, pedagogik jarayonlar haqida ko'nikma hosil qilishdan iboratdir.

Mutaxassis – bu mohir tashkilotchi, darsni ilmiy asosda tashkil qilish masalasini amalga oshira oladigan kreativ pedagog hisoblanadi. U bolalar, ota -onalar bilan ishlaydi, jamiyatni boshqaradi, jamoa tajribasiga tayanib ish ko'radi, o'z xamkasblarining maslahatiga quloq soladi, qo'lga kiritilgan yutuqlarga tanqidiy yondoshadi. Bunday kishi yuqori madaniyatli, keng mulohazali, tadbirli, o'z ishining ustasi, jamiyatning haqiqiy ziyolisidir.

O'zbekiston Respublikasi hududidagi barcha Oliy o'quv yurtlarida 1974–1975 o'quv yilidan boshlab o'quv rejalariga "Mutahassislikka kirish" mustaqil fanini kiritish haqida qaror qabul qilingan edi. Hozirgi paytda bu fan uchun 30 soatli ma'ruza, 30 soatli amaliy mashg'ulot va 180 soatli mustaqil ta'lim kursi ajratilgan. Bundan ko'zlangan maqsad talabalarni Oliy maktab hayotiga tezroq moslashtirish, uning sharoitini o'zlashtirib olishda ko'maklashish bo'lib, oqibat natijada fanlarni yaxshi o'zlashtirishlarida yordam berish, ulgurmovchiliklarning oldini olishdan iboratdir.

Pedagogik oliy o'quv yurtning asosiy rahbari rektori hisoblanadi. Uni O'zbekiston hukumati tomonidan tasdiqlanadi va tayinlanadi. Rektor oliy o'quv yurtidagi barcha jarayonga shaxsan javob beradi, oliy o'quv yurtining barcha yo'nalishidagi ishlarga rahbarlik qiladi.

O'quv metodik, ilmiy tadqiqod, xo'jalik , ma'naviyat va ma'rifat ishlari bilan oliy o'quv yurtining prorektorlari ya'ni pektorning urinbosarlari shugullanadi.

Oliy o'quv yurtining asosiy bo'limini kafedralar tashkil etadi, kafedralarni professorlar yoki dotsent lavozimidagi kafedra mudirlari boshqaradi. Kafedra o'quv metodik, ilmiy tadqiqot ishlarini bir yoki bir necha fan bo'yicha amalga oshiradi.

Har bir oliy o'quv yurti o'quv rejasiga ega o'quv rejasi asosida dasturlar tuziladi. Bu dasturlar o'rganilayotgan predmetlarning

mazmuni va o'rganish tartibini ochib beradi. O'quv reja—davlat hujjati hisoblanadi, chunki davlat standartlari asosida tuziladi, hamda har bir o'quv yilida o'rganiladigan predmetlar ketma-ketligi ko'rsatiladi.

Pedagogik oliy o'quv yurtlari dasturiy materiallarga o'zgartirishlar kiritishlari mumkin, hamda maxsus kurslar, diplom ishlari kiritishlari mumkin.

O'quv jarayoni tashkiliy va metodik shakllardan iborat bo'lib qolmasdan u keng va ko'p qirralidir. O'quv rejalari, o'quv dasturlari, dars jadvallari, sinovlar, maslahatlar, imtixonlar, joriy, oraliq, yakuniy nazoratlar, amaliyot va turli xil tajribalarni qamrab oladi. Uning har bir bo'lagi o'z mazmuni va yo'nalishiga egadir.

O'quv rejasida ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar, nazoratlar ketma- ketligi, bitiruv malakaviy ishlar, ta'til ishlarini olib borish va o'tkazishning muddatlari aniq ko'rsatiladi. O'quv rejasiga muvofiq boshlang'ich kurslarda ko'proq umumiy fanlar o'qitiladi. Yuqori kurslarda esa mutaxassislik bo'yicha ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar o'tkaziladi. O'quv rejalari hamma o'quv yurtlari uchun bir xilda emas, chunki ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib o'quv muddatini belgilashda hisobga olinadi.

Pedagogik oliy o'quv yurtlarida asosiy o'quv mashg'ulotlariga quyidagilar kiradi: ma'ruza seminar, amaliy laboratoriya mashg'ulotlari, kurs ishlari, bitiruv malakaviy ishi, konsultatsiya, reyting nazorati, yozma ishlar, mustaqil ta'lim va boshqalar kiradi. Bundan tashqari talabalarning ilmiy jamiyati yo'li bilan o'qituvchilar rahbarligida, ilmiy to'garaklarda, institut talabalarining ilmiy konferensiyalarida dokladlar, maqolalar, tezislar tayyorlash va unda ishtirok etish yo'li bilan ham chuqur bilim oladi.

Ma'ruza o'qitish jarayonining asosiy shaklidir. O'qitish jarayoni shakllari ichida ma'ruza eng asosiysi hisoblanadi. U ancha murakkab va ko'p mehnat talab qiladigan ishdir.

Ma'ruzani o'qish yuqori malakali olimlarga topshiriladi. Chunki ma'ruza kursini tayyorlash oliy maktab o'qituvchisidan katta mahoratni talab qiladi. Ma'ruza vaqtida har turli amaliy mashg'ulotlarda ham asosiy e'tibor talabalarning mustaqil fikr yuritishini rivojlantirish, bilim va malakasini rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi. Ma'ruza auditoriyada olib boriladigan dars formasidir.

Oliy maktablarda o'qitladigan ma'ruzalar darslik, qo'llanmalar va boshqa manbaalardagi materiallar qayta bayon qilib berishdan iborat bo'lib qolmasdan, balki o'qituvchining boshlang'ich ta'lim soxasi bo'yicha shaxsiy, ilmiy pedagogik, ijodiy izlanishlarini ham kreativ qobiliyatini, shuningdek amaliy faoliyat natijalarini o'zida jamlashi kerak.

Ma'ruzaga o'qituvchi va talabalar muntazam tayyorlanib boradilar, ma'ruzani qayta ishlab, to'ldirib mukammallashtirib boradi, bunda har bir o'qituvchining o'z amaliy qarashlari materiallarga shaxsiy munosabati, ilmiy umumlashtirmalari bo'ladi. Bu esa o'qituvchilardan adadabiyotlar tanlash, ulardan o'rinli foydalana olish, matbuotda paydo bo'layotgan yangi adabiyotlardan yetarli hisobga olib borish talab etiladi. Har bir o'qituvchi ma'ruzaga tayyorlanishda ushbu mavzuga taalluqli bo'lgan ko'pgina materiallarni qamrab olishga harakat qiladi. Shuningdek har bir sohaning darslik va qo'llanmalar, monografiya va ilmiy maqolalar, jurnal va gazetalar, radio va televidenie materiallaridan foydalanadi. Bu materiallari tartibga solinib, ma'lum reja asosida yozib chiqiladi.

Ma'ruza formasidagi mashg'ulotlar turli zamonaviy ko'rgazmali qurollar; kartochkalar, sxemalar, jadvallar, modellar, maketlar, haritalar, o'quv teledasturi, o'quv kinofilmlaridan foydalangan xolda olib boriladi. O'qituvchi ma'ruza o'qish bilan bir vaqtda talabalarga ba'zi vazifalarni kutubxona, labaratoriya va arxivlarda ishlash uchun beradi.

Aslini olganda talabalar o'qituvchi bilan birgalikda ma'ruzalarga tayyorlanib kelishlari kerak. Bu talabalarning

asosiy vazifasi deb qaraladi. Chunki talabalar ma'ruzani tinglaydilar va konspektlashtirib boradilar. Har bir talaba ma'ruzani yaxshi o'zlashtirib olishlari uchun quyidagi bosqichlarga rioya qilish lozim: ma'ruzani tinglashga tayyorgarlik ko'rish, ma'ruzani tinglash, uni konspeklashtirish va yozib olingan matnni o'rganish qayta ishlab chiqish.

Seminar mashg'ulotlari ma'ruza metodi orqali berilgan ma'lumotlarni umumlashtirish va mustahkamlash maqsadid' barcha ijtimoiy fanlar uchun tadbiq qilinadi. Seminar mashg'ulotlari odatda maxsus mavzuga bag'ishlangan bo'lib, uning rejasi ilgariroq e'lon qilinadi va seminar mavzusiga bog'liq adadabiyotlar ko'rsatiladi. Talabalar seminar mashg'ulotiga tayyorlanayotganlarida ko'rsatilgan adadabiyotlarni olib o'qiydilar, zarur materiallarni qonun qoidalarni atroflicha ishlab chiqib, uni bir umumiy konspekt xoliga keltiradilar. Talabalar seminarga tayyorgarlik ko'rayotganda ma'ruza yozish tavsiya etiladi.

Seminar mashg'ulotlarini aniq savollar yordamida o'tkazish o'rganilayotgan fanni ma'lum izchillikda o'zlashtirishga yordam beradi. Seminar yuzasidan savol javoblar qilingan, o'qituvchi barcha so'zga chiqqan talabalarning mulohazalari va ma'ro'zachining savollariga bergan javoblari bo'yicha o'zining fikrini aytib seminarga yakun yasaydi. Agar seminar mavzusiga doir barcha materiallar qamrab olinmagan bo'lsa, u holda ma'ruzachiga qayta ishlash tavsiya etiladi. Shundan so'ng o'qituvchi navbatdagi seminar mavzusini e'lon qilib, talabalarga ushbu mavzu bo'yicha ham tayyorgarlik ko'rib kelishlarini aytadi.

Amaliy va tajriba mashg'ulotlari-ma'ruza kursida olingan bilimlarni amalda tadbiq qilish maqsadida o'tkaziladigan dars shaqllaridan biridir. Bu ikki mashg'ulot o'zining xususiyatlariga ko'ra bir-biri bilan chanbarchas bog'liqdir. Amaliy va tajriba darslari talabaga ma'ruza jarayonida olgan bilimlarini amalda tadbiq etishda malaka hosil qiladi. Amaliy va tajriba darslari

oxirida har bir talaba vazifani bajarib bo'lgandan keyin, o'qituvchi qilingan ishlarni ko'radi.

Kurs ishlari-oliy o'quv yurtlarida oxirgi kurs talabalarini ilmiy tadqiqod ishlarini olib borish malakasini hosil qilishga, ma'lum ilmiy harakterga ega bo'lgan, qisqacha ma'ruza yozishga o'rganishga chorlaydi. Odatda kurs ishlari yozishda o'qituvchi rahbarligida mavzu tanlab olinadi va mavzuga doir reja tuziladi, rejaga asosan kurs ishi yozilib taqriz qilinadi va o'qituvchiga topshiriladi.

Bitiruv malakaviy ishlari eng yaxshi o'zlashtiruvchi va ilmiy izlanish ishlari olib borishga qobiliyati bo'lgan talabalarga beriladi. Talabalar oliy o'quv yurtini tamomlayotganlarida tanlagan mavzulari bo'yicha ilmiy tadqiqod olib boradilar. Shu mavzu bo'yicha adabiyotlarni ishlab chiqib, uning foydasini ko'rsata bilishlari, kerak. Diplom ishi professor-o'qituvchi rahbarligida yoziladi. Talabalarning ilmiy ishlari talabalar ilmiy jamiyatlari anjumanlarida, kafedrada, davlat imtixon komissiyalarida tinglanadi va muxokama qilinadi va baxolanadi.

Joriy nazorat-o'tilayotgan amaliy seminar yoki laboratoriya darslarini talaba tomonidan qanday o'zlashtirayotganini muntazam ravishda dars jarayonida baholash. Bunday baholash belgilangan tartibda o'tkazilib talabaning bilim darajasini fanning har bir mavzusi bo'yicha aniqlab borishni ko'zda tutadi.

Oraliq nazorat-fan bo'yicha o'tilgan nazariy darslarning bir necha mavzularini o'z ichiga olgan bo'lim yoki qism bo'yicha talabaning o'zlashtirish ko'rsatgichini aniqlashga qaratilgan. Bilimlar, malaka va ko'nikmalarini baholash uchun oraliq nazorat imtixonlar, testlar, sinovlar kurs va malakaviy ish shakli o'tkaziladi.

Joriy oraliq nazoratlar natijasida erishish mumkin bo'lgan maksimal reyting ballari fanga ajratilgan dars soatlari 100 % miqdoriga teng.

Yakuniy nazorat-fanning bir semestrida o'tilgan mazmuni bo'yicha talabaning o'zlashtirish ko'rsatgichini ajratilgan

ballar ko'lamida fan uchun ajratilgan reyting ballarning 30 % miqdorida reytingni aniqlash dasturlari bo'yicha aloxida o'tkaziladi, hamda oldingi baholashlarda to'plangan reyting ballarini jamlanishidir.

Mustaqil ta'lim bu- o'tilgan darslar ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar, seminar va bo'limlar yuzasidan adabiyotlarni mustaqil ravishda ishlab chiqilib, ayrim savollarga aniq javoblar topish bilan bog'liqdir. Manbalarni mustaqil mutoala qilish yo'li bilan uyilgan savollarga bir necha adabiyotlarda umumlashtirib javob topishga o'rgatib borish yaxshi natijalar beradi. Mustaqil ishlashni tashkil etishda o'qituvchilarning roli katta.

Nazotar uchu savollar:

1. Bakalavrning tayyorgarlik darajasiga qanday umumiy talablar qo'yiladi?
2. Bakalavrning kasbiy faoliyatidagi mavjud malaka talablari nimalardan iborat?
3. Pedagogik faoliyat yuritishda bakalavrning qanday qobiliyatlarga ega bo'lishi talab etiladi?
5. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni olib borishda bakalavrning qanday qobiliyatlarga ega bo'lishi talab etiladi?
6. Tashkiliy-boshqaruv faoliyatda bakalavrning qanday qobiliyatlarga ega bo'lishi talab etiladi?



2-mavzu: Talabalar hemis platformasi, kredit modul tizimi.

R e j a :

1. Kredit modul tizimi haqida tushuncha.
2. Ta'lim elementlarini o'zlashtirish natijalarini baholash.
3. Baholash turlari va mezonlari. Qayta topshirish va qayta o'qish. Apellyatsiya shartlari.

***

Tayanch tushunchalar: kredit, modul, akademik mobillik, ta'lim dasturi, transkript, kredit to'plash, ta'lim trayektoriyasi, ta'lim dasturi katalogi, o'quv yuklamasi, ta'lim elementlari

***

Kredit tizimi o'zi nima?

Kredit-modul tizimi — ta'limni tashkil etish jarayoni bo'lib, o'qitishning modul texnologiyalari jamlanmasi va kredit o'lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi. Uni bir butunlikda olib borish serqirra hamda murakkab tizimli jarayondir.

Kredit-modul tamoyilida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi: talabalarning mustaqil ishlashini ta'minlash; talabalar bilimini reyting asosida baholash.

Kredit-modul tizimining asosiy vazifalari sifatida quyidagilar e'tirof etiladi:

— o'quv jarayonlarini modul asosida tashkil qilish;
— bitta fan, kurs (kredit)ning qiymatini aniqlash;
— talabalar bilimini reyting bali asosida baholash;
— talabalarga o'zlarining o'quv rejalarini individual tarzda tuzishlariga imkon yaratish;

— ta'lim jarayonida mustaqil ta'lim olishning ulushini oshirish;

— ta'lim dasturlarining qulayligi va mehnat bozorida mutaxassisga qo'yilgan talabdan kelib chiqib o'zgartirish mumkinligi.

Yuqoridagilar dars mashg'ulotlarini nafaqat o'qitishni innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida olib borish, balki talabadan mustaqil o'qib-o'rganish, ta'limga yangicha munosabatda bo'lish, mehnat bozori talabidan kelib chiqib, zaruriy va chuqur nazariy bilimlarni egallash, amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga o'rgatishdan iboratdir. Muxtasar qilib aytganda, mazkur tizim talabaning kasbiy rivojlanishi va kamolotiga yo'naltirilgan. Ilm sohibining butun hayoti davomida bilim olishini ta'minlashga hamda mehnat bozori va zamonaviy talablarga javob bera oladigan inson kapitalini shakllantirishga qaratilgandir.

Modul — bu bir nechta fan hamda kurslar o'rganiladigan o'quv rejasining bir

qismi. U talabalarda ma'lum bir bilim va ko'nikma hosil qilish, tahliliy-mantiqiy mushohada yuritish salohiyatiga ega bo'lishiga qaratilgan bir nechta fan (kurs)lar majmui hisoblanadi. Bunda o'qituvchi o'quv jarayonini tashkil qiladi, jonli, video hamda audio ma'ruzalar o'qiydi, talabaning faoliyatini muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi. Talaba esa mavzuni mustaqil o'rganadi hamda berilgan topshiriqlarni bajaradi.

Xorijiy tajribaga ko'ra, kredit-modul tizimida o'quv jarayoni har semestrda 2 — 4 tagacha moduldan iborat bo'ladi. Modulda jamlangan fanlar osondan murakkablik sari, nazariy-usuliy fanlardan amaliy fanlarga qarab hamda mantiqiy jihatdan bir-birini o'zaro uzviy to'ldirish prinsipi asosida shakllantiriladi. Talaba mutaxassis bo'lib shakllanishi uchun nafaqat axborotga, balki ularni qayta ishlash, amaliyotga joriy qila olish malakasiga ega bo'lishi talab etiladi.

Modulga asoslangan o'quv dasturlari maxsus sxema asosida ishlab chiqiladi va quyidagilarni o'z ichiga qamrab oladi:

— o'quv maqsadi hamda vazifalarning to'liq ochib berilishi;

— talabaning fan (kurs)ni boshlashi va tugatishidan keyingi orttirishi lozim bo'ladigan malakasiga qo'yiladigan talablar;

— modul tarkibiga kirgan har bir fanning qisqacha mazmuni (sillabus), ya'ni ma'ruzalar mavzulari, seminar va amaliy mashg'ulotlarning rejasi, mustaqil ta'limni baholash uchun mo'ljallangan topshiriqlar;

— o'qitishning qisqacha bayoni: ta'lim berish usul hamda vositalari; bilimlarni baholashning usul va shakllaridan iborat.

Modul asosida o'qitish tizimida talabalar bilimi, malakasi hamda ko'nikmasini baholashda reyting baholash tizimidan foydalaniladi. Unda talabaning barcha o'quv faoliyati, ya'ni auditoriya va auditoriyadan tashqarida olgan, o'zlashtirgan bilimlari ball berish orqali baholanadi.

Kredit (credit) — talabaning alohida ta'lim yo'nalishi yoki dasturi (kurs) bo'yicha fanlarni o'qib o'rganishi va o'zlashtirishi uchun sarflangan o'quv yuklamasining (vaqtning) o'lchov birligidir.

Kredit — talabaning me'yoriy hujjat bilan belgilangan, odatda bir hafta davomida auditoriyada va mustaqil ravishda ta'lim olishi uchun ajratilgan minimal vaqt o'lchovi. Talabaga kredit ma'lum bir fandan belgilangan topshiriqlarni bajarib, yakuniy imtihondan muvaffaqiyatli o'tgandan so'ng beriladi.

Har bir talaba kelajakda tanlagan yo'nalishi va mutaxassisligi bo'yicha diplomga ega bo'lishi uchun kreditlarni yig'ib borishi lozim. To'plangan kredit talabaga butun umr davomida o'zining malakasini oshirib borish yoki qo'shimcha oliy ma'lumot olishiga xizmat qilib boraveradi. Iqtisodiy tilda aytganda, to'plangan kredit talabaning akademik "aktivi"ga aylanib boradi.

Kredit texnologiyasi ta'lim oluvchilarga ishchi o'quv rejaga kiritilgan tanlov fanlarini tanlash, bu orqali individual o'quv rejasini shakllantirishda bevosita ishtirok etish huquqini beradi. Ularga, nafaqat fanlarni, balki professor-o'qituvchilarni ham tanlash erkinligi beriladi. Talabalarga fanlarni tanlash imkoniyatining berilishi ijobiy hol sanaladi. Bu o'quv jarayonlarini baholashning o'ziga xos qiymat ko'rsatkichi bo'lib ham hisoblanadi.

Kredit ilk marotaba XVIII va XIX asrlarda AQSh universitetlarida joriy etilgan bo'lib, o'quv jarayonlarini liberalizatsiya qilish, talabaning haftalik akademik yuklamasini belgilab berish maqsadida yaratilgan.

1869-yilda Garvard universiteti prezidenti, Amerika ta'limining taniqli arbobi Charlz Uilyam Eliot "kredit soati" tushunchasini iste'molga kiritadi. Shunday qilib, 1870—1880-yillarda kredit soatlari bilan o'lchanadigan tizim joriy qilinadi. Kredit tizimi bilan o'qish va o'quv dasturlarini o'zlashtirish talabalarga o'quv jarayonini mustaqil ravishda rejalashtirish, uning sifatini nazorat qilish, ta'lim texnologiyalarini takomillashtirish uchun imkoniyat yaratib berdi.

Kredit to'plash o'lchovining kiritilishi talabaga katta erkinlik berish bilan bir qatorda, kelajakda tanlagan sohasining raqobatbardosh mutaxassisi bo'lib yetishishi uchun akademik jarayonni mustaqil rejalashtirish imkonini ham taqdim etdi. Ayni chog'da, baholash tizimi va ta'lim texnologiyalarining takomillashishiga ham olib keldi.

Bolonya deklaratsiyasida ko'zda tutilganidek, kredit-modul tizimi aynan mustaqil ta'limga urg'u qaratgani holda, asosan, ikkita funksiyani bajarishga xizmat qiladi:

— birinchisi, talabalar va o'qituvchilarning mobilligini, ya'ni bir oliy ta'lim muassasasidan boshqa OTMga to'siqlarsiz, erkin ravishda o'tishini (o'qishni yoki ishni ko'chirish)ni ta'minlaydi;

— ikkinchisi, talabaning tanlagan ta'lim yo'nalishi yoki mutaxassisligi bo'yicha barcha o'quv va ilmiy faoliyati uchun akademik yuklama — kredit aniq hisoblab boriladi. Kredit yig'indisi talabaning tanlagan dasturi bo'yicha nimani qancha o'zlashtirganligini namoyon etadi.

Bugungi kunda ta'lim tizimiga daxldor bo'lgan kishilar tomonidan Bolonya tizimi, uning ahamiyati bo'yicha turli fikr-mulohazalarni eshitib qolamiz.

Xo'sh, bu qanday tizim? Uning qanday afzalligi va salbiy jihatlari mavjud? Mavzuning mantiqiy davomi sifatida fikrlarimizni davom ettiramiz.

Ushbu tizimni yaratish uchun o'tgan asrning 70-yillaridan Yevropadagi barcha oliy ta'lim muassasalarining integratsiyasini ta'minlash, oliy ta'limning yagona standartini yaratish, talabalar va o'qituvchilar mobilligini yo'lga qo'yish, diplomlarni tan olish, talabalar bilimi, malakasi hamda ko'nikmasiga qo'yiladigan ballarni unifikatsiya qilish bilan bog'liq bir qator muammolarni yechishga qaratilgan sa'y-harakatlar boshlab yuboriladi.

Mazkur harakatlarning samarasi o'laroq, 1999-yilda Italiyaning Bolonya shahrida 29 ta mamlakat vakillari tomonidan Bolonya deklaratsiyasi imzolanadi.

Bugungi kunga kelib, Bolonya jarayonida 48 ta mamlakat ishtirok etyapti. Ularning orasida MDH mamlakatlaridan Rossiya, Ukraina, Ozarbayjon, Moldova, Armaniston, Gruziya, Qozog'iston va Belarus Respublikasi ham bor.

Bolonya tizimi bo'yicha oliy malakali kadrlarni tayyorlash ikki bosqichda amalga oshiriladi. Odatda, uch yildan kam bo'lmagan bakalavrlar tayyorlash hamda 1-2 yillik magistratura bosqichi.

Ko'pgina ekspertlar Bolonya deklaratsiyasining qabul qilinishiga salohiyatli, iqtidori yuqori bo'lgan talabalarni egallash, mehnat bozorida ularning bilimini qadrlash bo'yicha AQSh bilan kechgan raqobatda Yevropa oliy ta'lim muassasalarining imkoniyatlari cheklanganligi, ko'plab "aql

sohiblari"ning ko'hna qit'ani tark etib, Amerikaga ko'chib ketish tendensiyasiga qarshi ko'rilgan chora asosiy sabab bo'lganini e'tirof etadi.

Vazirlik nega Yevropa maktabiga ustuvorlik bermoqda?

Bugungi kunda mazkur kredit o'lchovi tizimini amaliyotga tatbiq etish bo'yicha to'rtta model keng tarqalgan.

Bular Amerika qo'shma Shtatlarining kredit tizimi (USCS);

Yevropa mamlakatlarining kredit tizimi (ECTS);

Osiyo — Tinch okeani mamlakatlarining kredit tizimi (UCTS);

Buyuk Britaniyaning kredit tizimi (CATS).

Ushbu modellarning ichida eng ko'p tarqalgani AQSh va Yevropa modellaridir. Ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimiz Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi kredit tizimini joriy etishda Yevropaning ECTS tizimidan foydalanishga ustuvorlik qaratyapti. Shu bois uning afzal jihatlari, qulayliklari, yutuq va kamchiliklari haqida ham to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Bolonya deklaratsiyasining eng muhim jihatlaridan biri oliy ta'lim muassasalarining yagona "**kredit tizimi**"dan foydalanish (ECTS)ga asoslanadi. **Kredit yoki kredit birligi** — o'quv rejasida hisobga olingan har qanday o'quv faoliyatining qiymat ko'rsatkichi hisoblanadi.

ECTS tizimi Yevropa va umuman, Bolonya jarayoni ishtirokchi mamlakatlari talabalariga katta afzalliklarni taqdim etadi.

Masalan, talaba ta'lim olayotgan universitetida egallagan akademik bilimlarini shu tizimga a'zo mamlakatlar oliy ta'lim muassasalarida tan olinishini, ya'ni o'ziga xos "konvertatsiyasi"ni kafolatlaydi. Shu bilan birga, mazkur tizim a'zolariga talabalarni boshqa OTMga o'qishini tiklash, ko'chirish va tugatish imkoniyatini beradi.

Amaldagi o'qitish tartibidan farqli o'laroq, kredit tizimida majburiy fanlardan tashqari tanlov fanlari ham talabaning

individual dars jadvaliga kiritiladi. Talabalar o'qishdan haydalmaydi yoki kursdan-kursga qoldirilmaydi. Qaysi fan (kurs)dan belgilangan kreditlarni to'play olmasa, faqat o'sha fanning o'zidan qayta imtihon topshiradi, xolos. Oliy ma'lumot to'g'risidagi diplom esa belgilangan kreditlar to'plagandan so'ng beriladi.

ECTS tizimi bo'yicha talabalarning bir yilda to'plashi lozim bo'lgan kredit miqdori 60 ni tashkil etadi. Bir o'quv yili ikki semestrdan iborat bo'ladi deb olsak, talaba har semestrda 30 kredit to'plab borishi lozim. Bakalavriat dasturi 3-4 yillik bo'lsa, talaba bakalavr darajasini qo'lga kiritishi uchun jami 180 — 240 kredit, 1-2 yillik magistratura dasturini tugallashi uchun esa, 60 — 120 kredit to'plashi majburiyat hisoblanadi.

O'zbekistonda ahvol qanday ko'rinishda edi?

Ma'lumki, bizda axborot manbai va turli xildagi xalqaro ma'lumotlar bazalariga kirish, ulardan foydalanish ma'lum darajada cheklanib qolgandi. Oqibatda, oliy ta'limda professor-o'qituvchilarning asosiy diqqati axborotni qidirib topish, uni o'zlashtirish hamda dastlabki qayta ishlagandan so'ng talabalarga tarqatishga qaratildi. Ya'ni o'qituvchilar shunchaki axborotni qabul qiluvchi va uzatuvchi subyekt edi xolos.

Bunda talaba o'quv jarayonining obyekti sifatida axborotni qabul qiluvchi vazifasini bajarar, asosiy vaqtini auditoriyada ma'ruza mashg'ulotlarini tinglashga sarflar edi. Bugungi kunga kelib esa axborotlar olamidan bahramand bo'lishning tezlashgani, xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazalaridan foydalanish imkoniyatlarining kengaygani, globallashuv jarayonlari jadallashgani bois talabalarning mustaqil ta'limini rivojlantirish masalasi kun tartibiga ko'tarildi.

Ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklar o'quv rejalari esa mehnat bozori talabi bilan bog'lanmagan fanlar bilan to'ldirilar, asosan, professor-o'qituvchini ish bilan ta'minlash, unga auditoriya soatini chiqarib berish prinsipi nuqtayi nazaridan, shuningdek, kafedra mudirlarining o'zaro kelishgan holda

fanlarni taqsimlash asosida shakllantirilar edi.

Talabaga fanlarni hamda professor-o'qituvchilarni tanlash u yoqda tursin, zerikarli bo'lgan mashg'ulotlardan voz kechib, kutubxonada o'qib-o'rganishiga ham imkon berilmas edi. Talabaning dars mashg'ulotlarini qoldirishiga jiddiy talafot sifatida qaralib, bir semestrda 30 soatdan oshsa ogohlantirish, 74 soatdan oshsa, talabalik safidan chiqarishgacha borilardi. Talabaga ushbu fan va o'qituvchi yoqadimi-yoqmaydimi, berilayotgan bilimlar almisoqdan qolib ketganmi-ketmaganmi, auditoriyada o'tirishi shart edi.

Xullas, an'anaviy tizimda talaba kelajakda qanday bilimlarni egallashi, qanaqa professor-o'qituvchilar dars berishi, yo'nalish profili, fanlarning qisqacha mazmuni bo'yicha hech qanday material taqdim etilmasdi.

Vaholanki, rivojlangan xorijiy davlatlarning barcha OTMda ta'lim yo'nalishi va mutaxassisliklar to'g'risidagi hamma ma'lumotlar, xususan, o'quv rejasida aks etgan fanlarning qisqacha sillabusi (fanning identifikatsiyasi, professor-o'qituvchi haqida ma'lumot, dars tavsifi, fanning maqsadi, o'rganish natijalari, o'qitish metodikasi, fanning rejalari, adabiyotlar, baholash metodikasi), fanlar kesimida dars mashg'ulotlarini olib boradigan professor-o'qituvchilar hamda ularning erishgan yutuqlari, mehnat bozorida mutaxassisga qo'yilgan qisqacha talablar, ya'ni qanday nazariy, amaliy bilim, ko'nikma va kasbiy malakaga ega bo'lishi bilan bog'liq ma'lumotlar universitetlarning rasmiy veb- saytida ochiq-oydin e'lon qilingan bo'ladi. Ayni paytda, ming afsuski, abituriyentlar universitetlarimiz saytlarida ushbu ma'lumotlarni topishga qiynalishadi. Bu bo'yicha ham madaniyatni shakllantirish vaqti esa allaqachon kelgan.

Yangi tizimga o'tilsa, qanday o'zgarishlar sodir bo'ladi?

Mazkur tizimning oliy ta'limga joriy qilinishi o'qitish sifatini oshirish, shaffoflikni ta'minlash, korrupsiyaga barham berish, ta'lim oluvchining haqiqiy bilimini yuzaga chiqarish hamda

talabaning mustaqil o'qib-o'rganib, o'z ustida ishlashiga zamin yaratadi. Bugungi kunda Yevropa kredit tizimi ko'hna qit'aning deyarli barcha oliy o'quv yurtida amaliyotga joriy etilgan.

Kredit-modul tizimining joriy etilishi o'qituvchi va talabaning hamkorlikda ishlashida muhim omil hisoblanadi. Modulli ta'limda pedagog tinglovchining o'zlashtirish jarayonini tashkil etadi, boshqaradi, maslahat beradi, tekshiradi. Talaba esa yo'naltirilgan obyekt tomon mustaqil harakat qiladi. Eng katta urg'u ham talabalarning mustaqil ta'lim olishiga qaratiladi.

Nazotar uchu savollar:

1. Kredit modul tizimining kelib chiqish nazariy va tarixiy asoslari qanday shakllandi ?
2. Kredit modul tizimi nima va uning afzalliklari nimalardan iborat?
3. Kredit-modul tizimining asosiy vazifalarini yoritib bering?
4. Oldingi ta'lim tizimi va kredit- modul tizimining ahamiyatini misollar yordamida asoslab bering?
5. Yangi tizim qanday qulayliklarni taqdim etdi?

3-mavzu: Boshlang'ich ta'lim bakalavrlarining kasbiy faoliyat turlari. O'qituvchilik kasbi, uning huquqiy, demokratik jamiyatdagi o'rni.

Reja

1. Malaka talabi – boshlang'ich sinf o'qituvchisini kasbiy faoliyatga tayyorlashning huquqiy-me'yoriy asosi
2. Malaka talabidan foydalanish huquqi
3. Ta'lim yo'nalishi bakalavrlarining kasbiy faoliyat sohalari
4. Pedagogik qobiliyat va o'qituvchining jamiyatdagi o'rni

***

Tayanch tushunchalar: mahorat, kompetensiya, akademik mobillik, ta'lim dasturi, ta'lim dasturi, o'quv yuklamasi, ta'lim elementlari,

***

Boshlang'ich ta'lim bakalavr ta'lim yo'nalishida tahsil olib, mazkur malaka talabi asosida amalga oshiriladigan o'quv reja va fan dasturlarining nazariy va amaliy mashg'ulotlarini to'liq o'zlashtirgan, yakuniy davlat attestatsiyasidan muvaffaqiyatli o'tgan shaxsga «bakalavr» malaka (daraja)si hamda oliy ma'lumot to'g'risidagi davlat namunasidagi rasmiy xujjat(lar) beriladi.

Oliy ma'lumotli bakalavrlar tayyorlash jarayonida oliy ta'limning ushbu (*Boshlang'ich ta'lim* yo'nalishi bo'yicha) malaka talabi o'quv reja va fan dasturlarining o'zlashtirilishini

amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi xududidagi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

Oliy ta'lim muassasasi mazkur bakalavriat ta'lim yunalishi bo'yicha kadrlar tayyorlash vakolatiga ega bo'lganda malaka talablari asosida o'kuv reja va fan dasturlarini amalga oshirish huquqiga ega deb hisoblanadi.

Malaka talabidan quyidagi shaxslar foydalanish huquqiga egalar:

- mazkur ta'lim yunalishi bo'yicha fan, texnika va ijtimoiy soha yutuqlarini hisobga olgan holda o'quv reja va fan dasturlarini sifatli ishlab chiqish, samarali amalga oshirish va yangilash uchun mas'ul oliy ta'lim muassasalarining *professor-o'qituvchilari*;
- ta'lim yo'nalishiniig o'quv reja va fan dasturlarini o'zlashtirish bo'yicha o'quv-tarbiya faoliyatini samarali amalga oshiruvchi *barcha xodimlar* va *talabalar*;
- o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (*rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari*);
- bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi *Davlat attestatsiya va imtihon komissiyalari*;
- oliy ta'lim muassasasini moliyalashtirishni ta'minlovchi *organlar*;
- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli *Davlat organlari*;
- ta'lim yo'nalishi (tarkibi)ning bakalavriat talim yo'nalishlaridan birini ixtiyoriy tanlash huquqiga ega bo'lgan *abiturientlar* va boshqa manfaatdorlar.

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari:

- Boshlang'ich ta'lim va bakalavriat ta'lim yo'nalishi – *maktabgacha ta'lim muassasalari, umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari*

uchun bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha pedagogik kadrlar tayyorlash jarayonida foydalaniladigan fanlar, pedagogik faoliyat vositalari, usullari, metodlari;

- O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi xamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida hamda mustaqil tadqiqotchi sifatida *ilmiy-pedagogik tadqiqot ishlari bilan shug'ullanish*;

- *ommaviy axborot vositalari, davlat boshkaruvi organlari, boshqa davlat va nodavlat muassasalarida kasbiy faoliyat yuritish* kabi kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

***Boshlang'ich ta'lim* yo'nalishini bitirgan bakalavrlar quyidagi kasbiy faoliyat turlari bilan shug'ullanish vakolatiga ega bo'ladilar:**

- umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida *"Ona tili", "O'qish savodxonligi", "Matematika", "Texnologiya", "Tabiiy fan", "Tasviriy san`at", "Tarbiya", o'rta maxsus fanlaridan o'rnatilgan tartibda dars berish;*

- *umumiy o'rta ta'lim maktablari, ixtisoslashtirilgan maktab, maktabdan tashqari muassasalarida o'qituvchi (tashkilotchi) bo'lib ishlash;*

- *ta'lim tizimida kabinet mudiri, laborant va unga tenglashtirilgan lavozimlarda ishlash;*

- *mos ta'lim yo'nalishlar bo'yicha ta'limni amalga oshiruvchi vazirliklar, uning tarmoq boshqarmalari va muassasalarida metodist bo'lib ishlash;*

- *ilmiy-tadqiqot tashkilotlarida kichik ilmiy xodim bo'lib ishlash;*

- *mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari hamda joylardagi ma'naviyat va ma'rifat markazlarida ishlash;*

- *boshlang'ich ta'lim pedagogikasi va texnologiyasi, o'qitishning didaktik vositalarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.*

Demak, ushbu ta'lim yo'nalishini bitirgan bakalavrlar quyidagi kasbiy faoliyat turlari bilan shug'ullanish

imkoniyatiga egalar:



• ***Bakalavrning kasbiy faoliyatiga qo'yiladigan umumiy talablar:***

- dunyoqarash bilan bog'liq tizimli bilimlarga ega bo'lishi;

-gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar asoslarini, joriy davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olishi;

- Vatan tarixini bilishi, ma'naniy milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o'z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqlol g'oyasiga asoslangan faol xayotiy nuqtai nazarga ega bo'lishi;

- tabiat va jamiyatda kechayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lishi, tabiat va jamiyat rivojlanishi haqidagi bilimlarni egallashi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asoslarda hayotda va o'z kasb faoliyatida foydalana bilishi;

- insonning boshqa insonga, jamiyatga va atrof muhitga munosabatini belgilovchi huquqiy hamda ma'naviy mezonlarni bilishi, kasb faoliyatida ularni hisobga ola bilishi;

- axborot yig'ish, saqlash, kayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, o'z kasb faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;

- tegishli bakalavriat yo'nalishi bo'yicha raqobotbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;

- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida ilmiy tassavvur hamda e'tiqodga, o'zini jismoniy chiniqtirish o'quv va ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.

Prezidentimizning tegishli farmoniga asosan 2023/2024 o'quv yilidan boshlab pedagogik kasblarga birinchi marta ishga qabul qilinadigan oliy ma'lumotli talabgorlar stajor-o'qituvchi sifatida faoliyat yuritishi belgilangan.

Shu munosabat bilan Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan stajor-o'qituvchilarni ishga qabul qilish bo'yicha tegishli ko'rsatma ishlab chiqildi.

Unga ko'ra, ilk bor ishga qabul qilingan stajor-o'qituvchilardan ishga qabul qilingan vaqtdan boshlab bir yil muddat davomida kasbiy sertifikatga ega bo'lishi talab etiladi.

Stajor-o'qituvchilarga ular kasbiy sertifikat olguniga qadar oliy ma'lumotli (toifasiz) o'qituvchining bazaviy tarif stavkasi qo'llaniladi.

"O'qituvchi-stajor" bilan Mehnat kodeksining 104-moddasida muvofiq mehnat shartnomasiga kiritilishi shart bo'lgan holatlar, jumladan o'qituvchi-stajorlarning bir yil davomida kasbiy sertifikat olishi majburiyati ko'rsatilgan holda mehnat shartnomasi tuziladi.

Shu munosabat bilan, vazirlikning 2023 yil 9 avgustdagi tegishli xati bilan o'qituvchi-stajorlarni ishga qabul qilish jarayonini mazkur ko'rsatmalarga muvofiq amalga oshirish vazifalari yuklatildi.

Eslatib o'tamiz, farmonga ko'ra, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga 2023 yil 1 noyabrga qadar umumiy o'rta ta'lim muassasalarida faoliyat yuritadigan pedagog kadrlarni kasbiy sertifikatlash sinovlaridan o'tkazish tartibini belgilovchi Hukumat qarori loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish hamda 2024 yil 1yanvardan boshlab tizimni amaliyotga joriy etish topshirilgan.

Biror kasbning haqiqiy ustasi bo'lish uchun kishida tabiiy qobiliyat, ma'lum jismoniy va ruhiy xislatlar jo bo'lishi zarur. Masalan xonanda bo'lish uchun tabiiy ovoz, eshitish qobiliyati, bejirim suvrat, jismonan sog'lom bo'lish talab etiladi. Rahbarlik vazifasini bajarish uchun tashkilotchilik, odamlar bilan muomala-murosa qila bilish kabi qobiliyatlarga ega bo'lish kerak.

Pedagogik, o'qituvchilik faoliyatini, yoshlarni o'qitish va tarbiyalash ishini samarali bajarish, ota-onalar va bolalarning izzat-hurmatiga sazovor bo'lish uchun kishida bu ishda kishiga layoqat, qobiliyat, qiziqish bo'lmog'i lozim. Boshqa kasblar kabi o'qituvchilik kasbiga yoshlar orasidan pedagogik faoliyatga layoqatli, bolalar bilan til topib muomala qila oladigan, ilmli kishilarni tanlab olish kerak.

Pedagogik faoliyat

Pedagogik faoliyat yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun xalq oldida, davlat oldida javob beradigan, bolalarga ta'lim-tarbiya berishga maxsus tayyorlangan odamlarning mehnat faoliyatidir. Maktab o'qituvchilarining faoliyati inson shaxsini shakllantirishga qaratilgan.

Har bir bola o'z xulq-atvoriga, xarakteriga ega. Bolalarni tarbiyalashda ularning ana shu o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, o'rganish nihoyatda murakkab. Bunda odamlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni o'zida aks ettiruvchi maxsus usullardan foydalaniladi. Pedagogik faoliyatga tayyorgarlik ko'rayotgan yoshlar uning ana shunday xususiyatlarini bilishlari lozim. O'qituvchilik ixtisosining bu xususiyatlari uning professiogrammasida ifodalanadi

PEDAGOGIK QOBILIYAT VA O'QITUVCHINING JAMIYATDAGI O'RNI

Qobiliyat faoliyat jarayonida paydo bo'ladi va rivojlanadi. Qobiliyat malaka va uddaburonlikdan farq qiladi. Malaka va uddaburonlik mashq, o'qish natijasi takomillashsa, qobiliyatning

rivojlanishi uchun esa yana iste'dod, layoqat va zehn, ya'ni inson nerv tizimida anatomo-fiziologik xususiyat bo'lishi ham zarur. Ana shu tabiiy zaminda qobiliyat deb ataluvchi ruhiy xususiyat taraqqiy etadi. Pedagogik faoliyatning samarali bo'lishi uchun o'qituvchida qobiliyatning quyidagi turlari mavjud bo'lmog'i va tarbiyalab etishtirilmog'i lozim.

1. Bilish qobiliyati-fanning tegishli sohalariga oid (matematika, tabiiy fan, biologiya, adabiyot va hokazolarga doir) qobiliyatdir. Bunday qobiliyatga ega bo'lgan o'qituvchi fanni o'quv kursi hajmida emas, balki ancha keng va chuqurroq biladi, o'z fani sohasidagi kashfiyotlarni hamisha kuzatib boradi, materialni ipidan ignasigacha biladi, unga nihoyatda qiziqadi, oddiy tadqiqot ishlarini ham bajaradi.

2. Tushuntira olish qobiliyati-o'quv materiallarini o'quvchilarga tushunarli qilib baèn eta olish, o'quvchilarda mustaqil ravishda faol fikrlashga qiziqish uyg'otish qobiliyatidir. O'qituvchi zarur hollarda o'quv materialini o'zgartira olishi, qiyin narsani oson, murakkab narsani oddiy, noaniq narsani tushunarli qilib o'quvchilarga etkaza olishi darkor. O'quvchilar ruhiyatini hisobga olish zarur. Qobiliyatli pedagog o'quvchilarning bilim va kamolot darajasini hisobga oladi, ularning nimani bilishlari, hali nimani bilmasliklarini, nimani unutib qo'yganliklarini tasavvur etadi.

3. Kuzatuvchanlik qobiliyati - o'quvchining, tarbiyalanuvchining ichki dunèsiga kira olish qobiliyati, o'quvchi shaxsi va uning vaqtinchalik ruhiy holatlarini juda yaxshi tushuna bilish bilan bog'liq bo'lgan psixologik kuzatuvchanlikdir. Bunday o'qituvchi o'quvchining ruhiyatidagi ko'z ilg'amas o'zgarishlarni ham fahmlab oladi. O'quvchilar bunday o'qituvchi haqida: «Qaramaètganga o'xshaydi-yu, hamma narsani ko'rib turadi!», «O'quvchining xafa bo'lganligini èki dars tayèrlamaètganligini ko'zidan biladi!», deydilar.

4. Nutq qobiliyati-nutq yordamida shuningdek, imo-ishora vositasida o'z fikr va tuyg'ularini aniq va ravshan

ifodalash qobiliyati. Bu o'qituvchilik kasbi uchun juda muhimdir. O'qituvchining nutqi darsda hamisha o'quvchilarga qaratilgan bo'ladi. O'qituvchi yangi saboqni tushuntirayotgan, o'quvchining javobini tahlil qilayotgan èki tanqid qilayotgan bo'lsa ham uning nutqi hamisha o'zining ichki kuchi, ishonchi, o'zi gapirayotgan narsaga qiziqqanligi bilan ajralib turadi. Fikrning ifodasi o'quvchilar uchun sodda, tushunarli bo'ladi. O'qituvchining nutqi aniq, jonli, obrazli, talaffuzi jihatdan yorqin, ifodali, his-hayajonli bo'lib, unda stilistik, grammatik, fonetik nuqsonlar uchramasligi lozim. Bir xildagi cho'ziq, sekiktiradigan nutq o'quvchilarni juda tez charchatadi, ularni lanj, loqayd qilib qo'yadi. Ayrim o'quvchilar tez gapirishga, boshqasi sekin gapirishga moyil bo'ladilar. Biroq o'quvchilarning o'zlashtirishlari uchun o'rtacha, jonli nutq yaxshi natija berishini esdan chiqarmaslik lozim. Shoshqaloqlik saboqni o'zlashtirishga xalaqit beradi va bolalarni tez charchatib qo'yadi. Haddan tashqari keskin va baqiroq nutq o'quvchilarning asabini buzadi, toliqtirib qo'yadi.

5. Obro' orttira olish qobiliyati-o'quvchilarga bevosita emotsional-irodaviy ta'sir ko'rsatish va shu asosda emas, balki o'qituvchining fanni yaxshi bilishi, mehribonligi, nazokatliligi va hokazolar asosida ham qozoniladi. Bu qobiliyat o'quvchi shaxsiy sifatlarining butun bir yig'indisiga, chunonchi uning irodaviy sifatlariga (dadilligi, chidamliligi, qat'iyligi, talabchanligi va hokazolarga), shuningdek, o'quvchilarga ta'lim hamda tarbiya berish mas'uliyatini his etishga, o'zining haq ekanligiga ishonishga, bu ishonchni o'quvchilarga etkaza olish kabilarga ham bog'liq. O'quvchilar qo'pollik qilmaydigan, qo'rqitmaydigan, to'g'ri talab qo'ya oladigan o'qituvchini juda hurmat qiladilar.O'qituvchining bo'shangligi, laqmaligi, sabotsizligi va irodasizligini èqtirmaydilar.

Boshlang'ich ta'lim: uzluksiz ta'limning qonun-qoidalari, oila, maktab, mahalla hamkorligida foydalana olish, ingegratsiyalashgan ta'limni amalga oshirishi, sog'lom avlodni

shakllanitirishni bilish va uni amaliyotda qo'llay olish, ta'lim texnologiyasini bilishi, boshlang'ich ta'lim ixtisosligi bo'yicha ilmiy-tadqiqot jarayonlari masalalarni kamrab oladi.

Nazotar uchun savollar:

1. Kimlar bakalavr malaka talabidan foydalanish huquqiga egalar?
2. Boshlang'ich ta'lim yo'nalishini bitirgan bakalavrlar kasbiy faoliyat turlari qanday yo'nalishlarni o'z ichiga oladi?
3. Boshlang'ich ta'lim yo'nalishini bitirgan bakalavrlar o'z kasbiy faoliyatlarida qanday vakolatlarga egalar?
4. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari umumiy o'rta ta'lim maktablarida qanday o'quv fanlaridan dars berish huquqiga ega bo'ladilar?
5. Ushbu ta'lim yo'nalishini bitirgan bakalavrlar ixtisoslashtirilgan maktab, kasb-hunar kollejlari va maktabdan tashqari muassasalarda o'qituvchi yoki tashkilotchi bo'lib ishlash huquqiga egami?



4-mavzu: Fanlarni o'rganishda adabiyotlar bilan ishlash, adabiyotlarni tahlil etish va ular bilan mustaqil ishlash texnologiyalarini o'zlashtirish

Reja:

1. Adabiyotlar bilan ishlash
2. O'quv adabiyotlarining turlari
3. Elektron darslik va undan foydalanish jarayonidagi asosiy tushunchalar
4. Elektron darsliklarning o'ziga xos xususiyatlari va afzalliklari

***

Tayanch tushunchalar: ananaviy, elektron, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, darslik, o'quv qo'llanma, elektron darslik, elektron o'quv qo'llanma.

***

Barcha sohalarda bo'lgani kabi ta'lim tizimida ham ilm-fan taraqqiyoti natijalari, shuningdek, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalarining joriy qilinishi turli fan sohalarida bilimlarning tez yangilanib borishiga olib kelmoqda. Ta'lim oluvchilar axborot miqdori oshib borayotgan bugungi kunda yangi bilimlarni tezda o'zlashtirib olishlari uchun o'quv adabiyotlarining turli shakllaridan foydalanishlari talab etiladi. O'quv adabiyotlarining mazmuni ta'lim oluvchilarda mustaqil va erkin fikrlash, olingan bilimlarni takomillashtirish, yangi bilimlarni turli o'quv adabiyotlaridan izlab topish

ko'nikmalarini hosil qilishni ta'minlashi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 30 maydagi Farmoniga asosan, Vazirlar Mahkamasining "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2002 yil 6 iyunda Qaror qabul qilingan edi. Unda ta'lim sifatini oshirish maqsadida ta'lim standartlariga muvofiq elektron o'qitish bazasini yaratish vazifasi yuklatilgan.

O'quv adabiyotlari muayan ta'lim turi o'quv rejasida qayd etilgan fanlar bo'yicha tegishli o'quv dasturlari asosida zarur bilimlar majmuasi keltirilgan, o'zlashtirish uslublari va didaktikasi yoritilgan manba bo'lib, ikki shaklada tayyorlanadi:

- an'anaviy (bosma) o'quv adabiyotlari
- elektron o'quv adabiyotlari.

An'anaviy (bosma) o'quv adabiyotlari – ta'limoluvchilarning yoshi va psixo-fiziologik xususiyatlari, ma'lumotlar hajmi, shriftlari, qog'oz sifati, muqova turi va boshqa ko'rsatkichlarni hisobga olgan qog'ozda chop etiladigan manbadir.

Elektron o'quv adabiyotlari – zamonaviy axborot texnologiyalari asosida ma'lumotlarni jamlash, tasvirlash, yangilash, saqlash, bilimlarni interaktiv usulda taqdim etish va nazorat qilish imkoniyatlariga ega bo'lgan manbadir.



Darslik-o'quv fani, uning biror yo'nalishi yoki tarkibiy qismining davlat standartlariga va o'quv dasturiga mos holda, yuqori ta'lim muassasalari tomonidan tasdiqlangan sistemali ravishda bayon etilgan o'quv maxsulotidir.

Elektrondarslik-yangiaxborot-kompyutertexnologiyalari asosida va yuqori ilmiy va metodologik darajada yaratilgan Davlat ta'lim standarti mutaxassisliklari va yo'nalishlarining mayyan o'quv fani (yoki bir necha fan)ga to'la mos kelgan asosiy o'quv elektron maxsuloti hisoblanadi.

O'quv qo'llanma - darslikni qisman yoki to'la o'rnini bosuvchi, yoki to'ldiruvchi va qo'llanma sifatida ta'lim muassasalari tomonidan tasdiqlangan mahsulotdir.

Elektron o'quv qo'llanma - darslikni qisman yoki to'la

o'rnini bosuvchi, yoki to'ldiruvchi va qo'llanma sifatida ta'lim muassasalari tomonidan tasdiqlangan elektron maxsulot hisoblanadi.

Elektron darsliklarni yaratish texnologiyalari kursining maqsadi talabalarga elektron darsliklar yaratish jarayoni haqida ma'lumot berishdan iborat bo'lib, unda elektron darsliklar yaratish tartibi, talablari, tashkil etuvchilari va yaratishda qo'llaniladigan dasturiy vositalar va ulardan foydalanish malakalari takomillashtiriladi.

Elektron darsliklar va ulardan foydalanishning afzalliklarini ajratish;

- ·Elektron darsliklar yaratish tartibi va unga qo'yiladigan talablar mazmuni bilan tanishtirish;
- Elektron darsliklar yaratishda zamonaviy telekommunikatsiya va multimedia vositalarining o'rnini aniqlash;
- Elektron darsliklar yaratishda foydalaniladigan dasturiy vositalar tarkibi va ulardan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish;
- Elektron darsliklardan o'quv jarayonida samarali foydalanish metodikasi mazmunini tanishtirish.

Uzluksiz ta'lim tizimida fan va texnologiyalarning rivojlangani sari mazmuni tez o'zgaruvchan, chuqurlashtirilib o'qitiladigan umumkasbiy va maxsus fanlar bo'yicha elektron o'quv adabiyotlarini tayyorlash o'qitish jarayonida yaxshi samara beradi.

Elektron o'quv adabiyotlari bilim oluvchilarning tasavvurini kengaytirishga, dastlabki bilimlarini rivojlantirishga va qo'shimcha ma'lumotlar bilan ta'minlashga yo'naltirilgan bo'ladi.

Elektron o'quv adabiyotlari eng asosiy vakili elektron darslik hisoblanadi. Elektron darslik

– kompyuter texnologiyasiga asoslangan o'quv uslubini qo'llashga, mustaqil ta'lim olishga hamda fanga oid o'quv

materiallar, ilmiy ma'lumotlarning har tomonlama samarador o'zlashtirilishiga mo'ljallangan bo'lib:

- o'quv va ilmiy materiallar faqat verbal (matn) shaklda;
- o'quv materiallar verbal (matn) va ikki o'lchamli grafik shaklda;
- multimedia (multimedia- ko'p axborotli muhit) qo'llanmalar, ya'ni ma'lumot uch o'lchamli grafik ko'rinishida, ovozli, video, animatsiya va qisman verbal (matn) shaklda;
- taktil (his qilinuvchi, seziluvchan) xususiyatga ega, ta'lim oluvchini kompyuter ekrani olamida o'zining stereo nusxalari tasvirlangan real olamga kirib borishi va undagi ob'ektlarga nisbatan tasavvurini yaratadigan shaklda ifodalanadi.

Elektron darslik - universal dasturiy ta'minotga asoslangan bo'lib, u muayyan kasbiy faoliyat bo'yicha axborot, bilim berish va o'zlashtirilgan bilimlarni nazorat qilishni avtomatlashtirishga imkon beradi.

Elektron darslik va undan foydalanish jarayonidagi asosiy tushunchalar

Elektron o'quv adabiyotlari bilan bog'liq bo'lgan ko'pgina tushunchalarning keng ma'nodagi izohli talqini kompyuter va axborot texnologiyalari rivojlanib borishi bilan yanada kengayib borayotgan bilimlar bilan to'ldirilib borilmoqda. Shuning uchun elektron o'quv adabiyotlari yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan asosiy tushunchalar va terminlarga izohlar quyidagi mulohazalarda keltirilgan..

Elektron nashr - bu grafikli, matnli, raqamli, nutqli, musiqali, videofoto va boshqa axborot ob'ektlaridan iborat bo'lgan jamlanma hisoblanadi. Elektron nashr magnitli (magnit tasmalarda, magnit disklarda), optik (CD-ROM, CD-I, CD+, CD-R, CD-RW, DVD) elektron axborot tashuvchi vositalarida hamda kompyuter tarmog'ida chop etilishi mumkin. Bitta elektron nashrda axborotli manbalar, axborotga ishlov berish, boshqarish tuzilmasi ajratilgan bo'lishi mumkin. Elektron nashr istalgan elektron tashuvchida bajarilishi mumkin, shuningdek

elektron kompyuter tarmog'ida chop etilish mumkin.

Elektron o'quv nashri - ta'lim oluvchilar tomonidan bilimlar, ko'nikmalar va mahoratlarni ijodiy va faol egallashlarini ta'minlaydigan ilmiy amaliy bilim sohasiga mos ravishdagi tizimlashtirilgan o'quv materialga ega bo'lgan elektron nashr.

Elektron o'quv nashri muallifi – ijodiy faoliyati natijasida elektron o'quv nashrini yaratadigan jismoniy shaxs. Agar elektron o'quv nashri ikki yoki undan ortiq jismoniy shaxslarning birgalikdagi ijodiy faoliyatida yaratilgan bo'lsa, unda ularning har biri elektron o'quv nashrining muallifi bo'lib hisoblanadi.

Aprobatsiya - ob'ekt, mahsulot yoki texnologiyani, ilmiy, o'quv-uslubiy ishlarni amaliy ishlatish jarayonida nazoratdan o'tkazish va tasdiqlash.

Vizual muhit - insonga ko'rish organlari orqali qabul qilinadigan axborot oqimi. Insonga umumiy psixologik ta'sir o'tkazishi bo'yicha vizual muhitning komfortli, me'yoriy, gomogenli va agressiv turlari mavjud.

Virtual ob'ektlar yoki jarayonlar-haqiqiy mavjud bo'lgan, shuningdek tasavvur qilinadigan ob'ektlar yoki jarayonlarning elektron modeli. «Virtual» so'zi elektron tashuvchilarida ko'rsatiladigan ta'lim yoki boshqa ob'ektlarning elektron analoglari tavsifini ko'rsatish uchun qo'llaniladi. Bundan tashqari ushbu ibora elektron model bilan ishlash paytida, haqiqiy fazoviy metaforani davom ettiruvchi interfays texnologiyalari multimediyasiga asoslangan miqdorini bildiradi.

Gipermatn- elektron shaklda taqdim etilgan hamda tarmoqlangan bog'lanishlar tizimi bilan ta'minlangan va uning bir fragmentidan boshqasiga darhol o'tish imkoniyatlari oldindan berilgan matn. *Gipermatn* - elektron shaklda va tarmoqlangan aloqalar sistemasi bilan ta'minlangan matn bo'lib, matnning bir joyidan boshqa joyiga bir zumda o'tish vazifasini bajaradi.

Gipermediya – tarkibiga turli tipdagi tuzilgan axborot

vositalaridan (matn, illyustratsiya, tovush, video va boshqalar) tuzilgan gipermatn.

Giper murojaat-bir elektron axborot ob'ektidan boshqasiga murojaat qilish (masalan, matndan izoh, lug'at yoki adabiyot ro'yxatiga, bir maqoladan boshqasiga).

Elektron kutubxona-o'quvchi hamda pedagoglar uchun hujjatlashtirish va xavfsizlikning xususiy tizimi bilan ta'minlangan, to'liq matnli elektron axborotni resurslar, telekommunikatsiya vositalari asosida jamlash va yetkazish imkoniyatini ta'minlovchi dasturli majmuadir.

Elektron tajriba – real ob'ektlar, mahsulotlar va mavjudotlar ko'rgazma modellarini yaratish va izlanish imkonini beruvchi elektron muhit.

Elektron uslubiy qo'llanma - pedagogik tajribani umumlashtirish va uzatish hamda ta'lim faoliyatining yangi modellarini shakllantirish va tarqatish shakli. Elektron uslubiy qo'llanmada pedagogik tajriba mashg'ulotlarning raqamlashtirilgan video-lavhalari, elektron yoki unga o'girilgan shaklda yaratilgan o'quvchilar ishlarini darslar bo'yicha rejalashtirilgan shaklida ko'rsatiladi. Elektron uslubiy qo'llanma qog'ozli komponentni o'z ichiga olishi mumkin.

Elektron lug'at-an'anaviy «qog'ozli» lug'atga mos keluvchi elektron axborot manbai. Kompyuter versiyada so'z yoki so'zlar guruhiga maxsus ajratilgan ko'rsatma bilan istalgan dasturdan chaqarilishi mumkin. An'anaviy lug'atlardan farqli ravishda elektron lug'at matn va grafikaviy tasvirlar bilan bir qatorda video va animatsion lavhalar, tovush, musiqa va boshqalar bilan birga media-ob'ektlarning butun spektrlarini o'z ichiga olishi mumkin.

Elektron nazoratdan o'tkazish (testlashtirish) - elektron o'quv nashrining komponenti bo'lib, an'anaviy kompyutersiz testlashtirishning analogidir. Elektron testlashtirish holatida kompyuter test va uning natijalarini ko'rsatib beradi, bu bilan bog'liq bo'lgan algoritmlarni joriy qiladi. (Masalan, bajarilgan

yoki o'tkazib yuborilgan topshiriqlarga qaytish imkoniyatining borligi yoki yo'qligi, bitta testga vaqtning chegaralanganligi va hokazo).

Elektron o'quv qo'llanmasi-darslikni qisman yoki to'liq almashtira oladigan yoki to'ldiradigan rasmiy tasdiqlangan elektron o'quv nashri

Elektron testlar-saqlangan, ishlov berilgan va testlashtiruvchiga kompyuter yoki telekommunikatsion texnikasi yordamida taqdim etiladigan testlar. Testlashtiruvchi «qog'oz» blankalarni to'ldirib, so'ngra unga kompyuterda ishlov bersa, bular kompyuterli test bo'lib hisoblanmaydi.

Elektron tashuvchi-raqamlashtirilgan axborotni saqlash vositasi. Eng ko'p tarqalganlari magnitli (magnit tasma, magnitli disk va boshqalar) va optik (CD-ROM, DVD, CD-R, CD-I) elektron tashuvchilardir.

Pedagogik sahna-pedagogik maqsadlarga erishish uchun yo'naltirilgan, metodik jihatdan pedagogik uslublarning ketma-ketligining o'rnatilishi.

Pedagogik test-ma'lum shakl va mazmundagi topshiriqlarning murakkablik darajasi bo'yicha tabaqalashtirilgan tizim bo'lib, ta'lim oluvchining aniq soha bo'yicha bilim, ko'nikma va mahorat darajasi va tuzilmasini samarali baholash imkonini beradi.

Masofadan o'qitish-o'quv yurtidan uzoq masofadagi jismoniy shaxsga o'qituvchilarning doimiy maslahat olish bilan ta'lim olish imkoniyatini ta'minlaydigan zamonaviy pedagogik, kompyuterli va telekommunikatsion texnologiyalar, uslublar va vositalar majmuasi.

Yagona axborotli ta'lim fazasi–ta'lim oluvchilar, o'qituvchilar va ta'lim muassasalari boshqaruvi va jamiyatni axborotli ta'minlashning yagona texnologik vositalari bilan ta'minlaydigan kompyuterli texnikadan foydalanishga asoslangan dasturli telekommunikatsion muhit. Ushbu muhit ta'lim jarayoni va ta'lim muassasasini boshqarishni axborot bilan

qo'llabquvvatlashga, ta'lim jarayonining borishi va natijalari, shuningdek ta'limdan tashqari tadbirlarni axborotlashtirishga mo'ljallangan.

Elektron vosita-ta'lim jarayoni qatnashchilariga ishlab chiqish, o'zgartirish, bog'lash, uzatish, uzoqlashtirish, saqlash va axborot agentlari ustida boshqa faol harakatlarni amalga oshirish imkonini beruvchi vosita.

Ta'limni axborotlashtirish-o'qitish va tarbiyalashning psixologik-pedagogik maqsadlarini joriy qilishga mo'ljallangan zamonaviy axborot texnologiyalarni ishlab chiqish va foydalanishning nazariyasi va amaliyoti bilan ta'lim sohasini ta'minlash jarayoni.

Axborotli ta'lim muhiti-o'quv faoliyatini joriy qilish uchun qo'llaniladigan kompyuter vositalari va ularni harakatlanish usullari birikmasi.

Axborot tizimi-axborotni uzatish va qabul qilish tizimi bo'lib, axborot manbai, uzatish, aloqa kanali va axborotni qabul qiluvchilardan iborat.

Axborotli va kommunikatsion texnologiyalar-axborotga ishlov beruvchi turli xildagi qurilmalar, mexanizmlar, usullar, algoritmlarni tasvirlovchi umumlashtirilgan tushuncha. Axborotli va telekommunikatsion texnologiyalarning muhim zamonaviy qurilmalari bo'lib, mos ravishdagi ta'limot bilan ta'minlangan kompyuter va o'zida joylashtirilgan axborotlar bilan birga telekommunikatsion vositalar hisoblanadi.

Axborotli ob'ekt-turli xildagi ob'ektlarni, ya'ni tovush, tasvir, matn, son va majmuaviy tuzilgan elementlar, jadval, gipermatn, gipermediani tasvirlovchi umumlashtiruvchi tushuncha bo'lib, ular bevosita yoki algoritmli ko'rinishlarda tasvirlanishi mumkin.

Axborot –inson tomonidan og'zaki (nutq shaklida), yozma (matn, jadval, rasm, chizma, shartli belgilar ko'rinishida) yoki boshqa usulda (masalan, tovushli yoki yorug'lik signallari, elektrik yoki asabli impulslar yordamida) uzatiladigan

ma'lumotlar birikmasi. XX asr o'rtasidan boshlab –insonlar, inson va avtomatika o'rtasida ma'lumot almashish, hayvonot va o'simlik olamida signal bilan almashishni o'z ichiga oladigan umumilmiy tushuncha.

Elektron darsliklarning o'ziga xos xususiyatlari va afzalliklari

O'quv jarayonida mustaqil ta'lim mashg'ulotlarini samarali tashkil qilishda turli axborot ta'lim resurslarni yaratishga alohida ahamiyat berish talab etiladi. CHunki, mustaqil ta'lim asosan ta'lim oluvchining mustaqil o'rganishiga asoslangan o'quv faoliyati hisoblanadi. Hozirgi davrda mustaqil ta'lim uchun axborot ta'lim resurslari yaratishda zamonaviy axborot texnologiyalarning o'rni beqiyosdir.

Mustaqil ta'lim olishda zamonaviy axborot texnologiyalari ya'ni kompyuterning dasturiy vositalari asosida yaratilgan o'quv-uslubiy materiallar shu jumladan, elektron darsliklardan foydalanishdan asosiy maqsad zamonaviy axborot – ta'lim uslubini shakllantirish, zamonaviy axborot-pedagogik, axborot va kompyuter texnologiyalarini qo'llash orqali ta'lim jarayonining samaradorligi, sifati va unimdorligini oshirish, uzluksiz ta'lim tizimida zamonaviy o'quv manbalari elektron o'quv darsliklarini keng qo'llash, ularning ma'lum ma'noda kutubxonalarini tashkil etish, ta'limning masofadan o'qitish usullarini amalda joriy etish va umumjahon elektron o'quv tizimiga kirishdan iborat.

Uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish kontseptsiyasida elektron darslikka quyidagicha ta'rif berilgan: "Elektron darslik - kompyuter va axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan o'quv uslubini qo'llashga, mustaqil ta'lim olishga hamda fanga oid o'quv materiallar, ilmiy ma'lumotlarning har tomonlama samarador o'zlashtirilishiga mo'ljallangan elektron o'quv adabiyoti hisoblanadi". Demak, elektron darslik yaratishning asosiy maqsadi mustaqil ta'lim olishga qaratilar ekan.

Elektron o'quv adabiyotlarining amaliyotda qo'llanilishi e'tiborga olinganda elektron darsliklar quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi kuzatilmoqda:

- o'rganilayotgan materialni an'anaviy o'quv adabiyotlariga nisbatan induktiv yondashish, eshitish va emotsional xotiralarga ta'sir qilish yo'llari bilan yetkazish orqali tushunishni yengillashtiradi;
- ta'lim oluvchilarning ehtiyojiga, tayyorgarlik darajasiga, intellektual imkoniyatlariga moslashtiriladi;
- o'quv predmetining mohiyatiga diqqatni jalb etgan holda ko'p sondagi ma'lumotlarni va topshiriqlarni qarab chiqish va ko'proq amaliy masalalar yechishga imkon yaratgan holda murakkab hisoblashlar va almashtirishlardan xalos etadi;
- o'rganishning barcha bosqichlarida o'zini-o'zi tekshirib ko'rish uchun keng imkoniyatlarni yaratadi;
- ishni chiroyli, aniq rasmiylashtirishlarga va uni o'qituvchiga fayl yoki qog'ozga chop etgan holda topshirishiga imkon beradi;
- tajribali o'qituvchi vazifasini cheklanmagan tushuntirishlarni, sanoqsiz takrorlashlarni, eslatishlarni taqdim etgan holda bajaradi.

Elektron darslik ixtisoslashgan o'quv xonalarida o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi qulay imkoniyatlarni yaratadi:

- kompyuterli qo'llab-quvvatlashlardan foydalangan holda katta miqdordagi topshiriklarni bajarishga, yechimlarni va ularning grafik talqinini tahlil qilish uchun zarur bo'lgan vaqtdan ozod bo'ladi.
- o'qituvchining rahbarlik va maslahatchi sifatida qatnashib kompyuter oldida mustaqil ish shaklida mashg'ulot o'tkazish imkonini yaratadi.
- o'qituvchiga kompyuter yordamida ta'lim oluvchilar bilimini tez va samarali nazoratdan o'tkazishiga imkon beradi.
- o'qituvchiga nazariy va amaliy mashg'ulotlarda

o'zining xohishi bo'yicha hajmi jihatidan kichik ammo tarkibi bo'yicha o'ta muhim bo'lgan materiallarni yetkazishiga, ta'lim oluvchilarning auditoriya mashg'ulotlari doirasidan tashqari o'rganish mumkin bo'lgan masalalarni yechishda mustaqil shug'ullanishlari uchun imkon yaratiladi;

- ta'lim oluvchilar bilan ayniqsa uy topshiriqlari va nazorat ishlari qismiga oid ishlashni individualashtirishga imkon beradi.
- o'qituvchini uy topshiriklari, turli hisoblashlarni va nazorat ishlarni tekshirish kabi mashaqqatli ishlardan ozod etadi;

Elektron darsliklarning asosiy xossalari va ularning turlari

Yangi pedagogik va axborot texnologiyalarining yorqin namoyondasi sifatida elektron darsliklarni qarash mumkin. Ular zamonaviy axborot texnologiyalarning maxsuli bo'lib, ta'lim sifatini oshirishga yordam beradi. Elektron darsliklar ta'lim olishning yangi shakli bo'lgan masofaviy o'qitishning metodologik asosi hisoblanadi.

Elektron darslik quyidagi xosslarga ega bo'lishi kerak:

-o'quv mashg'ulotlarini yuqori sifatli darajasida o'tkazilishni ta'minlash;

-bilimlarning o'zini hosil qilish va baholash imkoniyatlarini yaratish;

-ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni o'zaro yaqinlashtirish;

-axborotli-ta'lim resurslari rivojlanishining garmonik tasnifiga ega bo'lish;

-matnli va boshqa axborotli materiallar yangilangan (gipermatnlar) va illyustratsiyalangan (multimediya vositalari, rasmlar, jadvallar, diagrammalar va boshqalar) bo'lishi kerak.

- Elektron darslik ta'lim jarayoniga odatdagi darslikdan o'zgacha, inson miyasi imkoniyatlarini, xususan, eshitish va emotsional xotirasini jalb qilib, shuningdek kompyuter samaradorligidan foydalanib tushunishni, mavjud tushunchalar

va misollarni eslab qolishni maksimal darajada yengillashtirishi kerak:

Elektron darsliklarning quyidagi turlari mavjud:

1. Elektron darsliklarni foydalanish buyicha ikki turga ajratiladi:

a) Jamoaviy foydalanishga mo'ljallangan elektron darsliklari kompyuterning katta tizimli resurslarini talab qilmasligi kerak, chunki ular ko'pincha serverlarda o'rnatiladi va ularga kompyuter tarmog'i orqali yaqinlashish imkoni beriladi.

b) Individual foydalanishdagi elektron darsliklari o'quv materialini ta'lim oluvchi ishtirokida yoki ishtirokisiz o'rganish uchun mo'ljallangan. Elektron darsliklarning ikkala turidan ham ma'ruza mashg'ulotlarida foydalanish mumkin.

2. O'quv materiallarini yetkazib berish bo'yicha: bunday turdagi elektron darsliklar bir bo'lim yoki modul o'quv materialini o'zlashtirmay turib, navbatdagi bo'limga yoki modulga o'tishga yo'l qo'ymaydi.

3. O'quv axborotlari va materiallarining yangilanishi bo'yicha quyidagilarga ajratish mumkin:

a) Uzluksiz yangilanishli elektron darsliklar asosan elektron o'quv bazalarida (portallar, veb-saytlar va boshqalar) yoki elektron kutubxonalarda joylashtiriladi.

b) Davriy yangilanishdagi elektron darsliklar asosan turli xildagi axborotning elektron tashuvchilarini tasvirlaydi (disketlar. SD-disklar va boshqalar)

Test savollari

1. O'quv fani, uning biror yo'nalishi yoki tarkibiy qismining davlat standartlariga va o'quv dasturiga mos holda, yuqori ta'lim muassasalari tomonidan tasdiqlangan sistemali ravishda bayon etilgan o'quv maxsuloti nima deb ataladi.

- *Darslik*
- *Elektron darslik.*

- *O'quv qo'llanma.*
- *Elektron o'quv qo'llanma*

2. Darslikni qisman yoki to'la o'rnini bosuvchi, yoki to'ldiruvchi va qo'llanma sifatida ta'lim muassasalari tomonidan tasdiqlangan mahsuloti bu....

- *Darslik*
- *Elektron darslik.*
- *O'quv qo'llanma.*
- *Elektron o'quv qo'llanma*

3. Darslikni qisman yoki to'la o'rnini bosuvchi, yoki to'ldiruvchi va qo'llanma sifatida ta'lim muassasalari tomonidan tasdiqlangan elektron maxsulot hisoblanadi.

- ·*Elektron darslik.*
- *O'quv qo'llanma.*

Nazorat uchun savollar:

1. Elektron darslik qanday xosslarga ega bo'lishi kerak?
2. Elektron darsliklarning o'ziga xos xususiyatlari va afzalliklari nimada?
3. Elektron o'quv qo'llanma deganda nimani tushunasiz?



5-mavzu: Mustaqil ta'lim, uning turlari va bajarilishi.

Reja:

1. Talabalar mustaqil ishlarining o'quv jarayonida tutgan o'rni
2. Talabalar mustaqil ishlarining o'quv jarayonida tutgan o'rni
3. Talabalarning mustaqil ishlarini motivatsiyasi haqida
4. Mustaqil ishlarni tashkil etish va shakllari.
5. Mustaqil ishlarni uslubiy ta'minlash va nazorat qilish.

***

Tayanch tushunchalar: mustail ish, auditoriya mashg'lotlari, kutubxona, darsliklar va o'quv qo'llanmalari bilan ishlash.

***

Talabalarning mustaqil ishlarining o'quv jarayonida tutgan o'rni

Oliy ta'limning asosiy vazifasi o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini tarbiyalash va innovatsiyalarga qodir bo'lgan mutaxassisning ijodiy shaxsini shakllantirishdir. Bu muammoni faqat o'qituvchidan talabaga tayyor shaklda o'tkazish orqali hal qilish qiyin. O'quvchini passiv bilim iste'molchisidan muammoni shakllantirish, uni yechish yo'llarini tahlil qilish, optimal natijani topish va uning to'g'riligini isbotlay oladigan faol bilim yaratuvchiga o'tkazish zarur. Hozirgi oliy ta'lim

islohoti o'qitish paradigmasidan ta'lim paradigmasiga o'tish bilan uzviy bog'liqdir. Shu munosabat bilan shuni e'tirof etish kerakki, talaba mustaqil ishi (SIW) nafaqat o'quv jarayonining muhim shakli, balki uning asosiga aylanishi kerak.

Bu bilimlarni o'zlashtirishning faol usullariga yo'naltirishni, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishni, shaxsning ehtiyojlari va imkoniyatlarini inobatga olgan holda innovatsion ta'limdan individuallashtirilgan ta'limga o'tishni nazarda tutadi. Bu faqat mustaqil ish uchun soatlar sonini oshirish haqida emas. Talabalarning mustaqil ishi rolini kuchaytirish universitetdagi o'quv jarayonini tashkil etishni tubdan qayta ko'rib chiqishni anglatadi, u bilim olish qobiliyatini rivojlantiradigan, talabaning o'zini o'zi rivojlantirish, ijodiy qo'llash qobiliyatini shakllantiradigan tarzda qurilishi kerak. olingan bilimlar, zamonaviy dunyoda kasbiy faoliyatga moslashish usullari.

Shu bilan birga, mustaqil ish, uni rejalashtirish, tashkiliy shakl va usullari, natijalarni kuzatish tizimi oliy ta'lim amaliyotidagi eng zaif nuqtalardan biri va pedagogik nazariyaning, ayniqsa, zamonaviy o'quv-uslubiy ta'limga nisbatan kam o'rganilgan muammolaridan biridir. vaziyat (oliy ta'limni diversifikatsiya qilish, ta'lim standartlarini joriy etish, pedagogik monitoring tizimini joriy etish va boshqalar).

Talabalarning mustaqil ishlarini rejalashtirish va tashkil etishga bag'ishlangan tadqiqotlarda (L.G.Vyatkin, M.G.Garunov, B.P.Esipov, V.A.Kozakov, I.Ya.Lerner, M.I.Maxmutov, N.A.Polovnikova, P.I.Pidkasisty va boshqalar) umumiy didaktik, psixologik, tashkiliy va. faoliyati, bu faoliyatning uslubiy, mantiqiy va boshqa jihatlari ko'rib chiqiladi, o'rganilayotgan muammoning ko'p jihatlari, ayniqsa, an'anaviy didaktik rejada ochib beriladi. Shu bilan birga, o'quvchilarning mustaqil sinf va sinfdan tashqari bilish faoliyatini motivatsion, protsessual, texnologik ta'minlash masalalari alohida e'tiborni talab qiladi - o'quvchilarning individual qiziqishlari, qobiliyatlari va moyilliklarini hisobga oladigan yaxlit pedagogik tizim.

Talabalar mustaqil ishlarining o'quv jarayonida tutgan o'rni

Avvalo, talabalarning mustaqil ishi nima ekanligini aniq belgilash kerak. Umuman olganda, bu kelajakdagi mutaxassisning tafakkurini tarbiyalash bilan bog'liq har qanday faoliyat. Talabaning mustaqil fikrlash, kognitiv faolligi yuzaga kelishi uchun sharoit yaratadigan har qanday mashg'ulot turi mustaqil ish bilan bog'liq. Keng ma'noda mustaqil ish talabalarning sinfda ham, undan tashqarida ham, o'qituvchi bilan aloqada bo'lgan va u yo'qligidagi barcha mustaqil faoliyatining yig'indisi sifatida tushunilishi kerak.

Mustaqil ish amalga oshiriladi:

1. To'g'ridan-to'g'ri auditoriya mashg'ulotlari jarayonida - ma'ruza, amaliy va seminar To'g'ridan-to'g'ri auditoriya mashg'ulotlari jarayonida - ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlarida, laboratoriya ishlarini bajarishda.
2. O'qituvchi bilan jadvaldan tashqari aloqada - ta'lim masalalari bo'yicha maslahatlashuvlarda, ijodiy aloqalar jarayonida, qarzlarni bartaraf etishda, individual topshiriqlarni bajarishda va hokazo.
3. Kutubxonada, uyda, yotoqxonada, kafedrada talaba o'quv va ijodiy vazifalarni bajarayotganda. Ushbu turdagi ishlarning chegaralari ancha xiralashgan va mustaqil ish turlarining o'zi kesishadi.

Shunday qilib, talabalarning mustaqil ishi sinfda ham, undan tashqarida ham bo'lishi mumkin. Shunga qaramay, talabalarning mustaqil ishi masalalarini ko'rib chiqishda ular asosan sinfdan tashqari ishlarni anglatadi. Shuni ta'kidlash kerakki, sinfda ishlash jarayonida bilimlarni faol egallash uchun, hech bo'lmaganda, o'quv materialini tushunish va eng maqbul

tarzda uni ijodiy idrok etish kerak. Haqiqatda, ayniqsa, kichik kurslarda o'rganilayotgan materialni tushunish elementlari bilan yodlash tendentsiyasi kuchli. Kafedralar va o'qituvchilar ko'pincha o'z fanlarini taqdim etishda mantiqiy tamoyilning rolini oshirib yuborishadi va uni talabalar tomonidan idrok etish muammosiga e'tibor bermaydilar. Ichki va fanlararo aloqalar sust yoritilgan, uzluksiz o'quv dasturlari mavjudligiga qaramay fanlar ketma-ketligi juda past. Aloqalar bilan ta'minlanmagan o'quvchilarning bilimlari yomon saqlanmoqda. Bu, ayniqsa, fundamental tayyorgarlikni ta'minlaydigan fanlar uchun xavflidir.

Ta'lim standartlari talabaning o'qish vaqtining yarmini darsdan tashqari ishlarga ajratsa-da, ko'p hollarda bu me'yor saqlanib qolmaydi. Mustaqil ish uchun topshiriqlar soni va hajmi va fan bo'yicha nazorat tadbirlari ko'p hollarda o'qituvchi yoki kafedra tomonidan "qancha ko'p bo'lsa, shuncha yaxshi" tamoyili asosida belgilanadi.

Talabalarning mustaqil ishini rag'batlantirish to'g'risida

Talabalarning faol mustaqil ishi faqat jiddiy va barqaror motivatsiya mavjud bo'lganda mumkin. Eng kuchli rag'batlantiruvchi omil - bu keyingi samarali kasbiy faoliyatga tayyorgarlik.

Mustaqil ishlarni faollashtirishga yordam beradigan ichki omillarni ko'rib chiqing. Ular orasida quyidagilar mavjud:

1. Bajarilgan ishning foydaliligi. Agar talaba o'z ishining natijalari ma'ruza kursida, uslubiy qo'llanmada, laboratoriya ustaxonasida, nashrni tayyorlashda yoki boshqa usullarda qo'llanilishini bilsa, u holda topshiriqni bajarishga bo'lgan munosabat yaxshi tomonga sezilarli darajada o'zgaradi. bajarilayotgan ishlarning sifati oshadi. Shu bilan birga, talabani psixologik jihatdan shakllantirish, unga ishning qanchalik zarurligini ko'rsatish muhimdir.

Foydali omildan foydalanishning yana bir varianti - kasbiy

tayyorgarlikda ish natijalaridan faol foydalanish. Masalan, agar talaba kichik kurslardan birida diplom (malakaviy) ishi uchun topshiriq olgan bo'lsa, u bir qator gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy, tabiiy fanlar va umumiy kasbiy tsikllar bo'yicha mustaqil topshiriqlarni bajarishi mumkin. fanlar bo'lib, ular keyinchalik uning malakaviy ishiga bo'limlar sifatida kiritiladi.

2. Talabalarning ijodiy faoliyatda ishtiroki. Bu ma'lum bir bo'limda olib boriladigan tadqiqot, ishlab chiqish yoki uslubiy ishlarda ishtirok etish bo'lishi mumkin.

3. Muhim motivatsion omil - intensiv pedagogika. U ta'lim jarayoniga faol usullarni, birinchi navbatda, innovatsion va tashkiliy-faol o'yinlarga asoslangan o'yin mashg'ulotlarini joriy qilishni o'z ichiga oladi. Bunday o'yinlarda faqat qaror qabul qilish ko'nikmalarini egallash emas, balki ob'ekt haqida bir tomonlama ma'lum bilimlardan ko'p tomonlama bilimga o'tish, uni etakchi qarama-qarshiliklarni aniqlash bilan modellashtirish mavjud. Ushbu yondashuvdagi birinchi qadam biznes yoki vaziyatli o'rganish shakllari, shu jumladan kompyuterlardan foydalanadiganlardir.

4. O'quv fanlari bo'yicha olimpiadalarda, ilmiy tadqiqot yoki amaliy ishlar bo'yicha tanlovlarda qatnashish va hokazo.

5. Bilimlarni nazorat qilish uchun rag'batlantiruvchi omillardan foydalanish (jamlangan baholar, reyting, testlar, nostandart imtihon tartiblari). Bu omillar, ma'lum sharoitlarda, raqobatbardoshlikka intilishni keltirib chiqarishi mumkin, bu o'z-o'zidan talabaning o'zini o'zi takomillashtirish uchun kuchli motivatsion omil hisoblanadi.

6. Talabalarni o'qish va ijodiy faoliyatdagi muvaffaqiyatlari uchun rag'batlantirish (stipendiyalar, bonuslar, rag'batlantirish ballari) va yomon o'qish uchun sanktsiyalar. Masalan, muddatidan oldin topshirilgan ish uchun siz oshirilgan belgini qo'yishingiz mumkin, aks holda uni kamaytirishingiz mumkin.

7. Darsda ham, undan tashqarida ham bajariladigan vazifalarni individuallashtirish, ularni doimiy ravishda yangilab turish.

8. Kuchli tarbiyaviy ish va birinchi navbatda mustaqil ishning rag'batlantiruvchi omili o'qituvchi shaxsidir. O'qituvchi o'quvchiga kasb egasi, ijodkor sifatida namuna bo'la oladi. O'qituvchi o'quvchining ijodiy imkoniyatlarini ochishda, uning ichki o'sishi istiqbollarini aniqlashda yordam berishi mumkin va kerak.

Oliy ta'limning asosiy vazifasi o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini tarbiyalash va innovatsiyalarga qodir bo'lgan mutaxassisning ijodiy shaxsini shakllantirishdir. Bu muammoni faqat o'qituvchidan talabaga tayyor shaklda o'tkazish orqali hal qilish qiyin. O'quvchini passiv bilim iste'molchisidan muammoni shakllantirish, uni yechish yo'llarini tahlil qilish, optimal natijani topish va uning to'g'riligini isbotlay oladigan faol bilim yaratuvchiga o'tkazish zarur. Hozirgi oliy ta'lim islohoti o'qitish paradigmasidan ta'lim paradigmasiga o'tish bilan uzviy bog'liqdir. Shu munosabat bilan shuni e'tirof etish kerakki, talaba mustaqil ishi (SIW) nafaqat o'quv jarayonining muhim shakli, balki uning asosiga aylanishi kerak.

Mustaqil ishlarni tashkil etish va shakllari

Talabalar mustaqil ishining maqsadi - turli manbalardan yangi bilimlarni o'zlashtirish jarayonida ularning shaxsiy rivojlanishi. Mustaqil ishlarga darsliklar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, psixologiya klassiklarining ilmiy ishlari, monografiyalar, ilmiy maqolalar to'plamlari va ilmiy ma'ruzalar, ixtisoslashtirilgan psixologik jurnallardagi ilmiy maqolalar, davriy nashrlardagi psixologiyaga oid materiallar, badiiy adabiyotlar bilan ishlash kiradi. So'nggi paytlarda mustaqil ishlarda elektron shakldagi manbalar (Internet tizimi, kompyuter dasturlari va elektron tashuvchilardagi ma'lumotlar) bilan ishlash katta o'rin egalladi. Talabalarning mustaqil ishlariga insholar, izohlar, tezislar yozish kiradi.

Darsliklar va o'quv qo'llanmalari bilan ishlash ko'pincha talaba uchun eng ko'p vaqtni oladi.

Psixologiyada darslikni fan bo'yicha barcha yoki deyarli

barcha dasturiy materiallarni o'z ichiga olgan kitob deb atash odatiy holdir. Qoidaga ko'ra, darsliklar mualliflar guruhlari tomonidan tuziladi, darslik muhri esa tegishli ta'lim organlari tomonidan belgilanadi.

Darslik dasturning barcha masalalarini to'liq qamrab olishga da'vo qilmaydi va fan bo'yicha o'quv materialini o'z ichiga oladi, shu bilan birga alohida mavzular to'liq ishlab chiqilishi mumkin, dasturning boshqa mavzulari umuman ko'rib chiqilmaydi.

Darslik va o'quv qo'llanma bilan ishlash ham tizimli bo'lishi kerak. U uch bosqichdan iborat. Birinchi bosqichda talaba darslik yoki o'quv qo'llanma bilan tanishadi, mualliflarning ism-sharifflariga, izohlarga e'tibor beradi, mazmunini ko'rib chiqadi, mundarija, diagramma, chizmalarni ko'zdan kechiradi, o'zi qiziqqan matnga murojaat qiladi.

Mashg'ulotlarni o'tkazish uchun mustaqil hal qilish uchun vazifalar va vazifalarning katta bankiga ega bo'lish kerak va bu vazifalarni murakkablik darajasiga ko'ra farqlash mumkin. Intizomga yoki uning bo'limiga qarab, ikkita usuldan foydalanish mumkin:

1. Mustaqil hal qilish uchun qiyinchilik bo'yicha teng bo'lgan ma'lum miqdordagi vazifalarni bering va ma'lum vaqt ichida hal qilingan vazifalar soniga baho qo'ying.

2. Turli qiyinchilikdagi topshiriqlar bilan topshiriqlar chiqaring va echilgan vazifaning qiyinligiga baho qo'ying.

Mustaqil masalalarni yechish natijalariga ko'ra har bir dars uchun baho berilishi kerak. Talabaning amaliy darsga dastlabki tayyorgarligini baholash ekspress test (yopiq shakldagi test topshiriqlari) orqali 5, maksimal - 10 daqiqa davomida amalga oshirilishi mumkin. Shunday qilib, intensiv ish bilan har bir o'quvchiga har bir darsda kamida ikkita ball qo'yish mumkin.

Amaliy mashg'ulotlarda SIW ning yana bir shakli o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga nazorat savollari bilan birga tarqatiladigan sxemalar, sxemalar, dasturlar va boshqalarni mustaqil o'rganish bo'lishi mumkin, ularga dars davomida

talaba javob berishi kerak.

Laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish, boshqa o'quv faoliyati turlari kabi, faol o'qitish usullaridan foydalanish va individual yondashuv asosida SIWni tashkil qilish uchun ko'plab imkoniyatlarni o'z ichiga oladi.

Laboratoriya seminarini o'tkazishda laboratoriya ishlarini eng mustaqil bajarish uchun sharoit yaratish kerak. Shuning uchun, ishni bajarishda siz:

1. Ishni bajarish uchun zarur bo'lgan nazariy material bo'yicha ekspress so'rov (og'zaki yoki test shaklida) o'tkazish (baholash bilan).

2. Talabaning uyda tayyorlagan laboratoriya ish rejalarini tekshirish (baholash bilan).

3. Talabaning laboratoriyadagi ishini va u tomonidan olingan ma'lumotlarni baholash (baholash).

4. Hisobotni tekshiring va baholang.

Har qanday laboratoriya ishi nazariy materialni chuqur mustaqil o'rganishni, eksperimentni o'tkazish va rejalashtirish usullarini o'rganishni, o'lchov vositalarini ishlab chiqishni, eksperimental ma'lumotlarni qayta ishlash va sharhlashni o'z ichiga olishi kerak. Shu bilan birga, ishlarning bir qismi majburiy bo'lmasligi mumkin, lekin kurs bo'yicha mustaqil ishning bir qismi sifatida amalga oshirilishi mumkin. Bir qator ishlarga ilmiy tadqiqotning qo'shimcha elementlari bo'lgan bo'limlarni kiritish maqsadga muvofiq, bu esa nazariy materialni chuqur mustaqil o'rganishni talab qiladi.

Mustaqil ishlarni uslubiy ta'minlash va nazorat qilish

O'quv jarayonini uslubiy ta'minlash kompleksini ishlab chiqish talabalarning mustaqil ishi samaradorligining eng muhim shartidir. Bunday majmua ma'ruza matnlari, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, laboratoriya mashg'ulotlari, real ma'lumotlar asosida tuzilgan topshiriqlar va topshiriqlar banki, hisoblash, modellashtirish, o'quv dasturlari va o'z-o'zini boshqarish dasturlari, avtomatlashtirilgan o'qitish va boshqarish tizimlarini o'z ichiga olishi kerak. , fan yoki

guruhga oid fanlarning axborot bazalari va boshqalar. Bu talaba ta'lim jarayonining teng huquqli ishtirokchisi bo'lgan muammoli ta'limni tashkil etish imkonini beradi. Talabalarning mustaqil ishlarining samaradorligi ko'p jihatdan uni nazorat qilishning faol usullari mavjudligi bilan belgilanadi. Quyidagi nazorat turlari mavjud:

Keyingi fanni o'rganish boshida talabalarning bilim va ko'nikmalarini kiritish nazorati;

Joriy nazorat, ya'ni ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida materialning o'zlashtirilishi darajasini muntazam nazorat qilish;

Kurs bo'limi yoki modulini o'rganish yakunida oraliq nazorat;

Nazorat tadbirlariga tayyorgarlik ko'rishda fanni o'rganish jarayonida talaba tomonidan amalga oshiriladigan o'z-o'zini nazorat qilish;

Test yoki imtihon shaklida fan bo'yicha yakuniy nazorat;

Fanni o'rganishni tugatgandan keyin ma'lum vaqtdan keyin qolgan bilim va ko'nikmalarni nazorat qilish.

Keyingi yillarda nazoratning an'anaviy shakllari – kollokvium, test, imtihonlar bilan bir qatorda yangi usullar ham keng joriy etilmoqda, ya'ni talabalarning mustaqil ishini tashkil etish zamonaviy ta'lim texnologiyalariga asoslangan. Oliy kasbiy ta'limning zamonaviy amaliyotida bunday texnologiya sifatida ko'pincha ta'limning reyting tizimi ko'rib chiqiladi, bu talaba va o'qituvchiga ta'lim faoliyati sub'ektlari sifatida harakat qilish imkonini beradi, ya'ni. sherik bo'ling.

Ta'limning reyting tizimi o'quvchilarni ko'p ballli baholashni o'z ichiga oladi, ammo bu besh ballik shkaladan oddiy o'tish emas, balki o'quvchilarning individual qobiliyatlarini baholash doirasi kengayishini ob'ektiv ravishda aks ettirish imkoniyatidir. u yoki bu turdagi mustaqil ishlarni bajarishga sarflangan harakatlar.

Mustaqil ta'lim uchun taklif qilinadigan ko'plab turli xil topshiriqlar va ularni baholashning turli shkalalari talabaga

ularning muvaffaqiyatini kuzatish imkonini beradi va agar xohlasa, ular doimo kutmasdan o'z reytingini (qo'shimcha mustaqil ish turlarini bajarish orqali) yaxshilash imkoniyatiga ega.

Mamlakatimizning ayri oliy o'quv yurtlarida reyting tizimini joriy etish tajribasi natijalarini tahlil qilar ekanmiz, shuni ta'kidlab o'tish mumkinki, o'quv jarayonini ta'limning reyting tizimi doirasida mustaqil ishlarning har xil turlaridan foydalangan holda tashkil etis yanada yaxshi natijalarga erishis imkonini beradi. an'anaviy universitet ta'lim tizimiga nisbatan talabalarni o'rganishda. Reyting tizimidan foydalanis talabaning semester davomida yanada ritmik ishlashiga erishish imkonini beradi, shuningdek, talabalarning ijodiy faolligini rag'batlantirish orqali bilim faolligini faollashtiradi. Reytingni joriy etish fanlar mazmunini tuzish,turli darajadagi murakkablikdagi vazifalarni ishlab chiqish va hokazolar bo'yicha qo'shimcha ishlar tufayli o'qituvchilarning ish yukini oshirishga olib kelishi mumkin. Ammo bunday ish o'qituvchiga o'zining pedagogik imkoniyatlarini ochib berishga va o'quv jarayonini takomillashtirish bo'yicha o'z g'oyalarini amalga oshirishga imkon beradi.

Nazotar uchu savollar:

1. Talabalarning mustaqil ishlarining o'quv jarayonida tutgan o'rni nimada?
2. Mustaqil ishlarni faollashtirishga yordam beradigan ichki omillarni nimalardan iborat?
3. Mustaqil ishlarni tashkil etish va shakllari haqida fikrlaringizni yozing
4. Mustaqil ta'limning qanday turlari bor?
5. Mustaqil ta'lim strukturasi qanday tuziladi?



6-mavzu: Kurs ishi, bitiruv malakaviy ishni yozish tartibi

Reja:

1. Kurs ishini bajarish jarayonlari haqida
2. Kurs ishining tuzilishi
3. Kurs ishiga qo'yilgan talablar

***

Tayanch tushunchalar: ilmiy tarbiyaviy ishlar, nazariy masalalar, reja, talablar, nazariy asoslari, krs ishi mavzusi.

***

Kurs ishi mavzusini tanlash

Kurs ishi mavzulari kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan tuzilib, kafedra majlisida muhokama qilinadi va tasdiqlanadi. Kurs ishi mavzusi qisqa va aniq bo'lishi lozim va mavzu talabaning ilmiy va amaliy qiziqishlarini hisobga olgan holda mustaqil ravishda tanlab olinadi. Fan bo'yicha ma'ruza olib boruvchi professor-o'qituvchi talaba tanlagan mavzuni ro'yxatga oladi va kurs ishi yozilishini nazorat qiladi.

Kurs ishi mavzusini tanlashda, uning ahamiyati, nazariy va amaliy materiallarni mavjudligi va yetarli bo'lishi, yangi masalalarni o'rganilishi, tanlangan mavzu haqida umumiy tasavvurga ega bo'lishi, tanlangan masalalarga qiziqishi ham muhim ahamiyatga ega.

Mavzu juda keng masalalarga bag'ishlanmasligi, qisqa masalalarni aniqlash bilan chegaralanmasligi kerak. Mavzu tanlashda shunga e'tibor qaratish kerakki, bu masalani

o'rganish talabaning bilmagan narsalarini bilib olishga, kursning navbatdagi bo'limlarini o'rganishga yaqindan yordam berishi lozim.

Talabalar uchta yoki to'rtta fandan yozadigan kurs ishining bir-biri bilan bog'langan bo'lishi talabaning o'zaro bog'langan masalalarini izchil o'rganishga yordam beradi. Kurs ishi mavzusini tanlaganingizdan so'ng tanlangan mavzuga oid savollar doirasi bilan tanishib, ma'ruza materiallarini jamlab chiqing. Fan bo'yicha o'quv dasturida ushbu mavzuni o'rganish uchun tavsiya etilgan adabiyotlar bilan qaytadan tanishib, ularni tahlil qiling.

Kurs ishini bajarish jarayoni

Kurs ishini bajarish jarayonida ilmiy va tarbiyaviy ishlar kompleks asosda amalga oshirilib, ular orasida quyidagilar birinchi darajali ahamiyatga ega:

1. Fanning dolzarb mavzusi va muammolari chuqur o'rganiladi. Kurs ishi ustida ishlash jarayonida talaba tanlagan mavzuni chuqur o'rganishi, uning yo'nalishlarini tahlil qilish haqida tushunchaga ega bo'ladi;
2. Mustaqil ishlash usullari bilan tanishadi, iqtisodiy, nazariy va amaliyotning dolzarb masalalarini yozma bayon qilish usullarini o'rganadi;
3. Bibliografiya tuzish, statistik to'plamlardan foydalanish, mavzular bo'yicha konspekt tuzish, tavsiyalaridan kelib chiqib, rasmiylashtiriladi;
4. Huquqiy me'yoriy hujjatlarni amaliyotda tadbiq qilinishini o'rganadi.

Kurs ishini bajarish bosqichlari

Kurs ishini bajarish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Kurs ishi mavzusini tanlash;
2. Kafedra tomonidan tavsiya qilingan adabiyotlarni to'plash, ularni o'rganish, konspektlash, kerakli joylarini yozib olish;

3. Kurs ishi rejasini tuzish;
4. Nazariy masalalar va amaliy materiallarni umumlashtirish, tahlil qilish, qaytadan ishlab chiqish;
5. Kurs ishi matnini yozib chiqish, uni rasmiylashtirish va ilmiy rahbarga taqriz uchun taqdim etish;
6. Taqrizning talablari asosida ishga ayrim tuzatishlar kiritish, qo'shimcha savollarga javob berish;
7. Kurs ishi himoyasiga tayyorlanish.

Kurs ishi rejasini tuzish

Kurs ishi rejasini tuzish tavsiya qilingan adabiyotlarni o'rganib chiqilgandan keyin boshlanadi.

Reja eng qisqa yozma matn hisoblanib:

- fikrlar ketma-ketligini o'zida mujassam etadi va umumlashtiradi;
- manba mazmunini xotirada tiklaydi;
- konspekt va tezislar o'rnini bosadi;
- har xil turdagi yozishmalar, ma'ruza, xabarnoma, hisobot tuzishga yordam beradi;
- o'z-o'zini nazorat qilishni tezlashtiradi;
- e'tiborning bir nuqtada bo'lishligiga va mashg'ulotlarni rag'batlantirishga imkon beradi;
- yaxshi tanish matnning xotirada paydo bo'lishida foydalaniladi.

LEKIN: kurs ishi mazmunini yoritmaydi, faqat unga yo'nalish beradi va tuzilishini ko'rsatadi.

Shuni nazarda tutish kerakki, rejadagi masalalar ko'payib ketmasin, rejada eng muhim masalalar o'z ifodasini topishi, rejada ko'zda tutilgan masalalar hozirgi zamon talablari bilan aloqador bo'lishi kerak. Reja tuzilganda ko'zda tutilgan masalalarni aniq ifoda qilishga harakat qilish kerak. Ayrim hollarda talaba tuzgan reja oldin ko'zda tutilgan masalalarni takrorlaydi. Masalan, uchinchi masala birinchi masalani, to'rtinchi masala ikkinchi masalani takrorlamasligi kerak.

Kurs ishi tuzilishi

Kurs ishining tuzilishi umumiy qoida sifatida o'rnatilgan kirish, asosiy bo'lim, xulosa, statistic ma'lumotlar, foydalanilgan adabiyotlar va ilovalardan tashkil topadi. Kurs ishining barcha qismlari bir biri bilan o'zaro bog'langan va mavzuni ochib berishga xizmat qilishi talab etiladi.

Mavzuga tegishli amaliy ma'lumotlarni to'plash, tartibga keltirish, tasniflash, tahlil kilish va umumlashtirish jarayonida kurs ishining rejasi takomillashtirilishi yoki uning yo'nalishi o'zgartirilishi mumkin.

Kurs ishiga qo'yilgan asosiy talablar

Kurs ishining hajmi va formati

Kurs ishining umumiy hajmi kompyuterda yozilgan matnda o'rtacha 32-36 bet, qo'l yozmada 45-50 bet bo'lishi kerak.

Kurs ishi tuzilgan rejaga muvofiq alohida bandlarga, ya'ni paragraflarga bo'linadi. Bu bandlarning nomi qisqacha bo'lib, mavzuning mazmuniga mos tushishi va matnga muvofiq tarzda bosh harflar bilan yozilishi lozim. Betlar arab raqamlari bilan pastki qismning o'rtasida qo'yilishi kerak.

Kurs ishi A4 (210 x 297) formatli oq varaqning bir tomoniga 1,5 interval oraliqda, 14 shriftda yoziladi va uni yozish jarayonida quyidagi hoshiyalar o'lchamiga rioya qilinishi lozim:

Chap hoshiya – 30 mm. O'ng hoshiya – 15 mm. Pastki hoshiya -20 mm. Yuqori hoshiya – 20 mm.

Kurs ishi har bir vaog'i betlanadi va tikiladi yoki oddiy muqova qilinadi va titul varag' (1-ilova) uning ustiga yelimlanadi.

Kurs ishini raqamlash reja yozilgan varog'idan boshlanib, oxirgi betgacha hamma varag'larni qamrab olishi lozim. Reja yozilgan varaq birinchi bet hisoblanadi va unga raqam qo'yilmaydi. Kurs ishidagi barcha grafiklar, chizmalar, rasmlar, diagrammalar va boshqalarning nomi aniq qilib ustiga yozilishi va raqamlab chiqilishi lozim.

Rejada kurs ishining barcha bandlari, ya'ni kirish, asosiy qism, paragraflar, xulosa va takliflar keltiriladi.

Kurs ishining tarkibi

Kurs ishining tarkibiy tuzilishi quyidagi qismlarni qamrab olishi lozim:

- titul varog'i
- reja
- kirish qismi
- asosiy qism
- xulosa va takliflar
- foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati
- ilovalar
- mundarija.

Kirish qismining hajmi 3-5 betdan oshmasligi lozim. Unda nazariy va amaliy jihatdan mavzuning dolzarbligi asoslanadi, maqsadlar shakllantiriladi va vazifalar belgilanadi.

Asosiy qism faqat paragraflar yoki boblar va uning ichida paragraflar shaklida tasniflanishi mumkin. Bu qism kurs ishining umumiy hajmining taxminan 80-85 foizini tashkil qilishi kerak. Kurs ishining asosiy qismi paragraflarda berilishi va paragraflar soni kamida besh yoki oltita bo'lishi lozim.

Asosiy qismda mavzuning asosiy nazariy va metodik masalalari ko'rib chiqiladi, statistic ma'lumotlar tahlili natijalari ochib beriladi.

Xulosa va takliflar

Kurs ishining xulosa va takliflar qismi 3-6 bet atrofida bo'lib, unda talaba ilmiy tadqiqotning xulosa va takliflarini bayon etadi. Kurs ishining oxirida mavzuga taalluqli so'zlarning (20-30 ta) izohli ma'nosi berilishi maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida talaba kurs ishi yozish davomida foydalanilgan manbalar ro'yxatini keltiradi.

Ilovalarda asosiy matnda o'qishni qiyinlashtiradigan jadvallar, grafiklar, hujjatlar nusxalari, diagrammalar keltiriladi va raqamlanadi. Talaba tomonidan nashr etilgan ishlar ham ilovada berilishi mumkin.

Kurs ishining asosiy matnida mavzuni ochib berishga

qaratilgan va to'g'ri tuzib chiqilgan jadvallar, grafiklar, rasmlar, slayt diagrammalar va boshqa zaruriy materiallar keltirilishi lozim. Sahifaning atroflariga bezakli chiziqlar qilinishi mumkin.

Mundarijada kurs ishining barcha qismlari, ya'ni kirish, bob yoki bo'limlar, paragraflar, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar, ilovalar joylashgan sahifa raqamlari bilan birgalikda keltiriladi.

Kurs ishiga qo'yilgan talablar

Kurs ishlari o'quv jarayoni olib borilayotgan tilda yoziladi. Kurs ishi imlo xatolarsiz, ravon tushunarli tilda yozilishi, jumla va gaplar aniq ifodalanishi, ular o'zaro bog'liq bo'lishi va bir-birini to'ldirib turishi kerak. Unda keltirilayotgan statistik ma'lumotlar faqatgina ko'rgazma (illyustratsiya) vazifasini o'tab qolmasdan, xulosalar chiqarish va ularni isboti uchun xizmat qilishi lozim. Kurs ishida keltirilgan barcha asoslar va ma'lumotlarning aniqligi va haqiqiyligi uchun uning muallifi javobgardir.

Kurs ishi talaba tomonidan mustaqil ravishda shaxsan bajarilishi shart. Talaba tomonidan turli xil manbalardan dalillar, statistik ma'lumotlar, turli mualliflarning fikrlaridan iqtiboslar keltirish to'g'ri va ilmiy ma'lumotlari bilan ta'minlangan bo'lishi kerak. Kurs ishida ilmiy-ma'lumotlarga sayqal berish nashr etishga tayyorlanayotgan ilmiy ishlar talablariga javob berishi kerak.

Kurs ishini yozish jarayonida talaba shu sohada mavjud bo'lgan va o'zi foydalangan boshqa ilmiy tadqiqotlar, ilmiy maqolalar, ma'lumotnomalardan dalillar keltirishi zarur. Ilmiy-ma'lumotlarga sayqal berish davomida talaba quyidagi shartlarga rioya qilishi lozim:

kurs ishini yozish davomida foydalanilgan adabiyotlar va boshqa manbalardan dalil keltirish bir xil tartibda yoritilishi kerak;

Matnda foydalanilgan manbalar sahifa ostida izoh (snoska) tarzida aniq va to'liq keltirilishi, ya'ni muallif va adabiyotning nomi, nashriyoti, yili va beti keltirilishi kerak;

sahifa ostidagi izoh tarzidagi yozuvda vaqtli nashrlar, kitoblar, maqolalar nomi qo'shtirnoqqa olinmaydi;

sahifa ostidagi izoh (snoska) intervalda 10 shriftda yozilishi lozim.

kurs ishlari yozish jarayonida foydalanilgan adabiyot va ilmiy manbalar soni mavzuni ochib beradigan darajada bo'lishi zarur.

Ilmiy-nazariy adabiyotlardan foydalanish

Kurs ishini sifatli bajarishning muhim shartlaridan biri tanlab olingan mavzu bo'yicha mavjud maxsus adabiyotlarni chuqur o'rganish hisoblanadi.

Bunda ko'rib chiqilayotgan savollarga tegishli rasmiy ma'lumotlarni, ilmiy asarlarni, darsliklarni, ilmiy maqolalar to'plamlarini, gazeta maqolalarini, ilmiy anjumanlar materiallarini, statistic ma'lumotlarni o'rganib chiqish zarur.

Adabiyotlarni o'rganish jarayonida asosiy e'tiborni birinchi navbatda maqola yoki kitobning kurs ishi bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lgan qismlariga, ya'ni bob va paragraflarga qaratish kerak.

Shu bilan birga kurs ishini yozish jarayonida zarur savollarni tushirib qoldirmaslik maqsadida har bir o'rganilayotgan adabiyotni boshidan oxirigacha ko'z yugurtirib chiqish lozim.

Adabiyotlarni o'qish va o'rganish jarayonida kurs ishi bilan bog'liq bo'lgan savollardan parcha ko'chirib olish zarur. Har bir parchada uning manbasi va manbadagi sahifasi ko'rsatilishi kerak.

O'rganilayotgan adabiyotlardan ko'chirib olinayotgan parchalarni alohida qog'ozning faqat bir tomoniga, yozuv uchun hoshiya qoldirgan holda yozish maqsadga muvofiqdir. Adabiyotlar bilan tanishish jarayonida vujudga kelgan g'oyalarni shu holdayoq yozib qo'yish maqsadga muvofiqdir.

Kurs ishi rejasidagi har bir qismiga doir materiallar alohida-alohida ajratilishi talaba uchun qulaylik yaratadi.

Manbalardan olingan fikrlar, ma'lumotlar, jadval va

chizmalar (snoska tarzida) asoslanishi shart. Kurs ishini talab darajasida yozish uchun ko'p miqdordagi adabiyotni ko'rib chiqish va o'rganishtalab qilinganligi sababli parchalar shaklida to'plangan ma'lumotlarni tartibga solish lozim.

Shuningdek, yig'ilgan ma'lumotlarni har bir paragraf ichida yoritiladigan savollar bo'yicha ham tartibga solish maqsadga muvofiqdir.

Agar adabiyotlar manbalari bilan ishlash talaba tomonidan vijdonan amalga oshirilsa, u qaysi savollar bo'yicha qanday amaliy ma'lumotlar to'plash kerakligini va bu ma'lumotlarni qaysi yo'nalishda qayta ishlash va tahlil qilish kerakligini yaxshi biladi. Soha yo'nalishiga tegishli barcha materiallarni internet sahifalaridan izlab topish, ma'lumotlar to'plash ham mumkin. Bunda ilmiy ma'lumotlarni (chet el manbaalaridan) olish uchun albatta chet tilini (ayniqsa ingliz tilini) bilish talab qilinadi. Unda sohani Respublika va rivojlangan mamlakatlar miqyosida rivojlanish tendentsiyasi, soha ishlab chiqarishini asosiy ko'rsatkichlari, sohani rivojlanish istiqbollari va sohani dunyo darajasidagi texnik, texnologik, iqtisodiy to'liq bilishi, ilmiy muammolar ro'yxati belgilab olish kerak.

Kurs ishiga rahbarlik qilish

Kurs ishiga umumiy metodik rahbarlik ilmiy rahbar tomonidan amalga oshiriladi. Ilmiy rahbarning

asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

– kurs ishi yozish bo'yicha uslubiy ko'rsatmani har bir talabaga tarqatish;

– kurs ishi yozish bo'yicha vazifa berish;

– talabaga kurs ishi tuzilishi va rejasini ishlab chiqishda yordam berish;

– talabaga mavzu bo'yicha asosiy va qo'shimcha adabiyotlarni, ma'lumotlarni tanlashda yordam berish;

– talaba bilan birgalikda tadqiqot ob'ekti va doirasini, ob'ekt faoliyatini o'rganish, ma'lumotlar yig'ish va ularni tahlil qilish metodlarini aniqlash.

Ilmiy rahbar talaba tashabbusini turli yo'llar bilan rivojlantirishga va mustaqil ilmiy tadqiqot ishini amalga oshirishiga yordam beradi. Ilmiy rahbarning kurs ishi yozish masalasi bo'yicha maslahatlar berishi ilmiy rahbar tomonidan belgilangan va kafedra tomonidan tasdiqlangan jadval asosida o'z muddatida olib boriladi.

Ilmiy rahbar, unga taqdim qilingan kurs ishini tekshirib, o'z mulohazalarini bildiradi va ishni qaysi yo'nalishda o'zgartirish va to'ldirish kerakligi to'g'risida maslahat beradi. Yozib tugatilgan kurs ishi belgilangan muddatda ilmiy rahbarga topshiriladi. Ilmiy rahbar kurs ishini tekshirib chiqadi va uni himoyaga ruxsat berish to'g'risida o'z fikrini bildiradi.Ilmiy rahbar kurs ishi talab darajasida bajarilmagan bo'lsa, qabul qilmasligi mumkin.

Kurs ishi himoyasi

Belgilangan tartibda yozilgan kurs ishi (kompyuterda bajarilgan holda uning elektron variant bilan birga) talaba tomonidan rahbarga taqdim etiladi. Ilmiy rahbar roziligi bilan kurs ishi taqrizga yuboriladi. Taqrizda ko'rsatilgan kamchiliklarga talaba yozma ravishda javob beradi. Kurs ishi kafedraga belgilangan himoya kunidan 10 kun oldin topshiriladi. Kurs ishlari himoyasida ilmiy rahbar va mutaxassislik kafedrasidan professor-o'qituvchilar ishtirok etadi. Kurs ishi himoyasi tartibi quyidagilardan iborat:

1. Talaba 10-15 daqiqa davomida himoyada ishtirok etayotganlarga kurs ishining maqsadi, vazifalari, mazmuni hamda o'z tavsiyalari va takliflari to'g'risida axborot beradi.

2. Kurs ishi zamonaviy axborot texnologiyalari vositasida taqdimot (prezentatsiya) shaklida tashkil etiladi va o'tkaziladi.

3. Shundan so'ng talaba kurs ishi mavzusiga va u bilan bog'liq bo'lgan himoyada ishtirok etayotganlarning savollariga javob beradi.

4. Kurs ishi bahosi himoyada ishtirok etayotganlar va ilmiy rahbar tomonidan birgalikda talabaning javoblari asosida

belgilanadi.

5. Kurs ishi 100 ballik reyting tizimi asosida baholanadi.

6. Kurs ishi himoyasi natijasi sifatida ilmiy rahbarning tavsiyasi bilan ilmiy maqola shakliga keltirish va uni ilmiy jurnallarda nashr etishi mumkin.

7. Kurs ishini baholash

Maksimal ball – 100

Saralash ball – 55

86-100 ball -a'lo

71-85 ball –yaxshi

55-70 ball –o'rta.

Nazorat uchun savollar:

1.Kurs ishiga qanday talablar qo'yiladi?

2.Adabiyotlar bilan ishlashda nimalarga ahamiyat qaratiladi?

3.Kurs ishi qanday tuziladi?

4.Kurs ishi himoyasi haqida ma'lumot bering

5.Kurs ishini baholash mezonlari qanday uslubda olib boriladi?

7-mavzu. Boshlang'ich sinflarda ta'lim-tarbiyaga an'anaviy va pedagogik texnologik yondashuv

Reja:

1. Hozirgi zamon an'anaviy ta'limi
2. Boshlang'ich ta'limda an'anaviy va noan'naviy darslarning qiyosiy tahlili.
3. An'naviy ta'limning afzalliklari va kamchiliklari tahlili
4. Boshlang'ich Sinflarda "Tarbiya" Darslarida Innavatsion yondashuv

***

Tayanch tushunchalar: an'anaviy dars, mustaqil bajariladigan mash, yo'naltiruvchi dars, o'qitishning zamonaviy modeli, amaliyot orali o'rganish, ikki tomonlama fikr- mulohaza

***

1. Hozirgi zamon an'anaviy ta'limi.

O'nlab yillab o'tkazilgan tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, an'anaviy dars o'tish ta'limning o'ziga xos modellaridan biri bo'lib qolmoqda.

An'anaviy dars – muayyan muddatga mo'ljallangan, ta'lim jarayoni ko'proq o'qituvchi shaxsiga qaratilgan, mavzuga kirish yo'riqish, mustahkamlash va yakunlash bosqichlaridan iborat ta'lim modelidir.

O'quv materiali yangi va ancha murakkab bo'lganda, an'anaviy dars – ko'p hollarda ta'lim jarayonining birdan-bir metodi bo'lib qolmoqda.

Ma'lumki, an'anaviy darsda ta'lim jarayonining markazida o'qituvchi turadi. Shu bois ba'zida an'anaviy darsni markazida o'qituvchi turgan o'qitish usuli deb ham atashadi.

Markazda o'quvchi bo'lgan o'quv jarayonining, darsning maqsadi va uning ijobiy jihatlari quyida keltirilgan asoslarga tayanadi:

- O'quvchining o'qishga bo'lgan ishtiyoqini oshirib borish;
- Ilgari egallagan bilimlarni ham inobatga olish;
- O'qish jarayoni tezligini muvofiqlashtirish;
- O'quvchi tashabbusi va majburiyatini qo'llab-quvvatlash;
- Amaliyot orqali o'rganish;
- Ikki tomonlama fikr-mulohazalar bilan ta'minlash;
- O'qish jarayonini to'g'ri yo'lga qo'yish;
- O'qituvchi-o'quvchilar uchun o'quv jarayonini yengilashtiruvchi shaxs; O'quv jarayonini baholash.

An'anaviy dars o'tish modelida ko'proq ma'ruza, savol-javob, amaliy mashq kabi metodlardan foydalaniladi. Shu sabab, bu hollarda an'anaviy dars samaradorligi ancha past bo'lib o'quvchilar ta'lim jarayonining passiv ishtirokchilariga aylanib qoladilar. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli – tuman o'quvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini ko'tarilishiga olib kelar ekan.

Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirilib turilishi, o'quv materialini kichikkichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda bahs, munozara, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash tadqiqot rolli o'yinlar metodlarini qo'llash, rangbarang qiziqtiruvchi misollarning keltirilishi, o'quvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash, rang-barang baholash usullaridan, ta'lim vositalaridan joyida va vaqtida foydalanish talab etiladi.

An'anaviy dars o'tishning asosiy tarkibiy qismlari

1.Kirish.

- o'tgan materialni takrorlash
- dars maqsadini tushuntirish
- dars mazmuni va rejasi bilan tanishtirish.

2.Yangi mavzuni yoritish.

- yangi mavzuni kichik-kichik bo'lakchalarga bo'lib berish
- rang-barang misollarni imkoni boricha ko'rgazmali taqdim qilish – mavzudan chetlashmaslik
- materialning murakkab tomonlarini qayta tushuntirish
- o'quvchilarning tushunuvchanlik darajasini tekshirib borish - teskari aloqani ta'minlash.

3. Yo'naltirib turiluvchi mashq.

O'quvchilar mashq (yoki masalani) mustaqil bajarishadi, o'qituvchi esa ularni nazorat qilib, tuzatish kiritib boradi.

4. Mustaqil bajariladigan mashq.

O'quvchilar mashqni mustaqil holda o'qituvchi yordamisiz bajarishadi.

5. O'quvchilar mavzuni tushunganlik darajasini tekshirish.

6. Yakunlash

Dars mavzusining asosiy tushunchalari va o'quv maqsadlarini jamlash.

O'qitishning zamonaviy modellari

Bu modellarni shartli ravishda 3 ga ajratish mumkin.

- hamkorlikda o'rganish modeli
- modellashtirish
- o'rganishning tadqiqot modeli.

Bu modellar asosan o'quvchi shaxsiga qaratilgan bo'lib ularni boshqacha qilib markazda o'quvchi turgan ta'lim modellari deb ham atashadi.

Modellashtirish – real hayotda va jamiyatda yuz berayotgan hodisa va jarayonlarni ixchamlashtirilgan va soddalashtirilgan ko'rinishini (modelini) sinfxonada yaratish va ularda

o'quvchilarni shaxsan qatnashishi va faoliyat evaziga ta'lim olishini ko'zda tutuvchi metod.

Hamkorlikda o'rganish modeli – o'quvchilarni mustaqil guruhlarda ishlashi evaziga ta'lim olishini ko'zda tutadigan metod.

O'rganishning tadqiqot modeli – o'quvchilarni muayyan muammoni yechishga yo'naltirilgan, mustaqil tadqiqot olib borishini ko'zda tutuvchi metod.

An'anaviy (ta'lim jarayoni markazida o'qituvchi bo'lgan) metodlarning

Afzalliklari

• Ma'lum ko'nikmalarga ega bo'lgan va aniq ma'lum tushunchalarni, fanni o'rganishda foydali.

• O'qituvchi tomonidan o'qitish jarayonini va o'qitish muhitini yuqori darajada nazorat qilinishi.

• Vaqtdan unumli foydalanish.

• Aniq ilmiy bilimlarga tayanadi. Kamchiliklari

• O'quvchilar passiv ishtirokchi bo'lib qoladilar.

• O'qituvchining to'la nazorati barcha o'quvchilar uchun motivatsiyani vujudga keltirmaydi.

• O'quvchilar o'qituvchi bilan bevosita muloqotga kirisha olmaydi.

• Eslab qolish darajasi hamma o'quvchilarda bir xil bo'lmaganligi sababli, sinf bo'yicha o'zlashtirish darajasi past bo'lib qolishi mumkin.

• Mustaqil o'rganish va yechimlar qabul qilish uchun sharoitlar yaratiladi.

Zamonaviy (ta'lim jarayoni markazida o'quvchi bo'lgan) o'qitish metodlarining afzalliklari

• O'qitish mazmunini yaxshi o'zlashtirishga olib kelishi.

• O'z vaqtida aloqalarning ta'minlanishi.

• Tushunchalarni amaliyotda qo'llash uchun sharoitlar yaratilishi.

• O'qitish usullarining turli xil ko'rinishlari taklif etilishi.

• Motivatsiyaning yuqori darajada bo'lishi.

• O'tilgan materialning yaxshi eslab qolishi.

• Muloqotga kirishish ko'nikmasining takomillashishi.

• O'z-o'zini baholashning o'sishi.

• O'quvchilarning predmetning mazmuniga, o'qitish jarayoniga bo'lgan ijobiy munosabati.

• Mustaqil fikrlay oldaigan o'quvchining shakllanishiga yordam berish.

• Nafaqat mazmunini o'zlashtirishga yordam bermay, balki tanqidiy va mantiqiy fikrlashni ham rivojlantirish.

• Muammolar yechish ko'nikmalarning shakllanishi. Kamchiliklari

• Ko'p vaqt talab etilishi.

• O'quvchilarni har doim ham keraklicha nazorat qilish imkoniyatining pastligi.

• Juda murakkab mazmundagi material o'rganilayotganda ham o'qituvchi rolining past bo'lishi.

• «Kuchsiz» o'quvchilar bo'lganligi sababli «kuchli» o'quvchilarning ham past baho olishi.

O'qituvchining o'zi ham yaxshi rivojlangan fikrlash qobiliyatiga va muammolarni yechish ko'nikmalariga ega bo'lishining talab etilishi.

O'qitish jarayonidagi mavjud an'anaviy ta'lim bilan qurollangan ta'lim muassasalari endilikda o'z oldiga qo'yilgan davlat va ijtimoiy buyurtmani amalga oshirishga ojizlik qilmoqda.

Taniqli metodist olim M.N.Maxmutovning fikriga ko'ra, o'quv jarayonini tashkil etishning an'anaviy sxemasi o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini yetarli darajada rivojlantira olmaydi, ularning bilimga bo'lgan ehtiyojlarini, fanga bo'lgan qiziqishlarini qondira olmaydi, fao fikrlashni hamda bilishni e'tiqodga, e'tiqodni esa ongli ijtimoiy maqsadga muvofiq faoliyatga aylantirishni ta'minlay olmaydi.

Maktab, kasb-hunar kolleji va oliy o'quv yurtlari

o'qituvchilarining ilg'or tajribalari yoritilgan materiallarni o'rganish, shuningdek, kuzatishlar va suhbatlardan ma'lum bo'lishicha, ularning ko'pchiligi o'z amaliy faoliyatlarida kuchsiz avtoritar motivga asoslangan bir xildagi o'qitish jarayonlarini qisman o'zgartirgan holda foydalanishadi. Bunday hollarda o'zlashtirishning yuqori darajasiga deyarli erishib bo'lmaydi.

Haqiqatan ham, an'anaviy ta'lim jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalarga asoslangan zamonaviy ta'lim jarayoni bilan taqqoslaganda ular o'rtasidagi farq aniq ko'zga tashlanadi. (Jadvalga qarang).

Ta'lim jaaryonining o'ziga xos bosqichlari, xususiyatlari	**An'anavi y ta'lim jarayoni**	**Zamonaviy pedagogik texnologiyalarga asoslangan ta'lim jarayoni**
Pedagogik munosabatlar tipi.	Sub'ekt-obyekt	Sub'ekt-obyekt
Pedagogik munosabatlar tipi.	Avtoritar	Insonparvarlashtirish va demokratlashtirish, o'zaro hamkorlik.
Darsning maqsadi	Bilimlarni o'zlashtirish, ko'nikma va malakalarni hosil qilish, o'quv materialini tushunish.	Shaxsning qiziqishi, motivini rivojlantirish,aqliy, ma'naviyahloqiy, ruhiy va jismoniy barkamolligini ta'minlash.
Ta'limning harakatlantiruvchi kuchi	Tahdid, buyruq taqiqlash, jazolash, baho,boshqalarga taqqoslab, haxsni yoki kamsitish ish rag'batlantir	Bilish quvonchi, o'zidagi ijobiy o'zgarishlarni xis qilish, o'ziga va o'z bilimiga ishonning paydo bo'lishi, o'zini va boshqalarni hurmat qilish, o'zaro hamjixatlikka soslangan qulay ijtimoiy psixologik muhit

O'quvchining vazifasi	Axborotni qabul qilish, yodlash, axborotni qayta ishlamagan holda javob berish va tegishli bahoni kutish.	O'quv topshirqlari va muammoni hal etishga oid individual, guruhli izlanishlarda ishtirok etish, doimo o'z bilimini boyitish va mustahkamlash maqsadida muntazam va sidqidildan mehnat qilish, o'zini, iqtidorini namoyon etish.
Ta'limning yakuniy natijasi	DTS va dastur talablariga mos bilim, ko'nikma va malakalarning shakllanishiga erishish	O'quvchilarning aqliy, ma'naviyahloqiy, jismoniy, ruhiy barkamolligiga erishish, bilimlarni egallash usullari, o'zlashtirgan bilimlarni yangi, kutilmagan vaziyatlarda qo'llashga o'rgatish, o'z ustida mustaqil va muntazam ishlash ko'nikmalarini hosil qilish.

An'anaviy ta'lim texnologiyalariga asoslangan ma'ruza, seminar, sinov darslarining ta'lim jarayonida tutgan o'rni va qimmatini kamaytirmagan holda, ularni hozirgi zamon talablari asosida takomillashtirish yo'llari ustida qayg'urish zarur.

Mazkur darslarni takomillashtirishda quyidagilarga e'tibor qaratilishi ko'zda tutiladi:

Pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish. Hamkorlik pedagogikasiga amal qilish.

1. Ta'lim jarayonini demokratlashtirish. O'quvchilarga tanlash huquqini berish.

2. O'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, o'zaro hamjihatlikka asoslangan qulay ijtimoiy – psixologik muhit yaratish.

3. O'quvchilarning ijodiy va mustaqil ishlarini samarali tashkil etish.

4. Ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlarda zamonaviy ta'lim texnologiyasi elementlaridan foydalanish.

Bugungi ta'lim jarayoni pedagogning shaxsga bo'lgan insonparvarlashtirilgan munosabati bolalarni sevish,

ularning taqdiri uchun qayg'urishi, bolalarga ishonchning yuqoriligi, o'zaro hamkorlikning vujudga kelishi, muloqot madaniyatining yuqori darajada bo'lishi, ta'lim oluvchilarni to'g'ridan-to'g'ri majburlashdan voz kechish va aksincha ijobiy rag'batlantirishning usutnligi tufayli ko'zlangan maqsadga erishish, bolalar faoliyatida uchraydigan kamchiliklarga chidamli bo'lish, ularni bartaraf etishning samarali usullarini qo'llashda namoyon bo'lsa, ta'lim arayonini demokratlashtirish esa o'qituvchi va o'quvchilar huquqlarini tenglashtirish, ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilarga tanlash huquqining berilishi, o'z fikri, nuqtai nazarini erkin bayon etishni taqozo etadi.

Zamonaviy ta'lim jaryonida o'quvchilar va o'qituvchilar munosabatining o'ziga xos jihati o'quvchilar mustaqilligi va o'quv faoliyatini boshqarish emas, balki hamkorlikda tashkil etish, ta'lim olishda majburlash emas, balki o'quvchilarni ishontirish, biror-bir faoliyatni amalga oshirish buyruq orqali emas, balki shu faoliyatni samarali tashkil etish, shaxsning ehtiyoji, qiziqishi, imkoniyatlarini chegaralash emas, balki erkin tanlash huquqini berish sanaladi.

Yangi munosabatlarning asosiy mohiyati, an'anaviy ta'limda ko'zda tutilgan natijalarni bermayotgan majburan o'qitishdan voz kechish va uning o'rniga:

- o'zaro ishonchga asoslangan talabchanlik;
- ta'lim jarayonini samarali tashkil etish orqali o'quvchilar o'rtasida qiziqish uyg'otish va ongli intizomni vujudga keltirish;
- o'quvchilarni muvafaqqiyatli bilim olishga yo'llovchi hamkorlikning paydo bo'lishi;
- muntazam faoliyatning tashkil etilishi;
- tegishli talablarni jamoa orqali qo'llashni amalga oshirish muhim sanaladi.

3. Zamonaviy ta'lim jarayonini tashkil etish metodlari

- o'rta saviyali o'quvchiga nisbatan mo'ljal olishdan voz kechish;

- o'quvchilarning eng yaxshi sifatlarini aniqlash va rivojlantirish;
- ta'limda psixologik-pedagogik diagnostikani qo'llash orqali o'quvchilarning qiziqishi, ehtiyoji, qobiliyati, shaxsiy sifatlari, aqliy faoliyatning xususiyatlarini aniqlash;
- o'quvchilar o'zlashtiradigan bilim, ko'nikma va malakalar dinamikasini tasavvur qilish;
- o'quvchi shaxsi rivojlanishining dasturiga tegishli o'zgartirishlar kiritish talab etiladi.

An'anaviy ta'lim	Rivojlantiruvchi ta'lim
Boshlang'ich (asosiy) maqsad	Aniq, so'zsiz bajaruvchi shaxsni tayyorlash
Ko'rsatma	Shaxsni jahon standarti talabiga javob beradigan, o'ziga munosabatini bil dira oladigan, mustaqil faoliyat yurita oladigan ijodkor, tadbirkor shaxsni tayyorlash, mustaqil ishlashga, o'z-o'zini tarbiyalashga sharoit yaratish
Dastur asosida o'rganish	Fan sohasida berilayotgan materialni yodlash savollarga javob o'zi mustaqil javob topa olishi, yodlash emas, fan mazmunini o'zi tushunib etishi, kerakli bilimni qidirib topa olishi.
Ta'limiy (didaktik) maqsadlar	Bilim, ko'nikma, malakalarni dars jarayonida o'quvchilarda shakllantirish o'z fikralarini mustaqil bayon etishga o'rganish, kerakli adabiyotlardan ustalik bilan foydalanish, ularni izlashga, topishga o'rgatish.
Metodlar	Informatsion, reproduktiv. Muammoli, qisman reproduktiv – muammoli izlanishli axborot-reproduktiv, aktiv, interaktiv.
Dars vaqtida o'quvchilar faoliyatini tashkil etish shakllari	Frontal (bir necha, yakka holda, juft bo'lib, o'quvchidan yakka holda) guruhli, frontal shaklda.

O'quv jarayonida o'quvchining o'zi o'ziga baho berishi, tanqidiy qarashi rivojlanadi. O'quvchi uchun dars qiziqarli o'qitilayotgan predmet mazmuniga aylanadi. O'qish jarayoniga ijodiy yondashuv, ijobiy fikr namoyon bo'ladi. Har bir

o'quvchining o'zi mustaqil fikr yurita olishiga, izlanishga, mushohada qilishga olib keladi.Interfaol usulda o'tilgan darslarda o'quvchi faqat ta'lim mazmunini o'zlashtiribgina qolmay, balki o'zining tanqidiy va mantiqiy fikrlarini ham rivojlantiradi. Xulosa shuki, bunday sharoitda o'qituvchi yuksak rivojlangan fikrlash qobiliyatiga, muammolar bo'yicha chuqur mushohoda yuritishga, muammolarni o'z vaqtida echa oladigan qobiliyatga ega bo'lishi kerak.

Interfaol metodlarda darsni tashkil etishda o'quvchi shaxsini rivojlantirish o'zi – o'ziga zamin yaratishdan boshlanishi kerak. Ya'ni o'quvchining:

- O'zi mustaqil mutoala qilishi, o'qishi asosida bilim olishi;
- O'zini -o'zi anglab etishga, anglab tarbiya topishga;
- O'z kuchi va imkoniyatlariga ishonch bilan qarashga;
- O'quv mehnatiga mas`uliyat xissi bilan qarashga;
- O'z faoliyatini mustaqil tashkil eta olishi, har bir daqiqani g'animat bilishga;
- O'quv mehnatiga o'zida hoxish, istak uyg'ota olishga;
- Har qanday vaziyatda faollik ko'rsata olishga;

Ayniqsa, hozirgi tezkor axborot manbalaridan unumli foydalana olishni asosiy va bosh maqsad qilib olishga o'rganmog'i zarur.

Mashg'ulot turi asosan yagona dars hisoblanadi. Dars ma'lum bir o'quv predmeti, mavzuga oid bir xil material ustida ishlaydi.O'quvchilar faoliyatini o'qituvchi boshqaradi, har bir o'quvchining bilim darajasini baholaydi, yil oxirida o'quvchini sinfdan – sinfga ko'chirishni ham u hal qiladi, ya'ni o'quvchilarning taqdirining hal etilishi o'qituvchi qo'lidadir.

Interfaol metodlar – shunday metodlarki, u o'quvchilarning o'zaro muloqot va o'zaro ta'siridagi dars jarayonini amalga oshiruvchi usuldir. "Interaktiv" so'zi ingliz tilidan olingan "Interakt", ya'ni "Inter" – o'zaro, "akt" – harakat, ta'sir, faollik ma'nolarini beradi.

Interfaol usullardagi darslar o'quvchini ijodiy fikrlashga,

olingan axborotlarni o'zaro faollikda hal etishga, o'z fikrini erkin bayon etishga, tashabbuskorlikka, guruhlarda masalalar echimini topishga, hamkorlik, hamjixatlikda ish yuritishga, fikrni mantiqan yozma ravishda bayon etishga chorlaydi.

Interfaol metodlarda ish yuritish, an`anaviy usullardan voz kechish degani emas. Balki ta'lim mazmunini o'zaro faollikda hal eta olish demakdir.

Hozirda yangi metodlarni yoki innovatsiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish haqida gap borganda interfaol usullarining o'quv jarayoniga qo'llanilishi tushuniladi. Interfaollik bu o'zaro ikki kishi faolligi, ya'ni o'quv – biluv jarayoni o'zaro suhbat tariqasida dialog shaklida (kompyuter aloqasi) yoki o'quvchi – o'qituvchining o'zaro muloqoti asosida kechadi.

Interfaollik – o'zaro faollik, harakat, ta'sirchanlik, u o'quvchi va o'qituvchi muloqotlarida sodir bo'ladi.

Dars jarayonida bir – birlarini qo'llab – quvvatlash, o'zaro samimiy, do'stona munosabatlar vujudga keladi. Bu muhitni yaratilishi juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Boshlang'ich ta'lim darslarida tashkil etilayotgan ta'lim-tarbiya jarayonini interfaol metodlar asosida tashkil etishga bo'lgan ijtimoiy buyurtma mohiyatini nazorat guruhi respondentlarining 34 foizi, tajriba guruhining 43 foizi ijobiy tarzda e'tirof etgan bo'lsalar, tegishli ravishda 30/21 foiz respondentlar esa boshlang'ich ta'lim darslari faoliyatini interfaol metodlar asosida tashkil etish muammosining u qadar dolzarblik kasb etmaslikligini, O'zbekiston Respublikasida kechayotgan o'tish davri sharoitidagi ayrim muammolarning mavjudligi bu borada muayyan yutuqlarni qo'lga kiritish imkonini bermasligini ta'kidlaydilar.

Nazotar uchu savollar:

1. An'anaviy dars o'tish usuli ta'limning qanday modeli hisoblanadi?

2. An'anaviy dars qanday bosqichlardan iborat?

3. O'qituvchi tomonidan o'qitish jarayonini va o'qitish muhitini yuqori darajada nazorat qilinishi qanday amalga oshiriladi?

4. Vaqtdan unumli foydalanish deganda nimalarni tushunasiz?

5. Aniq ilmiy bilimlarga tayanish nimalarni o'z ichiga oladi?

6. O'quvchilar qanday xolatlarda passiv ishtirokchi bo'lib qoladilar?

7. Motivatsiyaning yuqori darajada bo'lishi uchun nimalarga ahamiyat berish kerak?

8. O'quvchilar o'qituvchi bilan bevosita muloqotga kirisha olmasligiga nima sabab bo'ladi?

9. Eslab qolish darajasi hamma o'quvchilarda bir xil bo'lmaganligi qanday xolatni keltirib chiqaradi?

8-mavzu: Pedagogik mahorat asoslari va uning tarkibiy qismlari

Reja:

1. Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari va ularning mohiyati.
2. Pedagogning kommunikativ kompetentligi.
3. Ta'lim jarayonini samarali boshqarish va pedagogik nizolarni hal etish.
4. Zamonaviy pedagog imidji.

***

Tayanch tushunchalar: mahorat, pedagogik mahorat, pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari, pedagogik bilimdonlik, pedagogik refleksiya, pedagogik odob, pedagogik odobning asosiy shakllari, pedagogik obro', pedagogik qobiliyat, pedagogik qobiliyat turlari, pedagogik muloqot madaniyati, pedagogik muloqot turlari, pedagogik muloqot uslublari, pedagogik hamdardlik, pedagogik relaksatsiya, pedagogik nazokat (takt), pedagogik tajriba, nizo, pedagogik nizo, pedagogik nizo turlari, pedagogik nizolarni hal qilish yo'llari.

***

1. Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari va ularning mohiyati. "Pedagogik mahorat" tushunchasi o'tgan asrning 80-90-yillarida ilmiy-pedagogik jihatdan asoslanib, OTMda mustaqil fan sifatida o'qitila boshlagan. "Pedagogik

texnologiya" fani o'qitila boshlagach esa "Pedagogik mahorat" fanining asoslari uning mazmuniga singdirib yuborildi.

Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimida "Pedagogik kompetentlik va va kreativlik asoslari" moduli negizida tinglovchilarni

pedagogik mahorat asoslar bilan tanishtirish maqsadga muvofiqdir. Zero, tinglovchilar tomonidan pedagogik mahoratning tarkibiy elementlari bilan tanishtirish, ularda pedagogik texnika, nutq madaniyati, pedagogik deontologiya, kommunikativ qobiliyat, pedagogik nizo, shuningdek, zamonaviy pedagogning imidji to'g'risidagi ma'lumotlarning o'zlashtirilishi va mazkur bilimlar negizida zarur malakalarning o'zlashtirilishi OTMda tashkil etiladigan pedagogik jarayon sifatini yaxshilash, samaradorligini ta'minlashni kafolatlaydi.

"Pedagogik kompetentlik va va kreativlik asoslari" moduli bo'yicha tinglovchilarni pedagogik mahorat va uning tarkibiy elementlari bilan tanishtirish jarayonida quyidagi vazifalar hal qilinadi: tinglovchilarni pedagogik mahoratning tarkibiy qismlariga doir nazariy bilimlar bilan qurollantirish; ularda pedagogik faoliyatni oqilona tashkil etish, pedagogik jarayonni samarali yo'lga qo'yish ko'nikma va malakalarini rivojlantirish; tinglovchilarning pedagogik va nutq texnikasiga ega bo'lishlarini ta'minlash; ularda pedagogik deontologiya va pedagogik madaniyat sifatlarini tarkib toptirish, pedagogik qobiliyatni rivojlantirish; tinglovchilar tomonidan pedagogik muloqot, pedagogik nazorat (takt) va pedagogik ta'sir ko'rsatish malakalarini yetarli darajada o'zlashtirilishini ta'minlash; ularda pedagogik madaniyat sifatlarini shakllantirish.

Oliy ta'lim muassasalari pedagoglarining kasbiy mahoratlari haqida so'z yuritishdan avval "mahorat" va "pedagogik mahorat" tushunchalarining mohiyati bilan tanishib olish maqsadga muvofiqdir.

Pedagogning mahorati bevosita kasbiy-pedagogik faoliyatda ko'rinadi. Shu sababli u pedagogik jarayonning

umumiy mohiyatini chuqur anglay olishi, bu jarayonda ustuvor ahamiyat kasb etadigan qonuniyatlardan xabardor bo'lishi, pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish mexanizmlarini puxta egallay bilishi lozim.

Ta'lim jarayonining faol ishtirokchisi bo'lgan pedagogning pedagogik mahorati uning shaxsi, ish tajribasi, fuqarolik maqomi, mutaxassis sifatidagi mavqei, u tomonidan pedagogik texnikaning yetarli darajada egallanganligi, kasbiy faoliyatning individualligidan dalolat beradi.

Pedagogik mahorat yaxlit tizim bo'lib, uning tarkibida bir qator sifatlar ko'zga tashlanadi. Jumladan:

Tarkibiy qismlar

Pedagogik bilimdonlik
Pedagogik relaksatsiya
Nutq texnikasi
Pedagogik odob
Kommunikativ ta'sir ko'rsatish qobiliyati
Pedagogik ijodkorlik
Pedagogik qobiliyat
Pedagogik takt
Pedagogik tajriba
Pedagogik muloqot madaniyati
Pedagogik texnika
Pedagogik madaniyat

Pedagogik mahoratning muhim tarkibiy qismlari:

Pedagogik mahoratning asosini pedagogik bilimdonlik tashkil etadi.

Bilimdon pedagog mutaxassis sifatida pedagogik jarayon va munosabatlarni maqsadga muvofiq samarali shakl, usul hamda vositalarini yetarli darajada o'zlashtira olgan bo'lishi zarur. Quyidagi sifatlar bilimdon pedagogga xos sanaladi:

Bilimdon pedagogga xos sifatlar:

- ijtimoiy sub'ektlar bilan o'zaro aloqada, madaniy muloqotda bo'lish;

- mutaxassislik yo'nalishi bo'yicha axborotlarni izlash, topish, ularni ta'lim mazmuniga tayangan holda qayta ishlash va kasbiy faoliyat jarayonida

- ulardan samarali foydalana bilish;

o'quv axborotlarini talabalarga yetkazib bera olish

Pedagogning kasbiy bilimdonligida talaba bilan sub'ektiv munosabat o'rnata olish; pedagogik jarayonlar mohiyati, pedagogik voqelikni izchil idrok qila bilish; jahon pedagogik madaniyati asoslarini hamda milliy pedagogik tajribani o'rganish, ularni integratsiyalashtirish asosida o'z faoliyatiga tatbiq etish; innovatsion yangiliklar bilan doimiy xabardor bo'lish; shaxsiy tajribalarni umumlashtirish va talabalarga uzatish; kasbiy fidoiylik hamda pedagogik texnologiyalarni egallash borasidagi BKMning o'zlashtirilganligi namoyon bo'ladi.

Pedagogik bilimdonlik negizida, yana shuningdek, pedagogik refleksiya (lot. "reflexio" – ortga qaytish, aks etish) ham ko'zga tashlanadi. Manbalarda "refleksiya" tushunchasi "kishining o'z xatti-harakatlari va ularning asoslarini tushunib yetishi, fahmlashiga qaratilgan nazariy faoliyati; bilishning alohida faoliyati", "shaxsiy kechinmalari, his-tuyg'ulari va o'y-xayollari mohiyatini fikrlash orqali anglash" sifatida talqin etiladi.

Pedagog faoliyatida uning odobi ham yaqqol aks etadi. Qolaversa, pedagogik odob ta'lim va tarbiya jarayonlari muvaffaqiyatini ta'minlovchi muhim talab hamda omillardan biri sanaladi.

Mazkur talablar pedagog tomonidan tashkil etiladigan pedagogik mehnat faoliyat jarayonini boshqaruvchi muhim omil hisoblanadi.

Pedagog odob talablarining tizimi pedagog tomonidan kasbiy burchni ado etish, jamiyat, pedagogik jamoa va talaba oldidagi axloqiy majburiyatlarini bajarishida o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik odob talablarining tizimi o'qituvchi tomonidan kasbiy burchni ado etish, jamiyat, pedagogik jamoa va talaba oldidagi axloqiy majburiyatlarini bajarishida o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Pedagogik odob pedagogik axloq va pedagogik jarayonda namoyon bo'ladigan axloqiy qadriyatlar kabi asosiy kategoriyalarning mohiyatini yoritishda yetakchi o'rin tutadi. Pedagog faoliyatida ham barcha umuminsoniy va milliy axloqiy qadriyatlar yetakchi o'rin tutadi. Shunday bo'lsa-da, pedagogik odob sirasida pedagogik qarashlarni, pedagogik faoliyat va munosabatni ifodalovchi muhim kategoriyalar asosiy o'rinni egallaydi:

Pedagogik odobning asosiy shakllari

Pedagogik odobning asosiy shakllari quyidagi mazmunga ega:

1. Kasbiy-pedagogik burch. Ezgulik va yovuzlik, adolat va adolatsizlik, to'g'riso'zlik va yolg'onchilik, rahmdillik va shafqatsizlik, ko'ngli oqlik va ko'ngli qoralik, vatanparvarlik va vatanfurushlik, tinchlik va urush kabi umuminsoniy axloqiy qadriyatlar insonlar hayoti, turmush tarzi va xatti-harakatlarida o'ziga xos o'lchov bo'lib xizmat qiladi.

Pedagogik faoliyatda ham pedagog ushbu qadriyatlarni ulug'lay olishi, ularga tayangan holda faoliyatni tashkil etishi lozim. Shuningdek, har bir pedagog kasbiy-pedagogik burchini to'la anglay olishi, uni ado etish yo'lida amaliy harakatlarni tashkil eta bilishi zarur. Pedagog tomonidan jamiyat, uning a'zolari, pedagogik va talabalar jamoasi oldida qanday vazifalarni bajarishi zarurligini, kasbiy-pedagogik burchni bajarishda qanday tamoyillarga tayanishni aniq belgilab olinishi ham shaxs, ham mutaxassis va fuqaro sifatida o'z mavqeini mustaqil belgilash imkoniyatini yaratadi. Agarda u o'z kasbiy faoliyatini mavjud axloqiy tamoyillarga muvofiq tashkil eta olsa, u holda o'z-o'ziga bo'lgan hurmati ortadi, o'z kuchiga ishonch paydo bo'ladi. Bu esa pedagogni yangidan yangi yutuqlarni qo'lga kiritishga rag'batlantiradi. Agarda bordi-yu, pedagog kasbiy-

pedagogik burchini anglasa-da, biroq, uni mavjud axloqiy talablarga muvofiq tashkil eta olmasa, u holda, eng avvalo, o'ziga bo'lgan hurmatni yo'qotadi, o'zini shaxs sifatida yuqori baholay olmaydi.

2. Pedagogik adolat. "Adolat tushunchasi muayyan tarixiy shart-sharoit va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar bilan belgilanadi. Adolatning axloqiy jihati insonlararo muomalada bir xil munosabatda bo'lishni, bir-birining izzat-nafsiga tegmaslikni, axloq-odob qoidalariga rioya qilishlikni bildiradi". Qolaversa, adolat insoniy qadr-qimmat bilan uning jamiyat tomonidan tan olinganligi, mavjud axloqiy qoida va majburiyatlar o'rtasidagi o'zaro mutanosiblikni tavsiflashga xizmat qiladi. Pedagogik adolat o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, u pedagogning pedagogik jarayonga ob'ektiv, haqqoniy yondasha olishi, uning talabalar hulq-atvorini jamoa oldidagi xizmatlariga muvofiq baholash olishdagi axloqiy tarbiyalanganlik darajasi (ezgu ishlari, qat'iyati, jiddiyligi, insoniyligi)ni ifodalaydi.

3. Pedagogik majburiyat (pedagogik deontologiya). Pedagogik odobning muhim kategoriyalaridan biri bo'lgan – pedagogik majburiyat tushunchasida jamiyat tomonidan o'qituvchi shaxsiga, u tomonidan bir qator pedagogik majburiyatlarning bajarilishiga nisbatan qo'yiladigan talab va axloqiy yo'l-yo'riq, ko'rsatmalarni o'zida jamlaydi. Pedagog kasbiy faoliyatni tashkil etishda quyidagi majburiyatlarni bajara olishi zarur: muayyan mehnat vazifalarini, asosan, aqliy mehnat vazifalarini amalga oshirish; talabalar, ularning ota-onalari, hamkasblar bilan o'zaro munosabatni to'g'ri tashkil etish; tanlagan kasbiga, talabalar va pedagogik jamoaga hamda jamiyatga bo'lgan shaxsiy munosabatini chuqur anglash. Pedagogik majburiyatlar sirasida, yana shuningdek, kasbiy faoliyatni tashkil etishga ijodiy munosabatda bo'lish, o'ziga nisbatan talabchanlik, kasbiy bilimlarini boyitib va pedagogik malakasini oshirishga intilish, talabalar va ularning ota-onalari bilan o'zaro hurmatga asoslangan va talabchan munosabatni

o'rnatish, murakkab pedagogik nizolarni ijobiy hal qilish ko'nikmalarini o'zlashtirish kabilarni ham ko'rsatish zurur.

4. Pedagogik obro'. Pedagogning pedagogik obro'ga ega bo'lishi u tomonidan tashkil etiladigan kasbiy faoliyat samaradorligini kafolatlaydi.

Pedagogik o'zi tomonidan qozongan obro'ga tayanib, talabalarning hulq- atvorlarini boshqaradi, ularning ishonchlarini qozonadi. Pedagogik obro' pedagogning ma'naviy-axloqiy va pedagogik-psixologik tayyorgarligini ham ifodalaydi. U ega bo'lgan obro' darajasini uning chuqur bilimi, zakovati, mahorati, o'z ishiga bo'lgan munosabati va boshqalar belgilaydi.

Pedagogik qobiliyat. Pedagogik jarayonning qanchalik samarali, muvaffaqiyatli tashkil etilishi o'qituvchining pedagogik qobiliyatga egaligiga bog'liq. Manbalardan birida "qobiliyat" tushunchasi shunday sharhlanadi: shaxsning osonlik bilan biron faoliyatni egallay olishini ta'minlaydigan individual psixologik xususiyat. Qobiliyat umumiy va maxsus qobiliyatlar tarzida ikki guruhga ajratiladi. "Umumiy qobiliyatlar shaxs faoliyatining asosiy turlarida namoyon bo'lsa, kasbiy faoliyatning ayrim turlarida namoyon bo'ladigan qobiliyatlar (matematik, texnik, musiqa, tasviriy san'at, adabiyot (poeziya va proza), jismoniy tayyorgarlik va boshqalar) maxsus qobiliyatlar deb yuritiladi...

Qobiliyatning yetakchi xususiyatlaridan biri – narsa va hodisalar mohiyatini ijodiy tasavvur qilishdir".

Pedagogik qobiliyat – pedagog tomonidan pedagogik faoliyatni oqilona tashkil etilishi va olib borilishini, amaliy vazifalarning samarali bajarilishini ta'minlashda ahamiyatli bo'lgan xususiyatlar

Pedagogik qobiliyatga xos ustuvor xususiyatlar quyidagilar sanaladi:

- pedagogik takt (pedagogning talabalar bilan turli faoliyat shakllari bo'yicha tashkil etiladigan muloqotda mavjud axloqiy tamoyillar, hulq-atvor qoidalarga rioya qilishi,

- ularga to'g'ri yondashish malakalariga egaligi);

- pedagogik kuzatuvchanlik (pedagogning talabalarga xos bo'lgan hatto eng oddiy xususiyatlarni ham payqab olish qobiliyatiga egaligi);

- talabalarga bo'lgan muhabbat (ularga mehr qo'yish, mehribonlik ko'rsatish, ichki kechinmalari, his-tuyg'ulari, orzu-umidlari,

hayotiy intilishlari bilan o'rtoqlashish, ular uchun qiyin bo'lgan vaziyatlarda g'amxo'rlik qilish);

- bilimlarni uzatishga bo'lgan ehtiyoj (pedagog sifatida o'zidagi mavjud bilimlarni talabalarga berishga intilish)

O'qituvchiga didaktik qobiliyatga egaligi ham muhim ahamiyatga ega.

Aksariyat o'qituvchilarda kasbiy xarakterga ega qobiliyatlar bilan birga noyob qobiliyatlarga ham namoyon bo'ladi.

Mahoratli o'qituvchilarda quyidagi noyob qobiliyatlar ham ko'zga tashlanadi:

- bir vaqtning o'zida bir necha faoliyatni bajara olish (m: eshitish, ko'rish, o'qish, yozish, fikr yuritish, muloqot qilish va b.);

- atrofida kechayotgan ikki yoki bir necha voqelikni birdek qabul qilish (m: bir o'quvchining ma'ruzasini eshitgani holda, sinfdagi boshqa o'quvchilarning faoliyatlarini kuzata olish);

- o'ta qiziquvchanlik (tabiat va jamiyatda kechayotgan har bir voqea-hodisa (garchi ahamiyatsiz bo'lsa-da) mohiyatini bilishga intilish, haddan ziyod ko'p savollarga javob topishga intilish);

- miya faoliyatining biokimyoviy 1v5a elektrik faolligi (miya to'xtovsiz faoliyat ko'rsatadi, nihoyatda kam vaqt "dam oladi", bilish jarayonida noaniqliklar ko'zga tashlansa, ular tezda bartaraf etiladi;

- kam uxlash xususiyatiga egalik;

I. **Pedagogning kommunikativ kompetentligi.** Pedagogga xos bo'lgan mahorat asosini tashkil etuvchi pedagogik muloqot madaniyati uning talabalar jamoasi, ota-

onalar, hamkasblar hamda rahbariyat bilan uyushtiriladigan muloqot jarayonida namoyon bo'ladi. Bunda, ayniqsa, pedagogning talabalar jamoasi bilan o'zaro muloqoti muhim ahamiyatga ega. Pedagog talabalar bilan muloqotga kirishish, uning samarali bo'lishiga intiladi.

Pedagogik muloqot quyidagi yo'nalishlarda tashkil etiladi :

Pedagogik muloqot yo'nalishlari

Pedagogik muloqot ruhiy-psixologik ta'sir kuchiga ega. Shu sababli uni tashkil etishda muloqot jarayonining ijobiy bo'lishini ta'minlash pedagogning zimmasiga katta mas'uliyatni yuklaydi. Agarda to'g'ri tashkil etilgan pedagogik muloqot talabada qo'rquvning yuzaga kelishi, ishonchsizlikning tug'ilishi, diqqat, xotira va ish qobiliyatining susayishi, nutq me'yorining buzilishi kabilarga sabab bo'lsa, aksincha, nazariy-pedagogik va amaliy jihatdan to'g'ri tashkil etilgan muloqot yuqoridagi holatlarning aksini keltirib chiqaradi. Natijada talabalarda o'qishga va mustaqil o'rganishga, fikrlashga bo'lgan qiziqish ortadi.

Pedagogik muloqot o'ziga xos ijtimoiy-psixologik jarayon ham sanaladi.

Mazkur jarayonda quyidagi vazifalar bajariladi

Vazifalar

Muloqot jarayonida talaba tomonidan bildirilayotgan fikrlar, uning qarashlari shaxsni yaqindan o'rganish uchun imkoniyat yaratadi. Talaba shaxsini yaqindan bilish, uning ichki kechinmalari, o'y-fikrlari, his-tuyg'ulari, orzu-umid, maqsad va hayotiy intilishlaridan xabardor bo'lish pedagogik jarayonning metodik, ruhiy jihatdan to'g'ri tashkil etilishini ta'minlaydi. Zero, bu jarayonda pedagogik talaba shaxsiga xos yosh, psixologik va shaxsiy xususiyatlarni inobatga olgan holda faoliyatni tashkil etadi.

Muloqot jarayonidagi axborot almashinuvi talabaning o'zaro ijtimoiy jarayonlar, shaxs kamolotining kechishiga doir ma'lumotlar almashishini ta'minlaydi. Pedagog va talabalar

o'rtasida hamkorlikni qaror toptirish esa har qanday vaziyatda ham ular o'rtasida o'zaro axborot almashinuvi samarali ro'y berishini uchun sharoit yaratadi. Bu jarayonda pedagog talabalarning eng yaqin maslahatchisi, yo'lboshchisi va rahbariga aylanadi. Muloqot chog'ida talabalar tomonidan o'z shaxsini, "meni"ni, qadr-qimmatini yetarlicha baholash va o'z oldidariga hayotiy maqsadlarni qo'ygan holda olg'a intilishlarini ta'minlashga jiddiy e'tibor qaratish lozim. Muloqot jarayonida axborot almashish vazifasining hal qilinishi quyidagi vositalar asosida ro'y beradi:

1) nutq;

2) paralingvistik tizim (yun. "pará" – "yaqin", muloqot tarkibida so'zli, g'oyaviy ma'lumotlarni so'zsiz vositalar bilan uzatilishi);

3) ekstralingvistik tizim (ingl. "exterior" – "tashqarida", nemischa "linguistik" – gapirayotgan shaxs tomonidan nutqning bevosita ijtimoiy vazifalar bilan bog'liq holda tashkil etishi – nutqiy tanaffuslar, kulgu, yo'talish, nafas olish, yig'lash, tutilish va b.);

4) muloqotning tashkiliy ko'lami va vaqti;

5) ko'z qarashlar yordamida tashkil etiladigan aloqa;

6) belgilarning optik-kinetik tizimi (mimika, pantomimika, jestlar – qo'l va oyoq harakatlari)

Pedagog rahbarligi yoki uning yo'l-yo'riqlari, ko'rsatmalariga asosan o'quv mashg'ulotlari va tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda ham muloqot muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni shu vaqtda muloqotning faoliyatni tashkil etish vazifasini namoyon bo'ladi. Yaqin-yaqingacha faoliyatni tashkil etishda pedagogning yetakchiligi, uning bevosita rahbarligi ustuvor omil bo'lgan bo'lsa, zamonaviy sharoitda rollar almashinuvi yetakchi o'ringa chiqdi. Endilikda aksariyat hollarda talabalarning o'zlari ta'lim va tarbiyaviy jarayonlarni mustaqil uyushtirish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Biroq, bu degani, ta'limiy va tarbiyaiy ishlarni tashkil etish davrida pedagogning o'rni va

roli mutlaqo aks etmaydi, degani emas. Pedagog bu jarayonda rahbar, yetakchi, maslahatchi, ekspert sifatida namoyon bo'ladi va talabalarni pedagogik jarayonlarni ilmiy-nazariy, tashkiliy-metodik jihatdan to'g'ri uyushtirishga yo'naltiradi.

Pedagogik muloqotni tashkil etishda, ayniqsa, pedagog yordamiga muhtoj o'quvchilarga alohida e'tibor berishi, har bir o'quvchida turli o'quv fanlari asoslarini o'zlashtirishga nisbatan qiziqtirish usullarini, hamkorlik va ijodkorlikka asoslangan mehnatni tashkil etishni oldindan o'ylab qo'yishi lozim.

Milliy va jahon ta'limi amaliyoti pedagog, o'qituvchilar tomonidan tashkil etilayotgan muloqotni bir necha turga ajratish mumkinligi ko'rsatadi. Ular quyidagilarir .

Pedagogik muloqot turlari

O'qituvchilar o'z faoliyatlarida muloqotning muayyan turlariga tayanib ish ko'radi. Qolaversa, pedagog tomonidan jamoa bilan muloqotni uyushtirish texnikasini doimiy ravishda tahlil qilib borish maqsadga muvofiqdir. Ma'lum vaziyatlarda pedagog rahbar sifatida talabalar faoliyatlarini boshqaradi. Bu jarayonda ham muloqot yetakchi omil hisoblanadi. Biroq, muloqotning samaradorligi rahbar sifatida namoyon bo'layotgan pedagog tomonidan qanday muloqot uslubining tanlanganligi bilan belgilanadi. Odatda, pedagogning rahbar sifatidagi muloqot usullari quyidagi uch turga ajratiladi (15-rasm):

Pedagogik muloqot uslublari

Pedagogik muloqot uslublari quyidagi mazmunga ega:

1. Avtoritar uslub. Bunga ko'ra talabalar tomonidan barcha turdagi faoliyatning tashkil etilishi, mazmuni, shakli, metod va vositalarining barchasi faqat pedagog tomonidan belgilanadi. Talabalarning har qanday tashabbuslari rag'batlantirilmaydi, aksincha, buyruq, ko'rsatma, yo'llanma berish, shuningdek, jazolash choralarini ko'rish orqali talabalarga ta'sir etiladi. Hatto talabalarning faoliyatlari ijobiy baholangan vaqtda ham ularga bo'lgan ta'sir turli kesatiqlar

bilan bayon etiladi. Ya'ni: "Sendan ijobiy xatti-harakatni kutmagan edim?!", "Buni qara- ya, nahotki o'zgargan bo'lsang!?", "Qara-ya, birgina a'lo baho olish bilan o'zingni yaxshi inson bo'lib qolgan deb hisoblaysanmi!?" va h.k. mazmundagi rag'batlar, ular asli ijobiy holatni e'tirof etishga yo'naltirilgan bo'lsa-da, talabani yangi yutuqlariga ilhomlantirmaydi. Aksincha, unda ta'lim olishga, ta'lim muassasasiga va pedagoglarga nisbatan sovuqqonlikni yuzaga keltiradi.

2. Demokratik uslub. Unga ko'ra pedagog pedagogik faoliyatni tashkil etishda jamoaning fikriga tayanib ish ko'radi. O'quv mashg'ulotlari va tarbiyaviy ishlarni tashkillashtirishda har bir talabaning fikrini inobatga olishga, ularni umumlashtirgan holda eng samaralisini tanlab olishga intiladi. Muhokamalar chog'ida barcha talabalarning ishtiroklari ta'minlanadi. Talabalar tomonidan bildirilayotgan tashabbuslar qo'llab-quvvatlanadi, mavjud imkoniyatlardan kelib chiqqan holda bu tashabbuslar amaliyotga tatbiq etiladi. Bu uslubdan foydalanayotgan pedagog zimmasidagi vazifa faqatgina talabalarning faoliyatini nazorat qilish, tuzatishlar kiritishdan iborat emasligini anglab yetadi. Asosiy e'tiborni talabalarning yutuqlarini e'tirof etgan holda yoki ularning xatolarini o'zlariga anglatgan holda samarali tarbiya chorasini ko'rishga qaratadi. Har bir talabaning yutug'i alohida e'tirof etiladiki, bu esa ularni yangi zafarlarga erishishga ruhlantiradi. Ushbu uslubga asoslanib ish ko'radigan pedagog har bir talabaning qiziqishlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda bajariladigan ishlarni to'g'ri taqsimlashga harakat qiladi, faol talabalarni taqdirlab borishni faoliyatining asosiy yo'nalishi sifatida belgilaydi. Pedagog talabalar bilan muloqotni o'rnatishda iltimos, maslahatga tayanib ish ko'radi.

3. Liberal uslub. Odatda bu uslub pedagog va talaba munosabtlarining kelishuvchanlikka asoslanishini ta'minlaydigan uslub sifatida e'tirof etiladi. Bu uslubga ko'ra ish yuritadigan pedagog talabalar tomonidan sodir etilayotgan

salbiy holatlarga ham e'tibor bermaslikka intiladi. Talabalarni tartibga chaqirish, vaziyatdan kelib chiqqan holda ularning faoliyatini to'g'ri baholab, jazolash zarur bo'lgan vaziyatlarda ham indamaslikni odat qilib oladi. Bu esa talabalarning odobsiz, yalqov, mas'uliyatsiz bo'lishlariga olib keladi. Liberal uslubni ma'qul ko'radigan pedagog talabalar hayoti bilan mutlaqo qiziqmaydi, ularning faoliyatlariga aralashmaydi, hal qiluvchi vaziyatlarda mas'uliyatni o'z zimmasidan soqit qiladi. Ayrim holatlarda bir-biriga zid bo'lgan fikrlarni ham birdek ma'qullaydi. Bu tahlitda ish ko'radigan pedagog obro'ga ega bo'lmaydi. Chunki unga ishonish mumkin emas.

Pedagogik faoliyatni tashkil etishda pedagogning nafaqat o'zi, balki uning ijobiy ta'siri asosida talabalar ham muloqot madaniyatini o'zlashtirib borishlari lozim. Ta'lim amaliyot pedagogik muloqot jarayonida o'qituvchilar tomonidan quyidagi kamchiliklarga yo'l qo'yilishidan dalolat beradi:

- ehtiyotsizlik;
- shaxsiyatparastlik;
- suhbatdoshni ortiqcha majburlash;
- sustkashlik;
- o'zini juda yuqori yoki past qo'yish;
- haddan tashqari jonbozlik ko'rsatish

"Fan-texnika taraqqiyotining hozirgi bosqichida, ishlab chiqarish munosabatlarining jadallashuvi, xalq xo'jaligining turli jabhalarida yangi texnologiyalarning joriy etilishi va shu kabi qator omillar inson ruhiyatiga oldingilariga qaraganda ko'proq jismoniy, ruhiy zo'riqishlar bermoqda". Pedagog faoliyatida ruhan yoki jismonan toliqqan talabalarda ruhiy hamda jismoniy charchoqlarni bartaraf etishga ham e'tibor qaratish talab qilinadi. Mazkur talab salbiy ruhiy omillar ta'siri kuchaygan, katta hajmdagi axborotlar bilan to'qnashish ro'y berayotgan mavjud sharoitda ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalarda ruhiy va jismoniy toliqishlarni bartaraf etishga qaratilgan pedagogik faoliyat "relaksopediya" (lot.

"relaxation" – quvvatsizlik, zaiflashish, ruhan yoki jismonan holda toyish; holdan toyishni bartaraf etish pedagogikasi) deb nomlanadi. So'nggi yillar jahon ta'limi amaliyotida ushbu pedagogika imkoniyatidan keng foydalanilmoqda.

Murakkab vaziyatlar (imkoniyati cheklangan, fanlarni o'zlashtira olmaydigan yoki tarbiyasi og'ir talabalar bilan ishlash)da relaksopediyaning pedagogik, psixologik imkoniyatlaridan o'rinli, maqsadli, samarali foydalanish kutilgan natijalarni beradi. Relaksatsiya sharoitida bugungi kunda keng ommalashgan trening va avtotreninglar ijobiy muhitning hosil bo'lishini ta'minlaydi. Ulardan foydalanish vaqtida talabalar tashqi va ichki ta'sirlardan himoyalangan bo'lib, ularga faqatgina pedagogning ishontiruvchi ovozgina eshitiladi. Bu esa pedagogning ta'siri va uning samarasini yanada oshiradi.

Relaksatsiya jarayonida talabalar pedagogning qo'llab-quvvatlashlarini his etishlari, uning mehr-muhabbatidan bahramand bo'lishlari, hamdarligini his qilishlari lozim. Shundagina talabalardagi ruhiy zo'riqish, jismoniy toliqishlarni bartaraf etish uchun psixologik muhit yuzaga keladi.

Mushaklar relaksatsiyasi (ya'ni mushaklarni bo'shashtirish) davrida o'z-o'zini ishontirish va axborotga ta'sirchanlik yuqori bo'ladi. Shuning uchun ham o'z- o'zini ishontirishga yo'naltirilgan trening va avtotreninglarni uxlash va uyqudan turishdan oldin qo'llash samarali hisoblanadi. Mushaklar relaksatsiyasining samarali kechishi uchun o'qituvchi mushaklarni bo'shashtirishga yordam beradigan metod va vositalardan xabardor bo'lishi darkor.

Talabalarning ruhiy zo'riqish va jismoniy toliqishlarini bartaraf etish maqsadida relaksatsiya asoslarini nazariy jihatdan o'zlashtrib qolmay, ulardan amaliy jihatdan foydalanishni ham bilishlari zarur.

Yuqorida aytib o'tilganidek, mahoratli pedagog faoliyatida pedagogik nazokat (takt) ham o'ziga xos o'rin tutadi:

Pedagogik takt pedagog faoliyatiga g'oyaviy va amaliy jihatdan bir-biriga mos keladigan pedagogik axloqning bevosita tatbiq etishning shakli sifatida namoyon bo'ladi.

Takt (dahldorlik) – axloqiy hulq-atvor, xatti-harakat bo'lib, o'zida barcha ob'ektiv harakatlarning oqibati va ularning shaxs tomonidan sub'ektiv qabul qilishni avvaldan ko'ra olish, belgilangan maqsadga osonroq erishish yo'llarini izlashning namoyon bo'lishini ifodalaydi. Pedagogik takt o'z mohiyatiga ko'ra ijodiy izlanishni talab etadigan amaliy harakatdir.

Pedagogga xos bo'lgan pedagog taktning asosiy tarkibiy elementlari sifatida quyidagilarni e'tirof etish mumkin:

1) shaxsga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lish;
2) yuksak talabchanlik;
3) suhbatdoshni qiziqish bilan tinglay olish va unga nisbatan qayg'urish malakasi;
4) ruhiy barqarorlik, dadillik va og'ir vazminlik;
5) munosabatlar jarayonida ishonch bilan so'zlay olish;
6) qat'iyatlilik (qaysarlik emas);
7) talabalarga nisbatan e'tiborli va xushyor bo'lish

Talabalarga pedagogik mahorat asoslariga doir bilimlarni berishda ularda pedagogik taktning quyidagi elementlarini tarbiyalashga jiddiy e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir:

- talaba shaxsini hurmat qilish va unga nisbatan talabchanlik;
- turli faoliyat bo'yicha talabalarda mustaqillikni rivojlantirish va ularning ishlariga oqilona pedagogik rahbarlik qilish;
- talabaning ruhiy holatiga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, unga nisbatan yuksak idrok bilan izchil talablar qo'yish;
- talabalarga ishonish va ularning faoliyatini nazorat qilib borish;
- ular bilan muloqotni tashkil etishda o'zini oqlagan ishchan va hissiy xarakterga ega munosabatlarni qo'shib olib

borish

Pedagogning pedagogik taktga egaligi uning yurish-turishi, vazminligi, o'zini tuta bilishida namoyon bo'ladi. Ushbu sifat talabaga ishonch bilan qarashni nazarda tutadi. Talabaga ishonchsizlik bilan qarash pedagogning pedagogik taktga ega emasligini ifodalaydi. Har qanday pedagogik nizo yoki ziddiyatlarning asosida pedagogning pedagogik taktga ega emasligi yotadi. Har qanday qo'pollik, kesatiq va koyishlar, talabalarni doimiy ravishda tanqid qilish, ularga ishonchsizlik bildirish pedagogik nizolarni keltirib chiqaradi. Pedagogik takt, shuningdek, pedagogning talaba javobini diqqat bilan tinglashida, javobning mazmuniga alohida e'tibor qaratishida, bordi-yu, talaba xatoga yo'l qo'yadigan bo'lsa, uni bosiqlik, vazminlik bilan to'g'rilashda, talaba faoliyatini haqqoniy, oqilona baholashda, qo'yilgan bahoning mohiyatini izohlashda namoyon bo'ladi. Bu jarayonda javob berayotgan talabaga jilmayish, turli imo-ishoralar bilan, boshni qimirlatish, yuz ifodalari, qo'l harakatlari bilan uning javoblarini ma'qullab turish pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Mahoratli pedagog talabalar faoliyatini baholashda ehtiyotkor bo'lishi lozim. Zero, noto'g'ri qo'yilgan baho talaba shaxsiga salbiy ta'sir ko'rsatib qolmay, balki uning o'qishga bo'lgan qiziqishini so'ndiradi. Talabalar faoliyatini baholashda V.A.Suxomlinskiyning pedagogik tajribasiga tayanib ish ko'rish maqsadga muvofiqdir:

1. **O'quvchiga amaliy yondashish** ("O'quvchi bo'lgandan keyin o'qib kelish kerak-da" tarzida emas), balki unga shaxs sifatida munosabatda bo'lish ("O'quvchim, eng avvalo, shaxs, bola, so'ngra esa o'quvchi. Men unga qo'yadigan baho uning bilimi o'lchovi emas, balki mening unga nisbatan insoniy munosabatimdir" tarzida yondashish).

2. Har bir baho o'quvchini kelajakka ishonch ruhida tarbiyalashi zarur; u o'quvchining mehnatini rag'batlantirishi,

biroq, uning dangasaligi va qobiliyatsizligi uchun jazo vositasi bo'lmasligi zarur.

Aytib o'tilganidek, pedagogik takt (nazorat) yordamida muayyan vazifalar hal qilinadi.

Pedagogik texnika asoslarini muvaffaqiyatli o'zlashtirish pedagogik mahoratning muhim tarkibiy qismi bo'lib, unga erishish pedagogika, psixologik hamda amaliy tayyorgarlik bo'yicha maxsus bilimlarga ega bo'lishni talab qiladi. Pedagogik texnikani o'zlashtirishda o'qituvchi o'quvchi hulq-atvori, xatti-harakatlarining tashqi belgilarga ko'ra uning ichki holatini belgilay olish malakasiga ega bo'lishi nihoyatda muhimdir.

O'qituvchining pedagogik madaniyatga egaligi, pedagogik texnika asoslarini puxta o'zlashtira olganligi uning yuz ifodasi, erkin, vazmin harakatlari, gavdani to'g'ri tuta bilishi, yig'inchoqligi, imo-ishoraning tabiiyligi, o'quvchilarga nisbatan e'tiborida yaqqol aks etadi.

Pedagogik jarayonda o'qituvchi yuzini o'rinsiz, qo'pol tarzida burishtirmasligi, pala-partishlikka yo'l qo'ymasligi, imo-ishoralarning sun'iy bo'lishidan saqlanishi, ma'nosiz bo'lishiga yo'l qo'ymasligi zarur.

Zero, bularning barchasi o'qituvchining o'quvchi oldida hurmat qozona olmasligiga olib keladi. Yosh o'qituvchilar pedagogning hatto sinf xonasiga, auditoriyaga qanday kirishi, o'quvchi, talabalarga nazar tashlashi, salomlashishi, stulni surishi, shaxsiy buyumlari (sumka yoki qog'oz solingan yig'majildlarni qaerga, qanday qo'yishi, xona bo'ylab yurishi, yozuv taxtasidan foydalanishdagi harakatlari, o'quvchi, talabalar bilan muloqotda o'zini qanday tutishi va b.ham katta tarbiyaviy ta'sir kuchiga ega ekanligini yodda tutishlari zarur

Vazmin, xushmuomala, o'ziga ishongan pedagog faoliyatining ilk bosqichlaridanoq o'quvchilar mehrini qozona oladi. Buning uchun o'qituvchi, eng avvalo, o'z hissiy holatlarini, tuyg'ularini boshqara olishi kerak. Pedagogning o'quvchilar bilan muloqoti rasmiy xarakterga ega. Qolaversa, u o'quvchilar,

ularning ota-onalari, hamkasblari hamda ta'lim muassasasi va yuqori boshqaruv organlarining nazorati ostida faoliyat yuritadi. Bu esa jismoniy toliqishni, ruhiy zo'riqishni, o'z-o'ziga nisbatan ishonchsizlikni va tanglikni keltirib chiqaradi. Natijada o'qituvchining nutqi qat'iylik kasb etmaydi, ovozda nuqsonlar ko'zga tashlana boshlaydi, oyoq va qo'llar toliqadi. Bu kabi salbiy hodisalarning kelib chiqmasligi uchun o'qituvchi o'zini dars boshlanishidan avval ta'lim jarayoniga ruhan tayyorlashi, bu jarayonda yuzaga kelish ehtimoli bo'lgan turli salbiy holatlarga o'zini psixologik nuqtai nazardan tayyorlashi, imkon qadar ruhiy barqarorlikka erishishi talab qilinadi.

O'qituvchi pedagogik jarayonga o'zini ruhan tayyorlashda quyidagilarga e'tibor berishi lozim:

- o'ziga, o'z imkoniyatlariga ishonish;
- xushmuomala bo'lish va kelajakka ishonch bilan qarash;
- o'z xatti-harakatlarini nazorat qilish (muskullar zo'riqishini bartaraf etish, qomatni rostlash, harakatlarni to'g'rilash, nutqning ravon, aniq bo'lishiga e'tibor qaratish va to'g'ri nafas olishni o'zlashtirish);
- aqliy va jismoniy mehnatni tashkil etishda o'zaro uyg'unlikka erishish, muayyan davrlarda hordiq chiqarish (mehnat yoki musiqa yordamida dam olish, badiiy asarlarni o'qish, yaqinlar, do'stlar bilan hazil-mutoybani tashkil etish);
- pedagogik jarayonning muvaffaqiyatli,

samarali kechishiga o'zini o'zi ishontirish;

- kasbiy faoliyatni katta ishtiyoq, ko'tarinki kayfiyat bilan tashkil etishga intilish;

Ruhiy barqarorlikka erishish muayyan shartlar asosida kechadi. Bu o'rinda V.A.Suxomlinskiy ruhiy barqarorlikka erishishning asosiy shartlari quyidagilar ekanligini ta'kidlaydi:

- qosh-qovoqni uyub yurmaslik;
- boshqalarning kamchiliklari, nuqsonlarini oshirib ko'rsatmaslik;
- hazil-mutoyba moyil bo'lish;

- xushmuomala bo'lish va kelajakka ishonch bilan qarash

O'qituvchi tomonidan o'zlashtiriladigan pedagogik texnika negizida pantomimika o'ziga xos o'rin tutadi.

Odatda o'qituvchining to'g'ri tutilgan, chiroyli qaddi-qomati uning shaxs sifatida namoyon bo'lishini ta'minlaydi. Qolaversa, bu holat uning o'ziga, shaxsiy imkoniyatlariga bo'lgan ishonchi yuqoriligi, shaxs sifatida o'zini qadrlay olishi, o'ziga o'zi yuqori baho berishini ham ifodalaydi. Boshning quyi egilganligi, qo'llarning osilib turishi o'qituvchining ichki zaifligi, o'ziga o'zi ishonchsizligidan dalolat beradi.

Uzluksiz talim tizimining barcha bosqichlarida ta'lim oluvchilarga gavdani to'g'ri tutishni, erkin harakatlanishni, har qanday vaziyatda ham o'zini tuta bilishni, yig'inchoqlikni o'rgatib borish maqsadga muvofiqdir. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarda ushbu sifatlarni hosil qilish esa ularni kasbiy faoliyatga ruhiy tayyorlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Talabalarga, eng avvalo, gavdani to'g'ri tutib turish o'rgatiladi. Bunda oyoqlar elka kengligida (ikki oyoq oralig'i 12-15 smni tashkil etishi lozim), o'ng oyoq bir oz oldinda turishi maqsadga muvofiqdir. Zero, shundagina tana og'irligi har ikki oyoqqa birdek tushishi bilan birga uzoq vaqt (deyarli 30-30, oliy ta'lim muassasalarida esa 60-70 daqiqa) toliqmay turishni ta'minlaydi. O'qituvchining

harakatlari imkon qadar oddiy va erkin bo'lishi lozim. O'zini o'zi majburlab, ayrim kamchiliklarni yo'qotish maqsadida sun'iy, zo'rma-zo'raki harakatlarni sodir etishning hojati yo'q.

Harakatlar qanchalik samimiy va imkon qadar oddiy bo'lsa, o'quvchilarda o'qituvchiga bo'lgan ishonch, hurmatni shunchalik oshiradi. Gavdani oldinga- orqaga tebratmaslik, hadeb tana og'irligini bir oyoqdan ikkinchi oyoqqa o'tkazmaslik, stul suyanchig'iga yoki kafedra (oliy ta'lim muassasalarida ma'ruza o'qish uchun ajratilgan jihoz)ga butunlay suyanib olmaslik, boshni yoki quloqni qashlamaslik, burunni artmaslik, ko'zni

ishqalamaslik, qo'lda biror buyumni aylantirmaslik o'quvchiga qanchalik zavq bersa, unda o'qituvchiga nisbatan xayrixohlikni uyg'otsa, ularning aksini sodir etish o'quvchining g'ashini keltiradi. Dars jarayonida o'qituvchi, shuningdek, gavdasi harakatining bosiq, ortiqcha harakatlardan holi bo'lishiga e'tibor qaratishi, ortiqcha silkinish va keskin harakatlarni sodir etishdan o'zini tuta olishi zarur.

Pedagogik jarayonda o'qituvchi yuz ifodasi (mimika) va jestlar orqali ham talabalarga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Insoniyat qadim-qadimdan o'zaro munosabat va muloqotlarni tashkil etishda turli jestlardan o'rinli va samarali foydalanib kelgan. Zero, jestlar insonning hissiyotlari, ichki kechinmalari va ijtimoiy borliqqa bo'lgan munosabatini so'zsiz ifodalash imkoniyatiga ega. M: o'ng qo'l chap ko'krak ustiga kaftlar yoyilgan holda qo'yilsa, bu holat "Sizga hurmatim cheksiz", o'ng qo'lning kaftlari ochiq holda ko'rsatilsa, "Jim bo'ling!", "Bas qiling!", qo'l musht qilib tugilsa, "Qoyil qildim!" yoki "Qoyil qilaman!" kabi ma'nolarni anglatadi.

Juda qadimdan inson yuz ifodasi va qarashi atrofdagilarga so'zdan ko'ra kuchli ta'sir qilishi aniqlangan. Shu sababli qadimgi Rim va Yunonistonda notiqlarning nafaqat so'zdan, shu bilan birga mimika, pantomimika va jestlar (gavda, qo'l va oyoq harakatlari)dan samarali foydalana olishlariga e'tibor qaratiladi.

Bugungi kunda ham rivojlangan mamlakatlarda siyosatchilarning yuqorida qayd etilgan harakatlar bo'yicha malakalarni o'zlashtira olishlariga jiddiy e'tibor qaratiladi.

O'qituvchi tomonidan mimika, pantomimika va jestlar (gavda, qo'l va oyoq harakatlari)dan samarali foydalana olish malakalarini samarali o'zlashtira olishi uning mehnatini qisman engillashtirish bilan birga, talabalarga ta'sir ko'rsatishida muayyan muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritishiga imkoniyat yaratadi.

Mimika, pantomimika va jestlar uzatilayotgan axborotning

hissiy ahamiyatini oshiradi, uning puxtaroq o'zlashtirilishini ta'minlaydi. Ko'zlar ham yuz ifodasini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli ko'zlar yordamida turli ma'nolarni ifodalash malakalarini o'zlashtira olish ham mahoratli pedagog bo'lish uchun nihoyatda zarur.

Agarda o'qituvchining kayfiyati yomon bo'lsa, uni qandaydir muammolar bezovta qilsa, oldida turgan pedagogik muammolar o'ylantirayotgan bo'lsa, u bu holatlarni yashirib tura olish, oshkor qilmaslikni uddasidan chiqishi darkor. Bu kabi salbiy holatlarni ochiq havoda piyoda sayr qilish, tabiat qo'ynida, ayniqsa, suv havzalarining bo'ylarida dam olish, qiziqarli kitoblarni o'qish orqali mavjud ruhiy zo'riqishlarni bartaraf qilish mumkin. Yuz ifodasi va harakatlar faqatgina ta'lim maqsadiga, ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishga yo'naltirilishi zarur. O'qituvchi yuz muskullarini va ko'zlarini tez-tez harakatlantirishdan, ularning birday qotib qolishidan ehtiyot bo'lishi kerak. O'qituvchi nigohi o'quvchilarga qaratilgan bo'lishi, bevosita ko'rish aloqasini vujudga keltira olishi zarur. Devor, deraza va shipga qarab turishdan saqlanishi, aksincha, barcha o'quvchilarni diqqat markazida ushlab turish muhim.

O'qituvchi o'z faoliyatida pedagogik texnika metodlari bilan birga pedagogik texnika vositalaridan ham foydalanadi.

O'qituvchining o'quvchilarga pedagogik ta'sir ko'rsatishida uning nutqi ham hal qiluvchi omillardan biri sanaladi.

Ijtimoiy munosabatlarni tashkil etishda nutqning monolog, dialog, polilog shakllaridan foydalaniladi. O'qituvchi faoliyatida ham nutqning aynan mana shakllaridan foydalanish holatlari kuzatiladi (18-rasm):

Shakllar

Monolog – o'qituvchining o'ziga yoki o'quvchilarga qaratilgan nutqi (ichki va tashqi monolog)

Dialog – o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida tashkil etiladigan suhbat

Polilog – o'qituvchi va bir nechta o'quvchi yoki o'quvchilar

jamoasi o'rtasidagi suhbatni ifodalovchi nutq

O'qituvchi nutqining asosiy shakllari

O'qituvchi sinfda og'zaki nutqning turli shakllaridan foydalanadi. Quyi sinflarda ko'proq nutqning dialog va polilog shakli samaralidir, chunki bu bosqichda ta'lim suhbat usuli asoslanadi. Monologik nutqdan o'qituvchi hikoya, tasvir, ta'rif, tavsif xarakteridagi mavzularni bayon etishda foydalanadi.

Monologik nutq yuqori sinflarda ijtimoiy, gumanitar fanlar – falsafa, siyosatshunoslik, pedagogika, psixologiya, sosiologiya, madaniyatshunoslik, "Milliy istiqlol g'oyasi", "Ma'naviyat asoslari", tarix, huquq va adabiyot fanlarini o'qitishda qo'llanilsa, dialog shaklidagi nutq ona tili, chet tili, matematika, fizika, biologiya, geografiya, informatika va axborot asoslari fanlari bo'yicha tashkil etiladigan darslarida qo'l keladi. O'rganilayotgan mavzuning mohiyatidan kelib chiqqan holda o'qituvchi har bir darsda og'zaki nutqning barcha shakllaridan o'rinli, maqsadli foydalanishi mumkin.

O'qituvchi mavzular bo'yicha materiallarni o'quvchilarga etkazib berishda ularning xulqlariga samarali ta'sir etish maqsadida ko'z, qosh, qo'l, yuz, bosh, kaftlari yordamida muayyan harakatlarni amalga oshiradi. Uning bunday harakatlari tasdiq yoki inkorni ifodalashi mumkin.

O'qituvchi tomonidan sodir etilayotgan harakatlar o'rinli bo'lsa ular so'zsiz pedagogik ta'sir jarayonini kuchaytiradi. Biroq, bu kabi harakatlarni o'rinsiz, tez- tez sodir etaverishi o'quvchilarning diqqatlarini susaytiradi, ularni zeriktirib qo'yadi. Pedagogik jarayonda o'qituvchining ta'sirini kuchaytiradigan omillardan biri – uning ovozi, unga xos bo'lgan xususiyatlar sanaladi. O'qituvchi ovozining yoqimli va jarangdor bo'lishi o'quvchilar e'tiborini o'ziga to'la qarata olishini ta'minlaydi. O'z ovozining ta'sirchanligini aniqlash uchun o'qituvchi ovozining qanchalik darajada kuchli, shirador va yoqimli ekanligini bilishi, shuningdek, zarur vaziyatlarda ovozning bu kabi xususiyatlaridan unumli foydalana olishi

zarur. O'z ovozida ma'lum kamchiliklar borligini sezgan o'qituvchi ularni bartaraf etishga harakat qilishi kerak. Buning uchun ovozdan foydalanish va uni yaxshilash texnikasi ustida izchil, doimiy mashq qilib borishi talab etiladi. Zero, bir yoki ikki marta qilingan mashq bilan ovoz xususiyatlarini yaxshilab bo'lmaydi.

O'qituvchi ovozi o'zida quyidagi xususiyatlarni aks ettira olishi zarur:

1) jarangdorlik (tovushning tozaligi va tembrning yorqinligi);

2) keng diapazonlik (ovozning eng pastlikdan eng yuqorigacha bo'lgan darajasi);

3) havodorlik (erkin so'zlaganda yaxshi eshituvchanlikka ega bo'lishi);

4) ixchamlik, harakatchanlik;

5) chidamlilik (uzoq ishlash qobiliyatiga ega bo'lish);

6) moslashuvchanlik (dinamika, tembr, ohandorlikning turli sharoitga moslasha olishi);

7) qarshi shovqinlarga nisbatan barqarorlik (xalaqit beruvchi shovqinga tembr va tessituraning o'zgarib turishi);

8) suggesivlik (ovozning xayajon ifodalashi va bu orqali, qanday so'z aytilayotganidan qat'iy nazar,

tinglovchining xulqiga ta'sir qilish xususiyati)

Pedagogik faoliyatda o'qituvchi o'z nutqini tashkil etishda quyidagilarga jiddiy e'tibor qaratishi zarur:

1) adabiy (sheva so'zlarining qo'llanilmasligi) me'yorlariga (kadi – qovoq, pamildori – pomidor, kelutti – kelyapti, kartishka – kartoshka va hokazo tarzida) amal qilish;

2) talaffuz (o, a, u ,o', f, v, p, d, t, x, h, s, s, j, sh) me'yorlariga (onor – anor, uxshash – o'xshash, palakat – falokat, Hamit – Hamid, xam – ham, sentner – sentner, ijtimoiy – ishtimoiy kabi shakllar) rioya etish;

3) kelishik me'yorlariga (Sobirni ukasi – Sobirning ukasi, o'quvchini daftari – o'quvchining daftari, poezdga keldim –

poezdda keldim va b. ko'rinishida) amal qilish

O'qituvchi nutqi ham nutq tovushlarini hosil qiladigan nutq organlarining ishtirokida tashkil etiladi. Nutq ko'plab organlar ishtiroki, ularning imkoniyati bilan hosil qilinadi.

Shunday qilib, kishilik jamiyati taraqqiyotining shaxs tarbiyasi masalalari kun tartibiga qo'yilgan ilk davrlardanoq bolalarning ta'limi va tarbiyasi uchun mas'ul shaxslar toifasining shakllanishi, ularning shaxs va mutaxassis sifatida muayyan ijtimoiy talablarga javob bera olishlari, kasbiy mahoratga ega bo'lishlariga nisbatan ijtimoiy talablar qo'yila boshlagan. Talabalarni ijtimoiy talablar bilan yaqindan tanishtirish, ularda pedagogik malaka va kasbiy mahoratni shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Pedagogik mahorat asoslari bo'lajak mutaxassislarni ta'lim va tarbiya jarayonlarni metodik jihatdan puxta, tashkiliy jihatdan samarali tashkil eta olishlarida muhim poydevor hisoblanadi. Ularning pedagogik texnikaga ega bo'lishlari kasbiy jarayonda yuzaga keladigan shaxslararo munosabatlarni samarali, salbiy nizolarsiz uyushtirilishini ta'minlash bilan birga hech bir qiyinchiliksiz ta'lim va tarbiyaviy ishlar jarayonini tashkil etilishiga ham yordam beradi.

Nazorat uchun savollar:

1. "Mahorat" va "pedagogik mahorat" tushunchalari qanday ma'no anglatadi?
2. Pedagogik mahorat qanday muhim tarkibiy qismlardan iborat?
3. Pedagogik bilimdonlik va pedagogik refleksiya nima?
4. Pedagogik odobning asosiy shakllari qaysilar?
5. Pedagogik deontologiya nima?
6. Pedagogik obro' qanday qozoniladi?
7. Pedagogik qobiliyat nima va uning qanay turlari mavjud?
8. Qanday qobiliyatlar noyob qobiliyatlar sanaladi?

9-mavzu. Boshlang'ich sinf Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi mazmuni. Fanga oid kompetnesiyalarni shakllantiish

Reja:

1. Davlat ta'lim standartining maqsad va vazifalar
2. Umumiy o'rta ta'limning umumta'lim fanlari bo'yicha malaka talablari
3. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida (barcha ta'lim olish tillari bo'yicha) ona tili fanini o'qitish bosqichlar

***

Tayanch tushunchalar: Umumta'lim fanlarini o'rganishning tayanch darajasi, davlat ta'lim standarti, umumta'lim fanlarini o'rganishning kuchaytirilgan boshlang'ich darajasi, kommunikativ kompetensiya, axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi, o'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi, ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi, milliy va umummadaniy kompetensiya, matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi

***

Bugungi kunda Xalq ta'limi tizimida olib borilayotgan islohotlarning barchasi yurtboshimiz SH.Z Mirziyoyevning tashabbuslari va takliflari asosida maktab dasturlari qayta mukammallashtirilmoqda.

Hususan, 2023 yil – "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" deb e'lon qilinishi ham bejizga emas.

— O'qituvchilarning maqomini, ularning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish Konstitutsiyada alohida belgilab qo'yildi;

— Ikki smenali maktablarni kamaytirish, 70 ta yangi maktab qurilishi, 460 ta maktab kengaytirilishi ta'kidlab o'tilgan.

Xususiy investitsiyalar ishtirokida 100 ta maktab qurish loyihalari boshlanib, 2024 yilda qurib bitkaziloshi va besh yilda ularning soni mingtaga yetkazish taklifini berdilar.

—2023 yildan boshlang'ich sinflarda mutlaqo yangi metodika asosida yaratilgan darsliklar bo'yicha o'qitish yo'lga qo'yildi.

Shuningdek 2023 o'quv yilidan boshlab boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun bepul ovqatlanish Qoraqalpog'iston va Xorazm kabi boshqa viloyatlar va Toshkent shahri maktablarida ham joriy etildi va buning uchun 2,3 trillion so'm ajratildi.

Boshlang'ich ta'lim umumiy o`rta ta'limning asosiy poydevori sanalib, o`quvchilarning kelajakda komil inson bo`lib voyaga yetishini ta'minlovchi asosiy ta'lim bosqichi hisoblanadi.

Shu maqsadda bugungi kun darsliklari aynan DTS talablari asosida tuzilganligi va dars berayotgan zamonaviy pedagoglarning xalqaro baholash mezonlariga javob bera olish ko'nikmasini shakllantirish zaruriy na'minot ekanligi hech kimga sir emas. Shunday ekan darslik va o'quv tarbiyaviy ishlarni olib borishda har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi DTS talablarini to'g'ri o'zlashtirmog'i va ta'`lim jarayonida mukammal foydalanmog'I lozim vas hart hisoblanadi.

Davlat ta'lim standartining maqsadi – umumiy o'rta ta'lim tizimini mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda tashkil

etish, ma'naviy barkamol va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdan iborat.

Davlat ta'lim standartining vazifalari quyidagilardan iborat: umumiy o'rta ta'lim mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilash; milliy, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar asosida o'quvchilarni tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish; o'quv-tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, umumiy o'rta ta'lim muassasalarining o'quvchilari va bitiruvchilarining malakasiga qo'yiladigan talablarni belgilash; kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlash; ta'lim va uning pirovard natijalari, o'quvchilarning malaka talablarini egallaganlik darajasini tizimli baholash tartibini, shuningdek, ta'lim-tarbiya faoliyati sifatini nazorat qilishning huquqiy asoslarini takomillashtirish; davlat ta'lim standartlari talablarining ta'lim sifati va kadrlar tayyorlashga qo'yiladigan xalqaro talablarga muvofiqligini ta'minlash.

Davlat ta'lim standarti quyidagi asosiy prinsiplarga asoslanadi: o'quvchi shaxsi, uning intilishlari, qobiliyati va qiziqishlari ustuvorligi; umumiy o'rta ta'lim mazmunining insonparvarligi; davlat ta'lim standartining ta'lim sohasidagi davlat va jamiyat talablariga, shaxs ehtiyojiga mosligi; umumiy o'rta ta'limning boshqa ta'lim turlari va bosqichlari bilan uzluksizligi va ta'lim mazmunining uzviyligi; umumiy o'rta ta'lim mazmunining respublikadagi barcha hududlarda birligi va yaxlitligi; umumiy o'rta ta'limning mazmuni, shakli, vositalari va usullarini tanlashda innovatsiya texnologiyalariga asoslanilganligi; o'quvchilarda fanlarni o'rganish va ta'lim olishni davom ettirish uchun tayanch va fanlarga oid umumiy kompetensiyalarni rivojlantirishning ta'minlanganligi; rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ta'lim sohasida me'yorlarni belgilash tajribasidan milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda foydalanish.

O'zbekiston Respublikasi umumiy o'rta ta'lim tizimida davlat ta'lim standartiga asoslangan holda umumta'lim fanlarini o'rganish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

Umumiy o'rta ta'lim tizimida umumta'lim fanlarini o'rganish bosqichlari

O'zbekiston Respublikasi umumiy o'rta ta'lim tizimida davlat ta'lim standartiga asoslangan holda umumta'lim fanlarini o'rganish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

Standart darajalari	Darajalarning nomlanishi
A1	Umumta'lim fanlarini o'rganishning boshlang'ich darajasi
A1+	Umumta'lim fanlarini o'rganishning kuchaytirilgan boshlang'ich darajasi
A2	Umumta'lim fanlarini o'rganishning tayanch darajasi
A2+	Umumta'lim fanlarini o'rganishning kuchaytirilgan tayanch darajasi
B1	Umumta'lim fanlarini o'rganishning umumiy darajasi
B1+	Umumta'lim fanlarini o'rganishning kuchaytirilgan darajasi

Umumiy o'rta ta'limning umumta'lim fanlari bo'yicha malaka talablarining tuzilishi

Umumiy o'rta ta'limining umumta'lim fanlari bo'yicha malaka talablari:

o'quv fanini o'rganishning bosqichlari;

tayanch va fanga oid umumiy kompetensiyalar;

o'quv fanining maqsad va vazifalari;

umumta'lim fanlarini o'rganishning mazmuni;

umumiy o'rta ta'lim muassasalari bitiruvchilarining umumta'lim fanlari bo'yicha majburiy tayyorgarlik darajalari hamda ta'lim muassasalarining bitiruvchilariga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilab beradi.

Tayanch va fanga oid umumiy kompetensiyalar

O'zbekiston Respublikasida ta'limning uzluksizligi,

uzviyligi, o'quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda quyidagi tayanch kompetensiyalar shakllantiriladi.

Kommunikativ kompetensiya - ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda birorta xorijiy tilde o'zaro muloqotga kirisha olish, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, ijtimoiy moslashuvchanlik, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi - mediamanbalardan zarur ma'lumotlarni izlab topa olish, saralash, qayta ishlash, saqlashni, ulardan samarali foydalana olish, ularning xavfsizligini ta'minlash, media madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi - doimiy ravishda o'z-o'zini jismoniy, ma'naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayot davomida mustaqil o'qibo'rganish, kognitivlik ko'nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, o'z xatti-harakatini muqobil baholash va mustaqil qaror qabul qila olish ko'nikmalarini egallashni nazarda tutadi.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi - jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala va huquqiy madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Milliy va umummadaniy kompetensiya - vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish, badiiy va san'at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, madaniy qoidalarga va sog'lom turmush tarziga amal qilish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Bitiruvchilar	Standart darajasi	Daraja nomlanishi
Umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich 4-sinf bitiruvchilari	A1	Ona tili fanini o'rganishning boshlang'ich darajasi
Umumiy o'rta ta'lim maktablarining ona tili fani chuqur o'rganiladigan sinflar va ixtisoslashtirilgan maktablarning 4-sinf bitiruvchilari	A1+	Ona tili fanini o'rganishning kuchaytirilgan boshlang'ich darajasi
Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinf bitiruvchilari	A2	Ona tili fanini o'rganishning tayanch darajasi
Umumiy o'rta ta'lim maktablarining ona tili fani chuqur o'rganiladigan sinflar va ixtisoslashtirilgan maktablarning 9-sinf bitiruvchilari	A2+	Ona tili fanini o'rganishning kuchaytirilgan tayanch darajasi
Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 11-sinf bitiruvchilari	B1	Ona tili fanini o'rganishning umumiy darajasi
Umumiy o'rta ta'lim maktablarining ona tili fani chuqur o'rganiladigan sinflar va ixtisoslashtirilgan maktablarning 11-sinf bitiruvchilari	B1+	Ona tili fanini o'rganishning kuchaytirilgan umumiy darajasi

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi - aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarni tuza olish, kundalik faoliyatda turli diagramma, chizma va modellarni o'qiy olish, inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan, qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan foydalana olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Mazkur kompetensiyalar umumta'lim fanlari orqali o'quvchilarda shakllantiriladi. Shuningdek, har bir umumta'lim fanining mazmunidan kelib chiqqan holda o'quvchilarda fanga oid umumiy kompetensiyalar ham shakllantiriladi.

Ona tili fani bo'yicha umumiy o'rta ta'lim muassasalari (barcha ta'lim olish tillari bo'yicha) bitiruvchilariga qo'yilgan malaka talablari

1. **Nutqiy kompetensiya** (tinglab tushunish, so'zlash, o'qish, yozish):

A1- Berilgan topshiriq, sodda matnlarni tinglab tushuna oladi; matnni tushunib o'qiy oladi; og'zaki nutqda so'z va gaplar talaffuziga rioya qila oladi;

65 - 70 so'zdan iborat diktantni yoza oladi;

xabar, tasvir asosida 5-6 gapdan iborat matn yarata oladi, xatboshi va husnixatga amal qiladi;

A1+ sodda matnning asosiy mazmunini tushunadi va tushuntira oladi; matn mazmunini tushunib ifodali o'qiy oladi;

70 - 75 so'zdan iborat diktantni yoza oladi; 7-8 gapdan iborat xabar yoki rasm asosida matn tuza oladi.

ommaviy axborot vositalaridagi dolzarb mavzularga doir xabar va ma'lumotlarni tushuna oladi; turli janrga oid matnlardagi so'z, ibora va atama (termin)larning ma'nosini tushunib, to'g'ri va ravon o'qiy oladi;

160 - 180 so'zdan iborat diktantni yoza oladi; o'qib eshittirilgan matn yoki mavzu asosida 26 - 30 gapdan iborat ijodiy matn (bayon, insho) yarata oladi; ish qog'ozlarini (ariza, ma'lumotnoma, xat, tarjimai hol, e'lonlarni) yoza oladi.

A1- ona tilidagi nutq tovushlarini farqlay oladi, bo'g'in ko'chirish qoidalariga amal qila oladi; mavzuga oid yangi so'zlarni og'zaki va yozma nutqda qo'llay oladi; yozma nutqda tinish belgilarini to'g'ri qo'llay oladi.

A1+ so'zlarning tovush tarkibini orfoepik jihatdan to'g'ri shakllantira oladi; gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlarini farqlay oladi va yozma nutqda o'rinli qo'llay oladi.

A2- talaffuz va imloda tovush almashishi, tovush orttirilishi, tovush tushishi kabi hodisalardan o'rinli foydalana oladi; o'zlashtirilgan leksik birliklarni gap tarkibida qo'llay oladi; fonetik, leksik va grammatik tahlil qila oladi; fikrni mantiqiy izchillikda ifodalay oladi; matnda tilning ifoda vositalaridan foydalana oladi.

A2+ tovushlar talaffuzida orfoepik me'yorlarga amal qila oladi; leksik birliklarning ma'nosini farqlashda lug'atlardan unumli foydalana oladi. Lingvistik kompetensiya (fonetika, leksika, grammatika):

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida Matematika fanini o'rganish bosqichlari

Bitiruvchilar	Standart darajasi	Daraja nomlanishi
Umumta'lim maktablarining boshlang'ich 4-sinf bitiruvchilari	**A1**	Matematika boshlang'ich fanini o'rganishning darajasi
Matematika fani chuqur o'rganiladigan ixtisoslashtirilgan umumta'lim muassasalarining boshlang'ich 4-sinf bitiruvchilari	**A1+**	Matematika fanini o'rganishning kuchaytirilgan boshlang'ich darajasi
Umumta'lim maktablarining 9-sinf bitiruvchilari	**A2**	Matematika tayanch fanini darajasi o'rganishning
Matematika fani chuqur o'rganiladigan ixtisoslashtirilgan umumta'lim muassasalarining 9-sinf bitiruvchilari	**A2+**	Matematika fanini o'rganishning kuchaytirilgan tayanch darajasi
Umumta'lim maktablarining 11-sinf bitiruvchilari	**B1**	Matematika umumiy fanini darajas o'rganishning i
Matematika fani chuqur o'rganiladigan ixtisoslashtirilgan umumta'lim muassasalarining 11-sinf bitiruvchilari	**B1+**	Matematika fanini o'rganishning kuchaytirilgan umumiy darajasi

1. Matematika mazmuniga oid umumiy kompetensiya

A1- berilgan sonlarni va eng sodda kasrlarni o'qiydi, yozadi, taqqoslay oladi, tartibga solib, turl ko'rinishlarda tasvirlay

oladi; sodda sonli ifodaning qiymatini og'zaki va yozma hisoblay oladi; sodda amaliy, matnli va mantiqiy masalalarni yecha oladi; tekislik va fazodagi sodda geometrik figuralarni tasavvur qiladi, taniydi va tasvirlay oladi; obyektlarni xossalari bo'yicha tartiblaydi va sodda kombinatsiyalar tuza oladi; sodda amaliy holatlarda tayyor jadvallarga ma'lumotlar kirita oladi, eng soda diagrammalar shaklida tasvirlay oladi.

A1+ arifmetik hisob-kitob texnikasiga va juft-toqlikka oid qiziqarli, nostandart va matnli masalalarni yecha oladi bo'yashlar, qoplashlar, qirqishlar, simmetriyaga oid sodda geometrik masalalarni yecha oladi; sodda amaliy vaziyatlarda kombinatorik va mantiqiy masalalarni yecha oladi; elektron axborot manbalaridan turli ko'rinishdagi sodda matematik ma'lumotlarni izlab topadi, foydalana oladi.

A1- ma'lum matematik faktlar va sodda mantiqiy qonunlar asosida xulosa keltirib chiqara oladi, rost va yolg'on tasdiqlarni farqlay oladi;zarur hollarda sodda hisoblash vositalarini qo'llay oladi; o'qituvchi bilan hamkorlikda masalaning yechimini topish rejasini tuza oladi, tuzilgan reja asosida ishlay oladi va o'z faoliyatini to'g'rilay oladi matematikani o'rganish jarayonida o'zida ijobiy hissiyotlarni shakllantira oladi mustaqil ravishda o'z bilimlarini mustahkamlay oladi.

A1+ o'qituvchi bilan hamkorlikda o'quv va amaliy holatlarda maqsadni ifodalay oladi; o'qituvchi bilan hamkorlikda nostandart va qiziqarli masalaning yechimini topish rejasini tuza oladi, tuzilgan reja asosida ishlay oladi va o'z faoliyatini to'g'rilab oladi.

A2- masalalar yechishda, nazariy tasdiqlarni asoslashda isbotlashning sodda ketma-ketligini tuza oladi, mulohazalarning mantiqiy to'g'riligini baholay oladi; o'rganilgan matematik tushunchalar, faktlar, algoritmlar, ma'lumotlar manbalarini va zarur hollarda hisoblash vositalarini qo'llay oladi; o'rganilayotgan matematik vaziyatda bilishning asosiy usullaridan (masalan, klassifikatsiya, analiz, sintez, analogiya,

umumlashtirish) foydalana oladi; masala yechimiga ijodiy yondasha oladi, yechimga yaqinlashish darajasini va olingan natijani baholay oladi hamda zarur hollarda o'z faoliyatini to'g'rilay oladi;

mustaqil ravishda o'z bilimlarini oshiradi, yangi g'oyalarni yaratadi va qabul qila oladi.

Yuqorida keltirilgan kompetensiyalar barcha umumta'lim fanlari orqali o'quvchilarda shakllantirib boriladi. Ushbu kompetensiyalar dars jarayonida mavzularga bog'langan holda o'quvchilarda shakllantirib boriladi. Kompetensiyalarni shakllantirishda quyida berilgan texnologik metodlardan unumli foydalanish maqsadga muvofiq.

1. **"SAN"[samarali , axloqiy, nazokatli] texnologiyasi.**

Bu texnologiyaning maqsadi o'quvchilarda yakka, jamoaviy, guruh bilan ishlash, ijodiy va tashkilotchilik faoliyati ko'nikmalarini shakllantirish, yaratuvchanlik, tadqiqotchilikka yo'naltirish , og'zaki va yozma nutqni rivojlantirishdan iborat. Mashg'ulot o'tkazish tartibi:

O'quvchilar 5ta guruhga ajratiladi, nomlanadi. O'qituvchi o'quvchilarga oldindan tayyorlangan, topshiriq yozilgan varaqlar tarqatadi. O'quvchilar belgilangan vaqt oralig'ida topshiriqni bajaradilar. Vaqt tugagach o'quvchilar bajargan ishlariga izoh beradilar.

1-guruh: "IJODKORLAR"

Bahor faslini tasvirlab ijodiy matn tuzing.

2-guruh :"RASSOMLAR"

Bahor faslini tasvirlab rasm chizing.

3-guruh:"Shoirlar"

Bahor fasliga bag'ishlab she'r yozing.

4-guruh:"Geograflar"

Bahor faslida yuz beradigan tabiatdagi o'zgarishlar: iqlim, ob-havo, faslga xos xususiyatlar haqida ma'lumot bering.

5-guruh:"TARJIMONLAR"

Bahor fasli haqida chet tilida matn tayyorlang.

Guruhlar ishi baholanib, g'olib guruh rag'batlantiriladi.

2. **"Bilgan o'zar" usuli.** Bu metodni ona tili fanida ham adabiyot fanida ham qo'llasa bo'ladi. Bu metodda o'quvchilar yakka tartibda ishlaydilar. Bunda o'quvchilar nutqimizda faol qo'llanadigan arab, fors tillaridan o'zlashgan so'zlarning o'ziga xos jihatlari bilan tanishtirib boriladi. Buning uchun asosdosh so'zlarga e'tibor qaratish lozim. Masalan xabar, xalq, xulq, habib, hukm so'zlarining asosdoshlarini topish va ular ishtirokida gaplar tuzish topshirig'i beriladi.

XABAR-axbor [xabarlar], axborot [jamlangan xabarlar], muxbir [xabarchi].

XALQ-xilqat [yaratilgan], Xoliq [yaratuvchi], xaloyiq [xalq], maxluq [yaratilgan].

XULQ- odob-axloq, xaloyiq, maxluq, xilqat.

Bunday metodlardan, yangi pedtexnologiyalardan ko'plab misollar keltirish mumkin. Ushbu ma'ruzada esa ayrimlari haqida misollar keltirildi.

Bunday o'quv mashg'ulotlari o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Dunyoqarashini kengaytiradi , mustaqil fikrlashga o'rgatadi va fanga oid kompetensiyalarni o'quvchilarda shakllantirishga yordam beradi.Ddars jarayonlari davomida turli metodlardan, yangi pedtexnologiyalardan foydalanishi zarur.

Nazorat uchun savollar:

1. Davlat ta'lim standartining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
2. DTS da Matematika fanini o'rganish bosqichlari nimalardan iborat?
3. Ona tilidan fanga oid kompetnesiyalar haqida ma'lumot bering.
4. "SAN"[samarali , axloqiy, nazokatli] texnologiyasi haqida qanday ma'lumotga egasiz?
5. Davlat ta'lim standarti qanday asosiy prinsiplarga asoslanadi?

10-mavzu: Boshlang'ich sinf darslariga qo'yilgan talablar. Qo'llaniladigan o 'quv vositalari va ularning vazifalari. Dars turlari.

Reja:

1. Boshlang'ich sinflar darslariga qo'yilgan talablar
2. Darslarda qo'llaniladigan o 'quv vositalari va ularning vazifalari
2.Dars turlari haqida ma'lumot
3. Savod o'rgatish darslarining turlari va shakllari

***

Tayanch tushunchalar: dars, sinf, o'quv-tarbiya jarayonini ommaviy, guruhli va individual ta'lim, boshlang'ich sinf darslariga qo'yiladigan talablar, tarbiyaviy talab, didaktik talab, tashkiliy talab.

***

Dars- ta'lim-tarbiyani amalga oshirishning eng qulay va eng zarur omilidir.

Dars ta'lim jarayonining yaxlitligi nuqtai nazaridan ta'limning asosiy tashkiliy usuli hisoblanadi. Unda sinf-dars tizimining xususiyatlari aks etadi, unda o'quvchilarni ommaviy qamrab olish, tashkiliy tartib va o'quv ishlarining muntazamligi ta'minlanadi. Dars iqtisodiy jihatdan foydalidir. O'quvchilar hamda sinf jamoasining individual xususiyatlarini bilishi o'qituvchi uchun har bir o'quvchi faoliyatiga rag'batlantiruvchi

ta'sir ko'rsatishga imkon beradi. Dars doirasida ommaviy, guruhli va individual ta'lim shakllarini birlashtirish imkoniyati uning rad etib bo'lmaydigan ustunligi hisoblanadi.

Maktabda dars o'quv-tarbiya jarayonini tashkil qilishning asosiy shakli hisoblanadi.

Sinf - deganda, yoshi va bilim darajasi bir xil bo'lgan o'quvchilar guruhi tushuniladi.

Dars - aniq maqsadni ko'zlab belgilangan vaqtda bir xil yoshdagi o'quvchi, yoshlar bilan o'qituvchi rahbarligida olib boriladigan mashg'ulotlardir. Dars - o'z oldiga qo'yilgan aniq maqsad va tugal mazmundan iborat.

Dars bevosita o'qituvchi rahbarligida aniq belgilangan vaqt davomida muayyan o'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta'lim jarayonining asosiy shakli sanaladi. Darsda har bir o'quvchi xususiyatlarini, psixologiyasini hisobga olish, barcha o'quvchilarning mashg'ulot jarayonida o'rganilayotgan fan asoslarini egallab olishlari, ularning idrok etish qobiliyatlari va ma'naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash hamda rivojlantirish uchun qulay sharoitlarni yaratiladi.

Bolani maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olishga tayyorlash uchun unga boshlang'ich ta'lim fanlarini barchasini egallab olish uchun tegishli shart-sharoitlarni yaratish zarur.

Bola nutqining rivoji ko'p jihatdan uning ruhiyatiga, sog'lom, tetik o'sishiga bog'liq. Axloqiy sifatlariga o'quv dasturini o'zlashtirishda me'yorli bajarilishini ta'minlashshiga, qo'llanmalarning monandligiga bog'liqdir. Bu masalalar maktabgacha ta'limda o'z yechimi ifodasini topishi va o'z ona tilida ravon gapira oladigan qilib tarbiyalashga qaratilishi zarur. Bolalarning aqliy jarayonini rivojlantirish uchun ularning nutqini o'stirish zarur:

Bola har bir so'z ma'nosini tushuna olishi uni o'z nutqida erkin ifodalashga muvofiq bo'lishi kerak.

Darsga qo'yilgan tashkiliy talablar:

- Dars uchun puxta o'ylangan konspekt yoki reja tuzish;

• Darsning logikasiga (dars etaplarining o'zaro bog'liqligi, darsda amalga oshiriladigan ishlar; o'quv topshiriqlarining o'zaro aloqadorligiga) rioya qilish;

• Dars tempini o'quvchilarning tayyorgarligiga moslashtirish;

• Dars uchun ajratilgan vaqtdan ratsional foydalanish;

• Darsda ongli intizomni tashkil etish.

Boshlang'ich sinf darslariga qo'yiladigan talablar:

Zamonaviy darslar quyidagi talablarga javob bera olishi lozim:

• fanning ilg'or yutuqlari, pedagogik texnologiyalardan foydalanish, darsni o'quv-tarbiyaviy jarayon qonuniyatlari asosida tashkil etish;

• darsda barcha didaktik tamoyil va qoidalarning optimal nisbatlarini ta'minlash;

• o'quvchilarning qiziqishlari, layoqati va talablarini hisobga olish asosida ular tomonidan bilimlarning puxta o'zlashtirilishi uchun zarur sharoitlarni yaratish;

• o'quvchilar anglab yetadigan fanlararo bog'liqliklarni o'rnatish;

• ilgari o'rganilgan bilim va malakalari, shuningdek, o'quvchilarning rivojlanish darajasiga tayanish;

• shaxsning har tomonlama rivojlantirishni motivatsiyalash va faollashtirish;

• o'quv-tarbiyaviy faoliyat barcha bosqichlarining mantiqiyligi va emotsionalligi;

• pedagogik vositalardan samarali foydalanish;

• zarur bilim, ko'nikma va malakalar, fikrlash va faoliyat ratsional usullarini shakllantirish;

• mavjud bilimlarni doimo boyitib borish ehtiyojini yuzaga keltirish;

• har bir darsni puxta loyihalashtirish, rejalashtirish, tashxis va taxmin qilish.

Har bir dars oldiga quyidagi talablar qo'yiladi:

• tarbiyaviy talab,

• didaktik talab,

• tashkiliy talab.

Didaktik (yoki ta'limiy) talablarga har bir darsning ta'lim vazifalarini aniq belgilash, darsni axborotlar bilan boyitish, ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlarni hisobga olish bilan mazmunini optimallashtirish, idrok etish eng yangi texnologiyalarini kiritish, turli xildagi shakli, metodlari va ko'rinishlaridan mos ravishda foydalanish, dars tuzilishini shakllantirishga ijodiy yondashish, jamoaviy faoliyat usullari bilan birga o'quvchilar mustaqil faoliyatlarini turli shakllaridan birga foydalanish, operativ qayta aloqani ta'minlash, amaliy nazorat va boshqaruvni amalga oshirish, ilmiy mo'ljal va darsni mahorat bilan o'tkazishni ta'minlash kabilar kiradi.

Darsga nisbatan qo'yiladigan **tarbivaviy** talablar o'quv materialining tarbiyaviy imkoniyatlarini aniqlash, darsdagi faoliyat, aniq erishilishi mumkin bo'lgan tarbiyaviy maqsadlarni shakllantirish va qo'yish, faqat o'quv ishlari maqsadlari va mazmunidan tabiiy ravishda kelib chiqadigan tarbiyaviy masalalarni belgilash, o'quvchilarni umuminsoniy qadriyatlarda tarbiyalash, hayotiy muhim sifatlar (tirishqoqlik, tartiblilik, mas'uliyatlilik, intizomlilik, mustaqillik, ish bajarishga qobiliyatlilik, e'tiborlilik, halollik va boshqalar)ni shakllantirish, o'quvchilarga diqqat- e'tiborli munosabatda bo'lib, pedagogik odob talablariga amal qilish, o'quvchilar bilan hamkorlik va ularning muvaffaqiyat qozonishlaridan manfaatdor bo'lishdan iborat.

Barcha darslarda doim amalga oshirilib boriladigan rivojlantiruvchi talablarga o'quvchilarda o'quv-o'rganish faoliyati ijobiy sifatlari, qiziqish, ijodiy tashabbuskorlik va faollik, shakllantirish hamda rivojlantirish, o'quvchilarning idrok etish imkoniyatlari darajasini o'rganish, hisobga olish, rivojlanishning yaqin zonasini loyihalashtirish», «yuksalish»

darajasidagi o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish, rivojlanishidagi yangi o'zgarishlarni rag'batlantirish, o'quvchilarning intellektual, emotsional, ijtimoiy rivojlanishlaridagi «sakrab o'tish»larni oldindan ko'ra bilish, boshlanayotgan o'zgarishlarni hisobga olish asosida o'quv mashg'ulotlarini operativ qayta qurish kabilar kiradi.

Darsning boshlanishini tashkil etish bir necha daqiqa davom etadi. Darsning keyingi qismlarining samaradorligi tuzatish maktabidagi tashkiliy momentga bog'liq;

- o'rganilgan materialning o'zlashtirilishini tekshirish (uy vazifasini tekshirish)

- o'qituvchi har kim topshiriqlarni bajarganligini tekshiradi, o'quvchilarga qiyinchilik tug'dirgan daqiqalarni aniqlaydi, ish davomida yo'l qo'yilgan tipik xatolarni aniqlaydi;

- o'quvchilarni yangi materialni o'zlashtirishga tayyorlash - agar uy vazifasi bo'lmasa. Darsning bu qismi tushuntirish jarayonida foydalaniladigan bilimlarni takrorlashga qaratilgan. Darsning ushbu qismining ma'nosi - bilimlarni tekshirish va yangi materialni o'rganishga tayyorgarlik ko'rish;

-darsning maqsadi va vazifalarini belgilash talabalarning diqqatini faollashtiradi va o'rganilayotgan fanga dastlabki qiziqishni shakllantirishga yordam beradi;

- yangi materialni tushuntirish darsning muhim qismidir. Ayni vaqtda ta'limning quyidagi shakllari ajratib ko'rsatiladi:



Ular o'quvchilarni qamrab olishi, o'quvchilar faoliyatini tashkil etishi, jamoaviy va individual shakllarining nisbatlari, mustaqilligi darajasi va o'qish jarayoniga rahbarlik qilish xususiyatlari kabi belgilariga ko'ra quyidagi uch asosiy turga ajratiladi:

individual;

sinf-darsli;

ma'ruza-seminarli.

O'qish va yozuv darslariga qo'yiladigan talablar.

1. Umumdidaktik talablar:

a) har bir darsning tarbiyaviy maqsadi bo'lib, unda bironta axloqiy sifat o'stirilishi lozim;

b) darsning ta'limiy maqsadi, ya'ni o'quvchilar darsda qanday yangilikni bilishi, nimani o'rganishi, qanday ko'nikma va malakalar o'stirilishi, o'quvchilarning mustaqil flkrlashi va faolligining qanday bo'lishi aniq belgilab olinishi kerak;

d) darsning izchilligi va istiqboli, uning oldingi va keyingi darslar bilan bog'liqligi aniq belgilab olinishi zarur;

e) o'tiladigan materialning xarakteri va ta'lim maqsadidan kelib chiqib dars uchun xilma-xil va qiziqarli metodik usullar va vositalar tanlanishi lozim;

f) dars davomida o'quvchilarga differensial va individual yondashish,ishni barcha o'quvchilaming imkoniyati, bilimi, ko'nikma va malakasi hamda fikrlash faoliyatini hisobga olgan holda uyushtirish kerak;

g) o'quvchilarni aqliy mehnat (o'qish) usullariga o'rgatish, ularda maktabda o'qish uchun kerakli ko'nikmalarni hosil qilish zarur;

i) beriladigan material ilmiy, o'quvchilar yoshiga mos va muvofiq bo'lsin va hokazo.

2. Maxsus metodik talablar:

a) o'quvchilar nutqi uchun qayg'urish, darsda adabiy til nuqtai nazaridan to'g'ri, ifodali, obrazli, aniq nutqqa erishish lozim;

b) o'qish darsida ham, yozuv darsida ham o'quvchilar nutqini o'stirishga, lug'atini boyitishga, gap tuzish va uni tahlil qilishga, og'zaki hikoyalash va shu kabi ish turlariga alohida ahamiyat qaratish kerak;

d) maktab va sinf devorlariga osilgan, xattaxtaga yozilgan har qanday yozuv mazmunan va imlo jihatdan savodli bo'lishi zarur;

e) darsda nutq madaniyati hukmron bo'lishi, o'qituvchi va o'quvchilar adabiy tilda so'zlashishlari kerak; o'qish va yozuv ko'nikma-malakalarini shakllantirish mashqlari darsda yetakchi o'rinni egallab, taxminan, darsning uchdan ikki qismiga to'g'ri kelishi lozim;

Darsliklar, o'quv qo'llanmalar, ko'rsatmali qurollar, o'qitish vositalaridir.

Darsliklar tarixi qadim zamonlardan boshlanadi. Sharqda, xususan Furot va Dajla daryolari oralig'ida yashagan qadimiy shumerlar davrida sopol taxtachalarga bitilgan matnlar miloddan avvalgi 2-ming yillikka oid bo'lib, ular "qo'llanma" va "daryoliklar" vazifasini o'tagan. Keyinchalik boshqa sharq xalqlarida, ulardan keyin esa qadimiy dunyoda papirus yoki pergamentga bitilgan qo'lyozma o'quv kitoblari vujudga kela boshlagan va ular ma'lum bir sohaga, kasbga o'rgatish uchun asosiy manba vazifasini o'tagan. Kitob nashr etish ishi yuzaga kelgach, Darsliklar hammabop bo'la boshladi. Pedagogika va psixologiya fanlarining taraqqiyoti bilan darsliklarning mazmuni va metodik tuzilishi tobora mukammallashib bordi. O'rta Osiyoni Rossiya bosib olgunga qadar bu yerda mavjud bo'lgan maktab va madrasalardagi ta'limtarbiyaning asosiy mazmuni islom ta'limotini o'rgatishdan iborat bo'lgan va ularda arab, fors, eski turk tillarida yozilgan diniy kitoblar Darslik vazifasini o'tagan. Bu Darsliklar Qur'on oyat va suralaridan, boshqa diniy kitoblarning turli qism va parchalaridan iborat bo'lgan. Bugunki kun darsliklari boshlang'ich sinf o'quvchilarining yoshiga, DTS talablari asosida , zamonaviy ma'lumotlar bilan boyitilgan

holda nashr etilmoqda.

Darsliklar ta'lim texnologiyalarini dars jarayoniga tatbiq etishda katta ahamiyatga ega bo'lib, o'quvchilarning puxta bilim olishi, mustaqil ravishda o'qiy

olishi va ijodiy samaradorligini oshirishda muhim o'rin tutadi. Darslik orqali o'quvchilarning o'quv va malakalari shakllanadi. Darslik yangi ma'lumotni o'qituvchi uchun u yoki bu uslubiy yondashishni ko'rsatib beradi. Endi darslikka quyidagicha umumiy ta'rif beriladi:

Darslik – o'quv fani dasturiga mos bilimlarning mustahkam bayoniga ega bo'lgan va rasman tasdiqlangan o'quv kitobidir. Darsliklar o'quv dasturi materialining mazmuni va uni ko'rib chiqish tizimini belgilab beradi hamda bu materialning har birini o'rganish saviyasini (darajasini) aniqlab beradi.

Boshlang'ich sinfda darsliklar bilan birgalikda , xonadagi hamma jihozlar, ya'ni stol, stuldan tortib,yozuv xattaxtasigacha o'qitish vositalariga kiradi. O'qitish vositalari yordamida o'quv jarayoni tashkil etiladi va olib boriladi. O'qitish vositalari orqali o'quvchilarning bilimlari tekshiriladi va nazorat qilinadi.

O'qitishda ko'rsatmali qurollarni malakali tanlash va ulardan samarali foydalanish ko'rgazmali qurollar turlarini bilishni o'z ichiga oladi. An'anaviy ravishda, foydalanish nuqtai nazaridan ko'rgazmali qurollarni individual va umumiy sinflarga bo'lish mumkin.O'quv jarayonida ko'rsatmali qurollardan foydalanish maqsadlari, qoida tariqasida, quyidagilar: bilim, ko'nikma, ko'nikmalarni mustahkamlash, ularning o'zlashtirilishini tekshirish, yangi materialni o'rganish.

Shuningdek,ko'rgazmali qurollarni kiritish, dars materiallarini o'zlashtirishdan tashqari, o'quvchilarning vizual materiallar bilan mustaqil ishlash qobiliyatini ta'minlaydi. Talabalarni imtiyozlardan mustaqil foydalanishga undash kerak.

Malumot jadvallari, diagrammalar va chizmalar turli xil mashqlarni bajarish paytida, ilgari o'rganilgan materialni

takrorlash bosqichida foydalanish uchun majburiydir. Modellashtirish, chizish, og'zaki tavsiflash orqali vizual qabul qilingan materialni ko'paytirishni mashq qilish tavsiya etiladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, bilim va ko'nikmalarni sinash uchun ko'rgazmali qurollar ham qo'llaniladi. Masalan, tarqatma didaktik materiallar yordamida nazariyani amalda qo'llash qobiliyatini tekshirish mumkin. chunki bu materialni o'rganishda, mashqlarni bajarishda salbiy rol o'ynaydi, o'quvchilarni darsda qo'yilgan vazifadan chalg'itadi, tashqi daqiqalarga e'tibor beradi.

Yuqoridagi muammolarni oldini olish uchun pedagogik innovatsiyalarni qo'llash paytida tizimlilik prinsipiga asoslanish kerak, shuningdek, vizual vositalarning barcha texnik va pedagogik parametrlari didaktik tizimning mazmuni, usullari, maqsadlari va vazifalari bilan bog'liq bo'lishi kerak.

Dars turlari quyidagi usullarda olib boriladi:

Asosiy dars turlari.

- 1. Maxsus darslar.
- 2. Aralash darslar.

Maxsus darslar

- o'zining funktsiyasi va mazmuni buyicha faqat bitta vazifani bajaradi: · yangi mavzuni o'rganish darsi; ·
- bilimlarni mustahkamlash,
- ko'nikma va malakalarni shakllantirish darsi;
- umumlashtirish va tizimlashtirish darsi; ·
- bilim, mahorat va ko'nikmalarni nazorat qilish hamda tuzatish darsi.

Aralash darslar.

Uning tuzilishi: tashqiliy qismi, uy ishini tekshirish, yangi mavzuni o'rgatish, yangisini ilgari urganilgan mavzu bilan solishtirish va mustahkamlash, amaliy topshiriqlarni bajarilishi, darsga yakun yasash va uyga topshiriqlar berish,

o'quvchilar bilimlarini baholash.

Ya'ni an'anaviy (45-daqiqali) **aralash dars** asosan **7-ta bosqich**dan iborat:

- Tashkiliy qism (1-2 daqiqa)
- uy vazifasini tekshirish (5-7 daqiqa)
- yangi mavzu bayoni (2-3 daqiqa) ·
- yangi mavzuni tushuntirish (10-12 daqiqa)
- yangi mavzuni mustahkamlash (13-15 daqiqa) ·
- uyga topshiriqlar berish (2-3 daqiqa) ·
- o'quvchilarni baholash(1-2 daqiqa).

Oliy o'quv yurtlarida darsning turlari esa quyidagicha:

ma'ruza; · seminar; · laboratoriya; · amaliy (praktikum).

O'qish va yozuv darslarining turlari.

Savod o'rgatish jarayonidagi darslar quyidagi belgilariga ko'ra farqlanadi:

1. Ta'limning predmetiga ko'ra:

a) "Alifbe" darsligi asosidagi o'qish darslari;

b) "Yozuv daftari" asosidagi yozuv darslari.

2. Ta'limning davri va bosqichlariga ko'ra:

a) alifbogacha bo'lgan davrdagi darslar;

b) alifboni o 'rganish jarayonidagi darslar.

Darsda yangi mavzu o 'tilishi va o'tilmasligiga ko'ra:

a) yangi tovush-harf o'rganiladigan o'qish darslari;

b) yangi harfni yozish darslari;

d) yangi tovush-harf o'rganilmaydigan darslar;

e) yangi harf yozilmaydigan yozuv darsi.

Savod o'rgatishning tayyorlov davrida darslar 35 daqiqa, asosiy (alifbe) davrida 45 daqiqa bo'ladi.Savod o'rgatish darslarida ish turlarini almashtirib turish, vaqti-vaqti bilan dam olish daqiqalari o'tkazish zarur. Bu o'quvchilar toliqishining oldini oladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Boshlang'ich ta'lim darslariga qo'yilgan talablar

nimalardan iborat?

2. Darslarda qo'llaniladigan qanday o 'quv vositalarini bilasiz?

3. Dars turlari haqida ma'lumot bering.

4. O'qish va yozuv darslariga qo'yiladigan talablar nimalardan iborat?

5. Ta'limning qanday shakllari mavjud?



11-mavzu: Boshlang'ih sinf o'qituvchisining me'yoriy hujjatlari.

Reja:

1. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining o'quv-me'yoriy hujjatlari
2. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining metodik ishlari
3. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining metodik ishlarini rejalashtirish, tashkil etish va tayyorlash metodikasi

***

Tayanch tushunchalar: o'quv-me'yoriy hujjatlar, intellektuallik, individ, hamkorlikda ta'lim, ta'lim-tarbiya, o'qituvchi huquqlari, ish majburiyatlari, ish vaqti.

***

Mustaqil yurtimiz o'qituvchilarining kasbiy standartiga muvofiq ish tavsifi o'qituvchiga ishga kirishda va ish jarayonida qo'yiladigan talablarni o'z ichiga oladi. U shaxs uchun emas, balki ma'lum bir pozitsiya uchun tuzilgan, shuning uchun agar u ko'rsatmalarni buzsa, unga nisbatan noxolis munosabat haqida gapirish mumkin emas. Ish ta'rifida, masalan, ma'lum bir mutaxassislik bo'yicha o'rta yoki oliy ma'lumotga ega bo'lish talabi belgilangan. Shuningdek, ish tavsifida attestatsiya, mukofotlar va o'qituvchilarni intizomiy jazolash bilan bog'liq qoidalar ko'rsatilishi mumkin. Albatta, bunday normalar tashkilotning mahalliy hujjatlarida (direktor buyrug'i, maktab ustavi, ichki tartib-qoidalar) bo'lishi mumkin, ammo ularning

barchasi bitta hujjatda to'plangan bo'lsa, bu ancha qulayroqdir.

Umumta'lim maktabida ish tavsifi huquqiy hujjatlarga muvofiq ishlab chiqiladi. Ushbu hujjatda nima aks ettirilgan?

1. O'qituvchi huquqlari.
2. Ish majburiyatlari.
3. Ish vaqti.

Tegishli ko'rsatma mazmuni kompilyatorning (o'zgarish degan ma'noni bildiradi) xohishiga qarab farq qilishi mumkin. U odatda quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:

O'qituvchi maktab direktorining buyrug'i bilan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi.

O'qituvchi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublika Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublika qonunlari, ta'lim muassasasining mahalliy hujjatlariga amal qiladi.

O'qituvchi fanni o'qitish metodikasini bilishi, bolalar psixologiyasini bilishi kerak. Darsda zamonaviy o'qitish vositalari va usullaridan foydalanadi.

O'qituvchi o'z o'quvchilarining xavfsizligi uchun javobgardir, shuning uchun u bolalarni sinfda qarovsiz qoldirmasligi kerak.

O'qituvchi dars jadvalini o'z xohishiga ko'ra o'zgartirishga haqli emas.

Ammo ishning o'ziga xosligidan kelib chiqib, hujjat mazmuni o'qituvchilar ishini tartibga soluvchi bandlarni o'z ichiga oladi:

Qo'shimcha ta'lim o'qituvchisi bolaning iqtidorini aniqlash, rivojlantirish va takomillashtirishga intilishi kerak.

O'qituvchi bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda dars dasturini tuzishi kerak.

O'qituvchining vazifalariga zamonaviy texnologiyalar va o'qitish usullaridan foydalanish.

O'qituvchi yosh avlodni tarbiyalash va o'qitishga oid normativ-huquqiy bazaga ega bo'lishi kerak.

Me'yoriy-huquqiy hujjat deb - normativ hujjatlar to'g'risidagi qonunga muvofiq qabul qilingan, umum majburiy davlat ko'rsatmalari sifatida huquqiy normalarni belgilashga, o'zgartirishga yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjatga

aytiladi. Ta'lim standartlari tizimidagi me'yoriy hujjatlarga O'zbekiston Respublikasining davlat ta'lim standartlari tizimi kiradi.

Umumta'lim muassasasi yuridik shahs hisoblanadi va o'z ustaviga, mustaqil balansiga, shaxsiy g'azna hisobvaraqlariga (davlat ta'lim muassasalari uchun), bank hisob raqamlariga, o'z nomi ko'rsatilgan muhrga (davlat umumta'lim muassasalarining muhrida O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi tasviri tushiriladi), shtampga va blankalarga ega bo'ladi.

Umumta'lim muassasasining ustavi belgilangan tartibda tasdiqlanadi va mahalliy davlat hokimiyati organida davlat ro'yhatidan o'tkaziladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ijro intizomini olib borish uchun mas'ul direktor hisoblanib' u o'z vazifasini aynan birinchi navbatda o'qituvchi-xodimlarning ish vaqtini belgilash qatorida vazifalarni bajarilish uchun ish hajmini belgilab beradi.

Maktab ish faoliyatini tashkil etishda asosiy vazifalar maktab ustavida belgilab qo'yiladi va unda maktabning butun hamma jamoasining bajarishi lozim bo'lgan vazifalar ko'rsatilgan.

Ish jarayoni esa buyruqlashtirilgan holda olib borilishi ahamiyat kasb etadi. Albatta yana shuni ta'kidlash joiz o'qituvchi-xodimlar adolatli boshqaruvni yaxshi ko'radi. Maktab ishini tashkil etish uchun qonuniy hujjatlar orasida mehnat kodeksining o'rni diqqatga sazovordir. Ushbu hujjat ish boshqaruvchi va bajaruvchilar o'rtasida munosabatni to'g'irlovchi qonundir.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi umumta'lim maktab talabnomalari asosida ish yuklamasida belgilangan vazifalarni bajarishda quyidagi me`yoriy hujjatlar bilan ish olib boradi:

Yillik ish rejasi. Yil boshida bir marta tuziladi va direktor tomonidan tasdiqlanadi. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015-yil 27-oktabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2715-1] "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'qituvchilari uchun namunaviy yillik ish

rejasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorga muvofiq o‘qituvchining yillik ish yuklamasi soatlarining nimalarga, qanday hajmda oyma-oy sarflanishini o‘quv yili boshida vazirlik tomonidan berilgan namuna asosida rejalashtirib olinadi.

2023-2024 o‘quv yili uchun 4-sinf O‘QISH SAVODXONLIGI fanidan taqvim mavzu rejasi haftasiga 3 soatdan

T/r	Mavzular	Soat	O‘tilgan vaqti Rejada	O‘tilgan vaqti Amalda	Uyga vazifa	Izoh
				I chorak		
1	Yagonadir Vatanim sening!	1			10-bet	
2	Buyuk mehring	1			14-bet	
3	Sayroqi qushcha	1			19-bet	
4	Vatan mehri (Audio ertak)	1			19-bet	
5	Vatan yoshlari	1			22-bet	
6	Marvarid	1			28--bet	
7	Marvarid	1			28-bet	
8	STO'	1			Takrorlash	
9	Nazorat ishi-1	1			Takrorlash	
10	Toshbag'ir	1			33-bet	
11	Qarg'a va paxta	1			40-bet	
12	Ona tilim	1			45-bet	
13	Kitoblar mazmuni (Audio rivoyat)	1			43-bet	
14	Tabiat darsi,Ona tili darsi	1			47-bet	
15	Baxtimizning timsoli	1			51-bet	
16	Qanot qoqqan orzular	1			56-bet	

Taqvim, mavzu, reja. Yil boshida bir marta tuziladi va direktor tomonidan tasdiqlanadi. Ushbu reja o‘quvchilarga yil davomida ma’lum bir fan bo‘yicha o‘tiladigan mavzularni oldindan belgilab olish uchun tuziladi. Qolaversa ushbu taqvim mavzu rejasi vazirlik tomonidan berilgan namunaviy taqvim mavzu reja asosida bir o‘quv yili uchun bir marta tuziladi.

Dars konspekti daftari. O‘qituvchi tomonidan taqvim mavzu rejasiga muvofiq darsga kirishdan oldin (hafta boshlanishida, haftada bir marta bo‘lishi ham mumkin) o‘tiladigan mavzu yuzasidan o‘qituvchi tomonidan 45 daqiqalik darsni qanday olib borishi, nimalar haqida gapirishi, qanday pedagogik texnologiyalar, o‘yinlardan foydalanishi, nima topshiriqlar berishi qisqa tezis shaklida yoziladi va o‘quv ishlari bo‘yicha direktori tomonidan vizual ko‘rib chiqilib imzolanadi. (*Bugungi kunda dars ishlanmasi malakali pedagoglar tomonidan doimiy yozilishi majburiy emas deb belgilangan.Ish faoliyatini yangidan boshlagan pedagoglar uchun yozish tavsiya etiladi.)*

Sinfelektronjurnali. Mazkur hujjat o‘quvchiga Davlat ta’lim standartlariga muvofiq qanday mavzularda dars o‘tilganligini,

o‘quvchilar davomatini qayd qilish va o‘quvchilarning o‘tilgan mavzular bo‘yicha bilimlarini baholab borish uchun zarur. Shuningdek bugungi raqamlashtirish davrida ota-onalarning o‘z farzandini fanlardan olgan baholari va berilgan topshiriqlardan xabardor bo‘lib borishlarini ta’minlaydi.



Dars kuzatish daftari. Bu o‘qituvchilarning o‘z hamkasb-

lari bilan o'zaro dars kuzatishlarini qayd etib borish daftari bo'lib, darsni kuzatish jarayonida to'ldiriladi. O'qituvchi kasbdoshining darsini kuzatish orqali uning yutuqlarini o'rganadi, o'zining faoliyatida qo'llaydi yoki darsning kamchiliklarini hamkasbiga bayon qilish orqali uning bartaraf etilishiga hissa qo'shadi. Har bir o'qituvchiga bir haftada atigi bir soat (45 daqiqa) dars kuzatishi belgilangan.

"KELISHILDI"
M.M.I.B.D.O'

_____ _____
"___" _____2023-yil

"TASDIQLAYMAN"
maktab direktori

_____ _____
"___" _____ 2023-yil

"Sinf soati" mashg'ulotlarining 2023-2024-o'quv yili-mavzu rejasi
4-SINF

№	"Sinf soati" mashg'ulotlarining o'quv-mavzu rejasi 4 - « » sinf	Soat	Sana	Uyga vazifa
1	Biz istiqlol farzandlarimiz!	1		
2	O'quvchilarning tashkiliy jamlanmasi va guruhining harakatlanishi (Yo'l harakati qoidalari).	1		
3	Etiket qoidalari.	1		
4	Sizni sharaflaymiz, aziz ustozlar (1-oktabr – O'qituvchilar va murabbiylar kuni munosabati bilan).	1		
5	Favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish.	1		
6	Yo'lning qatnov qismidagi belgilar (Yo'l harakati qoidalari).	1		
7	Tanishish odobi?	1		
8	Til – dil ko'zgusi ("Davlat tili haqida"gi Qonun qabul qilingan kun munosabati bilan).	1		
9	Transport vositalaridagi raqam, ogohlantiruvchi belgilar va yozuvlar (Yo'l harakati qoidalari).	1		
10	Oltin kuz ne'matlari.	1		
11	Bayrog'imiz-faxrimiz (18-noyabr - Davlat bayrog'i qabul qilingan kun munosabati bilan).	1		
12	Konstitutsiya- baxtimiz komusi (8-dekabr – Konstitutsiya kuni munosabati bilan	1		
13	Gelminlardan salomatligimizga yetkazildigan zararni bilasizmi?	1		
14	Madhiyam, yangrayver! (10-dekabr - Davlat madhiyasi qabul qilingan kun munosabati bilan).	1		
15	Kumush qish.	1		
16	Yangi yilga yangi rejalar (Yangi yil bayrami yaqinlashishi munosabati bilan).	1		
17	Ona yurtni mard o'g'lonlar qo'riqlaydi (14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan).	1		
18	Yo'llarda xavfli xolatlar. Mening maktabimga boradigan eng xavsiz yo'l (Yo'l harakati qoidalari)	1		
19	Tejamkorlik. Gaz va elektr, ichimlik suvini tejash burchimiz.	1		
20	Donolar bisotidan. (Navoiy va Bobur tavallud kunlari oldidan).	1		
21	Birlashgan Millatlar Tashkiloti haqida.	1		
22	Piyodalarning yakka, guruh bo'lib va jamlanma harakatlanishi (Yo'l harakati qoidalari)	1		
23	Oila - muqaddas dargoh.	1		
24	Onalar, sizni qutlaymiz! (8-mart – Xotin-qizlar kuni munosabati bilan).	1		
25	Sog' tanda-sog'lom aql.	1		
26	Milliy an'analarimiz faxrimizdir (21-mart – Navro'z bayrami munosabati bilan).	1		
27	Ta'magirlik - yomon illat.	1		
28	Yo'l transport hodisalarining sabablari (Yo'l harakati qoidalari).	1		
29	Yurtimizdagi muzeylar.	1		
30	Chorraxalarning turlari va piyodalarning chorraxalarda harakatlanish qoidalari.(Yo'l harakati qoidalari).	1		
31	Xotira muqaddas (Xotira va qadrlash kuni oldidan).	1		
32	Velosipedda va piyoda harakatlanish qoidalari (Yo'l harakati qoidalari)	1		
33	Kitob – bilim bulog'i.	1		
34	Yozgi ta'til rejalari.	1		

Tarbiyaviy ishlar rejasi (sinf rahbarlari uchun). Barcha o'qituvchilar ish yuklamasi turli xilda bo'ladi. Ayrim o'qituvchilarga sinf rahbarligi yuklatilgan bo'lib, ushbu lavozim uchun ularga asosiy oylik maoshlaridan tashqari eng kam oylik ish haqining bir barobari miqdorida qo'shimcha haq to'lanadi. Tarbiyaviy ishlar rejasi Respublika ta'lim markazi tomonidan berilgan namunaviy tavsiyalar asosida yil boshida ishlab chiqiladi. Sinf rahbari *"Ma'naviy va tarbiyaviy ish"* hujjatlar jamlanmasini yuritadi. Bu hujjatlar jamlanmasida sinf o'quvchilarining to'liq ma'lumotlari va ota-onalar bilan olib borilgan suhbatlar qayd etib boriladi.

To'garak mashg'ulot daftari: Boshlang'ich sinf o'qituvchisining darsdan tashqari olib boradigan ishlaridan biri to'garak mashg'ulotlaridir. To'garaklar mashg'ulotlari ma'lum bir fan doirasida tashkillashtiriladi. Sing o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatgichiga qarab , bo'sh yoki iqtidorli o'quvchilar tanlab olinadi va to'garaklar faoliyati yuritiladi.

Ifodali o'qish to'garak ishi rejasi

№	Mavzular	Soat	O'tiladigan sana	O'tilgan sana
1	Iniqlolim-iniqbolim. Mangulikka tanglik kun.	2		
2	Iqboli buyuksan. (She'r).	2		
3	Qodir boboning o'zini.	2		
4	Iniqlol bolalari. (She'r).	2		
5	O'zbekiston-Vatanim manim. Serqiyosh o'lka.	2		
6	Xarita.	2		
7	Mardlik va aql yorug'ligi (She'r)	2		
8	Kichik Vatan.	2		
9	Gulg'unchalarmiz (She'r).	2		
10	Saxovatli fasl (Kuz).	2		
11	Qovun sayli.	2		
12	Ma'naviyat qalb qiyoshi. Salomlashish odobi.	2		
13	Odamdan nima qoladi?	2		
14	Eng ulug' fazilat.	2		
15	Har kim ekkanin o'rar.	2		
16	Chaqimchiga „Mukofot"	2		
17	Xalq og'zaki ijodi. Boychechak. (She'r)	2		
18	Oftob chiqdi olamga.(She'r)	2		
19	Xo'p hayda.(She'r)	2		
20	Ertaklar mamlekanda.Ilm afzal.	2		
21	Ko'zcha bilan tilki	2		
22	Hunarsiz kishi o'limga yaqin	2		
23	Ziyrak uch yigit	2		
24	Adabiy ertaklar.Bo'rining tabib bo'lgani haqida ertak	2		
25	Baqa bilan taqa	2		
26	Laqma it (She'r)	2		
27	Maqollar.Topishmoqlar.	2		
28	Kumush qish. Qish to'g'risi momiq par	2		
29	Qish. (She'r)	2		
30	Qor odamning sovg'asi	2		
31	Vatanimiz o'zinishidan.Kitobga ixlos.	2		
32	Aisherning yoshligi	2		
33	Shum bola	2		

Metodik kengash tuzilmasi

Tashkiliy pedagogik vazifasi	Ilmiy-izlanish vazifasi	Yo'riqnoma berish vazifasi
1. Ishning maqsad va usullari 2. Metod birlashmalarga rahbarlik qilish 3.Vaqtli davriy guruhlarga rahbarlik qilish 4. Dastur rejalarini ko'rib chiqish , ularni tasdiqlash va pedagogik kengashga taqdim etish Tuman fan uyushmasi bilan aloqa qilish	1. Tadqiqot faoliyatiga pedagoglarni jalb qilish 2. Tadqiqot faoliyati bilan shug'ullanuvchilar uchun ijodiy muhit yaratish 3.Pedagogik muammolar bo'yicha ishlarni kiritish	1. O'qituvchilarga yo'riqnomalar berish. konsultasiyalar o'tkazish 2. O'quv-tarbiya ishlarini tashkil etish 3. Pedagogik adabiyotlar . yangiliklar bilan tanishtirish 4. Ilg'or tajribalar to'g'risida ma'lumot berish 5. Ta'lim texnologiyalari va ularni tatbiq etish bo'yicha tushunchalar berish

Metodik kengash tarkibi va uni ishini tashkil etish

Metodik kengash tarkibi muassasa direktorining buyrug'i bilan shakllantirilib, muassasaning pedagogik kengashiga bo'ysunadi va o'z faoliyatini pedagogik kengash qarorlarini bajarishga yo'naltiradi. Metodik kengash a'zoligiga umumta'lim muassasasi direktorining o'rinbosarlari, uslubiy birlashmalar rahbarlari, oliy, birinchi va ikkinchi toifali o'qituvchilar kiritilib, metodik kengash a'zolari soni pedagog xodimlar va o'quvchilar sonidan kelib chiqib 5-15 kishidan iborat tarkibda shakllantiriladi. Metodik kengash raisi umumta'lim muassasasi direktorining o'quv ishlari bo'yicha o'rinbosari hisoblanadi. Metodik kengash kotibi o'qituvchilar orasidan tayinlanadi. Metodik kengashning faoliyati umumta'lim maktabi direktori tomonidan nazorat qilinadi

Maktabning metodik kengashi ishini rejalashtirish

Davlat o'z siyosatini ta'lim tizimi orqali yurgizilishi sababli talim tizimi va uni boshqarishning huquqiy qonunlarini, davlat ta'lim standartlarini iqtisodiy-siyosiy va ma'naviyatimizga asoslanib ishlab chiqdi. Bu o'z navbatida maktabda metodik kengashning maqsadi, asosiy vazifalari va uning faoliyatini tashkil etishni zamon talablari asosida rejalashtirish va tashkil etishni taqozo etadi.

Metodik kengash muassasaning ta'lim, metodik va innovatsion faoliyatini ta'minlash yuzasidan metodik xizmatni amalga oshiradigan jamoaviy organ hisoblanadi va uning faoliyati jamoatchilik asosida tashkil etiladi.

Metodik kengashning huquq va majburiyatlari

Metodik kengash quyidagi huquqlarga ega:

Umumta'lim muassasasining o'quv jarayonini takomillashtirishda ishtirok etish;

pedagogxodimlarningilg'orishtajribalariniommalashtirish va amaliyotga joriy etishga oid masalalarni ko'rib chiqish;

o'quv yili yakunida o'quvchilarni keyingi sinfga ko'chirish yoki sinfda qoldirish masalalari bo'yicha maktab pedagogika

kengashiga tavsiyalar berish;

umumta'lim muassasasi rahbariyatiga o'quv, ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-metodik va tajriba-sinov ishlarida faol ishtirok etgan pedogog xodimlarni moddiy rag'batlantirish to'g'risida taklif kiritish;

pedagog xodimning malaka toifasini oshirish bo'yicha taklif berish;

pedagog xodimlarga malaka oshirish shakllari bo'yicha tavsiyalar berish;

fan olimpiadalari, tanlovlar va turli musobaqalarda qatnashish uchun o'qituvchilar va o'quvchilar nomzodini tavsiya etish;

umumta'lim muassasasi faoliyatiga oid ijtimoiy so'rovnoma o'tkazish, uning natijalaridan kelib chiqib o'quv jarayonini takomillashtirish bo'yicha chorqlar ko'rish;

Metodik kengash quyidagilarga majbur

-har chorakda faoliyati yuzasidan umumta'lim muassasasining pedagogik kengashiga hisobot topshirish;

-ta'lim-tarbiya sifatini yanada yaxshilash bo'yicha takliflar tayyorlash va pedagogik kengashga taqdim etish;

-o'quv rejasini ishlashda ishtirok etish;

-yangi axborot-kommunikatsion texnologiyalarni joriy etish bo'yicha pedagogik izlanishlar olib boorish;

-iqtidorli o'quvchilar bilan alohida reja asosida ishlashni tashkil etish;

-pedagog xodimlarga umumiy o'rta ta'limga oid normativ-huquqiy va metodik hujjatlar yuzasidan tushuntirish va ko'rsatmalar berish.

Metodik kengash hujjatlari

Metodik kengashda uning faoliyatiga oid quyidagi hujjatlar bo'lishi lozim:

-umumta'lim muassasasi direktorining metodik kengash to'g'risidagi nizom va uning tarkibini tasdiqlash to'g'risidagi buyrug'i;

-metodik kengashning tasdiqlangan ish rejasi;

-umumta'lim muassasasining pedagog xodimlari va ularning metodik ishlari haqida ma'lumotlar yig'ma jildi;

-pedagog xodimlar tomonidan tashkil etiladigan ochiq dars mashg'ulotlari va tarbiyayiy soatlar jadvallari;

-fan olimpiadalari, tanlovlar va musobaqalarni o'tkazish reja-jadvali;

-uslubiy birlashmalarning hisobotlari;

-yig'ilish bayonnomalari;

-metodik kengashda muhokama qilingan masalalar yuzasidan tahliliy materiallar.

Metodik kengash hujjatlarining saqlanishiga metodik kengash raisi va kotibi javobgar hisoblanadi.

Metodik kengash hujjatlari kengashda uch yil mobaynida saqlanadi hamda tegishli arxivga topshiriladi.

Metodika kengashi Nizom talablarini buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladi.

Maktabning o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari maktab qoshidagi Maxsus komissiya kotibi hisoblanadi. O'qituvchilarga ustama belgilash uchun komissiyaga taqdim etiladigan hujjatlar yig'ma jildi komissiya kotibi va komissiya huzuridagi ekspert guruhi tomonidan shakllantirilishi lozim. Chunki «Umumta'lim muassasalari qoshidagi maxsus komissiya to'g'risida Nizom»ning 18-bandida belgilab berilgan, ustama haq olishga talabgor bo'lgan o'qituvchining faoliyati samaradorligiga oid tahliliy ma'lumotlar, jadvallar talabgorning o'zi tomonidan to'ldirilishi, ustama haq belgilashdagi shaffoflik prinsiplariga ziddir.

Mazkur hujjatlar o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish va ularga haq to'lash uchun eng zarur bo'lgan hujjatlar hisoblanadi.

Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi bilan tasdiqlangan o'qituvchilarning ish yuklamasini belgilash va taqsimlash to'g'risidagi yo'riqnomada turli tekshiruvlar

jarayonida ulardan yuqorida qayd etilgan hujjatlardan boshqa hujjatlarni taqdim etish hamda hisobotlarni talab qilish QAT'IYAN MAN ETILGAN.

Butun jahon pedagoglarining ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirish haqidagi fikrlari bir-biriga yaqin. Juda ko'pgina mamlakatlar ta'lim-tarbiya tizimining bosh strategik yo'nalishi ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchi faoliyatining gumanistik yo'naltirilganligi bilan belgilanadi.

Nazotar uchu savollar:

1. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida me'yoriy hujjatlarni yuritish fani nimani o'rgatadi?
2. O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi qonunining yangi taxrirdagi qanday o'zgarishlar mavjud?
3. Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risida"gi Nizom nima vazifani bajaradi?
4. Umumta'lim muassasalarining namunaviy ustavi qaysi tashkilot tomonidan tasdiqlanadi?

12-mavzu: Savod o'rgatish, tayyorlov davri o'qish darslarida interfaol metodlaridan foydalanish.

Reja:

1. Savod o'rgatish tayyorlov davri haqida tushuncha.
2. Interfaol metodlar" tushunchasi mazmun va mohiyati.
3. Savod o'rgatish davrida o'qish darslarida interfaol metodlardan foydalanish.

***

Tayanch tushunchalar: savod o'rgatish, tayyorlov davri, o'qish darslari, interfaol metodlar, dars ishlanmalarini yozishni o'rgatish, ta'lim

***

Ta'lim- o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo'lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma'lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o'qituvchi o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini mashg'ulotlar vositasida o'quvchilarga etkazadi, o'quvchilar esa uni o'zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo'ladi. O'rganish jarayonida o'quvchilar o'zlashtirishning turli ko'rinishlaridan foydalanishadi, ya'ni o'zlashtirilayotgan ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etishda o'ziga xos talovutlarga tayanadi. Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarlarning dars paytidagi hamkorligi, o'quvchilarning

mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta'lim va tarbiya masalalari hal etiladi.

Ta'limning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanadi. Shunday ekan, ta'lim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo'lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta'limning maqsadi imkoniyatlaridan to'g'ri, aniq, o'rinli foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy g'oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma'naviy boyitishdan iboratligi ta'kidlangan.

Ta'limiy maqsad asosida o'quvchilarda mustaqil fikrlash, og'zaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi. Tarbiyaviy maqsad asosida esa ma'naviy, g'oyaviy, nafosat tarbiyasi beriladi. Til o'rganish jarayonida xalqning madaniy-axloqiy qadriyatlariga yaqinlashtirish imkoni paydo bo'ladi.

Ulug' donishmandlardan biri «... kelajak tashvishi bilan yashasang, farzandlaringga yaxshi bilim ber, o'qit», degan ekan. Yurtimizda ta'lim-tarbiya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar haqiqiy ma'noda bir-ikki yillik yoki qisqa davrda samaraga erishishga qaratilgan ish emas, balki chin ma'noda bir necha yuz yillarga tatiydigan o'zgarish bo'ldi, desak xato bo'lmaydi. Bu prezidentimizning kelajagimiz, kelajak avlodimiz haqida qayg'urib, yurtimizning barcha farzandlari – mening farzandlarim, ular bizlardan ko'ra kuchli, bilimli va albatta baxtli bo'lishlari kerak, degan g'oyasi zamirida donishmandlarcha siyosat yotganini ko'rsatadi.

Ma'lumki, ta'limda ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o'quv mashg'ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo'llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi.

Interfaol ta'lim o'z xususiyatiga ko'ra didaktik o'yinlar orqali, evristik (fikrlash, izlash, topish) suhbat dars jarayonini loyihalash orqali muammoli vaziyatni hosil qilish va yechish orqali kreativ-ijodkorlik *asosida* axborot kommunikatsion texnologiyalar yordamida amalga oshirish metodlarini o'z ichiga oladi. Axborot kommunikatsion texnologiyalar asosida ta'lim o'z navbatida kompyuter dasturlari yordamida o'qitish, masofadan o'qitish, internet tarmoqlari asosida o'qitish, media ta'lim metodlaridan iborat.

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning yosh xususiyatlari, savodsonlik darajalari, shaxsiy tabiatlariga terra didaktik o'yinlar orqali, evristik suhbatlar loyihalashtirish asosidagi metodlar keng qo'llanilmoqda. Agar o'qitish jarayonida har bir o'quvchi o'zining o'zlashtirish imkoniyati darajasida topshiriqlar olib ishlaganida u yuqori sifat va samaradorlikni ta'minlagan bo'lar edi. Bunday holatni faqat tabaqalashtirilgan ta'lim orqaligina amalga oshirish mumkin.

Savod o'rgatish tayyorlov davri haqida tushuncha.

Savod o'rgatish jarayoni 4 oy davom etadi.

Bu jarayon 2 davrga bo'linadi:

alifbogacha tayyorgarlik davri (2 xafta)

alifbogacha tayyorgarlik davri, o'z navbatida, 2 bosqichga

bo'linadi:

xarf o'rganilmaydigan bosqich (2 xafta)

unli tovush va xarf o'rganiladigan bosqich (2 xafta)

Savod o'rgatish jarayonidagi darslar predmetiga ko'ra ikki turli:

«Alifbe» darsligi asosidagi o'qish darslari

«Yozuv daftari» asosidagi yozuv darslari

1-bosqichning asosiy vazifasi o'quvchilarni maktab, sinf bilan, tartib-intizom koidalari bilan tanishtirish. Ularga nutq, og'zaki va yozma nutq haqida, gap, nutqnnng gaplardan tuzilshi, so'z gaplarning so'zlardan tuzilishi;

„Interfaol metodlar" tushunchasi mazmun va mohiyati.

Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma hamda malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Pedagogik texnologiya o'z mohiyatiga ko'ra sub'ektiv xususiyatga ega, ya'ni, har bir pedagog ta'lim va tarbiya jarayonini o'z imkoniyati, kasbiy mahoratidan kelib chiqqan holda ijodiy tashkil etishi lozim. Qanday shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etilishidan qat'iy nazar pedagogik texnologiyalar:

- pedagogik faoliyat (ta'lim-tarbiya jarayonining) samaradorligini oshirishi;
- o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirishi;
- o'quvchilar tomonidan o'quv predmetlari bo'yicha puxta bilimlarning egallanishini ta'minlashi;

- o'quvchilarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishi;
- o'quvchilarning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqara olishlari uchun zarur shartsharoitlarni yaratishi;
- pedagogik jarayonda demokratik va insonparvarlik g'oyalarining ustuvorligiga erishishni kafolatlashi zarur.

Pedagogik texnologiyalardan majburan foydalanish mumkin emas. Aksincha, tajribali pedagoglar tomonidan asoslangan yoki ular tomonidan qo'llanilayotgan ilg'or texnologiyalardan maqsadga muvofiq foydalanish bilan birga, ularni ijodiy rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda o'quvchilarning o'quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogic texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba to'plangan bo'lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Quyida ta'lim amaliyotida foydalanilayotgan interfaol metodlardan bir nechtasining mohiyati va ulardan foydalanish borasida so'z yuritamiz.

Bugungi kunda ta'limda «Aqliy hujum», «Fikrlar hujumi», «Tarmoqlar» metodi, «Sinkveyn», «BBB», «Beshinchisi ortiqcha», «6x6x6», «Bahs-munozara», «Rolli o'yin», FSMU, «Kichik guruhlarda ishlash», «Esse», «Zigzag», «Oxirgi so'zni men aytay» kabi zamonaviy texnologiyalar qo'llanmoqda.

Aqliy hujum

Mazkur metod muayyan mavzu yuzasidan berilgan muammolarni hal etishda keng qo'llaniladigan metod sanalib, u mashg'ulot ishtirokchilarini muammo xususida keng va har tomonlama fikr yuritish hamda o'z tasavvurlari va g'oyalaridan ijobiy foydalanish borasida ma'lum ko'nikma hamda malakalarni hosil qilishga rag'batlantiradi. Bu metod yordamida tashkil etilgan mashg'ulotlar jarayonida ixtiyoriy muammolar yuzasidan bir necha original yechimlarni topish imkoniyati tug'iladi. "Aqliy hujum" metodi tanlab olingan

mavzular doirasida ma'lum qadriyatlarni aniqlash va ularga muqobil bo'lgan g'oyalarni tanlash uchun sharoit yaratadi.

"Sinkveyn" metodi

Sinkveyn – fransuzcha -*"cinquains"*, inlizcha - *"cinquain"* so'zlaridan olingan bo'lib "5 qator" ma'nosini bildiradi. Sinkveyn - ma'lumotlarni sintezlash (bir butunga keltirish)ga yordam beradigan qofiyalanmagan she'r bo'lib, unda o'rganilayotgan tushuncha(hodisa, voqea, mavzu) to'g'risidagi axborot yig'ilgan holda, o'quvchi so'zi bilan turli variantlarda va turli nuqtai nazar orqali ifodalanadi. Sinkveyn tuzish - murakkab g'oya, sezgi va hissiyotlarni bir nechagina so'zlar bilan ifodalash uchun muhim bo'lgan malakadir. Sinkveyn tuzish jarayoni mavzuni yaxshiroq anglashga yordam beradi.

Sinkveyn tuzish qoidalari:

1- qator • Mavzu bir so'z bilan ifodalanadi (odatda ot tanlanadi).

2- qator • Mavzu ikkita sifat bilan ifodalanadi (2 ta sifat yoziladi).

3- qator • Mavzu doirasidagi hatti-harakatni uchta so'z bilan ifodalanadi. (3 ta fe'l yoki ravishdosh yoziladi).

4- qator • Mavzuga nisbatan munosabatni anglatuvchi va to'rtta so'zdan iborat bo'lgan fikr yoziladi.(4 ta so'zdan iborat jumla yoziladi).

5- qator • Mavzu mohiyatini takrorlaydigan, ma'nosi unga yaqin bo'lgan bitta so'z yoziladi (mavzuga sinonim so'z yoziladi).

Sinkveynlar quyidagi hollarda juda foydali bo'ladi:

Murakkab axborotni sintezlash uchun vosita sifatida;

O'quvchilar tushunchalarining yig'indisini baholash vositasi sifatida;

Ijodni taqdim etilishining vositasi sifatida.

Sinkveynga quyidagi misollarni keltirish mumkin:

Eritrosit	O'simlik
Qizil, yumoloq.	Yashil, foydali.
Biriktiradi, tashiydi, beradi,	O'sadi, ajratadi, oziqlanadi.
Organizmni kislorod bilan ta'minlaydi.	Yer sharining yashil qoplami.

F • Fikringizni bayon eting

S • Fikringizni bayoniga sabab keltiring

M • Ko'rsatgan sababingizni isbotlab misol keltiring

U • Fikringizni umumlashtiring

«FSMU» metodi

Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o'zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Mazkur texnologiyadan ma'ruza mashg'ulotlarida, mustahkamlashda, o'tilgan mavzuni so'rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg'ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

qatnashchilarga mavzuga oid bo'lgan yakuniy xulosa yoki g'oya taklif etiladi;

har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog'ozlarni tarqatiladi:

ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiy tartibda taqdimot qilinadi.

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o'zlashtirilishiga asos bo'ladi.

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda hamda o'quv jarayonini bahs-munozarali o'tkazishda qo'llaniladi, chunki bu texnologiya talabalarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga hamda shu bilan birga bahslashish madaniyatini o'rgatadi. Tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq va qisqa holatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

F-fikringizni bayon eting

S-Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating

M-ko'rsatilgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring

U- fikringizni umumlashtiring

"ESSE" metodi

Yozuv malakalarini rivojlantiruvchi interfaol usullar.

Bunday usullar ham inson fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ular norasmiy fikr va qiyofalarni qayd qilish, har tomonlama ko'rib chiqilmaguncha saqlab turish va ularni yanada aniqroq ifodalash imkonini beradi. Bunday usullardan foydalanish yaxshi imkoniyatlar beradi. Yozma nutqni rivojlantirishning quyidagi usullariga to'xtalamiz:



Esse – fransuzcha "essai" so'zidan olingan bo'lib, "sinov, analiz, tajriba, dastlabki loyixa" ma'nolarini bildiradi. Esse - shaxsning biror maqsadga mavzuga oid yozma ravishda ifodalangan dastlabki mustaqil erkin fikri. Bunda ta'lim oluvchi o'zining mavzu bo'yicha taassurotlarini, g'oya va qarashlarini erkin tarzda bayon qiladi. Esse yozishda xayolga kelgan dastlabki fikrlarni zudlik bilan

qog'ozga tushurish, iloji boricha ruchka (qalam) ni qog'ozdan uzmasdan, to'xtalmasdan yozish. So'ngra matnni qayta tahlil qilib, takomillashtirish tavsiya etiladi. Mana shundagina yozilgan essening haqqoniy bo'lishi e'tirof etilgan. Essening muayyan mavzu, tayanch tushuncha yoki erkin mavzuga bag'ishlab yozish tavsiya etiladi. Esse - ta'lim oluvchilarning darsda eshitgan ma'ruzasi yuzasidan idrok etgan, o'zlashtirgan tushunchalarini umumiy tarzda qisqa bayon qilib beruvchi xati hisoblanadi.

Asoslovchi esse - bu shunday esseki, unda muallif biror mavzu bo'yichap muayyan nuqtai - nazarga ega bo'lib, esse mazmunida uni himoya qiladi, buning uchun bir qator asoslovchi dalillar keltiradi. Shundagina asoslovchi esse metodi bajarilgan bo'ladi. Esse metodi o'zining bir qator afzalliklari bilan ajralib turadi. Bu metod orqali g'oyalarni erkin tarzda bayon qilish mumkin.

Biologik diktant - fanga oid matndagi gaplarning ayrim so'zlari, formulasi yoki biror fikr tushurib qoldirilib bayon qilinadi (yoki audio eshittiriladi). O'quvchilar esa har bir bo'sh qolgan joyga oid javoblarni o'zlari topib yozib boradilar.



Taqriz - bu o'qilgan matnni ijobiy yoki salbiy nuqtai - nazardan baholanishidir.

Taqriz yozishda matnni o'qigan kishining bu haqidagi shaxsiy fikri, bayon qilinishi lozim, matndan ko'chirib yozish yoki uni qayta ta'riflash qabul qilinmagan.

Namunaviy savol. Yuksak o'simliklarning gul hosil qilib ko'payishining ijobiy hamda salbiy jihatlari haqida esse yozing.

Venn diagrammasi



Venn diagrammasi ikki va uch jihatlarni hamda umumiy tomonlarini solishtirish yoki taqqoslash yoki qarama-qarshi qo'yish uchun qo'llaniladi. Talabalarda tizimli fikrlash, solishtirish, taqqoslash, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Dars mashg'ulotlarida o'yin-topshiriqlarni takrorlash yoki mustahkamlash darslarida foydalanilsa ijobiy natija beradi. O'yin-topshiriqning qaysi bir turini tanlash darsning turiga, sinf o'quvchilarining o'yin-topshiriqlarni bajarishga o'rgatilganlik darajasi, ularning bilim saviyasi, mustaqil ijodiy ishlash imkoniyatlari, o'rganilganlarni xotirada tez tiklay olishi, ijodkorlikning qay darajada shakllanganiga ham bog'liq bo'lishi kerak.

Ta'limda o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgalar fikrini anglash va shu fikrni og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon eta olishga o'rgatish masalasiga e'tibor qaratilgan bo'lib, mustaqil fikrlaydigan, nutq madaniyati rivojlangan savodxon shaxsni kamol toptirish asosiy o'rin egallaydi. Millatning turmush tarzi, madaniy yaratuvchanligi uning boy tarixiy merosi asosida o'rganiladi.

Bugungi kun o'qituvchidan ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalaridan o'quv jarayonida foydalanishni

talab etmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqib, tajribalarimiz asosida dars mashg'ulotlarida interfaol metodlarni qo'llash orqali ta'lim-tarbiya berish yo'llariga doir fikrlarimizni bayon etamiz. O'ylaymizki, u o'quv mashg'ulotlari samaradorligini oshirishda hamkasblarimizga amaliy yordam beradi. Shuningdek, o'quvchilarni o'z yo'nalishini tanlash va mustaqil hayotga tayyorgarlik ko'nikmalarini shakllantirishdek mas'uliyatli vazifani bajarishda ularning yaqin ko'makchilardan biriga aylanadi. Quyida sinflar kesimida ayrim mavzular asosida o'qitishning zamonaviy usullarini tatbiq etish bo'yicha tavsiyalar beramiz. Siz undan ijodiy yondashgan holda foydalanasiz va birinchi prezidentimizning: «Har qarichi muqaddas bo'lgan ona erimizga nisbatan farzandlarimizda g'urur va iftixor, sadoqat tuyg'ularini uyg'otish uchun biz bugun nima qilyapmiz, degan savolga javob izlab ko'raylik»[1], - degan fikrlariga javoban ta'lim va tarbiya berishning zamonaviy usullarini tatbiq etish orqali ko'zlangan maqsadga erishishga o'z hissangizni qo'shasiz degan umiddamiz.

«Beshinchisi (oltinchisi, ettinchisi ...) ortiqcha» metodi

O'quvchilar mantiqiy tafakkur yuritish ko'nikmalariga ega bo'lishlarida ushbu metod alohida ahamiyatga ega. Uni qo'llashda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

O'rganilayotgan mavzu mohiyatini ochib berishga xizmat qiluvchi tushunchalar tizimini shakllantirish;

hosil bo'lgan tizimdan mavzuga taalluqli bo'lgan to'rtta (beshta, oltita, ...) va taalluqli bo'lmagan bitta tushunchaning o'rin olishiga erishish;

o'quvchilarga mavzuga taalluqli bo'lmagan tushunchani aniqlash va uni tizimdan chiqarish vazifasini topshirish;

o'quvchilarni o'z harakatlari mohiyatini sharhlashga undash (mavzuni mustahkamlash maqsadida o'quvchilardan tizimda saqlanib qolgan tushunchalarga ham izoh berib o'tishlari hamda ular o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikni asoslashlarini talab etish lozim).

Mazkur metod o'quvchilardan o'rganilayotgan mavzu (yoki bo'lim, bob) yuzasidan tahliliy mulohaza yuritish, shuningdek, eng muhim tayanch tushunchalarni ifodalay olishni talab etadi.

Metodni qo'llashda quyidagi harakatlar tashkil etiladi:

-o'qituvchi o'zaro teng nisbatda mavzuga (bo'lim, bob) oid va oid bo'lmagan asosiy tushunchalar tizimini yaratadi;

-o'quvchilar mavzuga (bo'lim, bob) oid va oid bo'lmagan asosiy tushunchalarn aniqlaydilar va daxldor bo'lmagan asosiy tushunchalarni tizimdan chiqaradilar;

-o'quvchilar o'z harakatlarining mohiyatini izohlaydilar.

Metoddan individual, guruhli va ommaviy shaklda o'quvchilar tomonidan mavzuning puxta o'zlashtirilishini ta'minlash hamda ularning bilimlarini aniqlash maqsadida foydalanish mumkin.

1-sinf darsligidagi «Oshxona jihozlari», «Qushlar», «Uy hayvonlari va parrandalar» kabi mavzularini o'rganishda yangi mavzuni mustahkamlash uchun mazkur metodni qo'llash ijobiy natija beradi. Bunda mavzuga oid to'rtta va taalluqli bo'lmagan (ortiqcha) bitta so'z (tushuncha, fikr) beriladi.

O'quvchilar ana shu so'zni (tushuncha, fikr) aniqlaydilar.

Masalan, 1-sinf darsligidagi 1-mashqda berilgan topshiriqni bajarishda quyidagicha qo'llash mumkin. Yozuv ekranda ko'rsatiladi. O'quvchilar ortiqcha so'zni aniqlashadi.

Uy hayvonlari: sigir, qo'y, toshbaqa, ot, it.

So'ng bu so'zlar ishtirokida gap tuzish topshirig'i beriladi va tuzilgan gaplar asosida axloqiy tarbiya beriladi.

Namuna: Ot - insonning eng ishonchli do'sti.

O'quvchilar tomonidan tuzilgan gaplar asosida o'quvchilar qalbida ona tabiatga muhabbat uyg'otiladi, uy hayvonlariga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lishga o'rgatiladi.

«Video topishmoq» metodi

Hozirgi kunda pedagogik faoliyatda turli axborot vositalari (kompyuter, televidenie, radio, nusxa ko'chiruvchi qurilma, slayd, video va audio magnitofonlar) yordamida ta'lim jarayoni

tashkil etilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'qituvchilar oldida ta'lim jarayonida turli axborot vositalaridan o'rinli va maqsadga muvofiq foydalanish vazifasi turibdi.

Videotopishmoq metodidan foydalanishda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

-o'quvchilar e'tiboriga o'rganilayotgan mavzu mohiyatini tasviriy yoritishga yordam beruvchi izohlarsiz bir nechta videolavha namoyish etiladi;

-o'quvchilar har bir lavhada qanday jarayon aks ettirilganini izohlashadi;

-jarayonlarning mohiyatini daftarlariga qayd etishadi;

-o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob qaytarishadi.

Mazkur metod asosida mavzuga doir kompyuter orqali videolavha namoyish etiladi. O'quvchilar videolavha mavzusi, unda ifodalangan mavzu haqida o'z fikr-mulohazalarini bildirishadi.

Boshlang'ich sinflarda interfaol metodlar va ta'limiy o'yinlardan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o'rganganlarini hayot bilan bog'lashga, qiziqishlarini oshirishga yordam beradi. O'qituvchilarning bunday zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, darslarni ilg'or pedagogik hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etilishi ta'lim-tarbiya jarayonini sifatini kafolatlaydi.

Ta'limiy o'yinlarga qo'yiladigan asosiy talablar quyidagilardan iborat:

1. Ta'limiy o'yinlar o'quvchilar yoshiga mos bo'lishi kerak;
2. O'yinlar o'tilayotgan mavzu mazmun-mohiyatiga mutanosib bo'lishi lozim;
3. Ta'limiy o'yinlarni o'tkazish vaqti aniq belgilanishi shart;
4. Ta'limiy o'yinlar ham ta'limiy, ham tarbiyaviy ahamiyatga

ega bo'lishi kerak;

5. Ta'limiy o'yinlarning o'tkazilish maqsadi, ahamiyati belgilanishi lozim.

Yuqoridagi talablarga amal qilingandagina dars samaradorligi ortadi va zamonaviy texnologiyalar ta'lim samaradorligiga xizmat qiladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Savod o'rgatish tayyorlov davri o'qish darslarida interfaol metodlaridan foydalanish bo'yicha taqdimot tayyorlang.
2. Interfaol metodlardan foydalanish metodikasi bo'yicha metodik maqola yozing.
3. "BBB" usuli asosida interfaol metodlar haqida ma'lumot yozing.
4. Savod o'rgatish jarayonidagi darslar predmetiga ko'ra necha turga bo'linadi?
5. Savod o'rgatish tayyorlov davri haqida tushuncha bering.

An'anaviy o'qitish metodlari		Noan'anaviy o'qitish metodlari	
Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi
Xulosa:			

Berilgan jadvalni to'ldiring!



13-mavzu. O'quvchilar bilim, ko'nikma hamda malakalarini baholash va nazorat turlari

Reja:

1.Umumta'lim maktablarida o'quvchilar bilim, ko'nikma hamda malakalarini baholash.

2. Nazorat turlari, standart va nostandart testlar.

3.Mantiqiy izlanishli testlari ishlab chiqish.

***

Tayanch tushunchalar: Ta'limiy diktant, tekshiruv diktant, Lug'at diktanti,Saylanma diktant, Ko'rsatuv diktanti, Yoddan yozuv diktanti, Ta'kidiy diktant, Izohli diktant, Ijodiy diktant, Erkin diktant.

***

O'quvchilar bilimini baholash - bu pedagogik jarayonning muhim elementi, baholash esa u yoki bu o'qituvchining vazifasini bajaradigan kuchli pedagogik vositadir. Har qanday baholash faoliyati talaba yoki o'qituvchining o'quv jarayoni davomida ularning o'zaro ta'siri qanchalik samarali amalga oshirilayotganligi to'g'risida ma'lumot olishga bo'lgan ehtiyojidan kelib chiqadi.

Tekshirish o'quvchilarning bilim sifatlarini, shakllantirilgan malakalardan qanchalik foydalanishini aniqlashni ta'minlaydi. Bu o'z navbatida,o'quvchilaming yangi materialni o'rganishga tayyorligini aniqlash, shuningdek, qo'llanilgan metod va usullarning samaradorligini baholashga, ish metodlariga ayrim

o'zgartirishlar kiritishga imkon beradi. Tekshirish o'quvchilar uchun, birinchidan, to'g'ri shakllantirilgan bilimlarni mustahkamlashga xizmat qiladi, ikkinchidan, ish sifatini yaxshilaydi, o'z-o'zini tekshirishni o'stiradi.

Maktab tajribasida tekshirish og'zaki va yozma shaklda amalga oshiriladi; bilimlarni kundalik mavzuga oid va yakuniy tekshirish tatbiq etiladi.

Ona tilidan yozma tekshirish uchun asosan diktant, bayon, insho, shuningdek, grammatik, so'z yasashga oid, leksik va imloga oid topshiriqlarni bajarish, tekshiruv ko'chirib yozishdan foydalaniladi. Yakunlovchi tekshirish uchun har bir chorakda bir marta tekshiruv ishi o'tkaziladi. Bulardan tashqari, o'quv yili davomida bir necha martadan diktant, grammatik topshiriqli yozma ishlar, test, bayon va insho o'tkaziladi.

Diktantiar maqsadiga ko'ra ikki turli bo'ladi:

1. Ta'limiy diktant.
2. Tekshiruv diktant.

Boshlang'ich sinflarda ta'limiy diktantning quyidagi turlaridan foydalanish mumkin:

1. Lug'at diktanti.
2. Saylanma diktant.
3. Ko'rsatuv diktanti.
4. Yoddan yozuv diktanti.
5. Ta'kidiy diktant.
6. Izohli diktant.
7. Ijodiy diktant.
8. Erkin diktant.

TA'LIMIY DIKTANTLAR. Ta'limiy diktantlar biror imlo (orfografiya)qoidasi bilan bog'liq bo'lgan fonetik, so'z yasalishi va morfologik mavzuni mustahkamlash, o'quvchini ongiga singdirish va uni yozuvda qo'llay olishga o'rgatish uchun xizmat qiladi. Ular sinfda o'qituvchi va o'quvchilarning faol ishtirokida o'tkaziladi. Bunda avvalo mustahkamlash ko'zda tutilgan orfogramma (masalan, x va h harflarining yozilishi)

o'quvchilarga eslatiladi, shu harflar ishtirokida so'zlar ko'rsatiladi, talaffuzi harf bilan qiyoslanadi, farqi aniqlanadi. O'quvchilar bunday so'zlarni xato yozmasliklariga o'qituvchi ishonch hosil qilsa, u so'zlarni yozishga da'vat etadi.

LUG'AT DIKTANT. Bu diktant turini o'tkazish orqali o'quvchilar so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishga odatlanadilar, o'rganilgan imlo qoidasi o'quvchilar tomonidan qanday o'zlashtirilayotganligi darajasi aniqlanadi. O'quvchilarning lug'atlardan foydalanishlarida alifbo tartibini bilishlarining ahamiyati katta. Lug'at diktanti yozish uchun: 2 – sinfda 8 so'z, 3 – sinfda 10-12 so'z, 4 – sinfda 12-15 so'z bo'lishi mumkin.

SAYLANMA DIKTANT. Saylanma diktant o'rganilgan grammatik va imlo qoidalarini mustahkamlashga, ularni amalda qo'llashda yordam berish bilan birga o'quvchilar mavzuni qay darajada o'zlashtirganliklarini aniqlashga ham imkon beradi. Diktantning bu turida o'quvchi o'qituvchi aytgan matnning yoki gapning hammasini yozmay, o'rganilgan qoidalar asosida yoziladigan so'zlar yoki so'z birikmalarinigina saylab yozadi, shuning uchun ham saylanma diktant deyiladi.

KO'RSATUV DIKTANTI .Ko'rsatuv diktanti boshlang'ich sinflarning hammasida o'tkaziladi. Buning uchun o'tilgan mavzuga doir matn «Diktantiar to'plami»dan tanlanadi va darsdan oldin husnixat qoidalariga rioya qilgan holda doskaga yozib qo'yiladi. 8 Matn bir marta shoshmasdan, ifodali qilib o'qib beriladi. Suhbat (savol-javob) yordamida tushuntiriladi va o'rganilgan qoidalar eslatilib, matn mazmuni mustahkamlanadi. Shundan so'ng matn vaqtincha berkitib qo'yiladi va aytib yozdiriladi. Matnni aytib yozdirib bo'lgach, doskadagi matn ochiladi. O'quvchilar yozganlarini doskadagi matnga taqqoslab, yo'l qo'ygan xatolarini to'g'rilaydilar.

O'Z DIKTANT YOKI YODDAN YOZUV DIKTANTI O'z diktant yoki yoddan yozuv boshlang'ich sinflarning hammasida o'tkaziladi. Bu diktant turini o'quvchilar juda sevib, qiziqib bajaradilar. O'z diktant uchun sinf o'quvchilarining saviyasiga

mos kichik bir parcha (yoki biror she'riy to'rtlik) tanlanadi. Tanlangan matn doskaga yozib qo'yiladi. Matnni avval o'qituvchi o'qib beradi. Matndagi bolalar uchun tushunarsiz so'zlarga izoh berib, imloga doir qoidalar takrorlanadi. Shundan so'ng matn uchto'rt bolaga o'qitilgach, yod olishlari uchun bir necha daqiqa vaqt beriladi. O'quvchilar matnni yodlab olgach, doskadagi matn berkitiladi. Ular yodlaganlari asosida yozib bo'lganlaridan so'ng matn ochiladi. O'quvchilar yozganlarini doskadagiga taqqoslab tekshiradilar va xatosini tuzatadilar. Diktant o'tkazish usulidan ko'rinib turibdiki. matn aytib yozdirilmaydi, balki o'quvchilar matnni yodlaydilar va mustaqil yozadilar.

TA'KIDIY DIKTANT. Bu diktant turi o'quvchilarni yozuvda so'zlarni xato yozishdan saqlaydi, imlo qoidalarini ongli o'zlashtirishda o'ziga xos o'rin tutadi. Bunda eshituv organi orqali qabul qilingan taassurotlar bilan birga, so'z tarkibini, grammatika va imlo qoidalarini, shuningdek, to'g'ri talaffuz me'yorlarini yaxshi bilish ham talab etiladi. Ta'kidiy diktantda matnni aytib turishdan oldin u yoki bu imlo qoidasi izohlanadi.

IZOHLI DIKTANT. Diktantning bu turida ham imlosi qiyin so'zlarning orfografiyasini eslatish va ta'kidlash orqali yozdirish o'rinli bo'ladi. Izohlanayotgan so'z diktant yozilgandan so'ng izohlanadi. Bunda so'zning imlosi oldindan eslatilmaydi, matndagi so'zlarni o'quvchilar o'z bilganlaricha yozadilar. Matndagi imlosi puxta o'zlashtirilishi lozim bo'lgan so'zlarni qanday yozayotganliklarini o'qituvchi o'quvchilardan diktant yozdirib bo'lingach, birmabir so'raydi, yo'l qo'yilgan xatolarni xattaxtada ko'rsatish, og'zaki izohlash yoki ayrim faol o'quvchilarni so'zlatish orqali tuzatiladi.

IJODIY DIKTANT . Ijodiy diktant o'rganilgan qoidalarni o'zlashtirish va yozuvda o'rinli qo'llash malakalarini mustahkamlash bilan birga o'quvchilar og'zaki va yozma nutqining rivojlanishiga ijobiy ta'sir qiladi, ularda ijodkorlik kabi zaruriy malakalrni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Diktantning bu turidan 1-4 – sinflarda keng foydalaniladi.

ERKIN DIKTANT Erkin diktant ta'limiy diktantning bir turi bo'lib, o'quvchilar nutqini o'stirishga, fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Erkin diktant uchun hikoya tarzidagi uncha katta bo'lmagan matn tanlanadi. Matnda o'quvchilar yozishda qiynaladigan yoki imlosi o'rganilmagan so'zlar ishtirok etgan bo'lsa, matn mazmuniga putur yetkazmagan holda, uni bosliqa so'zlar bilan almashtirish yoki tushirib qoldirish mumkin. Diktantning bu turida o'quvchilarga o'qilgan bo'limning mazmunini buzmagan holda, gaplarning shaklini o'zgartirib yozish erkinligi beriladi.

Bilim – nazariy va amaliyot faoliyat natijasida o'rgangan, esda saqlab qolingan, fikrlashtirilgan hodisa va predmetlar haqidagi tushunchalar tizimidir.

Bilim, ko'nikma, malaka va qobiliyat o'zaro bog'liq bo'lib, ularni alohida-alohida baholash juda murakkab. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash ustozning, o'qituvchining uslubiy faoliyatini tarkibiy qismidir. Shuning uchun ham o'qituvchi o'quv sharoitida har harbir o'quvchini diqqat bilan ko'zatib o'rganib borish va faoliyatni baholashzarur.

Bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirish va baholash, o'quv jarayoning eng muhim va zaruriy qismlaridan bo'lib, u 3 asosiy vazifani bajaradi:

1. Bolalar tomonidan o'zlashtirayotgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalarni nazoratqilish;
2. Bilimlarni sifatini aniqlash;
3. O'quv dasturida belgilangan materiallarni ongli, izchil va mustahkam o'zlashtirib olishga undash.

Bu masalalar ta'limiy ahamiyatga molikdir. Bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirish va baholash jarayonida o'quvchilar o'qishga ongli munosabatda bo'lishga, izchil ishlashga, ongli intizomga, qiyinchiliklarni yengish, o'zida irodaviy sifatlarni o'stirishga, o'ziga hamda boshqalarga nisbatan talabchan bo'lishga o'rgatib boradi. Bu masalalar esa katta tarbiyaviy

ahamiyatga egadir.

Ma'lumki, nazorat asosan uch turga bo'linadi.

- joriy nazorat,
- nazorat
- yakuniy nazoratlardir.

Nazorat turi testlar, yozma ishlar va og'zaki savol – javoblar orqali amalga oshiriladi.

O'zaro bog'liq uchta baholash turi mavjud:

- diagnostik,
- shakllantiruvchi
- summativ.

Diagnostik baholash natijalarisiz o'qituvchi shakllantiruvchi baholashni o'z darajasida qo'llay olmaydi. Va darsdagi formativ baholash sifati summativ baholashga ta'sir qiladi. Baholashda ushbu izchillikni saqlab qolish orqali yuqori darajadagi ta'limga erishish mumkin.

	Diagnostik baholash	**Formativ (Shakllantiruvchi baholash)**	**Summativ aholash**
Nima bu?	O'quvchining kompetentsiyalarini shakllantirishning boshlang'ich darajasini aniqlash (sinf jurnaliga belgi qo'yilmaydi)	Bu o'quvchilarning ta'lim yutuqlarini o'qitish, kuzatish, tahlil qilish jarayonida o'qituvchi belgilamaydigan va o'qituvchi qichqiriq bilan qatnashganligin	Yakuniy bahoni sozlang
Qachon ishlatiladi?	O'quv bosqichi boshida (mavzu, bo'lim, chorak, o'quv yili) yoki yangi sinf talaba bilan	Dars davomida muntazam ravishda olib boriladi	Mavzu, bo'lim, chorak, o'quv yil
Nima uchun ishlatilgan?	O'quvchilarning saviyasini aniqlashga va o'qituvchining rejalariga tuzatishlar kiritishga imkon beradi (taqvim, dars bo'yicha)	O'quvchilarning rivojlanishini kuzatib borish va o'zgarishlarni amalga oshirish imkonini beradi o'quv jarayonida (dars rejalari tuzatilgan)	Sizga ma'lumot berishga imkon beradi o'quvchilar o'quv jarayonida nimalarni o'rganganliklari

Jadvalda keltirilgan baholash turlari, predmeti yoki sinfidan qat'i nazar, har bir darsning bir qismidir.

Diagnostik baholash - bu o'quv yilining boshida maktabda olib boriladigan muntazam va qat'iy jarayon. o'quv predmeti yoki akademik bosqich boshlanishi paytida. Hatto o'quv markazi ham o'z o'quvchilariga diagnostika bahosi berish uchun eng yaxshi vaqtni baholay oladigan markazdir

Diagnostik baholashning maqsadi - o'quv mavzusi dasturining mavzusi yoki bobini (bo'limini) o'rganish boshlanishida o'quvchilar o'quv maqsadlari bilan bog'liqligi to'g'risida ma'lumot olish. Bu o'qituvchiga o'quv dasturini o'quvchilar ehtiyojlariga mos ravishda sozlash, o'qish va o'rganishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni bashorat qilish va bartaraf etish imkonini beradi. Shu bilan birga, formativ va summativ baholash ta'limda eng ko'p ishlatiladigan baholash turlaridan biridir.

Har bir diagnostik baholashning maqsadlari bor:

- Shtat talabalari nimada ekanligini tushunib oling
- Mavzu haqida nimalarni bilishini bilib oling
- Hayotingizni osonlashtiradigan qarorlar qabul qiling
- Ta'lim jarayonini rivojlantirish jarayonida o'rganishni takomillashtirish

Diagnostik baholash bir kechada amalga oshirilmaydi, bu vaqt talab qiladigan jarayon. Birinchidan, keyinchalik o'qitish-o'qitish jarayonida foydali bo'ladigan ma'lumotlarni yozib olish uchun tegishli strategiya va vositalarni ishlab chiqish kerak.

Formativ baholash - bu o'quvchilar bilimi haqida ma'lumot to'plash uchun norasmiy baholash strategiyalaridan foydalanadigan jarayon.

Formativ baholash o'quvchilarga o'zlarining kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga yordam beradi va diqqatni ishga muhtoj bo'lgan sohalarga qaratadi, o'quvchilar qayerda qiynalayotganini aniqlashda o'qituvchilarga yordam beradi va muammolarni darhol hal qilishga yordam beradi. Formativ testlar past reytingga ega, ya'ni ular past ballga ega yoki qiymat yo'q.



Sxema 1. Formativ baholashning tarkibiy qismlari (komponentlari)

Formativ baholash faoliyatining 7 xil turi:

- Viktorinalar va o'yinlar
- Interfaol sinf faoliyati
- Munozara va munozara
- So'rov
- Savol-javob
- Survey
- So'z buluti

Viktorinalar va o'yinlar: Qisqa vaqt ichida kichik viktorina o'yinini (1 dan 5 tagacha) yaratish talabaning tushunishini tekshirishga yordam beradi. Yoki o'quvchilarning qancha foiziga hali ham qiyinchilik qilayotganini va qancha foizi darsni tushunmasligini tushunish uchun osondan qiyin darajaga qadar viktorinadan foydalanishingiz mumkin.

Interfaol sinf faoliyati: O'quvchilarning savol javobga faol emasligi, darsga e'tibor bermasligi muvaffaqiyatsiz holat hisoblanadi. Afsuski, doimiy ijtimoiy tarmoqlardagi chalg'ituvchi narsalarda o'sgan avlodning ongini darsga qamrab olish juda murakkab jarayon hisoblanadi.Shuning uchun interaktiv metod va innovatsion ta'lim usullaridan foydalangan holda interfaol sinf muhitini yaratish va baholash mezonlarini yangilash zarur .

Muhokama va munozara o'quvchilarning fikrlari haqida tasavvurga ega bo'lish va ularga tanqidiy fikrlash va olingan ma'lumotlarni tahlil qilishda yordam berish uchun ajralmas bo'limdir. Keyingi safar muammoni qanday qilib osonroq hal qilishni o'rganishlari mumkin. Bundan tashqari, ushbu tadbirlar raqobatbardoshlikni oshiradi va ularni o'qituvchilar bilan dars haqida fikr almashish va fikr bildirishda faolroq qiladi.

So'rovlar ko'pchilik o'quvchilarning fikrini to'plash uchun oson ish bo'lib, uni istalgan joyda, istalgan vaqtda o'tkazish mumkin. So'rov noto'g'ri javobni baham ko'rish tashvishini kamaytirishga yordam beradi, shuningdek, talabalarga bir-birlari haqida tushunchaga ega bo'lishga va o'z o'rganishlariga ishonchni mustahkamlashga yordam beradi.

Savol-javob usuli bir qancha afzalliklarga ega, chunki u tayyorgarlik va tushunishni baholaydi, kuchli va zaif tomonlarini tashxis qiladi, o'quvchilarning tushunishini ko'rib chiqadi va yoki umumlashtiradi. Javob berishga yoki shakllantirishga va savollar berishga urinish talabalar uchun passiv e'tibordan ommaviy ma'ruzachi bo'lishga tanaffus beradi. Bu ularning e'tibor darajasini va ish faoliyatini biroz vaqtga oshiradi.

Survey: Anketadan foydalanish qisqa vaqt ichida talabalardan kerakli ma'lumotlarni olishning eng maxfiy usuli hisoblanadi. Siz ushbu so'rovnomadagi savollardan qanday bo'lsa shunday foydalanishingiz, savollar qo'shishingiz yoki o'chirishingiz, talabalarni boshqa yo'l bilan ham tekshirishingiz mumkin, lekin o'quvchilaringiz har kuni duch keladigan tajribalar haqida ma'lumot to'plashga harakat qiling. Shu tarzda ma'lumotlarni to'plash nafaqat talabalarning farovonligini baholashga yordam beradi; shuningdek, talabalarga savollarni ehtiyotkorlik bilan berish imkoniyatini beradi.

So'z buluti har qanday o'quvchini siz tomonda tutishning eng oddiy, vizual va samarali usullaridan biridir. Bu, shuningdek, aqliy hujum, g'oyalarni to'plash va o'quvchilarning tushunishini tekshirish uchun ajoyib usul bo'lib, tinglovchilarga o'z fikrlarini aytishga yordam beradi, bu esa ularni yanada qadrliroq his qiladi.

Summativ baholash — o'qishning ma'lum bir davrida (o'quv dasturining bo'lim va boblari, choraklik, o'quv yili oxirida) o'quvchining davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlarida belgilangan kompetensiyalarni egallaganlik darajasini rasmiy baholash jarayoni bo'lib, test, yozma ish, og'zaki suhbat, loyiha ishi, taqdimot ishlari, amaliy mashg'ulot, laboratoriya ishi, ijodiy ishlar va shu kabi boshqa shakllar yordamida amalga oshiriladi.

Bunda, o'qituvchi summativ baholash natijasida o'quvchining o'zlashtirishidagi ehtimoliy bo'shliqlarni aniqlaydi, ularni o'quvchi bilan birgalikda bartaraf qilish bo'yicha ishlaydi.

Summativ baholashning maqsadi - o'quv bo'limi oxirida talabalarni o'rganishni standart yoki mezon bilan taqqoslash orqali baholash. E'tibor bering, "oxiri" degani butun o'quv kursi yoki modulining oxiri degani emas. Summativ baholash kurs davomida, ma'lum bir birlik (yoki mavzular to'plami) o'qitilgandan so'ng taqsimlanishi mumkin va buning afzalliklari bor. Buyuk Britaniyaning Oliy ta'lim sohasidagi ko'plab fanlarda kurslarni baholashning 100% yakunlanishidan, summativ baholash kurslar bo'yicha taqsimlanadigan modelga o'tilib, bu talabalarning bilimlarini isloh qilishga yordam beradi. Summativ baholash, odatda talabalar, ularning ishlash darajasini ko'rsatadigan, foizlar bo'ladimi, muvaffaqiyatsizlikka uchraydimi yoki boshqa turdagi shkala bahosini oladimi, degan bahoni oladi.

Summativ baholash usullari kurs yoki bo'lim tugagandan so'ng umumiy o'rganishni umumlashtirishga qaratilgan.

- Anketalar
- So'rovnomalar
- Intervyular
- Kuzatishlar
- Test sinovi (o'qituvchi yoki muassasa tomonidan yaratilgan maxsus test, birlikning barcha nuqtalarini yoki ma'lum bir vaqt oralig'ida o'qitiladigan ma'lumotni o'z ichiga olgan holda tuzilgan)
- Loyihalar (bilimlarni sintez qiladigan yakunlovchi loyiha)

Formativ baholash ma'lumotlarini yig'ish shakli

Sinf_____ oy_____

1											
2											
3											
4											
5											
6											
7											
8											
9											
10											
11											
12											

Formativ baholash usullariga namunalar:

Qo'l signallari	
Dumaloq savol	O'qituvchi sinfni kichik guruhlarga ajratadi - 4 talaba. Har bir guruh uy vazifasini bajarish uchun savol tayyorlaydi. Savolni tayyorlash vaqti 1 daqiqagacha. O'qituvchi quyidagi savol so'zlari bilan savollarni shakllantirishni taklif qilishi mumkin, masalan: Qanday, kim, qanday, nima uchun, nima bo'ldi? Muallif qanday ta'riflagan ...? Muallif ... haqida qanday fikrda? Birinchi guruh o'z savollarini boshqa guruhga berishadi. Savolga javob berish uchun 2 daqiqa vaqt ketadi, keyin guruh keyingi guruhga savol beradi va hokazo. Barcha savollar berilganda va birinchi guruh savolga javob berganida mashq tugaydi
Uch daqiqali insho	Uch daqiqali insho - bu aniq maqsadga qaratilgan savol, unga ikki-uch daqiqa ichida javob berish mumkin. O'rganilgan narsalar haqida mulohaza yuritish va o'quvchining tajribasi bilan aloqalarni o'rnatish uchun savollardan foydalaning
O'xshashliklar	Analogiya savollari o'qituvchiga xo'rni qanday ishlashini aniqlashga yordam beradi

Baholash mezonlari bilan ishlash ketma-ketligi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Baholash mezonlarini ishlab chiqish (o'qituvchi yoki o'quvchilar bilan birgalikda amalga oshiriladi).

2. Ishni boshlashdan oldin o'quvchilarga mezonning mazmunini taqdim etish va kerak bo'lganda tushuntirish.

3. Ishlab chiqilgan baholash mezonlari asosida ishlarni bajarish.

4. Ishning taqdimoti (o'qish, qayta hikoya qilish, savollarga javob berish, taqdimot va hk).

5. O'qituvchi, o'quvchilar tomonidan o'quvchilar ishini baholash mezonlariga muvofiq baholash (o'zini o'zi baholash, o'zaro baholash).

Umumlashtiruvchi baholashni o'tkazishda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

ta'lim oluvchi umumlashtiruvchi baholash nima uchun o'tkazilishi haqida ma'lumotga ega bo'lishi lozim. Bu uning baholashga tayyorgarlik ko'rishiga olib keladi.

-baholashni o'tkazish shartlari unga jiddiy yondashishga;

-baholash o'tkazish sharoitida ta'lim oluvchi o'zini erkin tutishi va nohushlik xis etmasligiga imkoniyat yaratish kerak;

-baholovchi va ta'lim oluvchi baholash nima maqsadda, u qachon, kim tomonidan va qanday o'tkazilishini bilishlari muhim ahamiyatga egadir;

-qo'yilgan baho o'quv natijasiga qay darajada erishganlikni tushunish va uni mujassamlashtirish uchun ahamiyatlidir;

-ta'lim oluvchi oldindan belgilangan natijalar mezoni yordamida baholanishi lozim;

-rejalashtirilmagan baholashni o'tkazish maqsadga muvofiq emas.

NOSTANDART TESTLAR HAQIDA TUSHUNCHA

Nostandart testlar mazmuni bo'yicha reproduktiv va produktiv darajada, tarkibi jihatidan test topshirig'i savoli va to'g'ri va noto'g'ri javoblardan iborat bo'lsa,nostandart testlar o'zining mazmuni,tuzilishi va qo'llanish maqsadiga ko'ra muayyan darajada farq qiladi.

Nostandart testlar mazmuni va mohiyatiga ko'ra quyidagi guruhlarga ajratiladi:

1. Integrativ testlar;
2. Adaptiv testlar;
3. Mezonli-mo'ljal olish testlari.

Integrativ testlar integral mazmun, shakl, qiyinchilik

darajasi bo'yicha o'sib boruvchi, bitiruvchining tayyorgarlik darajasi haqida umumlashgan yakuniy xulosa chiqarishga imkon beradigan test topshiriqlari sanaladi.

Adaptiv testlar avtomatlashtirilgan, o'quvchilarga nisbatan individual yondoshish imkonini beradigan, topshiriq mazmuni, bajarish tartibi, qoidasi, shu topshiriqni bajarish natijasida talabaning egallashi mumkin bo'lgan bali va test natijalarini umumlashtirish bo'yicha ko'rsatmalardan iborat bo'ladi. Adaptiv testlarning asosiy guruhini piramidali adaptiv testlar tashkil etib, qo'llanish maqsadiga ko'ra: o'rtacha og'irlikdagi, o'quvchining tanlashiga ko'ra aralash, topshiriqlar bankidan faqat qiyin darajali bo'lishi mumkin. Adaptiv testlar ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning modul-kredit paradigmasida muvaffaqiyatli qo'llanishi mumkin.Buning uchun pedagog bitta mavzu, bob, bo'lim, kurs mazmuni bo'yicha turli qiyinchilik darajadagi bir necha variantli test topshiriqlarini tuzish va amalda qo'llash mahoratiga ega bo'lishi lozim.

Mezonli-mo'ljal olish testlari o'quvchilarning umumiy tayyorgarlik darajasi, mazkur fanning o'qitilish sifati, pedagogning pedagogik mahorati, ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Mazkur test topshiriqlarini tuzish uchun avvalo o'quv kursi mazmuni DTS asosida tahlil etiladi, bilim, ko'nikma va malakalar aniqlanadi,ularni aniqlash uchun topshiriqlar majmuasi tuziladi, mazkur topshiriqlar test topshiriqlariga aylantiriladi va sinov o'tkaziladi, pirovard natijada o'quvchilarning shu fanni o'zlashtirish darajasi yuzasidan xulosa tayyorlanadi. Mezonli-mo'ljal olish test sinovlari orqali o'quvchilarning bilimlaridagi bo'shliqlar aniqlanadi va ularni bartaraf etish yo'llari aniqlanadi. Yuqorida qayd etilgan nostandart test topshiriqlarini ta'lim-tarbiya jarayonida maqsadga muvofiq foydalanish jarayoni o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarin haqqoniy va odilona nazorat qilish va

baholash imkonini beradi.Nostandart test topshiriqlarini tayyorlashda mazmun va shakl asosiy o'rinni egallaydi.Shu sababli,test topshiriqlari mazmunini tanlash printsiplari haqida fikr yuritish lozim.

1-printsip. Test topshiriqlari mazmuni sinov maqsadiga mosligi printsipi. Mazkur printsip o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim,ko'nikma va malakalarini nazorat qilish va baholash reyting tizimining nazorat turlarida test topshiriqlarining mazmuni maqsadga muvofiq tanlanishini talab etadi.Shuni qayd etish kerakki, Reyting tizimining nazorat turlari joriy, oraliq va yakuniy nazorat topshiriqlari bir-biridan nafaqat didaktik maqsadi, balki mazmuni va mazmunning yoritilish darajasi bilan farq qilishini nazarda tutish lozim.

2-printsip. Nazorat va baholanayotgan bilimlarning muhimligi printsipi. Muhimlik printsipi test topshirig'i savollariga o'quv dasturidagi eng muhim qonun, nazariya, tushuncha va ko'nikmalarni kiritishni talab etadi. Bu jarayonda ikkinchi darajali ma'lumotlar, raqamlar va faktik materiallar test topshiriqlariga kiritish tavsiya etilmaydi.

3-printsip. Mazmun va shakl birligi printsipi.Mazkur printsip test topshiriqlarining mazmuni va shakli bir-biriga mos, yaxlitlikni tashkil etishini talab etadi. Test topshiriqlarining mazmunini tanlashda bilimlarning turlari va ularning e'tiborga olish va mos ravishda shaklni tanlash lozim.

4-printsip. Test topshiriqlarining mazmunan to'g'riligi printsipi.

Test topshiriqlariga o'quv kursi mazmunidagi obyektiv va haqiqiy bilimlar kiritilishi maqsadga muvofiq.

Mazmundagi bahs va munozaraga olib keladigan masalalar test topshiriqlariga kiritilmasligi lozim. Bu holat o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini haqqoniy va odilona nazorat qilish va baholash imkonini bermaydi.

5-printsip. Test topshiriqlari mazmunida o'quv kursi mazmunining qayta taqdim etilishi printsipi. Mazkur printsip

test topshiriqlarini tayyorlashda o'quv kursi mazmunini to'liq va yetarli darajada qamrab olinishini nazarda tutadi. O'quv kursi bo'yicha tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonida mavzulararo, boblararo, bo'limlararo va fanlararo bog'lanishlarga yetarli darajada e'tibor qaratilgan, mazmunan bu jarayon o'quv materialida o'z aksini tushunchalar o'rtasidagi bog'lanishlar shaklida topgan bo'lsa, bunda hamma mavzular bo'yicha emas, balki tanlangan asosiy mavzular va boblar bo'yicha test topshiriqlari tayyorlanadi.

6-printsip. Test topshiriqlari mazmunining fanning hozirgi zamon holatiga mosligi printsipi. Mazkur printsip test topshiriqlari mazmunini jamiyatimizda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy qarashlar, huquqiy me'yorlar, fanning o'quv kursi ta'lim mazmuniga kiritilgan fan yangiliklariga moslashni talab etadi. Shuni qayd etish kerakki, o'quv fani mazmuni o'quvchilar tomonidan shu kursga oid ilmiy bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'ziga xos va mos proektsiyani hosil qiladi.yakuniy nazorat uchun tuzilayotgan test topshiriqlarining mazmuni uning turi va qo'llanishini e'tiborga olingan holda bob, bo'lim yoki kurs mazmunini to'liq qamrab olishini taqoza etadi. Shuningdek, yakuniy nazorat uchun tuzilayotgan test topshiriqlari o'zida kursning nazariy masalalari, tushunchalar, qonunlar va qonuniyatlar, gipotezalar, faktik materiallar, masala va mashqlarni mujassamlashtirishi lozim.

7-printsip. Test topshiriqlari mazmuniningmajmuali va muvozanatlashgan bo'lishi printsipi. Mazkur printsip test topshiriqlari mazmunini tanlashda maqsadga muvofiqlikni keltiribchiqaradi,ya'nireytingtiziminingoraliqvatesttopshirig'I birinchi marta amaliyotga joriy etilganda, ularning mazmuni o'quvchilarga ma'lum bo'lib qoladi va test javoblari xaqidagi axborotning chetga chiqib ketish hollarining oldini olish uchun, mazkur printsip test savollari va javoblarini ko'p variantli qilish, ularni almashtirib, yangilab turishni taqoza etadi. Bu holatda

test topshiriqlarining mazmuni va uni bajarish qiyinchilik darajasini saqlash talab etiladi.

8-printsip. Test topshiriqlari mazmunining tizimliligi printsipi.Mazkur printsipga asosan, test topshiriqlarining mazmunini tanlashda, mazmun o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim,ko'nikma va malakalarini nazorat qilishda tizimlilik talablariga javob berishi lozim. Undan tashqari test topshiriqlarining tizimli mazmuni, bir-biri bilan uzviy bog'langan bilimlarning umumiy strukturasini aks ettirishi zarur. Demak, har bir test topshirig'i umumiy bilimlar tizimidan uning muayyan qismini nazorat qilishiga e'tibor qaratish lozim.

9-printsip. Test topshirig'i mazmunining variativligi printsipi.Yuqorida qayd etilgan fikrlardan ko'rinib turibdiki, test topshiriqlarining mazmuni ham zamonaviy,ham o'quvchilar tomonidan ilmiy bilimlarni o'zlashtirish bosqichlariga mos bo'lishi lozim.

Test topshiriqlariga qo'yiladigan talablar:

1. §Formativ va summativ baholashning farqlarini aytip bering.
2. Baholashning xalq oraliq mezonlarini ayting.
3. Formativ baholashga misol keltiring.
4. Summativ baholashga misol keltiring.
5. Mezonli-mo'ljal olish testlari qanday prinsiplar asosida olib boriladi?

14-mavzu: Didaktik o'yinlar Texnologiyasi va uning boshlang'ich adabiy ta'limdagi o'rni

Reja:

1. Ijodiy o'yinlarning mazmuni
2. Didaktik o'yinlarga xos bo'lgan qonun-qoidalar
3. O'yin – ta'lim-tarbiyaning qudratli quroli.
4. Boshlang'ich sinflar ta'limi amaliyotida qo'llaniladigan didaktik o'yinlar

***

Tayanch tushunchalar: passiv o'quvchilarni jamoaga aralashtirish, sofdillik, rostgo'ylik, harakatchanlik, badiiy asarda ko„tarilgan hayotiy muammoni aniqlash, dars ssenariysi, rollar va vazifalarni o'quvchilar o'rtasida oqilona taqsimlash, kasb topqirligi.

***

Ijodiy o'yinlarning mazmuni. Dunyo tarbiyashunoslik ilmida bolalarning yetakchi faoliyati o'yin ekani va o'yinlarning maktabgacha yoshdagi davrda muhim sanalishi har jihatdan asoslab berilgan. O'yinlarning didaktik shakli boshlang'ich ta'lim amaliyotida ham o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Didaktik o'yinlar jarayoni zamirida o'quvchilarga ta'lim berish, olam va odam sirlarini anglatish, mustaqil mulohaza yuritishga undash hamda shular asnosida ma'naviy to'kislik sari yuz burgan shaxsni shakllantirish maqsadi yotadi.

Boshlang'ich sinflar ta'lim jarayonini o'yinlar ko'magida tashkil etish masalasi ham pedagogika ilmida alohida o'rganilgan bevosita bolalarning o'yinlariga bag'ishlangan tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, o'yinlar nafaqat maktabgacha yoshidagi bolalarning, balki boshlang'ich sinflar o'quvchilarining ham asosiy ish faoliyatlaridan biri bo'lib, ularning shaxs sifatida shakllanishlariga o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Boshlang'ich sinflarda tashkil etilgan o'yinlar o'quvchilarda bir qator fazilatlarning tarkib topishi garovidir.

Bolalarning yoshlari ulg'ayib mustaqil harakat qilish imkoniyati oshgan sari ularning atrofdagi narsa va hodisalar ko'magida dunyoqarashi ham kengayib boradi. Boshlang'ich sinf yoshidagi bola atrofidagi narsalar dunyosini bilish jarayonida ular bilan bevosita amaliy munosobatda bo'lishga intiladi. Bu o'rinda shu narsa xarakterliki, bola bilishga tashnaligidan atrofdagi o'zining qo'lidan keladigan ishlar bilangina emas, balki kattalarga mansub bo'lgan, o'zining kuchi etmaydigan, haddi sig'maydigan voqea-hodisalar bilan ham amaliy munosobatda bo'lishga intiladi. Bu tezroq katta bo'lish istagining tashqi ko'rinishidir. O'yinlar bolalarning jismoniy, aqliy, axloqiy, mehnat va estetik tarbiyasida, ularda mustaqil fikrlash ko'nikmasining shakllanishida katta ahamiyat kasb etadi. O'yinlar bog'cha va boshlang'ich sinflar ta'limida amalga oshiriladigan mashg'ulotlar, darslar ularning kundalik hayotidagi kuzatishlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, ta'limiy tarbiyaviy ahamiyat ham kasb etadi. O'yinlarning rang-barangligi, har birining o'z mazmuni va tashkil etish yo'siniga, bu jarayonda foydalaniladigan jihozlarning turlari hamda o'rniga ko'ra ham xilmaxillik kasb etadi. Bular, o'z navbatida, o'yinlarni turkumlashtirishni taqozo etadi.

Didaktik o'yinlarga xos bo'lgan qonun-qoidalar .

Didaktik adabiyotlarda o'yinlarni ikki katta guruhga bo'linishi ta'kidlanadi:

Ijodiy va qoidali o'yinlar.

Ijodiy o'yinlarning mazmunini bolalarning o'zlari o'ylab topadilar va ularda o'z taassurotlari, borliq haqidagi tushunchalari, bilimlari hamda unga munosabatlarini aks ettiradilar. Ijodiy o'yinlarda bolalarning tevarak-atrofdan olgan taassurotlari aks ettiriladi. Ularda bolalarning erkinligi, mustaqilligi, tashkilotchiligi va ijodkorlik qobiliyatlari to'laligicha namoyon bo'ladi. Bunday o'yinlar, asosan, bolalarning maktabgacha yoshdagi faoliyatiga xosdir. Qoidali o'yinlar esa kattalar tomonidan yaratiladi va bolalar hayotiga tatbiq etiladi. Bunday o'yinlar o'z mazmuni va qoidalarining sodda yoki murakkabligi darajasiga asoslangan holda bolalarning yoshlariga qarab taqdim etiladi. Kattalar tomonidan belgilab qo'yilgan qoidalar asosidagi o'yinlarning ko'pchiligini xalq o'yinlari tashkil etadi. Ya'ni avloddan-avlodga o'tib, bugungacha etib kelgan ko'cha o'yinlaridir. Qoidali o'yinlarning bir qismi didaktik ahamiyat kasb etadi va ular boshlang'ich sinflar amaliyotida alohida o'rinni egallaydi. Boshlang'ich sinflar ta'limi amaliyotida qo'llaniladigan didaktik o'yinlarning har birida o'ziga xos jihatlari, bajarilish shartlari bo'lgani holda, hammasi uchun umumiy bo'lgan xususiyatlar ham bor: maqsad, vazifa va xulosaning mavjudligi hamda rejali harakatlar. Bolalarning rivojlanishi, yosh xususiyatlari, ta'lim turiga qarab o'yinlar oldiga qo'yilgan maqsadlar ham o'zgarib boradi. Didaktik o'yinlarda o'quvchilar maqsadga erishish uchun sheriklar tanlaydilar, zarur jihozlar topadilar, o'yin davomida o'ylanadilar, izlanadilar, ilmiy yoki hayotiy haqiqatlarni kashf etadilar, muayyan harakat va qiliqlar qiladilar. Boshqa faoliyat turlarida bo'lgani singari o'yin jarayonida ham bolalarning shaxsiyati, psixik bilish jarayonlari, irodasi, hissiyoti, ta'sirchanligi, ehtiyoj va qiziqishlari jalb etiladi, o'yinda bolalar faol harakat qiladilar, muloqotda bo'ladilar, o'z bilimlaridan o'rni bilan foydalanadilar ham.

Inson tabiatan shundayki, unga nima qiziq bo'lsa o'sha narsa uning ruhiyati, ongi va jismi uchun ham foydalidir. Shu bois

ham odamzod o'ziga yoqqan faoliyat turi bilan shug'ullanishdan charchamaydi. Jumladan bolalar ham o'zlari yaxshi ko'rgan faoliyati bilan uzoq shug'ullana oladilar. Bu ularga hech malol kelmaydi. Boshlang'ich sinflar ta'limi amaliyotida keng foydalaniladigan didaktik o'yinlar bevosita bilish jarayoni bilan bog'liq bo'lib, ta'limning takomilga etishiga yordam beradi. Didaktik o'yinlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh va intellektual imkoniyatiga mos ta'lim texnologiyalaridan biri sifatida:

- passiv o'quvchilarni jamoaga aralashtirish, ularning har xil vazifalarni qo'rqmasdan bajara olishlariga xizmat qiladi;
- o'quvchilarning birgalikda o'ynab, o'z manfaatlarini jamoa manfaatlari bilan uyg'unlashtira olishlari, bir-biriga ko'maklashish, muvaffaqiyatidan xursand bo'lish kabi yaxshi sifatlarni tarkib toptirishga yordam beradi;
- shaxsga xos bo'lgan sofdillik, rostgo'ylik, harakatchanlik kabi ijobiy xislatlarning shakllanishiga ko'maklashadi;
- darsda o'quvchilarning imkon qadar erkin va o'zaro do'stona faoliyat yuritishlariga sharoit yaratadi; – tarbiyalanuvchilarni tevarak-atrof, odam va olam sirlari to'g'risidagi bilimlarini mustahkamlashga yo'naltiradi;
- o'z shaxsiy tajribalaridan, hayotda ko'rgan-bilganlaridan, badiiy asarlar mutolaasidan o'zlashtirganlarini amalda foydalanishga o'rgatadi;
- ijodiy imkoniyatlarini, kashf etish qobiliyatlarini, yaratuvchanlik iqtidorlarini rivojlantiradi;
- bilim olish jarayonining engilroq, qiziqarliroq kechishiga, aqliy zo'riqishlarning yoqimli kechishiga turtki beradi;
- aqliy imkoniyatlarining takomillashishiga asos bo'ladi.

Didaktik o'yinlar mutaxassislar tomonidan bolalarning aqliy rivojlanishi, bilimlarni puxta o'zlashtirishi va ularda shaxsiy sifatlarning shakllanishi hamda rivojlanishini ta'minlash maqsadida yaratiladi. Unda o'yin elementlari qancha ko'p bo'lsa, bolalarga shuncha ko'p quvonch bag'ishlaydi. Didaktik

o'yinlarning eng muhim jihati uni o'tkazishdan ko'zda tutiladigan maqsaddir.

O'yin o'z mazmun-mohiyati bilan bolalarda qiziqish uyg'otadi, ko'pincha o'yindagi yetakchi fikr didaktik o'yinning bosh sababi bo'ladi. Har bir didaktik o'yinning o'z mazmunidan kelib chiqqan qonun-qoidalari mavjud. Bu qoidalar harakat yo'nalishi, o'yinning borishini belgilaydi, o'quvchilarning xulq-atvori, xatti-harakatlarini, o'zaro munosabatlarini boshqarib, kerakli tomonga yo'naltirib turadi.

O'quvchilar o'yin faoliyatining yana bir ajoyib xususiyati shundan iboratki, bu jarayonda ularning hatti-xarakatlari va bajaradigan ishlari, ko'pincha, umumiy xarakter kasb etadi. Ya'ni o'quvchi turli-tuman o'yinlarda umumning faoliyatini aks ettiradi. Albatta, hayotiy tajribasi va faoliyati cheklangan kichik maktab yoshidagi bolalar didaktik o'yinlarda ma'lum shaxslar va ularning xarakatlarini aks ettiradilar. Bunday obrazlar umumiylik xarakteriga ega bo'la boshlaydi. Boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarning didaktik o'yinlari atrofdagi narsa va hodisalarni bilish quroli bo'lish bilan birga yuksak ijtimoiy ahamiyatga ham egadir. Boshqacha aytganda, o'yin ham ta'lim-tarbiyaning qudratli qurolidir. O'quvchilarning o'yinlari orqali ularda ijtimoiy foydali, ya'ni yuksak insoniy hislatlarni tarbiyalash mumkin. Bundan tashqari, o'quvchilarning o'yin faoliyati tashqaridan kuzatilsa, bu jarayonda ularning barcha shaxsiy hislatlari (kimning nimaga ko'prok qiziqishi, qobiliyati, irodasi, iqtidori, imkoniyati, temperamenti) yaqqol namoyon bo'lishini ham kuzatish mumkin. Ko'rinadiki, o'quvchilarning o'yin faoliyati ularni individual ravishda o'rganish uchun ham juda qulay vositadir. Boshlang'ich sinflar adabiy ta'limida o'quvchilarning o'z ma'naviy kamolotlarini ta'minlashda bevosita ishtirok etishlari, ularning ijodiy fikrlash, bilimlarni mustaqil egallash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish, mavjud bilim, ko'nikma, malakalarini yangi vaziyatlarda qo'llay bilishlarida syujetli-rolli o'yinlar ham muhim sanaladi.

O'quvchilarning jamoa shaklidagi syujetli-rolli o'yinlari artistlar faoliyatiga o'xshaydi. Bunday o'yinlarda qatnashayotgan har bir o'quvchi o'z rolini yaxshi ado etishga intilish bilan birga o'yinning umumiy mazmuni va qoidasidan chetga chiqib ketmaslikka tirishadi. Ma'lum rollarga bo'lingan o'yinlar o'quvchilardan qat'iy qoidalarga bo'ysunishni, o'z vazifalarini o'xshatib bajarishni, butun qobiliyatini ishga solishni taqozo etadi.

O'quvchilarning birgalikdagi o'yinlari psixologik jihatdan ham katta ahamiyatga ega. Bunday jamoa o'yinlari o'quvchilarda irodalilik, belgilangan qoidalarga, tartibintizomga bo'ysunish kabi ijobiy hislatlarni tarbiyalaydi va rivojlantiradi.

Boshlang'ich sinflarning —O'qish kitobi|| darsliklaridan o'rin olgan adabiy asarlar mazmuni misolida tashkil etiladigan syujetli-rolli o'yinlar badiiy asrlarda ilgari surilgan hayotiy-ijtimoiy masalalarni, inson va tabiat hamda kishilar orasidagi munosabatlarni badiiy ko'rinish tarzida yoritish asosida vujudga kelgan muammolarni o'quvchilarning o'zlaridagi bilim zahiralariga tayangan holda, hamkorlikda, bosqichma-bosqich hal etishida yangi bilimlarni egallashga qaratilgan didaktik ish turi hisoblanadi. Bunda o'yinlar syujeti badiiy asarlarda aks etgan jamiyat yoki tabiat tasviridan olinadi. Ba'zan jamiyat va tabiatdagi muammolar uyg'unlashtiriladi. ***O'qituvchi bu kabi syujetli-rolli didaktik o'yinlarni tashkil etish uchun quyidagilarni amalga oshirishi nazarda tutiladi:***

1. O'qiganlaringiz asosida didaktik o'yinlar bilan ijodiy o'yinlar orasidagi tafovutni aniqlang. Bolalarga xos bo'lgan ijodiy va didaktik o'yinlarni sanang.
2. Yuqoridagi o'qish darslarida foydalanish uchun tavsiya etilgan didaktik o'yinlardan namunalar keltirib yozing.
3. Sehrli so'zlar ko'magida badiiy matn yarating. Unga boshlang'ich sinf o'quvchilari nazari bilan yondashing.
4. Adabiyot mening taqdirimda mavzusida insho yozing.

15-mavzu: O'quvchilarda mustaqil kitobxonlikni shakllantirish tizimi

Reja:

1. Mustaqil kitobxonlikni shakllantirish uchun kitob tanlash tamoyillari
2. Boshlang'ich maktabda kitobxon o'quvchilarni shakllantirish bosqichlari.
3. Mustaqil kitobxonlikni shakllantirish darslarining turlari.

***

Tayanch tushnchalar: kitobxonlik madaniyati, Kitobxonlik haftaligi, kitobxonlik taqvimi, mustaqil kitobxonlik, kitob tanlash tamoyillari, Kitobni targ'ib qilish, kittobxon kundaligi.

***

O'quv mashg'ulotining maqsadi: mustaqil kitobxonlikni shakllantirish uchun kitob tanlash tamoyillari haqida tushuncha berish.

O'zbekistonda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashni yangi bosqichga olib chiqish, infratuzilma va o'quv tizimi, kitobxonlik bilan bog'liq muammolarga samarali yechimlar ishlab chiqish maqsad qilingan.

Vazirlar Mahkamasining "2020-2025 yillarga mo'ljallangan kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturi to'g'risida"gi qarori loyihasi e'lon qilindi.

Dasturni amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlari etib quyidagilar belgilanadi:

-kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlar hamda moddiy-texnik bazasini takomillashtirish;

-xalqimiz, avvalo, yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy, badiiy-estetik talablariga javob beradigan kitoblarni yuksak sifat bilan chop etish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlarni belgilash;

-joylarga, ta'lim muassasalariga vaqtida va maqbul narxlarda kitob yetkazish tizimini tubdan takomillashtirish choralarini ko'rish;

-milliy va jahon adabiyotining eng sara namunalarini tarjima qilish, mutolaa madaniyatini yuksaltirish bilan bog'liq muhim masalalarni hal etishga qaratilgan tizimli ishlarni tashkil etishning huquqiy asoslarini yaratish;

-ta'lim muassasalari va hududiy kutubxonalarni markazlashgan kutubxona – "Yagona elektron kutubxona" loyihasi asosida birlashtirishga qaratilgan tashkiliy chora-tadbirlarni belgilash;

-hududlar, aholi punktlarida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan aniq mexanizmlar ishlab chiqish;

-har yili yosh ijodkorlarning innovatsion loyihalarini amaliyotga joriy qilish orqali mamlakatimizga kiritilayotgan investitsiyalardagi yosh ijodkorlarning ulushi oshishini ta'minlash;

-o'quvchilarning qiziqishini o'rganish, sotsiologik so'rovlar o'tkazish orqali kitob mahsulotlari ishlab chiqishni yo'lga qo'yish;

-kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan kitoblarni, ayniqsa, bolalarga mo'ljallangan adabiyotlarni chop etishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralarini belgilash;

-kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan loyiha va tanlovlarni tashkil etish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi va O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining O'zbekiston Respublikasida 2021 yildan boshlab har yili aprel oyining birinchi haftasini "Kitobxonlik haftaligi" etib belgilash to'g'risidagi taklifi ma'qullangan.

Qaror ijrosini ta'minlash maqsadida maktablarda kitobxonlikni shakllantirish va o'quvchilarni kitobga bo'lgan mehrini oshirish borasida turli tashkiliy ishlarni amalga oshirishlari lozim.Jumladan:

Pedagogik vazifalar:

1.Sinfdan tashqari o'qishga rahbarlik shakllarini ochib berish;

2.Sinfdan tashqari o'qish darslarining turlari va ularning bir-biridan farqi haqida ma'lumot berish;

3.Sinfdan tashqari o'qish darslarini rejalashtirishni tushuntirish.

O'quv faoliyati natijalari:

1.Sinfdan tashqari o'qishga rahbarlik shakllarini aytib beradilar;

2.Sinfdan tashqari o'qish darslarining turlari va ularning bir-biridan farqini ajrata oladilar;

3.Sinfdan tashqari o'qish darslarini rejalashtira oladilar. Ta'lim berish usullari ma'ruza , blits-so'rov, tushuntirish, savol-javob, muammoli savollar.

Ta'lim berish shakllari

Ommaviy

jamoaviy ta'lim berish vositalari

darslik, o'quv qo'llanma,

Mustaqil kitobxonlikni shakllantirish uchun kitob tanlashda quyidagi tamoyillarga amal qilinadi:

1. Kitob tanlashda tarbiyaviy maqsad ko'zda tutiladi. Bunda

o'quvchilarga vatanimiz o'tmishi, mustaqillik uchun kurash, xalq qahramonlari, xalq turmushi haqidagi, oilada, maktabda va jamoat joylarida o'zaro munosabatlarda yuzaga keladigan axloqiy muammolar haqidagi, tabiat va uni asrab-avaylash haqidagi kitoblar tavsiya etiladi.

2. Kitob tanlashda asarlar janri va mavzusining xilma-xilligi e'tiborga olinadi. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar, asosan, hikoyalar, ertaklar, she'rlar, topishmoqlar, maqollarni o'qishga qiziqqanlari uchun shu janrdagi asarlar tanlansa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

3. Kitobning o'quvchilar yoshi va saviyasiga mosligi hisobga olinadi. 1-sinfda kichik hikoya va ertaklarni o'qish tavsiya etilsa, 2-4-sinflarda mavzular doirasi kengaytirilib, kundalik turmushda ro'y berayotgan turli voqealar tasvirlangan asarlar, gazeta va jurnallardagi kichik hajmli xabarlarni o'qish ham tavsiya etilishi mumkin.

4. Kitob tanlashda o'quvchilarning shaxsiy qiziqishi va mustaqil o'qishi hisobga olinadi. Bunda o'quvchilar o'ziga qiziqarli bo'lgan o'zbek va chet el bolalar adabiyoti yozuvchilarining asarlarini o'zi tanlashi muhim ahamiyatga ega.

5. Kitob tanlashda mavsumiy tamoyilga amal qilinadi. Umuman olganda, kitobni to'g'ri tanlash sinfdan tashqari o'qish muvaffaqiyatini ta'minlashning muhim shartidir.

Yuqoridagi kitobxonlik taqvim jadvalini to'ldirish quyidagicha shallantiriladi:

O'quvchilarning har biriga kitobxonlik taqvimi beriladi. Sinfxonasiga yoki darsxonasiga yopishtirib qo'yiladi.

Taqvimning har bir grafasi uchun kerakli stiker yoki rasmlar tayyorlab olinadi. Bu stikerlar o'qib bo'lingan kitoblar uchun yopishtiriladi.

Demak, o'quvchi har haftada tugatgan kitoblari soniga qarab jadval katakchalariga stikerlar yopishtirib boradi.



Yuqoridagi kitobxon kundaligini to'ldirish quyidagicha shallantiriladi:

O'quvchilarning har biriga umumiy daftarga kitobxonlik kundaligi jadvali chizdiriladi. Bu kundalikni har bir o'quvchi o'zida birga olib yuradi.

Kundalikning har bir ustuni quyidagicha nomlanadi.

1. Tartib raqami
2. Asar nomi
3. Asar mallifi
4. Asar qahramonlari
5. Asar haqida qisqacha ma'lumot
6. Asardan parcha
7. Baho

Shu jadvaldagi ma'lumotlar asosida o'quvchilar o'qigan

asarlari haqida jadvalga yozib boradilar .

O'quvchilar o'qigan kitoblari va kitob haqidagi ma'lmotlar kundalikda belgilab va baholab boriladi.

Mustaqil kitobxonlikni shakllantirishga rahbarlik qilish shakllari.

Mustaqil kitobxonlikni shakllantirishga rahbarlikning asosiy shakli maxsus sinfdan tashqari o'qish darslaridir. Bunday darslar erkin dars hisoblanadi. Mustaqil kitobxonlikni shakllantirish darslarida o'quvchilarning kitobxonlik qiziqishlari, bilim doirasi, estetik taassuroti, badiiy obrazlarni idrok etishi, ijodiy qobiliyati rivojlanadi; faol kitobxonga xos bo'nikma va malakalar shakllanadi. Sinfdan tashqari o'qish darslari o'quvchilarning faolligini oshirishga qaratiladi, shuning uchun ularning qurilishi juda xilma-xil bo'ladi. Har bir dars o'qituvchi va o'quvchining ijodi hisoblanadi; darsda qanchalik xilma-xillikka, hayotiylikka erishilsa, maqsadga erishish oson kechadi.

Shularga qaramay, Mustaqil kitobxonlikni shakllantirish darslari o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni amalga oshirishi uchun ma'lum talablarga bo'ysunadi. Ular quyidagilardir:

1. Har bir darsda o'quvchilar o'qigan kitoblar (asarlar) hisobga olinadi. Ular o'qigan va o'qiyotgan kitoblarini sinfga olib kelib ko'rsatadilar, ikki-uch o'quvchi o'zlari o'qigan kitob haqida gapirib beradi, darsda o'zaro fikr almashish holati yaratiladi (bu holat darsdan tashqpri vaqtda ham davom etishi mumkin).

2. Har bir darsda o'qish uchun yangi kitob (asar)lar tavsiya qilinadi. Tavsiya qilish shakllari turlicha bo'lib, ular fikr almashuv, kitobni ko'rsatish, sinfda ko'rgazma tashkil etish, o'quvchilarni qiziqtirish uchun tavsiya qilinadigan kitobdan biror parchani o'qib berish, rasmlarni ko'rsatish yoki film namoyish etishdan iborat bo'lishi mumkin.

3. Har bir darsda o'quvchilarga asarni yaxlit holda o'qitish mumkin. Agar asar hajmi kattaroq bo'lsa, bu ish ikki-uch dars

davomida amalga oshiriladi. Bunda o'quvchilar o'zlari o'qigan kitobdan biror parchani ovoz chiqarib o'qib berishlari mumkin. Bu jarayonda ichda o'qishdan ham, she'r yodlashdan ham, rollarga bo'lib o'qishdan ham foydalaniladi.

4. Har bir darsda o'qilgan asar yuzasidan suhbat metodi orqali tahlil ishlari amalga oshiriladi. Bunda erkin hikoya qilish uchun "Senga asardagi nimalar yoqdi?", "Bu kitob haqida sen nimalar ayta olasan?" kabi savollar beriladi va o'quvchilarning ijodiy hamda mustaqil qayta xikoyalash malakalari shakllantiriladi.

5. Har bir darsda ma'lum bir yangi kitobxonlik ko'nikmasi hosil qilinadi: muallif haqida ma'lumotlar to'plash, kitob nomiga qarab u nima haqda ekanligini aytish, o'qilgan asarlar yuzasidan ko'rgazmalar tayyorlash, asarga taqriz yozish, albomlar tayyorlash, kitobxonlik kundaligini yuritish kabi ishlar amalga oshiriladi.

6. Har bir dars kirish suhbati bilan boshlanadi va sinfda o'qish darslarida qo'llanadigan barcha usullardan ijodiy foydalaniladi.

7. Har bir darsda tahlil qilingan asarlar yuzasidan umumlashtiruvchi, yakunlovchi suhbat uyushtiriladi. Umumlashtirishga ko'rgazma ham, albom tuzish ham, rasmlarni tatbiq etish ham yordam beradi. Mustaqil kitobxonlikni shakllantirishga rahbarlikning yordamchi shakllari ham mavjud bo'lib, ular barcha ishlarni izchil uyushtirishni ta'minlaydi. **Mustaqil kitobxonlikni shakllantirish darslari uchun sharoit yaratadi. Bunday shakllarga quyidagilar kiradi**:

1. Kitobni targ'ib qilish. Mustaqil kitobxonlikni shakllantirishga tavsiya qilinadigan asarlar ro'yxati sinfga yoki maktabning maxsus joyiga osib qo'yiladi, ular vaqti-vaqti bilan yangilab turiladi, to'ldiriladi, ko'rgazmalar tashkil qilinadi. O'qituvchi maxsus suhbatlar uyushtiradi.

2. Yakka tartibdagi yordam va kundalik tekshiruv. O'quvchilarning o'qigan kitoblari yuzasidan suhbat

uyushtiriladi, o'qilgan kitoblar hisobga olinadi. Shaxsiy fikrlar aniqlanadi, uy kutubxonalari bilan tanishiladi, ota-onalar bilan suhbat o'tkaziladi.

3. Mustaqil kitobxonlikni shakllantirish yuzasidan ommaviy ishlar. Adabiy ertaklar, viktorinalar, yozuvchilar bilan uchrashuvlar, adabiy ekskursiyalar uyushtiriladi, ular uchun maxsus tayyorgarlik ko'riladi.

4. Kutubxonaga yozilish. 1-sinf o'quvchilari o'qituvchining tavsiyasi bilan kutubxonaga a'zo bo'ladi. Bu jarayonda o'qituvchi va kutubxonachi hamkorlikda ish olib borishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

5. O'quvchilarning o'qiganlarini hisobga olish. Bunda ularning kitobxonlik kundaligidan foydalaniladi.

1-sinf o'quvchilari 2-yarim yillikdan boshlab kitobxonlik kundaligiga yozuvchining ismi, familiyasi va kitob nomini, 2-sinfda esa unga nashr etilgan joyi va yilini qo'shib yozadilar.

3-4-sinflarda o'qigan kitobining qisqacha mazmunini yozib, unga taqriz va o'z mulohazalarini ham qo'shishlari mumkin. O'quvchilarning o'qigan kitoblari og'zaki tarzda ham hisobga olinadi: ular o'qiganlari yuzasidan sinfdan tashqari o'qish va sinfda o'qish darslarida, yakka tartibdagi suhbatlarda gapirib beradilar. Boshlang'ich maktabda kitobxon o'quvchilarni shakllantirish bosqichlari Mustaqil kitobxonlikni shakllantirish darslari o'quvchilarda mustaqil kitob tanlash va o'qish malakalarini shakllantiradi.

Mustaqil o'qish malakasini shakllantirish 3-bosqichga bo'linadi:

1. **Tayyorlov bosqichi**. Bu 1-sinfning savod o'rgatish davriga to'g'ri keladi. Unga darsning bir qismi – 17-20 daqiqasi ajratilgani uchun "STO' mashg'uloti" deb yuritiladi. Uning o'ziga xos xususiyatlari shundaki, o'qituvchi asarni o'zi tanlaydi, asarning kichik hajmda bo'lishiga va boshqa kitob tanlash tamoyillariga e'tibor beradi. Asarni o'qituvchining o'zi o'qib beradi. O'quvchilar asarni eshitishga, eshitganlarini

idrok etishga, ularga soddagina baho berishga, asar mazmuni bilan sarlavhasining mosligini aniqlashga, asar mazmunini hikoya qilib berishga o'rgatiladi. Bu bosqichda o'quvchilar o'qish gigienasi va kitobga qanday munosabatda bo'lish bilan tanishadilar.

2. Boshlang'ich bosqich. Bu 1-sinfning 2-yarim yilligiga to'g'ri keladi. Bu bosqichda haftada 1 marta 45 daqiqalik dars uyushtiriladi. Asarni o'qishdan oldin o'quvchilar asar nomi va uning muallifi bilan tanishadilar, rasmlarini tomosha qiladilar, daftarlariga u haqda soddagina qilib muallif va asar nomini yozadilar. Asar elementar tarzda tahlil qilinadi. Tanlangan asar (kitob) yaxshi o'qiydigan o'quvchiga maxsus tayyorgarlikdan so'ng o'qitiladi. Asarning oson o'qiladigan o'rinlarini bo'sh o'qiydigan o'quvchilarga o'qitish ham mumkin. Bu ularda o'qishga qiziqish uyg'otadi. Bu bosqichda o'quvchilar har xil tezlikda bo'g'inlab o'qiydilar. Shuning uchun o'qituvchi bu jarayonda har bir o'quvchiga individual yondashishi, kichik kitobxonni kitobni mustaqil o'qishga o'rgata borishi lozim.

3. Asosiy bosqich. Bu bosqich 2-4-sinflarga to'g'ri keladi. Bu davrda o'quvchilarning o'qish malakalarni mustahkamlanadi. Bunda o'quvchilarning sinfdan tashqari o'qiganlari baholanadi. Baholashda dastur talablariga asoslaniladi: o'qigan kitoblarining sifat o'zlashtirishiga, miqdoriga, o'qigan kitobiga munosabat bildira olishiga e'tibor beriladi. Bunda o'quvchilar muayyan mavzuga doir bir necha asarlarni o'qib keladilar, ularning ayrim o'rinlarini ifodali o'qib beradilar, o'qigan asarlarini o'zaro taqqoslaydilar. Mustaqil kitobxonlikni shakllantirish bosqichlari, dastur talablari, tarbiyaviy vazifalari o'quvchilarning qiziqishlari bilan belgilanadi. Masalan, tayyorlov bosqichida kichik hajmdagi asarni o'qituvchi o'qib bersa, o'qilganlar yuzasidan suhbat, qayta hikoyalash o'tkazilsa, boshlang'ich bosqichda butun sinf o'quvchilari bir xil kitob bilan ta'minlanadi, barcha o'quvchilar bitta matn ustida ishlaydilar. Bunda bitta yozuvchi yoki bir mavzudagi asarlar ko'rgazmasi

tashkil qilinadi. Asar ichda o'qishga topshirilishi, albomlar tayyorlanishi, kinofilm va diafilmlardan parchalar ko'rsatilishi, musiqiy daqiqalar o'tkazilish hamda asar mazmuni yuzasidan ijodiy rasmlar chizdirilishi ham mumkin. Bu jarayonda kitobni saqlash maqsadida uni yamash, o'rash o'rgatiladi, "Ertaklar bayrami", "Ifodali o'qish tanlovi" o'tkaziladi.

Asosiy bosqich yakunida kichik yoshdagi o'quvchilar faol kitobxon uchun zarur bo'lgan yaxshi o'qish ko'nikma va malakalarini egallashlari, eng muhimi, ularning kitob hamda mustaqil o'qishni yaxshi ko'rishlariga erishish juda muhimdir. Mustaqil kitobxonlikni shakllantirish darslarining turlari Mustaqil kitobxonlikni shakllantirish darslarining xususiyatlari, birinchidan, mustaqil kitobxonlikni shakllantirish tizimining bosqichlari bilan, ikkinchidan, o'quv vazifalari va dastur bilan, uchinchidan, oldinga qo'yilgan tarbiyaviy vazifalar bilan, to'rtinchidan, o'quvchilarning qiziqishlari bilan belgilanadi.

Tavsiya qilinadigan adabiyotlar: 1. Miraziz A'zamni "Saylanma" . 2. Xudoyberdi To'ztaboyevning "Shirin qovunlar mamlakatida" . 3." "Omonboy bilan Davronboyni sarguzashti" 4." **Bolajon, bolajonim**" she`r va ertaklar top`lami 5."Ko'ngilchan o'tinchi" ertak. 6."Asalari bilan pashsha" ertak. Ertak asosida chizilgan sur'atlar va aplikassiyalar.

Nazorat uchun savollar:

1. Mustaqil kitobxonlikni shakllantirish uchun kitob tanlashda o'qituvchi qanday tamoyillarga asoslanadi?

2. Timati Uokerning "Finlandiya ta'lim mo'jizalari" kitobini mutoola qiling. Mazmuni haqida qisqacha yozing.

3. Mustaqil o'qish malakasini shakllantirish necha bosqichga bo'linadi?

4."Kitobxonlik taqvimi" ning afzalliklari haqida fikrlaringizni bildiring

Mutaxassislikka kirish 2-semestr

1-mavzu: Maktabdagi tarbiyaviy ishlar tizimida sinf rahbarining faoliyati, tashkil etish metodlari.

Reja:

1.Tarbiyaviy ishlarni boshqarishda sinf rahbarining o'rni.

2. Ota-onalar sinf majlisini tashkil qilishda o'qituvchining pedagogik mahorati.

3. Ota-onalarga pedagogik bilim berish shakl va rejalari.

***

Tayanch tushunchalar: boshqarish, menejment, avtoritar, liberal, demokratik, maktab ichki nazorati, sinf rahbar faoliyati

***

Respublikamiz hukumati xalq ta'limi sohasida o'rtaga qo'yayotgan vazifalarni bajarish ko'p jihatdan o'qituvchiga bog'liq. Yangi iqtisodiy siyosatga o'tish sharoitida ta'lim-tarbiyadan ko'zlangan maqsadga erishish vazifasi, asosan, o'qituvchi zimmasiga yuklatilgan. Bu, o'z navbatida, maktab ishini boshqaradigan rahbarning faoliyati bilan bog'liqdir. Qaysi maktabda ichki va tashqi nazorat ishlari yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lsa, o'sha maktabdagi ta'lim-tarbiya ishlari ham izchil bo'ladi. Pedagoglar jamoasi ishini sistemali nazorat qilish, bir tomondan, har bir o'qituvchining o'z ishi uchun mas'uliyatini oshiradi hamda o'z ishida kamchilik- larni vaqtida aniqlash va tuzatish imkonini beradi. Maktab ichki nazoratining bir qancha

yo'l-yo'riqlari mavjud. Ularning birinchisi maktab direktori va ilmiy bo'lim mudirining darslarga kirishlari, darslarni va mashg'ulotlarning boshqa shakllarini tahlil qilishlaridir. Maktab direktori va ilmiy bo'lim mudiri darslarga muntazam kirib turishlari shart. Buning uchun ular yil davomida darslarga kirish rejalarini tuzadilar hamda tartiblarini kelishib oladilar. **Direktor va uning o'rinbosari bolalar bilan olib boriladigan o'quv va sinfdan tashqari ishlarning barcha shakllariga rahbarlik qiladilar va ularni tekshirib turadilar.**

Direktor va uning o'rinbosari tadbirlarning g'oyaviy yo'nalishini tashkil etishning ilmiy-metodik darajasi bolalarning qiziqishlari va ularning faolligi, mashg'ulotning o'quv-tarbiyaviy qimmatiga alohida e'tibor qaratadilar. O'qituvchilar, sinf rahbarlari, direktor va uning o'rinbosarlariga o'zlarining ishlari haqida hisob beradilar. Hisob berish o'qituvchilar va maktab rahbarlariga o'z ishlarining natijalarini tahlil qilishga, kamchiliklarning sabablarini aniqlashga, ularni bartaraf etish yo'llarini belgilashga ko'maklashadi. Boshqarish faoliyatida muayyan tizimning bo'lishi muhimdir. Buning ma'nosi shundan iboratki, bu ish tasodifiy bir-biriga aloqasi bo'lgan tadbirlar yig'indisidan iborat bo'lmay, sharoit xususiyatlarini qat'iy hisobga olishni taqozo etadi.

Maktab ichki nazorati bo'yicha ishlangan rejani bir chorakka, yarim yillik va bir o'quv yiliga mo'ljallab tuzish mumkin. Lekin rejani bir o'quv yiliga mo'ljallab tuzish maqsadga muvofiqdir.

Maktab rahbarlari tomonidan amalga oshiriladigan maktab ichki nazoratining rejasi quyidagi masalalarni o'z ichiga olishi mumkin:

1. Maktabning hamma ko'rsatkichlari bo'yicha rejaning bajarilishi.

2. O'quv-tarbiya ishlarining ahvoli.

3. Sinfdan va maktabdan tashqari olib boriladigan tarbiyaviy ishlar.

4. Maktabdagi jamoatchilik hamda otaliq tashkilotlari bilan olib boriladigan ishlar.

5. Maktabda pedagog xodimlar bilan ishlash masalasi.

6. Maktab hujjatlarini yuritish holati.

7. Maktab o'quvchi-yoshlar tashkilotining ishlari.

8. Maktabning moliya-xo'jalik ishlari.

9. Maktab, oila va jamoatchilik hamkorligi.

10. Sinf rahbarlarining ishlari va hokazo masalalar.

Bir o'quv yiliga mo'ljallab tuzilgan maktab ichki nazoratining mavzu rejasini o'quv yilidagi pedagoglarning birinchi yig'ilishida tasdiqlash va uni maktab o'qituvchilari jamoasiga ma'lum qilish maqsadga muvofiqdir. Lekin nazorat qilishda ma'lum tizim va aniq rejaning bo'lmasligi, maqsadning noaniqligi, hujjatlarni tartibga solishga va ma'lum bir fikrga kelish uchun tegishli materiallar to'plashga e'tibor bermaslik, nazorat ishlariga yetarlicha faol jalb etmaslik ayrim maktab rahbarlarining o'qituvchilar jamoasi tavsiyasini yaxshi bila olmasligiga sabab bo'ladi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, maktab ichki nazoratining shakl va usullari turlichadir. Buni qay darajada, qanday qilib amalga oshirish maktab rahbarlarining ilmiy-metodik, pedagogik saviyalariga hamda mazkur masalaga nisbatan qunt bilan izlanishlariga bog'liqdir.

Maktab ichki nazoratini o'rganiladigan masalaga qarab, asosan, ikki guruhga bo'lish mumkin:

a) maktab ishlarini tematik nazorat qilish;

b) maktab ishlarini kompleks (frontal) nazorat qilish.

Maktab tarbiyaviy ishini samarali tashkil etishning yana bir muhim sharti — rahbarda tarkib topgan kelajak maqsadlarining mavjudligi, o'zining bugungi tarbiyalanuvchisining ertangi qiyofasi to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lishidir. Shaxsni tarbiyalash uzoq davom etadigan jarayondir.

Xullas, maktab direktori tarbiyaga oid qo'yilgan vazifalarni hal qilish va o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish sistemasini nisbiy

ravishda uch ko'rinishga ajratadi. Bular quyidagilardir:

A. Maktabda tarbiya berish.

B. Oilada tarbiya berish.

D. Maktabdan va oiladan tashqarida tarbiya berish.

Bularning har birida rahbarlikning ba'zi bir tashkiliy vositala- rini ko'rib chiqamiz. Maktabdagi tarbiya jarayonini direktor o'z yordamchilari orqali, maktabdan va sinfdan tashqari tarbiyaviy ish tashkilotchisi, sinf rahbarlari hamda o'qituvchilar orqali boshqaradi. Bunda u tarbiyaviy ishlarni umummaktab miqyosida rejalashtiradi. Yil davomida pedagoglar jamoasida muhokama qilish uchun barcha xodimlarning bir xildagi tushunishi mumkin bo'lgan prinsipial masalalarni qo'yib boradi. Maktab direktori tarbiyaviy ishlarning kundalik ahvolini darslarga, suhbatlarga, majlislarga, turli mavzulardagi yig'ilishlarga kirish hamda o'quvchilar, ota- onalar, o'qituvchilar bilan doimiy suhbatlashib borish orqali o'rganib boradi va ba'zi yo'l qo'yilgan juz'iy kamchiliklarni yo'l- yo'lakay tuzatib boradi. Direktor tarbiyaviy ishlar sifatini hamda ta'sirchanligini oshirish maqsadida o'qituvchilarning malaka oshirish kurslarini tashkil qiladi. O'qituvchilarning o'z-o'zini boshqarishini yo'lga qo'yadi. Maktabda o'z-o'zini boshqarish organlarining ta'sirchanligi esa unga nisbatan ma'muriyatning va o'qituvchilar jamoat tashkilotlarining e'tibori hamda yaqindan g'amxo'rlik ko'rsatishiga bog'liqdir. Xulosa shuki, maktab direktori sinf rahbarlarisiz, o'qituvchilar jamoasi va ota-onalarning faolligisiz tarbiya berishda kutilgan samaraga erisha olmas ekan. Shuning uchun ham maktab direktori doimo ular kuchiga tayangan holda ish yuritishi va ular bilan muntazam aloqada bo'lib turishi lozim.

Sinf rahbari yoki guruh murabbiysining tashkiliy-tarbiyaviy vazifalari ko'p qirrali va mas'uliyatli hisoblanadi.

Sinf rahbari (guruh murabbiysi) sinf, guruhlarda barcha sinfdan tashqari tarbiyaviy, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etadi va o'tkazadi. U respublikamizning tashqi va ichki siyosati,

iqtisodiyoti, ma'naviyati va boshqa ijtimoiy munosabatlariga oid Prezidentimiz farmonlari, hukumat qarorlarini, turli idoralarning ko'rsatmalarini o'quvchi va talabalarga etkazish va bularga amal qilish borasida sistemali tadbirlar uyushtiradi. U sinf va guruhlarda jamoaga asoslangan ishlarni maqsadga muvofiq yo'naltirishi va bu borada qaytariqlar, uzilishlar bo'lmasligi uchun ularni muvofiqlashtirishi kerak. Sinf rahbari va guruh murabbiylarining vazifasi o'quvchi-talaba yoshlarga yo'naltirilgan barcha ta'sirlarni tashkil etish, rag'batlantirish, markazlashtirishdan iborat. Ushbu sinfda, guruhda mashg'ulotlar olib boruvchi o'qituvchilar, kasb ustalari faoliyati bo'yicha yagona talablar tizimini ishlab chiqish, yo'naltirish, muvofiqlashtirish, tashqi dunyo bilan o'quvchi-talaba yoshlarni bevosita bog'lashdan iborat.

Ushbu soha kishilari turli jamoat tashkilotlari va ota-onalar komitetlari faoliyatlarini birlashtirishga erishadi. Turli sinflar, guruh jamoalari, kengashlar bilan aloqani mustahkamlaydi.

Sinf rahbari va guruhmurabbiysiga kasbiy talablar. Ko'p tomonlama faoliyat sinf rahbari va guruh murabbiysidan yuqori madaniyat va yaxshi psixologik-pedagogik tayyorgarlikni talab etadi. Sinf va guruh murabbiysining vazifasi prezident va hukumat farmon hamda qarorlaridagi asosiy g'oyalarni ma'rifiy-ma'naviy tadbirlar asosida o'quvchi-talaba yoshlarga singdirish va ular o'rtasida keng targ'ib etishdan iborat.

Sinf rahbari va guruh murabbiysi eng yangi voqea va hodisalarni, respublikamizdagi va jahondagi o'zgarishlarni birinchi bo'lib yoshlarga etkazuvchi hisoblanadi. Yaxshi tarbiyachi - avvalo, yuqori insoniy fazilatli, to'g'riso'z, halol va barcha harakatlari hamda fikri bilan madaniyatli insondir. U tarbiyalanuvchilarining ma'naviy dunyosini, qarashlarini bilishi, ularning quvonchi va qayg'usiga doimo sherik bo'lishi, ularning ishonchiga kira olishi, chidamlilik va kamtarlik sifatlariga ega bo'lishi lozim.Zamonaviy sinf rahbari va guruh tarbiyachisi hozirgi davr nazariy bilimlari bilan qurollangan,

pedagogik intuitsiyaga ega bo'lgan, o'qituvchi va bolalar bilan tez muomalaga kirisha oladigan, o'quvchilarning hissiyoti va irodasini ustalik bilan boshqara oladigan mutaxassisdir. U tadqiqotchi va tashkilotchi, jamoatchi sifatida o'zining butun qalbini o'quvchi talabalarga bag'ishlay oladi. Sinf rahbari va guruh murabbiysining yuksak kasbiy sifatlaridan biri tarbiyalanuvchining ma'naviy shakllanishini oldindan belgilay olish va butun jamoa rivojlanishini rejalashtirishdan iborat. Buni qisqa qilib quyidagi sxemada borish mumkin: maqsad-reja-tizim.

Sinf rahbari va guruh murabbiysi ishlari tizimi.

Sinf rahbari va guruh murabbiysining faoliyatini mazkur ta'lim muassasalaridagi barcha ma'naviy-axloqiy tarbiyaviy ishlarning ajralmas qismi sifatida tushunish kerak. SHuning uchun ular o'zlarining butun faoliyatini ishlayotgan ta'lim muassasasidagi boshqa tashkilotlar, jamoalar bilan kelishib, muvofiqlashtirib yo'lga qo'ymog'i lozim.

Sinf rahbari, guruh murabbiysining tashkiliy-pedagogik ishlari o'quvchilarni doimiy o'rganish, sinf, guruh jamoalarini tashkillashtirish va shakllantirish, turli yoshlar tashkilotlari bilan birgalikda ishlash, ota-onalar bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsatishdan iborat.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish zarurki, hozirgacha yosh sinf rahbarlari, guruh murabbiylariga uslubiy yordam beruvchi namunaviy tarbiyaviy ishlar dasturi, yaqin kelajakka mo'ljallangan tadbirlar tizimining yo'qligi, ishlab chiqilmagani bu ishda ma'lum qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda.

Sinf rahbari va guruh murabbiysi ishlari tizimida yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy ishlarini tashkillashtirishning samarali metod va shakllarini maqsadga muvofiq yo'lga qo'yish va ularning ta'sirchanligiga erishish alohida o'rin egallaydi. Bu esa barcha tarbiyaviy ta'sirlarni yaxlit aqlli, tashkiliy kuchda: o'quvchilar, kasb ustalari, tarbiyachilar, jamoat tashkilotlari, mehnat jamoalari, maktabdan tashqari muassasalar, o'quvchi

yoshlar, ota-onalarda birlashtiradi.

Sinf rahbari va guruh murabbiysining tashkiliy-pedagogik ishlari.

1.«Agar pedagogika insonni har tomonlama tarbiyalamoqchi bo'lsa, u holda uni har tomonlama bilishi ham zarur». Rus pedagogi K.D.Ushinskiyning ushbu fikri har bir sinf rahbari va guruh murabbiysi uchun ham dasturilamal bo'lib xizmat qilishi kerak.

Muvaffaqiyatli ishlash uchun tarbiyalanuvchini doimo o'rganib borish zarur. O'quvchilarni o'rganish pedagogdan har bir shaxs psixologik xususiyatlari to'g'risidagi bilimlarni egallashni, buning uchun pedagogik tadqiqotlar prinsiplari va metodlarini o'zlashtirishni talab etadi.

Muayyan shaxs to'g'risida, uning xarakteri, qobiliyati, sog'lig'i va boshqa xususiyatlari to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lish uchun uni tabiiy sharoitda, uning hayotiy faoliyati sharoitlari bilan bog'liq holda o'rganish muhimdir. Doimiy qonuniyat - o'rgana borib tarbiyalash, tarbiyalay borib o'rganishga e'tiborni qaratmoq lozim.

O'quvchini o'rganish dasturi, avvalo, bolaning oila sharoiti, oila tarkibi, uning moddiy sharoiti, an'analari va oilaviy munosabatlar, o'quvchiga yaratilgan sharoit, shuningdek, ota-onalar sog'lig'i, uydagi muhit va boshqalarni ham hisobga oladi. Bolaning ota-onasiga, o'qituvchilarga, sinfdagi o'rtoqlariga munosabati, mehnat va ijtimoiy ishlardagi ishtiroki, o'zaro yordam munosabatlaridagi o'rni, shaxs qobiliyati va talanti, uning xotirasi, diqqati, fikrlash quvvati, qanchalik tez yoki sekin o'zlashtirishi, darsdan tashqari mashg'ulotlari, qaysi sport turiga qiziqishi va boshqalarni o'rganish kerak.

Bolani o'rganish asosiy maqsad emas, balki bu bilan tarbiyalanuvchi rivojlanish dinamikasini, uning kelajagini o'rganish, o'qish va tarbiyasidagi qiyinchiliklarni ko'ra bilish va oldini olish, uning keyingi rivojlanishi uchun kerakli sharoitlar yaratishdan iborat.

Ota-onalar bilan ishlash sinf rahbarining asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Bu ish agar sistemali tarzda va ilmiy asoslangan holda, sinf rahbarining umumiy faoliyati bilan birga qo'shib olib borilsa, muvaffaqiyat keltiradi.

Ota-onalar bilan ishlash tizimining asosiy elementlari oilani o'rganish, uning urf-odatlari, an'analari, oilada ota-ona hamda kattalarning o'rni, mikroiqlim, undagi tarbiya xarakteri, bola tarbiyasida ota yoki onaning o'rni, bola tarbiyasida oilaviy hamkorlik, maktab va ota-onalar o'rtasidagi yagona talablarga rioya qilish, ota-onalar o'rtasida kundalik yangiliklar muhokamasi, maktab va oila o'rtasida bola rivojlanishi to'g'risida o'zaro axborot almashib turish, birgalikda qarorlar qabul qilish, zarur pedagogik yordam, maslahatlarni uyushtirib turish, ota-onalarni sinf va maktabdagi turli tarbiya mavzusidagi tadbirlarga taklif etish, jamoatchilikni oila va maktab hamkorligiga keng jalb etishdan iborat.

Sinf rahbarining ota-onalar bilan olib boradigan ishlari yagona talablar asosida o'zaro ishonch, hurmat, ishchan munosabatlarga tayanib yo'lga qo'yilishi kerak.

Murabbiylar, guruh rahbarlarining talaba yoshlarning ota-onalari bilan ishlashi o'ziga xos xususiyatga ega. Bunday sharoitda talaba yoshlarning ota-onalari bilan telefon orqali so'zlashuvlar, xat yozishuvlar, ularni o'quv yurtiga taklif etish orqali kelishib olish, maslahatli ishlarni birgalikda bajarish, boshqa talabalar yordamida ota-onalar bilan sistemali aloqalar o'rnatish foydalidir.

Ayniqsa, bunday ishlar sinf yoki guruh ota-onalar faollari qo'mitalari orqali muvaffaqiyatli hal etilishi mumkin. Shuning uchun sinf rahbari shunday faollar, qo'mitalar faoliyatini birlashtirish va yo'naltirishga alohida e'tibor berishi lozim.

Sinf rahbari va guruh murabbiysi ishlarini rejalashtirish va hisobga olish. Sinf yoki guruh tarbiyalanuvchilari bilan ishlashning muvaf-faqiyati ishlarni qanchalik to'g'ri va oqilona rejalashtirishga bog'liq. Sinf rahbari, guruh murabbiysi faoliyati

kelajakni mo'ljallab yo'lga qo'yiladi. SHu ma'noda uning vazifasi jamoaning har bir a'zosi, o'quvchi yoshlar kelajagini to'g'ri rejalashtirishdan iborat. Tarbiyaviy ishlarni loyihalashtirish tarbiyaning maqsad va vazifalarini aniq tasavvur etishdan boshlanadi.

Sinf rahbari o'z ish rejasini tuzishda quyidagi qator talablarga rioya qilishi kerak:

a) tarbiya vazifalarining to'g'riligi va aniqligi;

b) rejaning qisqaligi va detallashtirishda me'yorga rioya qilish;

v) o'quvchilar faoliyatini tashkil etishning eng ma'qul variantlarini tanlash;

g) mo'ljallangan ishlarni rejalashtirishda uning kundalik ahamiyati va uzoqni mo'ljallab tuzilganligi;

d) pedagogik rahbarlik va o'quvchi-talabalar faolligining birligi;

e) mazkur ta'lim muassasasi ichki ishlarining tashqaridagi ishlar bilan uzviyligi;

j) o'quvchi-talabaning tarbiyalanganlik darajasi bilan ularning hayot tarzi o'rtasida bog'liqlik;

z) yosh va o'ziga xos xususiyatlarni hisobga olish;

k) shaxs tarbiyalanganlik darajasini nazarda tutish;

l) ta'lim muassasasining turli tadbir va rejalari bilan kelishilganligi;

Sinf rahbari ish rejasining tuzilishi:

Sinfga umumiy tavsiya, tarbiya vazifalari, tarbiyaviy faoliyat tizimi.

1. **Tarbiyaviy ishlar mazmuni** - o'quvchilar umumiy dunyoqarashini kengaytirish, siyosiy, ma'naviy-axloqiy, huquqiy-iqtisodiy va boshqa sifatlarni shakllantirish.

2. **Tarbiya metodlarida** tushuntirishdan u yoki bu ishlarni mustaqil bajarishga o'tish.

3. **Tarbiyaviy ishlar shakllari** - yakka tartibdagi suhbatdan ko'pchilik ishtirokidagi munozaraga, nazariy

anjumanlarga o'tish, oddiy ijrochilikdan katta jamoat ishlarini mustaqil bajarishga o'tish.

Sinf rahbari va guruh rahbari belgilangan muddatlarda direktorning yoki rektorning ma'naviyat bo'yicha o'rinbosari bilan kelishilgan holda ishning bajarilishini rejalashtiradi va ular oldida hisobot berib turadi.

Tayanch tushunchalar:

Tizim – bu ma'lum qonuniyat asosida (yaxlitlik nuqtai nazaridan) tartiblangan, o'zaro uzviy bog'langan hamda belgilangan maqsad sari birgalikda umumiy funksional vazifani bajaruvchi elementlar (qism tizimlar) majmuasi **tizim** deb aytiladi. Tizimlar tarkibida qatnashayotgan elementlar (qism tizimlari) xarakteriga qarab sodda, murakkab, dinamik va statistik tizimlarga bo'linadi.

Tarbiyachi – ustoz bo'lishi uchun, boshqalarning aql – idrokini o'stirish, ma'rifiy ziyosidan bahramand qilish, haqiqiy vatanparvar, haqiqiy fuqoro etib etishtirish uchun, eng avvalo, tarbiyachining o'zi ana shunday yuksak talablarga javob berishi, ana shunday yuksak fazilatlarga ega bo'lishi kerak (Zuhra Ismoilova).

Tarbiyaning yo'naltirilganligi – ta'lim muassasalaridagi ta'lim – tarbiya jarayonining markaziy nuqtasida tarbiyaviy ishlar dasturi, tadbirlari, shakl, metod va vositalari emas, balki talabi turganligini anglatishga xizmat qiluvchi faoliyatdir, chunki tarbiya jarayonida talabaning shaxsiy xususiyatlari, qiziqishlari o'ziga xos tavsifi, o'z qadr - qimmatini anglash tuyg'ulari rivojlantirib boriladi.

Tarbiyada milliy va umuminsoniy qadriyatlar ustunligi – xalqning ko'p asrlik qadriyatlarini va ulkan hamda boy merosini chuqur bilish, milliy o'zlikni anglash, millat g'urur tuyg'usini qaror toptirishlarga qaratilgan faoliyatdagi asos.

Tarbiyaviy soatlar – bilim yurti sharoitida darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning asosiy shakllaridandir.

Tarbiyaviy maqsad – fan asoslarini o'zlashtirish orqali

uning mazmunida yotgan g'oyalar, dunyoqarashlar ta'sirida o'zining shaxsiy sifatlarini, iymon-e'tiqodlarini shakllantirishni ko'zlashdir.

Tarbiyaviy jarayon – rivojlanib borayotgan avlodning katta yoshdagilar tajribasini egallab borish jarayoni bo'lib, insonlarning rivojlanishini boshqarish hamda ularning shaxsiy hislatilari shakllanishiga zarur sharoitlar yaratib beradi.

Nazorat uchun savollar:

I. Sinf rahbari va guruh murabbiysining asosiy vazifalariga qaysi vazifalar kiradi?.

2. Sinf rahbari va guruh murabbiysiga qanday talablar qo'yiladi?.

3. Sinf rahbari va guruh murabbiysining ishlari tizimi qay darajada tashkil etilishi kerak?

4. Sinf rahbari va guruh murabbiysi qanday tashkiliy-pedagogik ishlarni amalga oshiradi?



2-mavzu: Boshlang'ich sinflarda aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasining didaktik printsiplari

Reja:

1. Ta'limning metodologik asoslari.
2. Zamonaviy didaktika konsepsiyasi.
3. Sharq mutafakkirlarining didaktika haqidagi fikrlari.
4. Ta'lim turlari va ularning tavsifi. Ta'lim qonuniyatlari va tamoyillari.

***

Tayanh tushunchalar: Ta'limning metodologik asoslari, zamonaviy didaktika, ta'lim turlari, ta'lim qonuniyatlari, didaktikaning vazifalari

***

Didaktika haqida tushuncha.

Insonning faoliyatida o'qitish har doim juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Ta'lim tasodifiy, intuitiv xususiyatga ega bo'lganda ham va asosan tasodifan axborotlarni berish hamda taqlid qilishdan iborat bo'lganda ham shunday bo'lgan;

keyinchalik ham, ta'lim maqsadga muvofiq muntazam va rejalashtirilgan jarayonga aylanganda, maktab paydo bo'lganida ham shunday bo'lgan. Biroq uzoq vaqt davomida ta'limni nazariy tahlil qilish va o'rganish ishlari olib borilmadi, shuning uchun oz nazariyasiga ega bo'lmadi. Faqatgina XVII asr bu sohada muhim o'zgarishlar olib keldi: aynan o'sha paytda ta'lim alohida nom oldi va tarixda birinchi didaktik faoliyatning

ilmiy asoslangan tizimiga asos solindi.

Didaktika so'zi yunoncha didaktikos "o'rgatuvchi", didasko esa – "o'rganuvchi" ma'nosini bildiradi.

Bu so'z 1613 yili Germaniyada nemis pedagogi Volfgang Ratke (1571-1635 yillar) tomonidan kiritildi.

Bu tushunchani shunga o'xshash usulda buyuk chex pedagogi Yan Amos Komenskiy (1592-1670 yillar) "Buyuk didaktika" nomli mashhur asarida tilga oladi. Lekin Komenskiy "didaktika bu faqat ta'limgina emas, balki tarbiyalash ham", deb ta'kidlaydi. Mazkur asarda olim ta'lim nazariyasining muhim masalalari: ta'lim mazmuni, ta'limning ko'rgazmaliligi, ketma-ketligi kabi tamoyillari, sinf-dars tizimi borasida so'z yuritadi.

Didaktikaning predmeti, funksiyalari va vazifasi.

Pedagogik fan o'qitish va tarbiyalashni ularning yaxlitligi va birligida o'rganadi. Ikki faoliyatning har birining mohiyatini aniq bayon etish uchun ta'lim nazariyasi (didaktika) va tarbiya nazariyasini ajratib ko'rsatadilar.

Hozirgi davrda didaktika o'qitishning mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllarini ilmiy asoslab beruvchi pedagogika sohasi sifatida tushuniladi.

Umumiy didaktikadan tashqari xususiy didaktikalar yoki alohida fanlar bo'yicha ta'lim metodikasi deb ataluvchi didaktikalar ham mavjud.

Ularning mazmuni ta'limning ma'lum bosqichlarida u yoki bu fanlarni o'rganish va ta'lim berishning nazariy asoslarini belgilaydi.

Didaktika – bu pedagogik fan bo'lib, u ta'limning nazariy jihatlarini o'rganadi. Har bir o'qituvchi didaktika asoslarini bilishi zarur. Didaktika predmetini aniqlash bo'yicha turli qarashlar ilgari surilgan.

Qarashlarning turlicha bo'lishi didaktikaning metodologik kategoriyalarini aniq ajratilmaganligi bilan bog'liq.

Ko'pchilik olimlar ta'lim obyekt deb o'qitish jarayonining maqsadi, mazmuni, qonuniyatlari, metodlari va tamoyillarini

ko'rsatadilar.

Didaktika ta'limni ijtimoiy tajribani berish vositasi sifatida e'tirof etadi. Ta'lim yordamida yoshlarni hayotga tayyorlash amalga oshiriladi. Ta'limiy faoliyatini tashkil etishda o'qituvchi – o'quvchi, o'quvchi – o'quv materiali, o'quvchi - boshqa o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlar yuzaga keladi.

Pedagogik adabiyotlarda ulardan qaysi biri didaktika uchun asosiy hisoblanishi kerakligi borasida ham turli fikrlar keltiriladi hamda o'quvchining o'quv materialiga bo'lgan munosabati, ya'ni, bilimlarni o'rganish munosabatini asosiy deb e'tirof etuvchi qarashlar soni nisbatan ko'p.

Darhaqiqat, o'qish, o'rganishi ta'lim jarayonining ajralmas xususiyatidir. Ta'limga psixologiya nuqtai nazaridan yondashilsa, ushbu munosabatning ustuvorligiga shubha qolmaydi. Biroq, ta'limga pedagogik, ya'ni, ijtimoiy tajribani berish, o'rgatish nuqtai nazaridan qaralsa faoliyat uchun asosiy sanaluvchi munosabat – ikki shaxs (o'quvchi va o'qituvchi) o'rtasidagi munosabatlar yetakchi o'rin egallashi lozim ekanligi anglanadi.

Didaktika predmetini mohiyatini ochishga xizmat qiluvchi yana bir qarash ta'lim-tarbiya jarayonini yaxlit o'rganish zarurligini ilgari suradi. Ta'limning tarbiyaviy vazifalari o'quvchining bilimni o'zlashtirishlarini ta'minlabgina qolmay, shaxs xususiyati, uning rivojlanishi, ma'lum ma'naviy-axloqiy sifatlarni o'zlashtirishi, fe'l-atvori, xulqini tarbiyalash uchun zarur shart-sharoitni yaratishdan iborat.

Didaktikaga ta'limning mazmunli va protsessual jihatlarini birgalikda o'rganish xosdir. Amaliyotni qayta tashkil etish va takomillashtirish masalalarini nazarda tutgan holda didaktika ta'limni faqatgina o'rganish obyekti sifatidagina emas, balki ilmiy asoslangan loyihalashtirish obyekti sifatida qaraydi.

Umumiy didaktikaning predmeti dars o'tish (o'qituvchi faoliyati) va bilim olish (o'quvchining o'rganish faoliyati)ning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligi hisoblanadi.

Didaktikaning vazifalari quyidagilardan iborat:

- ta'lim jarayonlari va ularni amalga oshiri shartlarini ta'riflash va tushuntirish;
- ta'lim jarayonini yanada mukammal tashkil etish, ya'ni, ta'lim tizimlari va texnologiyalarini ishlab chiqish;
- ta'lim jarayoni uchun xos bo'lgan umumiy qonuniyatlarni aniqlash, omillarini tahlil qilish va ta'riflash.

Didaktika nazariy va bir vaqtning o'zida meyoriy-amaliy fan. Didaktikaning ilmiy-nazariy vazifasi ta'limning mavjud jarayonlarini o'rganish, uning turli jihatlari o'rtasidagi bog„liqliklar, ularning mohiyatini ochib berish, rivojlanish tendensiyalari va kelajagini aniqlashdan iboratdir.

O'zlashtirilgan nazariy bilimlar ta'lim amaliyotini yo'naltirish, ta'limini jamiyat tomonidan qo'yilayotgan ijtimoiy talablarga muvofiq takomillashtirishga imkon beradi. Ta'lim mazmunini anglab olish, ta'lim tamoyillari, ta'lim metod va vositalarini qo'llash meyorlarini aniqlash asosida didaktika amaliy-meyoriy hamda konstruktiv-texnologiya vazifani bajaradi.

Didaktikaning tushunchaviy tizimi va asosiy kategoriyalari.

Muayyan fanga xos bo'lgan tushunchalarda insoniyat tomonidan ijtimoiy taraqqiyot jarayonida to'plangan bilimlar aks etadi. Mavjud ilmiy tushunchalar ikki asosiy guruhga ajratiladi:

1) falsafiy tushunchalar;
2) xususiy ilmiy, ya'ni, muayyan fangagina xos bo'lgan tushunchalar.

Didaktika uchun "umumiy va alohida", "mohiyati va hodisa", "qarama-qarshilik", "bog'liqligi" kabi va boshqa falsafiy tushunchalar ham muhim ahamiyatga ega. Didaktika tomonidan foydalaniladigan umumfan tushunchalari orasida "tizim", "struktura", "vazifa", "element" kabilar aloshida o'rin tutadi. Pedagogikaga xos didaktik tushunchalar sirasiga quyidagilar

kiradi: "ta'lim", "dars berish", "bilim olish", "ta'lim jarayoni", "o'quv fani", "ta'lim mazmuni" va boshqalar.

Didaktikada turdosh fanlarga xos bo'lgan tushunchalar ham qo'llaniladi: "idrok etish", "o'zlashtirishi", "mahorat", "rivojlanish" va boshqalar (psixologiya) hamda "boshqarish", "qayta aloqa" (kibernetika).

Didaktikaning tushunchali-terminologik tizimi muntazam yangilanib va to'ldirilib borilmoqda.

Didaktikaning asosiy kategoriyalari quyidagilardan iborat: dars o'tish, bilim olish, ta'lim, bilim, ko„nikma, malaka, ta'lim maqsadi, mazmuni, ta'lim jarayoni, ta'lim jarayonini tashkil etish, ta'lim turlari, shakllari, metodlari va vositalari, ta'lim natijasi.

So'nggi paytlarda asosiy didaktik kategoriyalar sirasiga ta'limning didaktik tizimi va ta'lim texnologiyasi kabi tushunchalarni ham kiritish taklifi ilgari surilmoqda.

Bilim olish – idrok etish, o'rganish, mashq qilish va egallangan tajriba asosida xulq va faoliyatda yangi shakllarning yuzaga kelishi, mavjud bilimlarining o'zgarib, takomillashib, boyib borish jarayoni.

Ta'lim – qo'yilgan maqsadga erishishga yo'naltirilgan o'qituvchi va o'quvchining maqsadli o'zaro harakatlari. Ularning birgalikdagi faoliyati ikki tomonlama aloqani tashkil etish jarayonidir. Ta'lim berish asosida bolani umumiy rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratiladi. Ta'lim - o'qitish jarayonida o'quvchilar tomonidan egallangan bilim, ko'nikma, malaka, fikrlash tizimi.

Bilim – tizimlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar majmui bo'lib, ular o'quvchining ongida borliq tushunchalari, sxemalar, ma'lum obrazlar ko'rinishida aks etadi.

Ko'nikma – shaxsning muayyan faoliyatni tashkil eta olish qobiliyati.

Malaka – muayyan harakat yoki faoliyatni bajarishning avtomatlashtirilgan shakli.

Maqsad (o'qish, bilim olish maqsadi) – ta'limning nimaga intilayotgani, uning urinishlari yo'naltirilgan.

Mazmun (ta'lim, bilim olishning mazmuni) – ta'lim jarayonida o'quvchi egallab olishi zarur bo'lgan ilmiy bilimlar, amaliy ko'nikma va malakalar, faoliyat hamda fikrlash usullarining tizimi.

Tashkil etish – didaktik jarayonni aniq mezonlar asosida tartibga solish, qo'yilgan maqsadni amalga oshirish uchun unga zarur shaklni berish.

Shakl (yunoncha, forma - tashqi ko'rinishi, qobig'i) – o'quv jarayonining mavjudligini ta'minlovchi usul, uning ichki mantig'i, mohiyati va mazmuni uchun qobig'idir. Shakl sinfdagi o'quvchilarning soni, ta'lim o'rni hamda vaqti, uni amalga oshirish tartibi va shu kabilarga bog'liq bo'ladi.

Metod (yunoncha metodos – yo'li, usuli)- ta'lim maqsadi va vazifasiga erishish (uni amalga amalga oshirish) yo'li.

Vosita- o'quv jarayonini predmetli ta'minlash (pedagogning nutqi, darslik, o'quv qo'llanmalari, ko'rsatmali qurollar, sinfdagi jihozlar, texnik vositalar, o'quv qurollari va boshqalar vosita hisoblanadi).

Natija (ta'lim mahsuli) – ta'lim nimaga erishishini qayd etuvchi tushuncha, o'quv jarayonining oqibati, belgilangan maqsadni amalga oshirish darajasi.

Didaktik nazariya (konsepsiya)lar va ularning falsafiy asoslari.

Ta'lim jarayoni psixologik-pedagogik konsepsiyalar (ular aksariyat hollarda didaktik tizimlar ham deb ataladi) asosida tashkil etiladi.

Didaktik tizim (yunoncha systema – yaxlit, qismlarda tashkil topgan, birlashtirish) – ma'lum mezonlari bo'yicha yaxlit holatni belgilash, ajratib ko'rsatish demakdir. U ta'limning maqsadi, tamoyillari, mazmuni, shakli, metod va vositalarining birligi asosida tashkil etilgan tuzilmalarning ichki yaxlitligini ifodalaydi. Tadqiqotchilar mavjud didaktik konsepsiya (tizim)

larni umumlashtirib quyidagi guruhlarga ajratadilar:

1) *an'anaviy;*
2) *progressiv;*
3) *zamonaviy.*

Ta'lim nazariyasida Y.A.Komenskiy, I.Pestallotsi va I.Gerbartlarning didaktik konsepsiyalari muhim ahamiyatga ega.

An'anaviy didaktik tizimning yaratilishi nemis faylasufi, psixolog va pedagog I.F.Gerbart (1776-1841 yillar) nomi bilan bog'liq. U Y.A.Komenskiyning sinf-dars an'anaviy tizimini tanqidiy nuqati nazardan qayta asoslab, etika va psixologiyaning nazariy yutuqlariga tayangan holda ta'lim tizimini yaratdi. I.F.Gerbart ta'lim tizimining asosiy belgisi quyidagilardan iborat.

O'quvchilarning intellektual rivojlanishini ta'minlash maktabning asosiy vazifasi; bolani tarbiyalash esa oilaning vazifasidir.

Progressiv (pedotsentrik) tizim bolaning bilim olishida faoliyatining asosiy rol o'ynashini e'tirof etadi. Mazkur tizim asosini D.Dyui tizimi, G.Kershteynning mehnat maktabi, V.Lay nazariyalari tashkil etadi.

Zamonaviy didaktik tizim. XX asrning 50-yillarida psixolog va pedagog B.Skinner qismlarga bo'lingan axborotlarni yetkazish, bu jarayonni muntazam nazorat qilish asosida materialni o'zlashtirishda samaradorlikka erishish g'oyasini ilgari suradi. Mazkur g'oya keyinchalik dasturiy ta'lim deb ataladi. Keyinchalik N.Krauder nazorat natijalariga qarab o'quvchiga mustaqil ishlash uchun turli materiallarni taklif etadigan tarmoqlashtirilgan dasturlarni yaratdi.

D.Dyuining nazariy g'oyalari muammoli ta'limning asosi bo'lib qoldi. Bugungi kunda muammoli ta'lim deb nomlanuvchi, ushbu g'oya o'qituvchi rahbarligi ostida muammoli vaziyatni yaratish va ularni hal etishda o'quvchilarning faollik va mustaqilliklarini ta'minlashga erishishni nazarda tutadi.

Muammoli ta'limning vazifasi faol o'rganish jarayonini rag'batlashtirish, o'quvchilarda fikrlash, tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishdan iboratdir.

L.V.Zankovning (1901-1977 yillar) rivojlantiruvchi ta'lim konsepsiyasi XX asrning 50- yillarida keng tarqaldi. Uning g'oyalarini amalga oshirish ta'lim jarayoniga insonparvarlik g'oyasini singdirish, shaxsni barkamol rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga imkon beradi.

Psixolog L.S.Vigotskiy (1896-1934 yillar) tomonidan 30-yillarda ilgari surilgan "Yaqin rivojlanish zonasi" g'oyasi ham muhim ahamiyatga ega. Unga ko'ra bola kattalar yordamida bilim olib, o'zi mustaqil bajara olmagan ishlarni bajara boshlaydi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunida ta'lim va tarbiyani insonparvarlik, demokratik g'oyalarga muvofiq tashkil etilishi e'tirof etilgan.

Ta'limni insonparvarlashtirish ta'lim jarayonida o'quvchi shaxsini hurmat qilish, uning sha'ni, obro'si, qadr-qimmatini poymol etmaslik, mavjud iste'dodini rivojlantirishni nazarda tutadi. Demokratlashtirish esa pedagogik jarayonda rasmiyatchilikka yo'l qo'ymaslik, ta'lim dasturlarini tanlashda o'quvchilarning fikrlarini inobatga olishni ifodalaydi.

Respublika uzluksiz ta'lim tizimi ijtimoiy buyurtmani bajarishga xizmat qiladi, barkamol shaxs va yetuk mutaxassisni tarbiyalash vazifasini bajaradi.

Zamonaviy pedagogikada ta'lim paradigma (modeli) lari. Pedagogik paradigma (yunoncha paradigma - misol, namuna) – pedagogika fani rivojining har bir bosqichida ta'limiy va tarbiyaviy muammolarni hal etish namunasi (modeli, standarti) sifatida ilmiy pedagogik hamjamiyat tomonidan e'tirof etilgan nazariy hamda metodologik ko'rsatmalar to'plami bo'lib, u ta'limning konseptual modeli sifatida qo'llaniladi. Bugungi kunda ta'limning quyidagi paradigmalari keng tarqalgan:

1. An'anaviy – konservativ (bilim paradigmasi)

2. Ratsionalistik (bixevioristik)
3. Fenomenologik (gumanistik) paradigma.
4. Texnokratik.
5. Ezoterik.

Ayni vaqtda ta'lim paradigmalarini belgilashga nisbatan ikki xil yondashuv mavjud:

1. Qadriyatli (aksiologik) yondashuv - madaniyat inson hayotining mazmuni sifatida tushuniladi.

2. Faoliyatli yondashuvga asosan madaniyat moddiy va ma'naviy boyliklarini yaratishga yo'naltirilgan faoliyatning sinalgan usullari sifatida talqin etiladi.

3. Shaxsiy yondashuv - madaniyat muayyan shaxs timsolida namoyon bo'ladi.

Madaniyatga nisbatan turlicha yondashuvlarning mavjudligi turlicha paradigmalarning yaratilishiga zamin yaratadi.

Har bir paradigma bir qator ta'limiy muammolarni hal etishga yo'naltiriladi. Xususan:

- ijtimoiy institut sifatida o'quv muassasalarining vazifalari;
- ta'limning samarali tizimi;
- o'quv yurtlari oldida turgan eng muhim, ustuvor masala;
- ta'limning ijtimoiy ahamiyatli maqsadlari;
- muayyan bilim, ko'nikma va malakalarning qimmatli hisoblanishi. Ayni vaqtda quyidagi paradigmalar mavjud:

1. **Bilim olishning an'anaviy paradigmasi** (modeli) (J.Majo, L.Kro, J.Kapel va boshqalar)

Unga ko'ra ta'limning asosiy maqsadi - "Bilim, qanchalik qiyin bo'lmasin bilim olish". An'anaviy paradigma maktabning maqsadi yosh avlodga individual rivojlanishi hamda ijtimoiy tartibni saqlab qolishga yordam beruvchi madaniy meroslarning muhim elementlari – bilim, ko'nikma va malakalar, ilg'or g'oyalar va qadriyatlarni saqlab qolish hamda ularni yoshlarga yetkazish muhim ekanligini yoritadi. Bilim olish paradigmasining asosiy

maqsadi: ta'lim olish, taraqqiyot va madaniyatning eng muhim elementlarini avloddan-avlodga yetkazish.

2. **Ratsionalistik (bixevioristik) paradigma** (P.Blum, R.Gane, B.Skinner va boshqalar). Ratsionalistik paradigma diqqat markazida ta'lim mazmuni emas, balki o'quvchilar tomonidan turli bilimlarni o'zlashtirilishini ta'minlovchi samarali usullari yotadi. Ta'limning ratsionalistik modeli asosini B.Skinerning ijtimoiy injeneriya bixevioristik (inglizcha behavior - xulqi) konsepsiyasi tashkil qiladi.

Maktabning maqsadi – o'quvchilarda g'arb madaniyati ijtimoiy qoidalari, talablari va ko'zlagan maqsadlariga mos keladiganmoslashtiruvchi"xulqiyrepertuar"nishakllantirishdir. Shu bilan bir vaqtda, "xulqi" atamasi bilan "insonga xos hamma ta'sirlanishlar – uning fikrlari, sezgi va harakatlari" ifodalanadi (R.Tayler).

Bunda ta'limning asosiy metodlari, o'rgatish, trening, test sinovlari, individual ta'lim, tuzatishlari bo'lib qoladi. Buning oqibatida, ta'limninggina emas, balki dars berishning ham ijodiy xarakterini aniqlash muammosi muhokama qilinmaydi.

P.Blum barcha o'quvchilar faqat o'zlashtiribgina qolmay, balki muvaffaqiyatli o'qishlari mumkin deb hisoblaydi. O'quvchining optimal qobiliyatlari ma'lum sharoitlarda, o'quvchiga ta'lim berish natijasi uning sur'ati bilan aniqlanadi. Olimning fikricha, o'quvchilarning 95 % i ta'lim muddatlariga bo'lgan cheklashlar olib tashlanganda o'quv kursining butun muzmunini o'zlashtirib olishga qodirlar. Ana shu nuqtai nazardan o'quvchilar tomonidan bilimlarning muvaffaqiyatli o'zlashtirishini ta'minlovchi metodika ishlab chiqiladi, uning mohiyati quyidagichadir:

1. Butun sinf yoki kurs uchun to'la o'zlashtirish etaloni, mezonnini aniq belgilab olish asosida o'qituvchi ta'lim yakunida erishilishi kerak bo'lgan aniq natijalarning ro'yxati va unga muvofiq keluvchi testlarni tuzadi.

2. O'quv birliklari, ya'ni, o'quv materiallarining yaxlit

bo'limlari ko'rsatiladi, ularni o'zlashtirish natijalari aniqlanadi, yakuniy bahoga ta'sir ko'rsatmaydigan navbatdagi testlar tuziladi. Bu testlarning vazifalari – tuzatish, korreksiyalashdan iborat.

3. To'la o'zlashtirishga yo'naltirilgan har bir o'quv kurs materiallarini o'zlashtirish darajasini baholash uchun test sinovlarini o'tkazish. Bu o'rinda har bir o'quvchiga baho va ta'lim maqsadlarining ahamiyatini tushuntirish muhim.

Predmetlarni bo'sh va o'rtacha o'zlashtiruvchi o'quvchilarning qobiliyatlarini jadal rivojlantirish P.Blum konsepsiyasining asosiy mazmunini tashkil etadi.

Turli mamlakatlarning (Avstriya, Belgiya, AQSh va boshqalar) ta'lim tizimlari tajribasi ratsionalistik (bixevioristik) paradigma g'oyalariga muvofiq ish ko'rilganda 70 % o'quvchilar yuqori natijalarni qayd etganliklarini ko'rsatadi.

Yuqorida qayd etilgan ta'lim yo'nalishlari o'zida insonparvarlik g'oyalarini ifoda etmagan, ular bola dunyoqarashining rivojlanishi, shaxsning rivojlanishida shaxslararo munosabatlarning muhim o'rin tutishini nazarda tutmaydi.

3.Gumanistik (fenomenologik) paradigmada (A.Maslou, A.Kombs, K.Rodjers, L.S.Vigodskiy va boshqalar) o'quvchini erkin shaxs, ijtimoiy munosabatlar subyekti sifatida e'tirof etib, uning o'ziga xos rivojlanish talablariga egaligini ta'kidlaydi.Ular bolani rivojlantirish maqsadida uni shaxslararo munosabatlar jarayoniga yo'naltiradi. Ta'limning fenomenologik (fenomen – yunoncha phainomenon – hisoblangan, ya'ni, mashhur, alohida nodir odam) modeli o'quvchilarning individual- psixologik xususiyatlarini hisobga olib, ularning talab va qiziqishlariga hurmat bilan munosabatda bo'lishni ko'zda tutadi. Uning vakillari o'quvchini nodir shaxs deb hisoblaydilar. Gumanistik paradigma doirasida faoliyat olib boruvchi har bir ta'lim tizimi ijodiy rivojlanadi va o'quvchi hamda o'qituvchining erkinligi va ijodkorligini yoqlaydi.

Gumanistik paradigma g'oyalari 1991 yildan keyin respublika uzluksiz ta'lim tizimiga joriy etila boshlandi. Paradigmaning diqqat markazida o'quvchining barkamol rivojlanishi, uning intellektual ehtiyojlari, "erkin fikrlaydigan shaxsni tarbiyalash" masalasining ijobiy hal etilishi yotadi. Ayni vaqtda respublika ta'lim muassasalarida qo'yidagi g'oyalarga amal qilinmoqda: "Demokratik jamiyatda bolalar, umuman har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi. Agar bolalar erkin fikrlashga o'rganmasa, berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar. Mustaqil fikrlash – ham katta boylikdir".

4. Ezoterik paradigma (yunoncha esoterikos – ichki, sirli, yashirin, faqatgina biluvchilar uchun mo'ljallangan insonning dunyo bilan o'zaro aloqalari yuksak darajalarini aks ettiradi). Modelning mohiyati haqiqatga abadiy va o'zgarmas, doimiy sifatida munosabatda bo'lishdan iboratdir. Paradigma tarafdorlari haqiqatni bilib bo'lmaydi deb ta'kidlaydilar. Unga faqatgina fahmlash asosida erishish mumkin. Pedagogik faoliyatning oliy maqsadi koinot bilan muloqot, o'quvchining tabiiy kuchlarini ozod etish va rivojlantirishdan iborat. Shu bilan birga, o'qituvchining himoyalash vazifasi muhimdir, u o'quvchining mavjud imkoniyatlarini uni ma'naviy, jismoniy, psixik jihatdan rivojlantirishga yo'naltiradi.

Ilmiy-texnik, texnokratik paradigmaning asosiy maqsadi amaliyotni takomillashtirish asosida o'quvchilarga "aniq" ilmiy bilimlarni berish va ularning o'zlashtirishlarini ta'minlash. "Bilim - kuchdir", shuning uchun insonning qimmati uning o'rganish, bilim olish, imkoniyatlari bilan belgilanadi. Odam o'z-o'zidan qimmatli emas, u faqatgina ma'lum (o'rtacha, standartlashtirilgan) bilim yoki xulq egasi sifatida qimmatga ega g'oyalari mazkur paradigmaning asosini tashkil etadi.

So'nggi yillarda noinstitutsional paradigma rivojlana boshladi. U ta'limni ijtimoiy institutlar, ya'ni, maktab va oliy o'quv yurtlardan tashqarida tashkil etish g'oyasini ilgari suradi. Bu ta'lim "tabiatda" - Internet, "ochiq maktablar" – kompyuterlar

vositasida ta'lim dasturlariga (masofadan o'qitish) muvofiq o'qitish samarali deya hisoblaydi.

Nazorat uchun savollar:

1. "Didaktika" tushunchasini ta'riflab bering. Didaktikaning predmeti va obyekti nimalardan iborat?
2. Didaktikaning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
3. Didaktikaning asosiy kategoriyalari qaysilar?
4. Zamonaviy didaktik tizimning o'ziga xos belgilari nimalardan iborat? Pedagogik paradigma nima? Ta'limning asosiy paradigmalarini aytib bering.



3-mavzu. Boshlang'ich ta'limda aniq va tabiiy fanlarni o'qitishda o'quv dasturi, darslik, multimedia ilovali metodik qo'llanmalar. Ulardan foydalanish texnologiyasi

Reja:

1. Aniq va tabiiy fanlarini o'qitish qonuniyatlari va tamoyillari;
2. Boshlang'ich fani o'qituvchisining o'quv-me'yoriy hujjatlari va metodik ishlari, ularni rejalashtirish, tashkil etish va tayyorlash metodikasi;
3. Mutaxassislik fanlarini o'qitish mazmunini belgilab beruvchi me'yoriy hujjatlar;
4. Fanni o'qitish metod va vositalari, aniq va tabiiy fanlarni o'qitish jarayonida axborot texnologiyalari, dastur, multimedia, ilovali qo'llanmalardan foydalanish.

***

Tayanch tushunchalar: Aniq va tabiiy fanlarini o'qitish qonuniyatlari, boshlang'ich fani o'qituvchisining o'quv-me'yoriy hujjatlari, fanni o'qitish metod va vositalari, multimedia, ilovali qo'llanmalardan foydalanish

***

Mamlakatimizda inson kapitaliga yo'naltirilayotgan investitsiyalarning yildan-yilga o'sib borishi, axborot kommunikatsiya texnologiyalari jadallik bilan rivojlanayotgan,

globallashuv, dunyo bozorida raqobat tobora kuchayib borayotgan bir davrda, demokratik taraqqiyot, modernizatsiya va yangilanish borasida belgilangan maqsadlarga erishishda eng muhim qadriyat va hal qiluvchi kuch bo'lgan bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash muhim omil bo'lmoqda. Jamiyatning, axborot muhitining va mehnat bozoridagi holatning jadal rivojlanishi natijasida reproduktiv ta'lim tizimi davr talabiga javob bermay qoldi. Bu esa matematikani o'qitishning yangicha yondashuvlarini ishlab chiqilishini talab qilmoqda. Faqat bilim olishga yo'naltirilgan ta'lim o'tgan zamonda qolmoqda. Vatanimizning gullab-yashnashi, barqaror rivojlanishi ma'lum bir darajada yoshlarning chuqur bilimga, mustahkam ishonch-e'tiqodga va umuman, komil inson bo'lishlariga bog'liq. Bu haqda Prezidentimiz shunday deb ta'kidlagan:

«Komil inson deganda biz, avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'la oladigan, bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz. Ongli, bilimli odamlarni oldi-qochdi gaplar bilan aldab bo'lmaydi. U har bir narsani aql, mantiq tarozisiga solib ko'radi. O'z fikr-o'yi, xulosasini mantiq asosida qurgan kishi yetuk odam bo'ladi»

Jamiyatimiz oldida vujudga kelayotgan muammolarni hal etishga faol kirisha oladigan, sharoitni yaxshi tushunadigan, keng qamrovli fikrlaydigan, hayotda uchraydigan kundalik va kasbiy muammolarni tushunadigan, tahlil qila oladigan, taqqoslay oladigan, amaliy hal eta oladigan insonlarga bo'lgan talab qo'yilmoqda. Barchamizga ma'lumki, matematika fani insonning aqlini o'stiradi, uning diqqatini rivojlantiradi, ko'zlangan (rivojlantirilgan) maqsadga erishish uchun o'zida qat'iyat va irodani tarbiyalaydi, o'zidagi algoritmik tarzdagi tartib- intizomlilikni ta'minlaydi va eng muhimi uning tafakkuri kengayadi. Prezidentimiz juda o'rinli ta'kidlab o'tganlaridek, «chuqur tahlil, mantiqqa asoslanmagan fikr odamlarni chalg'itadi. Faqat bahs-munozara, tahlil mevasi bo'lgan

xulosalargina bizga to'g'ri yo'l ko'rsatishi mumkin» Demak, zamonaviy inson mustaqil qaror qabul qila oladigan, jamoada ishlay oladigan, tashabbuskor, yangiliklarga moslasha oladigan, mashaqqatli va asabiy xolatlarga chidamli, bu xolatlardan chiqa oladigan bo'lishi kerak. Hamma bunday sifatlarni matematika ta'limida kompetentsiyaviy yondoshuvdan foydalanish asosida erishish mumkin.

Bugungi kunda iqtisodiy rivojlangan davlatlarda kompetentsiyaviy yondoshuv ta'lim mazmunini modernizatsiya qilib, yangicha o'qitish yo'nalishlaridan biriga aylangan. Bu davlatlardagi umumiy ta'limning yangicha mazmunining asosini o'quvchilarning tayanch kompetentsiyalarini hosil qilish va rivojlantirish tashkil etadi. Ta'limga kompetensiyaviy yondoshuv eskirib qolgan "bilim, ko'nikma va malakani o'zlashtirish" kontsepsiyasiga qarshi o'laroq, kasbiy, shaxsiy va jamiyatdagi kundalik hayotda uchraydigan holatlarda samarali harakat qilishga imkon beradigan turli ko'rinishdagi malakalarni o'quvchilar tomonidan egallashni nazarda tutadi. SHunday qilib, kompetentsiyaviy yondashuvda matematik ta'limning asosini amaliy, tadbiqiy yo'nalishlarini kuchaytirishga qaratiladi.

Bundan tashqari, tuzilayotgan ta'lim standartlari o'quvchilarning oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olishlari, turli kasb egalari bo'lishlari va har tomonlama faol fuqaro bo'lishlari uchun zarur bo'ladigan sifatlarni aks ettirishi kerak. Mamlakatimizning dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashuvi, fan-texnika va texnologiyalarning rivojlanishi yosh avlodning o'zgaruvchan dunyoda raqobatbardosh bo'lishi fanlarni mukammal egallashni taqozo etadi, bu esa O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimiga matematikani o'rgatish bo'yicha xalqaro standartlarni joriy etish orqali ta'minlanadi. Standart loyihasi tuzilishda quyidagi umume'tirof etilgan xalqaro me'yorlardan foydalanildi:

1) Yevropa Kengashining "Uzluksiz ta'lim uchun tayanch kompetentsiyalar – umumevropa standartlari strukturasi"

to'g'risidagi hujjati («Key competences forlifelong learning — a European Reference Framework»

2) Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotining (Organisation for Economic Cooperation and Development (OECD)) Xalqaro o'quvchilarni baholash Dasturi (Programme forInternational Student Assessment (PISA)) standartlari 3 .

3) Ta'lim natijalarini baholash bo'yicha Xalqaro Assottsiatsiyasining (International Association forthe Evaluation of Educational Achievement (IEA)) Xalqaro matematika va aniq va tabiiy fanlarning tendentsiyalarini o'rganish markazi (Trends in international mathematics and science study Center (TIMSS)) standartlari

5. 1-hujjatning ayrim holatlarini nazarda tutgan holda Xalq ta'lim vazirligi qoshidagi Respublika ta'lim markazi tavsiyasiga ko'ra matematika bo'yicha quyidagi tayanch kompetentsiyalarga erishishga qaratilgan ta'lim standartining yangi avlodini yaratish:

- Kommunikativ kompetentsiya
- Axborot bilan ishlash kompetentsiya ;
- Shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish kompetentsiya ;
- Ijtimoiy faol fuqarolik kompetentsiya.

2 Recommendation of the European Parliament and of the Council of 18 December 2006 "On key competences for lifelong learning" (2006/962/EC)

3 PISA 2012 Assessment and Analytical Framework (mathematics, reading, science,problem solving and financial literacy.

4 Timss 2015 Assessment Frameworks. International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA).

Umummadaniy kompetentsiyalar

- Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetentsiya
- Kommunikativ kompetentsiya:

•A1

•matematikaga oid atamalarning ma'nosini tushunib to'g'ri o'qiy olish; ·so'z va gaplarni bog'lagan holda o'z fikrini aniq va ravshan ifodalay olish; ·fikrni mantiqiy izchillikda ifodalay olish;

•matematik matn ma'nosini qayta so'zlab bera olish;

•matematik qoidalarni ifodali ayta olish.

•matematikaga oid audiomatn, videotasvirlarni tinglab tushuna olish va tegishli munosabat bildira olish.

•A1+

•matematikaga oid audiomatn, videotasvirlarni tinglab tushuna olish vamazmunini tushuntira olish.

•Axborotlar bilan ishlash kompetentsiyasi:

•A1

•tavsiya etilgan manbalardan axborotni izlab topa olish, zarur bo'lsa uni boshqa ko'rinishlarga (matn, jadval, sxema va h.k.) o'tkaza olish;

•diagrammalar, jadvallar, chizmalar ko'rinishida berilgan statistik ma'lumotlarga asoslanib turli obyekt va hodisalarni taqqoslay olish;

•statistik ma'lumotlarning ko'rinishlarning bir turdan boshqa ko'rinishga o'tkaza olish.

•A1+

•manbalardan axborotni izlab topa olish, uni boshqa ko'rinishlarga (matn, jadval, sxema va h.k.) o'tkaza olish.

•O'zini o'zi rivojlantirish kompetentsiyasi:

•A1

•o'qituvchi bilan birgalikda o'quv masalasini (maqsadini) topa olish, ifodalay olish va qismlarga ajrata olish;

•o'quv faoliyat natijasini tahlil qila olish, yo'l qo'yilgan xato va noaniqliklarni topa olish, ularni tuzata olish;

•o'qituvchi bilan birgalikda olingan natijalarni boshqalar foydalanishi uchun oson ko'rinishda taqdim eta olish;

•kundalik vaziyatlarda mavjud bilim va ko'nikmalarni

qo'llay olish;

•o'qish va yangi bilimlarni egallashga qiziqa olish;

•masala yechish orqali kundalik vaziyatlarga nisbatan o'zining ijobiy estetik-emotsional munosabatini shakllantira olish.

•A1+

•masala yechish orqali real dunyodagi vaziyatlarga nisbatan o'zining ijobiy estetik- emotsional munosabatini shakllantira olish.

•Ijtimoiy faol fuqarolik kompetentsiyasi:

•A1

•atrofdagilar bilan o'zaro muloqot chog'ida odob-axloq qoidalariga rioya qila olish va guruhda ishlay olish;

•muammo va tushunmovchiliklar ro'y bergan paytlarda o'zini tutishi to'g'risida to'g'ri qaror qabul qila olish.

•A1+

•matematika har bir insonning kundalik hayotda uchraydigan muammolarni hal qilish vositasi ekanligini tushunish

•Milliy va umummadaniy kompetentsiya:

•A1

•jamoat joylaridagi odob-axloq qoidalari va an'analarni o'zlashtirish.

•sodda kundalik hodisalarni matematik tilda ifodalash usullaridan foydalana olish.

•A1+

•sodda real hodisalarni matematik tilda ifodalash usullarining samarali ekanligini tushuna olish.

•Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetentsiyasi:

•A1

•aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy rejalarni tuza olish; •murakkab bo'lmagan hisoblashlarda hisoblash

vositalardan va tayyor kompьyuter dasturlaridan foydalana olish;

•o'rganilgan matematik usullardankundalik vaziyatlarda mehnatni yengillashtirish, mehnat unumdorligini oshirish, qulay shart-sharoitga olib kelish maqsadida foydalana olish.

•A1+

•o'rganilgan matematik usullardan kundalik vaziyatlarda mehnatni yengillashtirish, mehnat unumdorligini oshirish, qulay shart-sharoitga olib kelish maqsadida samarali foydalana olish. Matematika mazmuniga oid umumiy kompetentsiya

•A1

•berilgan sonlarni va eng sodda kasrlarni o'qiydi, yozadi, taqqoslay oladi, tartibga solib, turli ko'rinishlarda tasvirlay oladi;

•sodda sonli ifodaning qiymatini og'zaki va yozma hisoblay oladi;

•sodda amaliy, matnli va mantiqiy masalalarni yecha oladi;

•tekislik va fazodagi sodda geometrik figuralarni tasavvur qiladi, taniydi va tasvirlay oladi;

•obyektlarni xossalari bo'yicha tartiblaydi va sodda kombinatsiyalar tuza oladi;

•sodda amaliy holatlarda tayyor jadvallarga ma'lumotlar kirita oladi, eng sodda diagrammalar shaklida tasvirlay oladi.

•A1+

•arifmetik hisob-kitob texnikasiga va juft-toqlikka oid qiziqarli, nostandart va matnli masalalarni yecha oladi;

•bo'yashlar, qoplashlar, qirqishlar, simmetriyaga oid sodda geometrik masalalarni yech oladi;

•sodda amaliy vaziyatlarda kombinatorik va mantiqiy masalalarni yecha oladi;

•elektron axborot manbalaridan turli ko'rinishdagi sodda matematik ma'lumotlarni izlab topadi, foydalana oladi.

Jamiyatning, axborot muhitining va mehnat bozorining jadal rivojlanishi natijasida reproduktiv ta'lim tizimi davr

talabiga javob bermay qoldi. Olinayotgan ma'lumotlarning keskin ko'payib borayotganligi sababli bu ma'lumotlarni qayta ishlab, undan foydalanish uchun yosh avlodga yetkazilishi kerak bo'lgan bilimlar ham taboro ortib bormoqda.

Bugungi kun o'qituvchisi oldida dars soatlarini oshirmay turib, oldindan rejalashtirilgan bilimlar bilan bir qatorda eng yangi, oxirgi axborot va ma'lumotlarni o'quvchilarga yetkazib berishga ulgurish muammosi turibdi. Faqat bilim olishga yo'naltirilgan ta'lim o'tgan zamonda qolmoqda.

Kompetentsiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim bu – o'quvchi o'quv jarayonida egallaydigan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatida qo'llay olish nuqtai nazaridan beriladigan ta'limdir. Kompetentsiyaviy yondashuvga asoslangan ta'limdan maqsad o'quvchini keng qamrovli fikr-mulohaza yuritadigan va muloqotga kirisha oladigan, ta'lim jarayonida egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatida qo'llay oladigan barkamol shaxs qilib yetishtirishdir. Umumta'lim maktablari oldiga, bir tomondan, tevarakatrofda sodir bo'layotgan jarayonlarni to'g'ri tushunadigan, ikkinchi tomondan, jamiyat hayotida faol ishtirok etib, o'z ijobiy ta'sirini o'tkaza oladigan har tomonlama ziyoli shaxsni tarbiyalash vazifasi qo'yilmoqda.

Ma'lumki, matematik savodxonlik barcha fanlarni, ayniqsa aniq fanlarni o'zlashtirishda muhim o'rin egallaydi. Bu jarayonda matematika fanining ahamiyati beqiyosdir. Matematika – fan va texnika taraqqiyotining asosiy omillaridan biri bo'lib, fan, madaniyat va kundalik hayotimizda alohida o'rin tutadi. Shuning uchun o'quvchilarning dars va darsdan tashqari faoliyatida keng ko'lamdagi matematika bilan shug'ullanishlar bo'lishi kerak. Bunda: – matematikaga xos go'zallik va jozibadorlikdan foydalanib har bir o'quvchiga mos ravishda rivojlantiruvchi mantiqiy faoliyat bilan shug'ullanish; – jadval, diagramma, grafik ko'rinishda berilgan axborotlarni o'qiy olish, jadvallar tuzish,

diagrammalar yasash, grafiklar chizish; – ommaviy axborot vositalarida berilayotgan diagramma, grafik ko'rinishdagi real sonli ma'lumotlarni tahlil etish ko'nikmalarini hosil qilish kerak bo'ladi.

Fanlararo bog'lanishda amaldagi til bilan bog'lanish uchun spetsifik vosita bo'lgan matematika tilini o'qitish printsipial ahamiyatga ega bo'ladi. Matematik savodxonlik va bu tildan unumli foydalana olish (gapning aniq mazmunini, gaplar orasidagi mantiqiy bog'lanishni bilish) fikrlashning aniqligi va tartibliligini ko'rsatadi. O'qituvchi va o'quvchining birgalikdagi harakati natijasida nimaga erishilganiga emas, balki bu natija qaysi yo'l bilan erishilganiga asosiy e'tiborni qaratish kerak.

Bunda:

- umumfan yo'nalishi darajasidagi o'qitish;

– matematik standartning o'rta maktab kursidagi bilimlarini egallash;

- matematik yo'nalishda;

– matematikani tabiiy fanlar bilan uyg'unlashgan xolda ixtisoslashgan kengaytirilgan fan yo'nalishi bo'yicha o'qitish. Bu fanni o'rganish insonning ilmga bo'lgan qiziqishini, mantiqiy fikrlash qobiliyatini oshirib, boshqa fanlarning o'qitilishiga ta'sir ko'rsatadi va ta'limda asosiy vazifani o'taydi.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarda namoyon bo'ladigan matematik tushunchalarni yaxshi o'zlashtirish, matematik fikr yuritishga tayyor bo'lish, masala va muammolarni yecha olish, matematik tilda bemalol ish yurita olish ko'rinishidagi samarali natijalarni ta'lim stilini o'zgartiribgina erishish mumkin. Bunda izlanuvchanlik asosiy o'rin tutadi. Masalan, muammoli o'qitishda o'quvchilar nazariy va amaliy ko'rinishdagi turli muammolarni yechish orqali yangi bilim va malakalarni egallaydi. Muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish, qiziqarli muammolarni qo'yish va ularning yechilishiga yordam berish o'quvchilarning faolligi va mustaqilligini rivojlantirib, bu fanga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Natijada o'quvchilar olgan bilim va ko'nikmalaridan foydalanishni o'rganishadi va o'zlarining ijodiy imkoniyatlari va aniq fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishadi.

O'qitishning zamonaviy kompetentsiyaviy yondashuvga o'tilishi ta'lim jarayoniga qor ko'chkisi kabi ta'sir ko'rsatadi va misli ko'rilmagan o'zgarishlarga olib keladi. Bunda yangiliklarni ta'lim jarayoniga olib kirish va joriy etish bugungi kun o'qituvchisiining vazifasiga aylanadi. Bilimli yuqori malakaga ega bo'lgan o'qituvchi kadrlargina jamiyatning ta'lim oldiga qo'ygan vazifasini amalga oshirishga qodir bo'ladilar. O'qituvchining izlanishi, bugungi kun talablari asosida o'z-o'zini tarbiyalashi, o'z ustida tinimsiz izlanishi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni mukammal o'zlashtirishi va ularni ta'lim jarayonida qo'llashi ta'lim samaradorligini oshiradi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining ta'sirchanligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish esa ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi.

Matematikani o'qitish jarayonining eng asosiy yo'nalishlari quyidagi to'rt qismdan iborat:

- matematik tushunchalar to'plamini bilish;
- matematik mulohaza yurita olish;
- matematik masala va muammolarni yechish;
- matematik tilni egallash. Matematika darslarida zamonaviy metodik vositalardan foydalanish o'qituvchiga matematik mavzuning to'liq o'zlashtirilishiga yordam beribgina qolmasdan, o'quv jarayonida o'quvchilarning o'zlari faol ishtirok etishlarini ham ta'minlaydi.

Bunda matematika fani o'quvchilar yoqtirmaydigan quruq, faqat tasdiqlovchi fan bo'lmasdan, aksincha, harakatchan, tushunarli va shuning uchun qiziqarli bo'lib qoladi. Bu esa matematika fanini o'qitishda ijobiy natijalarga erishish

garovi bo'lib xizmat qiladi. O'qitishga qo'yilgan maqsad va rejalashtirilgan natijalarni, asosan, didaktik texnologiyalarning to'g'ri tanlanishi, o'quv jarayonini va o'quv faoliyatini uyushtirish usullarini mulohaza qilib tanlanganligi ta'minlaydi.

Ta'lim jarayoning qiziqarli bo'lishi turli didaktik sistemalar majmuining qanday tanlanishiga bog'liq. Masalan, quyidagi didaktik printsiplar muvaffaqiyatli amalga oshirilishi mumkin:

- yuqori qiyinchilik darajasida o'qitish;
- nazariy bilimlarning ustuvorligi;
- katta tezlikda bilim berilishi;
- o'quvchilarning ta'lim olish jarayonini tushunib yetishi;
- hammaning rivojlanishi ustida sistemali ishlash;
- har bir fuqaro va kasb egasida matematik kompetentlikning bo'lishi;
- matematik ta'limga AKTlarning tatbiq etilishi jahon miqyosidagi ilg'orlik garovidir;
- matematik ta'limning barcha sigment, qatlam va darajalarining o'zaro bog'liqligi (o'qitishning bog'cha bolalaridan to ilg'or matematika o'qituvchilarigacha, maktabgacha muassasa xodimlari va ota-onalargacha qamrab olish);
- maktab va pedagog faoliyatining sifatini faqat bitiruvchilar va pedagoglarning absolyut natijalari darajasi bilangina emas, matematik kompetentlikni qay darajada egallaganligi bilan o'lchash.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 13 may, 203-sonli "O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'limni tashkil etish to'g'risida" qarorida 5—9-sinf o'quvchilarining bilimlari sifatini nazorat qilishning reyting tizimi to'g'risidagi nizomni ishlab chiqish vazifasi ko'rsatilgan edi. Boshlang'ich sinflarda esa reyting sistemasini tadbiq etish ko'rsatilmagan. Ta'lim sohasida yevropada katta yutuqlarga erishgan Finlandiya kabi rivojlangan davlatda ham boshlang'ich sinf o'quvchilariga reyting sistemasi qo'llanilmaydi.

Buning natijasida:

1. Boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarda ko'proq yodlash va bilim olishga layoqati kuchli bo'lib, 5-9 sinf o'quvchilarida esa olingan bilimlarni amalda tadbiq etish ko'nikma va malakalari ko'proq rivojlanadi. Shu sababli boshlang'ich sinflarda yangi terminlarni o'quvchilar eslab qolishlari uchun iloji boricha ko'proq beriladi. Bu terminlarning ma'nosini bolalarga mukammal tushuntirishga ko'p vaqt sarflashning keragi yo'q. Bolalarning yodlab qolish qobiliyatlari kamaygan yoshga yetganida esa, ya'ni yuqori sinflarda olingan barcha bilimlarni tadbiq etish va foydalanish ko'nikma va malakalarini oshirishga e'tiborni ko'proq qaratish kerak.
2. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarda dars soatining ko'p qismi o'quvchilarning ko'nikma va malakalarini tekshirib, ularga baho qo'yishga sarflanadi. SHuning uchun o'quvchilarga baho qo'yish o'rniga darsga ajratilgan vaqtni ko'proq bilim berish, didaktik o'yinlar o'tkazishga sarflash kerak. Natijada ta'lim samaradorligini keskin oshirilishiga erishladi.
3. "Qattiq qo'l" o'qituvchida "3" olgan o'quvchi "yumshoq" o'qituvchida "5" bahoga o'qishi mumkin. Demak, qo'yilayotgan baholarni absolyut to'g'ri deb bo'lmas ekan. O'qituvchilarning ko'p vaqti qo'yilgan baholar bo'yicha sifat va samaradorliklarni hisoblab, turli ko'rinishdagi hisobot to'ldirishga sarflanadi. Reyting sistemasi bo'lmaganida esa o'qituvchilar o'z malakalarini oshirish ustida ishlashlari uchun ko'proq vaqt paydo bo'ladi.
4. Reyting sistemasi bo'lmaganida ta'lim sifat-samadorligi ortgan holda, ta'limga sarflanadigan mablag'ning iqtisod qilinishiga erishiladi;
5. 5 baho ola olmagan yosh o'quvchilarning baho bilan bog'liq psixologik ichki kechinmalardan asraladi. O'quvchi baho uchun emas, bilim olish uchun o'qiydi.
6. Ota-onalar farzandlarining o'zlashtirishlari bilan bog'liq emotsional tashvishlardan forig' qilinadi.

Natijada kam vaqt davomida katta xajmdagi ma'lumotlar o'quvchilar tomonidan egallanib, ta'lim samaradorligi keskin oshirilishiga erishiladi. Bu fanni o'rganish insonning ilmga bo'lgan qiziqishini, mantiqiy fikrlash qobiliyatini oshirib, boshqa fanlarning o'qitilishiga ta'sir ko'rsatadi va ta'limda asosiy vazifani o'taydi. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarda namoyon bo'ladigan matematik tushunchalarni yaxshi o'zlashtirish, matematik fikr yuritishga tayyor bo'lish, masala va muammolarni yecha olish, matematik tilda bemalol ish yurita olish ko'rinishidagi samarali natijalarni ta'lim stilini o'zgartiribgina erishish mumkin.

Bunda izlanuvchanlik asosiy o'rin tutadi. Masalan, muammoli o'qitishda o'quvchilar nazariy va amaliy ko'rinishdagi turli muammolarni yechish orqali yangi bilim va malakalarni egallaydi. Muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish, qiziqarli muammolarni qo'yish va ularning yechilishiga yordam berish o'quvchilarning faolligi va mustaqilligini rivojlantirib, bu fanga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Natijada o'quvchilar olgan bilim va ko'nikmalaridan foydalanishni o'rganishadi va o'zlarining ijodiy imkoniyatlari va aniq fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishadi. O'qitishning zamonaviy kompetentsiyaviy yondashuvga o'tilishi ta'lim jarayoniga qor ko'chkisi kabi ta'sir ko'rsatadi va misli ko'rilmagan o'zgarishlarga olib keladi. Bunda yangiliklarni ta'lim jarayoniga olib kirish va joriy etish bugungi kun o'qituvchisiining vazifasiga aylanadi.

Bilimli yuqori malakaga ega bo'lgan o'qituvchi kadrlargina jamiyatning ta'lim oldiga qo'ygan vazifasini amalga oshirishga qodir bo'ladilar. O'qituvchining izlanishi, bugungi kun talablari asosida o'z-o'zini tarbiyalashi, o'z ustida tinimsiz izlanishi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni mukammal o'zlashtirishi va ularni ta'lim jarayonida qo'llashi ta'lim samaradorligini oshiradi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining

ta'sirchanligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish esa ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi.

Matematikani o'qitish jarayonining eng asosiy yo'nalishlari quyidagi to'rt qismdan iborat:

- matematik tushunchalar to'plamini bilish;
- matematik mulohaza yurita olish;
- matematik masala va muammolarni yechish;
- matematik tilni egallash. Matematika darslarida zamonaviy metodik vositalardan foydalanish o'qituvchiga matematik mavzuning to'liq o'zlashtirilishiga yordam beribgina qolmasdan, o'quv jarayonida o'quvchilarning o'zlari faol ishtirok etishlarini ham ta'minlaydi.

Bunda matematika fani o'quvchilar yoqtirmaydigan quruq, faqat tasdiqlovchi fan bo'lmasdan, aksincha, harakatchan, tushunarli va shuning uchun qiziqarli bo'lib qoladi. Bu esa matematika fanini o'qitishda ijobiy natijalarga erishish garovi bo'lib xizmat qiladi. O'qitishga qo'yilgan maqsad va rejalashtirilgan natijalarni, asosan, didaktik texnologiyalarning to'g'ri tanlanishi, o'quv jarayonini va o'quv faoliyatini uyushtirish usullarini mulohaza qilib tanlanganligi ta'minlaydi. Ta'lim jarayoning qiziqarli bo'lishi turli didaktik sistemalar majmuining qanday tanlanishiga bog'liq. Masalan, quyidagi didaktik printsiplar muvaffaqiyatli amalga oshirilishi mumkin:

- yuqori qiyinchilik darajasida o'qitish;
- nazariy bilimlarning ustuvorligi;
- katta tezlikda bilim berilishi;
- o'quvchilarning ta'lim olish jarayonini tushunib yetishi;
- hammaning rivojlanishi ustida sistemali ishlash;
- har bir fuqaro va kasb egasida matematik kompetentlikning bo'lishi;
- matematik ta'limga AKTlarning tatbiq etilishi jahon

miqyosidagi ilg'orlik garovidir;

– matematik ta'limning barcha sigment, qatlam va darajalarining o'zaro bog'liqligi (o'qitishning bog'cha bolalaridan to ilg'or matematika o'qituvchilarigacha, maktabgacha muassasa xodimlari va ota-onalargacha qamrab olish);

– maktab va pedagog faoliyatining sifatini faqat bitiruvchilar va pedagoglarning absolyut natijalari darajasi bilangina emas, matematik kompetentlikni qay darajada egallaganligi bilan o'lchash.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 13 may, 203-sonli "O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'limni tashkil etish to'g'risida" qarorida 5—9-sinf o'quvchilarining bilimlari sifatini nazorat qilishning reyting tizimi to'g'risidagi nizomni ishlab chiqish vazifasi ko'rsatilgan edi. Boshlang'ich sinflarda esa reyting sistemasini tadbiq etish ko'rsatilmagan. Ta'lim sohasida Yevropada katta yutuqlarga erishgan Finlandiya kabi rivojlangan davlatda ham boshlang'ich sinf o'quvchilariga reyting sistemasi qo'llanilmaydi. Buning natijasida:

1. Boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarda ko'proq yodlash va bilim olishga layoqati kuchli bo'lib, 5-9 sinf o'quvchilarida esa olingan bilimlarni amalda tadbiq etish ko'nikma va malakalari ko'proq rivojlanadi. SHu sababli boshlang'ich sinflarda yangi terminlarni o'quvchilar eslab qolishlari uchun iloji boricha ko'proq beriladi. Bu terminlarning ma'nosini bolalarga mukammal tushuntirishga ko'p vaqt sarflashning keragi yo'q. Bolalarning yodlab qolish qobiliyatlari kamaygan yoshga yetganida esa, ya'ni yuqori sinflarda olingan barcha bilimlarni tadbiq etish va foydalanish ko'nikma va malakalarini oshirishga e'tiborni ko'proq qaratish kerak.

2. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarda dars soatining ko'p qismi o'quvchilarning ko'nikma va malakalarini tekshirib, ularga baho qo'yishga sarflanadi. SHuning uchun o'quvchilarga

baho qo'yish o'rniga darsga ajratilgan vaqtni ko'proq bilim berish, didaktik o'yinlar o'tkazishga sarflash kerak. Natijada ta'lim samaradorligini keskin oshirilishiga erishladi.

3. "Qattiq qo'l" o'qituvchida "3" olgan o'quvchi "yumshoq" o'qituvchida "5" bahoga o'qishi mumkin. Demak, qo'yilayotgan baholarni absolyut to'g'ri deb bo'lmas ekan. O'qituvchilarning ko'p vaqti qo'yilgan baholar bo'yicha sifat va samaradorliklarni hisoblab, turli ko'rinishdagi hisobot to'ldirishga sarflanadi. Reyting sistemasi bo'lmaganida esa o'qituvchilar o'z malakalarini oshirish ustida ishlashlari uchun ko'proq vaqt paydo bo'ladi.

4. Reyting sistemasi bo'lmaganida ta'lim sifat-samadorligi ortgan holda, ta'limga sarflanadigan mablag'ning iqtisod qilinishiga erishiladi;

5. baho ola olmagan yosh o'quvchilarning baho bilan bog'liq psixologik ichki kechinmalardan asraladi. O'quvchi baxo uchun emas, bilim olish uchun o'qiy.

6. Ota-onalar farzandlarining o'zlashtirishlari bilan bog'liq emotsional tashvishlardan forig' qilinadi. Natijada kam vaqt davomida katta xajmdagi ma'lumotlar o'quvchilar tomonidan egallanib, ta'lim samaradorligi keskin oshirilishiga erishiladi.

Matematik kompetentsiya bilan bog'liq bo'lgan zarur bilim, malakalar va fanga bo'lgan qiziqish: - Matematika fanidan zaruriy bilimlar sonlar, kattaliklar va strukturalar, asosiy amallar va ma'lum otlarni taqdim etish usullari, matematik tushuncha va terminlar haqida qat'iy bilimlarni, hamda matematika javob bera oladigan savollarni anglashlarni o'z ichiga oladi. - Inson matematikaga xos mulohaza yuritish, matematikada isbotni va matematikaning tilini tushunishi, hamda buning uchun mos vositalardan foydalanishi malakalariga ega bo'lishi kerak. - Inson uyida va ishdagi kundalik vaziyatlarda asosiy matematik qonunlar va asosiy matematik usullarni tadbiq etish hamda asoslangan mushohada yuritish ketma-ketligini qurish va uni

baholash malakalariga ega bo'lishi kerak.

Matematikaga ijobiy munosabat haqiqatga nisbatdan hurmat, isbotlash uchun dalillarni izlash, ularning asoslanganligini baholay olish orqali shakllanadi. (Original) Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, biz «matematik kompetentsiya» tushunchasiga quyidagicha yondashdik:

bu - vaziyatni strukturalash, matematik bog'lanishlarni aniqlash, jarayonlarni matematik modellarini tuzish, ularni tahlil qilish va ko'rinishlarini o'zgartirish, olingan natijalar bo'yicha tegishli asoslangan va maqbul hulosalar chiqarish orqali ijtimoiy va kasbiy faoliyatga tayyor bo'lish.

Iqtisodiy rivojlangan davlatlar tajribasi va yuqoridagi fikrlarni hisobga olgan holda, to'g'ri mantiqiy mushohada yuritishga, kundalik hayotimizda duch kelinadigan ehtimolliy-statistik harakterga ega masalalarni yechishga, jumladan turli ko'rinishda berilgan ma'lum otlarni tahlil etish usullariga, xavflarni aniqlash va baholashga imkon beruvchi "Ma'lum otlar va imkoniyatlar" nomli bo'lim A1 va A2 darajalariga propedevtik tarzda kiritilishini lozim deb topdik. Masalalar haqida. Matematika fanini o'qitishning negizini masalalar tashkil etishi barchamizga ma'lum. Shunga qaramasdan, biz ayrim fikrlarimizni keltirish lozim deb topdik.

Birinchidan, o'quvchilarda matematikaga bo'lgan qiziqishlarini orttirish, tayanch kompetentsiyalarga erishish uchun ta'lim jarayonida amaliy va nostandart harakterdagi masalalardan foydalanmasdan erishib bo'lmaydi.

Bunday masalalarni yechish o'quvchilarda analiz, sintez, analogiya, umumlashtirish, deduktsiya va induktsiya kabi mantiqiy mushohada yuritish faoliyatini, intuitsiya, egiluvchanlik va moslashuvchanlik kabi fazilatlarni rivojlantirib, o'quvchilarni olingan natijalar ustida tanqidiy fikrlashni o'rgatadi. Ko'pincha amaliy va nostandart harakterdagi masalalarni yechimi darhol topilmasdan, bir necha bor urinishlar natijasidagina aniqlanishligi sababli, bu maqsadga erishish uchun tirishqoq

bo'lishliqni, ya'ni shaxsning irodalilik kabi juda ahamiyatli sifatlarni tarkib topishiga imkon beradi.

Va nihoyat, eng asosiysi: bunday masalalarni yechilishi o'quvchilarga natijaga erishilganlik bilan, va shuningdek yechim yo'lining go'zalligi va an'anaviy emasligi bilan bog'liq bo'lgan katta emotsional zavq berilishi katta ahamiyatga ega. Bunday masalalar barcha darajalarda kiritilishi lozim.

Ikkinchidan, matematik masalalarga o'qitishning vositasi sifatida qaralsa unga ikki hil yondashish mumkin:

Masalaga an'anaviy yondashish usuli:

Tayyor masala shartlarini tahlil qilish

- Masala yechilishining usulini aniqlash
- Yechish jarayoni
- Olingan natijani etalon javob bilan formal solishtirish.

Masalaga muammo sifatida yondashish usuli (Poyya tizimi, Singapur):

Muammoli vaziyatni tahlil qilish

- Muammo qo'yilishi
- Yetmaydigan ma'lum otlarni izlash va gipotezalarni (ilmiy tahminlarni) shakllantirish
- Gipotezalarni tekshirish va muammoli vaziyatga oid yangi bilimlarga ega bo'lish
- Muammoni masalaga aylantirish
- Masala yechilishining usulini izlash
- Yechish jarayoni
- Olingan natijani tekshirish
- Yechimning to'g'riligini asoslash.

Ko'rinib turibdiki ana'anaviy yondashishda o'quvchining masala yechish o'quv faoliyati reproduktiv harakterga ega bo'lib, u o'zini bajaruvchi sifatida namoyon etadi.

Tadqiq etish elementlari faqat masala shartlarini tahlil qilgandagina namoyon etadi. Standart masalalarini yechish – tabiati nostandart bo'lgan, kundalik hayotda kam uchraydigan masalalarni yechishga aylangan. SHuning uchun ham barcha

darajalarga oid darslik mualliflari ayrim o'quv va ayniqsa, amaliy masalalarga muammoli masala sifatida yondashishlari lozim.

Uchinchidan, murakkabroq bo'lgan mantiqiy, qiziqarli va nostandart harakterdagi masalalar bilan shug'ullanish o'quvchilarga fanni chuqurroq o'zlashtirishga, avval o'rganilgan tushunchalarni takrorlashga va ularga tanish algoritmlarini odatiy bo'lmagan, qiziqarli usulda o'zlashtirishlariga imkon beradi.

Demak, shunday turdagi masalalar A1+, A2+ va B1+ darajalariga kiritilishi tayanch kompetentsiyalarga samarali erishishga, o'zlaridagi noyob iste'dodlarini ro'yobga chiqarishga olib keladi. O'qitish usuli haqida. Kompetentsiyaviy yondashuv asosida ta'lim berish sharoitida o'qituvchilarning o'z faoliyatiga yondashuvi ham o'zgarishi kerak. O'qituvchi bundan buyon darslik bilan birgalikda o'quvchilarga "obyektiv bilimlarni" yetkazuvchisi bo'lib qolmaydi.

Zamonaviy o'qituvchining asosiy vazifasi o'quvchilarda tashabbuskorlik va mustaqillilik hissini hosil qilish, ularning har biri uchun o'zining iqtidori va qiziqishini amalga oshira oladigan rivojlantiruvchi muhitni yaratishdan iborat.

Shuning uchun ham, matematika fani o'qituvchilarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslari, pedagogika ta'lim muassasalaridagi ta'lim mazmunini qayta ko'rib chiqilishini hamda zamonaviy metodik qo'llanmalarni yaratishni tavsiya etamiz. Bitiruvchilarning matematika fanidan egallagan kompetentsiyalari darajalariga qo'yiladigan talablar ta'lim mazmuniga muvofiq ishlab chiqilgan, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim bo'yicha uzviy bo'lib, matematik kompetentsiyalarning deskriptorlari "an do" mazmunida tasvirlangan. Xalqaro standartlarga moslashtirish maqsadida ta'lim mazmuni va matematik kompetentsiya deskriptorlari Trends in international matematis and siene studi enter(TIMSS)) baholash standartlariga5 o'zaro bog'liq holda olindi hamda ular

sodda va tushunarli shaklda berildi. Bitiruvchilar egallagan bilim, ko'nikma va malaka darajalariga qo'yiladigan talablardan kelib chiqib, deskriptorlar:

5 Timss 2015 Assessment Frameworks. International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA).

- har bir darajani to'liq egallanganlikni ta'minlash uchun ta'limning barcha bosqichlarida o'quv dasturlari va darsliklarni ishlab chiqishda tuzuvchilar tomonidan inobatga olinishi,
- O'zbekiston Respublikasida uzluksiz majburiy ta'limning barcha bosqichlari bitiruvchilarining davlat attestatsiyasi uchun baholash mezonlarini ishlab chiqishda nazarda tutilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi uzluksiz majburiy ta'lim tizimida Davlat ta'lim standartlariga asoslangan holda matematika fanini o'rganish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

Ta'lim bosqichi Bitiruvchilar Standart darajalari Umumiy o'rta ta'lim Boshlang'ich sinf (4-sinf) bitiruvchilari

A1 Matematika chuqurlashtirib o'qitiladigan ixtisoslashtirilgan maktablarning boshlang'ich sinf (4 sinf) bitiruvchilari

A1+ 9-sinf bitiruvchilari

A2 Matematika chuqurlashtirib o'qitiladigan ixtisoslashtirilgan maktablarning 9 sinf bitiruvchilari

A2+ O'rta maxsus, kasb- hunar ta'limi Aniq fanlarga ixtisoslashtirilgan akademik litsey bitiruvchilari

B1 Kasb-hunar kollejlari bitiruvchilari Aniq fanlarga ixtisoslashtirilgan akademik litseylar

V1+ Mazkur standart asosida matematika bo'yicha ta'lim muassasasi xususiyatlarini inobatga olgan holda davlat attestatsiyasi uchun nazoratbaholash ko'rsatkichlari, o'quv dasturlar ishlab chiqiladi va tegishli vazirliklarning buyruqlari bilan tasdiqlanadi.

Shunday qilib o'qituvchi quyidagi ishlarni bajarishi

lozim:

1. O'quv dasturi va o'qituvchi rejasida darsning o'rnini aniqlash.
2. Darsning asosiy didaktik maqsadini aniqlash.
3. Dars mazmunini aniqlash.
4. Dars bosqichlarini tuzib chiqish.
5. Dars rejasini tuzish.
6. Dars konspektini tuzish.
7. Dars o'tish metodlarini aniqlash.
8. Har bir bosqichga sarflanadigan vaqtni aniqlash.
9. Darsda va uyda beriladigan misol masalalarni yechib chiqish.
10. Ko'rgazma qurollarni tayyorlash va h.k

Nazorat uchun savollar:

1. Hozirgi kunda matematikani o'qitishda nechta yondashuvni hisobga olish ko'zda tutilgan?
2. Aniq va tabiiy fanlardan standart loyihasini tuzishda qaysi umume'tirof etilgan xalqaro me'yorlardan foydalanilgan?
3. Aniq va tabiiy fanlarning kompetensiyalarini qiyosiy tahlilini qiling
4. Matematikani o'qitish jarayonining eng asosiy yo'nalishlari nechta?
5. Dars samarali bo'lishida o'qituvchi qanday ishlarni amalga oshirishi lozim?



4- mavzu: Boshlang'ich sinflarda texnologiya ta'limining mazmuni

Reja:

1. Boshlang'ich sinf texnologiya fani DTS tahlili.
2. O'quv dasturining mazmuni va unga qo'yilgan talablar.
3. Shakllangan nazariy bilimlar.

***

Tayanch tushunchalar: Boshlang'ich texnologiya fani DTS, o'quv fani dasturlari, amaliy ish turlari: qo'l mehnati, maishiy mehnat, o'z-o'ziga xizmat, boshlang'ich sinflarda mehnat turlari.

***

Boshlang'ich sinf texnologiya fani Milliy dastur tahlili

Milliy dasturda bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisining tayyorgarligiga qo'yilgan talablar sifatida quyidagilar qayd etilgan:

Texnologiya fani o'qituvchisi:

Dunyoqarash tavsifidagi tizimli bilimlarga ega bo'lishi, gumanitar va ijtimoiy – iqtisodiy fanlar asoslari, joriy davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olishi;

Vatan tarixini bilishi, ma'naviy, milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o'z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslab bilishi, milliy g'oyaga asoslangan faol hayotiy

nuqtayi nazarga ega bo'lishi;

Tabiat va jamiyatda kechayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lishi;

Insonning boshqa insonga, jamiyatga, atrof –muhitga munosabatini belgilovchi huquqiy va ma'naviy mezonlarni bilishi, kasb faoliyatida ularni hisobga ola bilishi;

Axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va undan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, o'z kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlarni qabul qila olishi;

Yangi bilimlarni mustaqil egallay olishi, o'z ustida ishlashi, o'z mehnatini ilmiy asosda tashkil qila olishi lozim. Demak, texnologiya fani o'qituvchisi umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilariga yangi texnika va texnologiyalar bo'yicha axborot beruvchi shaxs hisoblanadi. U har tomonlama bilimdon, o'z kasbiga nisbatan iqtidorli inson bo'lishi kerak. Buning uchun esa, u oliy pedagogik ta'lim muassasalarida umumkasbiy fanlardan chuqur bilimlarni egallashi, ularni o'z faoliyatida qo'llay olishi kerak.

Ma'lumki, mehnat inson hayoti va farovon turmush madaniyatini yaratish uchun hamisha asosiy omillardan biri bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. Zero, mehnat kishilar uchun farovonlik va baxtli hayot kechirishning eng asosiy shartidir.

O'quv fan dasturlarining mazmuni va ularning tahlili (1-4 sinflar kesimida).

Texnologiya fanidan tuzilgan o'quv dasturi umumta'lim maktablari 1-4-sinf texnologiya fanini o'qitishning mazmuni, maqsadi, vazifalari, tamoyillari va boshqa me`zonlarini belgilaydi.

Dasturda jamiyatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida yoshlarga mehnat ta'limi bormi, ularni tarbiyalash sohasida qo'yilgan maqsad va vazifalar o'z ifodasini topadi. Texnologiya fani dasturi o'quv rejasi asosida ishlab chiqiladi. Texnologiya fani o'qituvchisi o'zining kundalik faoliyatida bu dasturga amal

qiladi va uning bajarilishi majburiy hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda o'qituvchi o'quv dasturiga mahalliy sharoitni hisobga olib ma'lum o'zgarishlar kiritish mumkin. Bu borada bir qancha talablar hisobga olinishi lozim. Dasturning mazmuni didaktik prinsiplarga to'la – to'kis javob berishi, ilmiy va mafkuraviy jihatdan puxta bo'lishi, murakkabligi ortib borishini hisobga olgan holda va mehnat ta'limining tanlangan didaktik tizimiga muvofiq ravishda muayyan izchilikda bayon qilinishi turmush tajribasi bilan bog'langan bo'lishi kerak. Unda mehnat o'rinlari politexnik xususiyatlariga ega bo'lishi, ularning tavsiya qilinadigan ro'yxati esa ijtimoiy ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lishi lozim.

O'quvchilarni tarbiyalash ularni bo'lajak amaliy faoliyatga tayyorlashda mehnat malakalari va ko'nikmalari katta rol o'ynaydi. Quyi sinf o'quvchilariga mehnat ta'limini berish vazifalaridan biri ularda bir qator mehnat malakalari va ko'nikmalarini shakllantirishdir. Mehnat malakalari va ko'nikmalari natijasi bo'lib qolmay, balki o'quvchilarni mehnat faoliyatiga, ijtimoiy foydali ishlab chiqarish mehnatini bajarishga jalb qilish sharti hamdir.

1-4 sinflarda mehnat ta'limi fani mazmuni shartli ravishda umumiy mehnat ta'limi tayyorgarligi, uning mazmunida mavjud bo'lgan kasblar atroflicha ma'lumotlari bilan tanishish hamda shu yoshga xos maxsus tayyorgarlik qismlaridan iborat.

O'quv fan dasturlarining mazmuni va ularning tahlili (1-4 sinflar kesimida).

Texnologiya fanidan tuzilgan dastur o'quvchilar umumta'lim tayyorgarligiga, saviyasiga qo'yiladigan majburiy minimal darajani belgilab beradi. Dastur o'z mohiyatiga ko'ra o'quv dasturlari, darsliklar, qo'llanmalar, hamda me`yoriy hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib xizmat qiladi va o'zining tuzilishi hamda mazmuniga ko'ra maktab manfaatlari va vositalari muvozanatini aks ettiradi. Eng asosiysi o'quvchi shaxsi, uning intilishlari, qobiliyati va qiziqishlari ustivorligidan

kelib chiqadi.

O'quv dasturi asosida amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlari natijalaridan foydalangan holda aniqlash va nazorat qilish uchun o'quvchilarning o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalari quyidagi mezon bo'yicha baholanadi.

Shakllangan nazariy bilimlar.

Shakllangan ko'nikma va malakalar.

Milliy hunarmandchilik sohalari bo'yicha shakllangan umumta'lim bilimlari.

Milliy hunarmandchilik kasblari bo'yicha shakllangan mahorat.

Milliy hunarmandchilik sohasida shakllangan ijodkorlik.

Ushbu mezonning har biri quyidagi to'rttadan yo'nalish bo'yicha baholanadi:

-asboblardan foydalanishni egallash;

-moslamalar ijod qilish;

-tayyorlangan buyumlar yoki mahsulotlar sifatini aniqlash;

-erishilgan natijalarning iqtisodiy ko'rsatkichlarni aniqlash asosida baholanadi.

Boshlang'ich sinflarda texnologiya faniga tayyorlash dasturi bolalarni har tomonlama kamol toptirishga aqliy va jismoniy, axloqiy va estetik kamol toptirishga va tarbiyalashga qaratilgan bo'lib, o'z oldiga quyidagi maqsadlarni qo'yadi:

a) bolalarni mehnat tajribasini, ularni kishilar ishlab chiqarish faoliyati to'g'risidagi bilimlarni kengaytirish,mehnatsevarlikka, mehnat va mehnat kishilariga munosib munosabat ruhida tarbiyalash;

b) mehnat malakasi, mehnat madaniyatini, o'z ishi va o'rtoqlarning ishini rivojlantirish va tashkil qilish malakalarni rivolantirish;

Dasturda 3 ta asosiy bo'lim bor:

"O'z -o'ziga xizmat ko'rsatish"

"Texnikaga oid mehnat"

"Qishloq xo'jalik mehnati".

Har bir sinfda mehnatning maxsus turi – "texnikaviy modellar yasash" – uchuvchi, suzuvchi, harakatlanuvchi, eng oddiy texnikaviy o'yinchoqlar tayyorlashga vaqt ajratilgan.

Bizga ma'lumki, mehnat ta'limi darslari maktabda eng uzoq vaqt o'tiladigan o'quv fanlardan biri bo'lib, mehnat ta'limi fani o'qituvchisi rahbarligida o'quvchilar tomonidan bajariladigan aqliy va jismoniy harakatlar-mehnat faoliyati jarayonidan iborat bo'lib, yakuniy natijada ularning mehnat qurollari, vositalari va jarayonlari haqida bilimlarni hamda ma'lum sohadagi ishlab chiqarish mehnatini bajarish uchun zarur amaliy ko'nikma va malakalarini egallashlariga ongli ravishda kasb tanlashga, hamda jamiyat va shaxs farovonligi yo'lida mehnat faoliyatiga qo'shilishlariga imkon beruvchi shaxsiy sifatlarini va tafakkurlarini rivijlantirishga qaratilgan o'quv fanidir.

Maktabda mehnat ta'limi III bosqichda tashkil etilib, ulardan ko'zlangan maqsad o'quvchilarni jismoniy tomondan to'g'ri rivojlantirish, mehnat olami va kishilari, qurollari va amallari, asosiy ishlab chiqarish sohalari va kasblari bilan tanishtirish, ish qurollaridan to'g'ri foydalanish, oddiy buyumlarni yasashga oid mehnat malakalarini hosil qilish, ongli ravishda kasb tanlashga yo'naltirishdan iborat.

I bosqich: 1-4 sinflardagi texnologiya darslarida o'qituvchi o'quvchilarga kishilarning hayotida mehnatning tutgan o'rni, eng sodda mehnat amallari va ish qurollari ulardan foydalanishga oid dastlabki ma'lumotlarni o'quvchilarda qog'oz, yelim, gazlama, ip, plastilin kabi materiallardangina, qaychi, pichoq kabi mehnat qurollari yordamida buyumlar, o'yinchoqlar yasash, tayyorlash orqali dastlabki mehnat ko'nikmalari shakllantiriladi. Odatda, bu darslarni qo'l mehnati yoki to'g'ridan to'g'ri mehnat darslari deb yuritiladi.

II-III bosqich yuqori sifatlardagi mehnat ta'limi darslari kiradi, ya'ni II bosqich 5-7 sinflar turkumida, III bosqich 8-9 sinflar kesimida amalga oshiriladi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida mehnat ta'limi darslarini o'qitishda o'qituvchi

tomonidan o'z oldiga qo'yilgan asosiy vazifa o'quvchilarning jismoniy tomondan to'g'ri rivojlanishini ta'minlash, ijodiy qobiliyatlarini tarkib toptiradi. Bundan esa quyidagi maqsad va vazifalar kelib chiqadi:

O'quvchilarda umummehnat ko'nikma va malakalarini shakllantirish;

Ularning qiziqishlari;

Qobiliyatlari;

Kasbiy moyillikka ko'ra, kasb-hunar turlarini tanlashga asos bo'ladigan hislatlari;

Umummehnat madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish;

O'quvchilar tomonidan bajariladigan ishlar moddiy ne'matlar yaratishga qaratilgan aqliy va jismoniy harakatlar jarayonidan iborat.

Bolalarda buyumlarni yasash tartibi haqida, ya'ni belgi qo'yib chiqish(razmetka), tayyorlash(zagatovka), yig'ish, ishlov berish to'g'risida, ishlatib ko'rish, xato va kamchiliklarni yo'qotib ish o'rnini to'g'ri tashkil qilish va boshqalar to'g'risida tasavvur hosil bo'ladi. Bu elementlarning barchasi keyinchalik andoza(model)lar va texnikaviy o'yinchoqlar tayyorlashda qo'llaniladi, umumlashtiriladi, bolalarning ijodiy fikrini o'stiradi, to'plagan mehnat tajribasini tevarak atrofdagi texnika bilan bog'lashlariga yordam beradi.

O'quv fan dasturlarining mazmuni va ularning tahlili (1-4 sinflar kesimida).

Texnologiya fani dasturi talablari quyidagilarni o'z ichiga oladi;

Buyumlarning kundalik ehtiyoj uchun zarurligi;

Narsa-buyum yoki ishni bajarish jarayonida bolalarga berish mumkin bo'lgan programmada ko'rsatilgan bilim va malakalarning mazmundorligi.

Barcha o'quvchilarni darsda band qilish imkoniyati.

Texnologiya fani dasturi talablariga muvofiq o'quv dasturi mazmuni belgilanadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi 1-4-sinf

o'quv dastur mazmunini shakllantirishi uchun o'quvchilarning mehnat ta'limi bo'yicha qanday ishlarni amalga oshirib borishi, u yoki bu ishni bajarish natijasida qanday ko'nikma, bilim va malakalarni egallashlarini aniq bilishlari kerak. Ana shunday holda o'qituvchi sinf uchun shu vaqtda zarur bo'lgan materiallarni tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu o'rinda muhimi, o'quvchilar mazkur materiallarni tayyorlash jarayonida dastur nazarda tutgan bilim va malakalarni egallab olishlarini nazarda tutishi kerak. Bilim va malakalar mehnatning quyidagi turlaridan:

- Qog'oz va karton bilan ishlash.
- Gazlama bilan ishlash.
- Turli materiallar bilan ishlash.
- Texnik modellashtirish.
- Qishloq xo'jaligi mehnati turlarini egallab olishlaridan iboratdir.

Har bir o'quv yilida barcha sinflarda ish turlari shu tartibda olib boriladi.

Birinchidan, o'quvchilar ma'lum nazariy bilimlarga ega bo'ladilar, ularning fanlararo texnologik xususiyatlarini, ularning hayotda qo'llanishi bilan tanishadilar.

Ikkinchidan, materiallarga ishlov berishda eng oddiy usullardan boshlab murakkab usullargacha amaliy o'rganadilar.

O'zbekiston tabiiy resurslar, foydali qazilmalar, o'simliklar, qushlarga boy o'lkadir. Bu o'z navbatida, boshlang'ich sinflardagi mahalliy tabiiy material bilan ishlashni tashkil etish ishlari yanada yaxshilash imkonini hosil qiladi. Aynan atrofdagi sharoit bizga shunday imkoniyatlar yaratadi.

Bunday imkoniyatlar ilk yoshdan boshlab bolalarda ona tabiatga qiziqish va muhabbatni tarbiyalashga juda qo'l keladi. Tabiiy materiallar bilan ishlash ularni tabiatni kuzatishga majbur qiladi. Tabiiy materiallarni o'quvchilar dastlab o'qituvchi rahbarligida sayr vaqtida to'playdilar. Tabiiy materiallarni to'plash jarayonida o'quvchilar atrofdan o'simlik

dunyosi, hasharotlar bilan tanishadilar.

Turli materiallar bilan ishlash darslarining texnologik xususiyatlarini qog'oz va karton bilan ishlash, hamda gazlama va tolali materiallar bilan ishlash darslaridan farq qiladi. Chunki, qog'oz, karton va gazlama tayyor mahsulot bo'lib, ulardan turli o'yinchoqlar, ularning chiqindilaridan yana kichikroq narsalar yasaladi. Turli materiallar bilan ishlashda eng avval qaysi narsadan nimalar yasash mumkinligini, avvaldan izlanib, rejalab, tabiat qo'ynidan yig'ib olingan, so'ng reja asosida turli o'yinchoqlar, ertaklar asosida ko'rsatmali ko'rinishlarga boy personajlar, qofiyalari, turli rangli manzaralar yasaladi.

Texnologiya darsida turli tabiiy materiallar – daraxt, novdalar, qamish, poxol, g'o'za chanoqlari, yong'oq, qum, loyning ishlatilishi hamda plastik massalar: plastilin lentalar, plyonkalar, gugurt qutilari, g'altak iplari, turli chiqitlar: tuxum po'stloqlar, xandon pista va danak po'choqlari, bo'shagan plastmassa idishlar, ishlatiladimi, tashlab yuborish mumkin bo'lgan bu narsalar bolalarni tejamkorlikka o'rgatadi. Tashlandiq narsalardan ham kerakli buyumlar, estetik zavq ola biladigan, ayniqsa o'z ko'rinishi, mazmuni bilan bolalarni tarbiyalash mumkin bo'lgan narsalar yasalishi ular tarbiyasiga ijobiy ta'sir qiladi.

Turli tabiiy materiallarni to'plash, saqlash yo'llarini, ularga ishlov berishni bolalarga tabiashunoslik darsida olgan bilimlarini mustahkamlash imkonini beradi.

Turli materiallar bilan ishlash mashg'ulotlarini rejalashtirish va materiallarni tanlashda mahalliy sharoitlardan kelib chiqish, o'lka iqlimi, tabiati, ishlab chiqish korxonalari va shu kabilarni e'tiborga olish kerakligini unutmaslik lozim. Bunday mashg'ulotlar bolalarning ijodiy qobiliyatlarini o'stiribgina qolmay ularning ijodkorligini o'stiradi, estetik hissiyotlarini shakllantiradi.

Barcha materiallarni o'rgatishdagi uzviylik bu yuqorida aytganimizdek ular xoh tabiiy, xoh sun'iy bo'lsin ularning

barchasida ham bolani e'tiborini jalb qila oladigan predmetlar bilan ishlash zarur. Chunki, bolani qiziqtira olmagan buyum uni mehnat aniqrog'i ijodiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Sababi, o'zi qiziqmagan buyumdan o'quvchi faqatgina o'qituvchi talabi uchun shunchaki, yuzaki yondashib buyum yasaydi. Bu esa o'quvchini o'z mehnatidan zavq olishiga xalaqit beradi. Natijada jo'shqin, ijodkor o'quvchi mana shunday mashg'ulotlarga qiziqmay qo'yishi mumkin. Shu sababli nafaqat materiallar bilan ishlashda, balki har bir mavzu jarayonida ham o'z kasbining mohir ustasi bo'lgan o'qituvchigina dars bersa, kelajakda bolalarning ijobiy natijalariga erishishi yuqori darajada bo'ladi.

Turli materiallarning o'ziga xos texnologik xususiyatlari silma-xilki, ulardan narsalar yasashda material sifatida ham, yasalgan narsaga bezak berish materiali sifatida ham foydalanish mumkin.

Turli material bilan ishlash jarayonida bolalar quyidagi malaka va ko'nikmalarni egallaydilar.

Turli materiallarni to'plash va saqlash qoidalari bilan tanishish. Tevarak atrofni muhofaza qilish.

Turli tabiiy materiallarga ishlov berish va rivojlatirish.

Turli materiallarni to'plash uchun atrof muhitdan, obyekt tanlash.

Turli tabiiy materiallardan nimani yasay olishni tahlil qilish hamda ularga ishlov berish asboblarini tanlash.

Mustaqil fikrlab, ijodkorligini namoyon qilish, ijodkorlik qobiliyatlarini o'stirish.

Materiallarning qolgan barcha turlari bilan tanishtirish (yog'och, yumshoq sim, tunuka, turli chiqindilar to'plashlari kerak).

Obrazlar, personajlar, o'yinchoqlarni yaratishda konstruktorlik va ijodiy o'stirish.

Yog'och va materiallarga ishlov berish asboblari bilan tanishtirish, ya'ni pichoq, bolg'a, arra, bigiz, qaychi kabilardir.

Bolalarga turli materiallar bilan ishlash alohida qiziqish

uyg'otadi. Ayniqsa, o'quvchilar loy, plastilin va tabiiy materiallar daraxtlarning shoxlari, chinor urug'lari, turli qurigan barglar, daraxt po'paklari, yelimlardan foydalanib qushlar, jonivorlar shakllarini qiziqib yasaydilar.

Barcha sinflarda oquv dasturi asosini, (ayniqsa, 1-sinflarda) bolaning ish xususiyatlarini hisobga olib, sanchmaydigan, qirqmaydigan, kesmaydigan asboblardan foydalangan holda po'pak, turli bo'sh qutilar, qutichalar, daraxtlarning urug'lari, qurigan barglardan, yelimlab, yopishtirib, plastilin yordamida yopishtirish yo'li bilan turli shakldagi o'yinchoqlar yasashni o'rgatish ishlari tashkil etishi kerak. Bu ishlarni o'rgatish jarayonida bolalarda yig'ilgan tabiiy materiallarni ip bilan ishlatishga, turar joyni asrab- avaylashga, tabiatni muhofaza qilishga o'rgatish bilan bir qatorda tejamkorlik hissini rivojlantirib borish ham shakllanadi.

Xullas, texnologiya fani dasturida o'quvchilar texnologiya darslarida egallashi lozim bo'lgan ilmiy texnik bilimlarning, mehnat ko'nikmalarini va malakalarni hajmi hamda mazmuni belgilab boriladi.

Texnlogiya darslarida ta'limning amaliy turlari - dars jarayonining asosiy qismlaridan biri bo'lib hisoblanadi. U o'zaro bog'langan bir necha elementlardan oddiy asbob va moslamalardan foydalana bilish, kerakli operatsiyalarni to'g'ri va ratsional amalga oshira bilish, ya'ni u yoki bu materialga ma'lum izchillikda ishlov bera borish, yo'l qo'yilgan xatoni o'z vaqtida aniqlash va to'g'rilay olish kabilardan tarkib topadi. Texnologiya fanining mazmuniga muvofiq o'quvchilar mazkur yosh uchun qulay bo'lgan materiallarga ishlov berishda qo'llaniladigan oddiy asbob va moslamalarni ishlatishning amaliy malaka va ko'nikmalarini egallaydilar.

Amaliy malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirish asosiy ishlab chiqarish operatsiyalarini o'rgatish ham demakdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari duch keladigan buyumlar texnologiyasi xilma-xildir, biroq bu masalani batafsil

o'rganmasdanoq ish operatsiyalarining tipikligini sezib olish qiyin emas, ular: materialni o'lchash va belgilash, ularga qirqib ishlov berish, qismlarni yelimlash; tikish, o'rish va bog'lash kabi yo'llar bilan birlashtirish va mustahkamlash, detallarni yig'ish va buyumni montaj qilishdir. Yakunlovchi operatsiya buyumni bezashdir. Boshlang'ich sinfda ta'limning amaliy turlari quyidagilardan iborat:

Mehnatning o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish turi

Maishiy-xo'jalik mehnati

Tabiat quchog'idagi mehnat

Qo'l mehnati.

Xilma-xil mehnat turlari o'zining pedagogik imkoniyatlariga ko'ra bir xil emas: ularning ahamiyati u yoki bu yosh bosqichida o'zgaradi.

Mehnatning o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish turi o'ziga xos xususiyati bilan ahamiyatli. Masalan, agar o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish birinchi sinflarda katta tarbiyaviy ahamiyat kasb etsa (u bolalarni mustaqillikka, qiyinchidliklarni yengishga o'rgatadi, malakalar bilan qurollantiradi). 2-3-sinflarda esa mehnat endi hech qanday zo'r berishni talab qilmaydi va u bolalar uchun odatdagi bir hol bo'lib qoladi.

O'z-o'ziga xizmat ko'rsatish mehnati bolaning ichki dunyosini ma'lum darajada to'ldirib boradi: bola foydali ish qilishiga, tevarak atrofdagilarga qo'lidan kelgunicha yordam berishga intiladi.

O'z-o'ziga xizmat ko'rsatish-bu tanasining tozaligiga, kostyumining batartib bo'lishiga muntazam sur'atda harakat qilish, buning uchun nimayiki zarur bo'lsa, barchasini ta'kidlashlarsiz o'z ichki talabidan kelib chiqib bajarishga tayyor turish, gigiyena qoidalariga rioya qilishdir.

O'z-o'ziga xizmat ko'rsatish bola uchun mehnatning asosiy turi bo'lib hisoblanadi. Bolalarni kiyinishga, yuvinishga, ovqatlanishga, kitoblarni o'z joyiga yig'ishtirib qo'yishga o'rgatish ularda mustaqillikni kattalarga kamroq qaram bo'lish

va o'z kuchiga ishonish hissini, to'siqlarni yengib o'tish istagi va ko'nikmasini shakllantiradi. Bolalar mehnat tarbiyasining asosiy mazmunini hisoblangan o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish o'z o'rnini mehnatning boshqa turlariga asta-sekin bo'shatib beradi.

Maktabda o'z-o'ziga xizmat ko'rsatishni tashkil etish va uning tarbiyaviy natijasi pedagogik jihatdan to'g'ri rahbarlik qilishda bog'liqdir. Chunki aynan ana shu katta yoshdagi kishilar o'z-o'ziga xizmat ko'rsatishni hamma bolalar ishtirok etadigan, mehnat vazifalari va o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish metodining mazmunini asta-sekin murakablashib boradigan xaqiqatdan ham mehnatning bu turini bolalarni tarbiyalash vositasidan biriga aylanadigan qilib tashkil etish metodi bo'yicha ijobiy fazilatlar hamda odatlarni ehtiyotkorlik, batartiblik, mustaqillik, mehnatsevarlik va shu kabilarni tarbiyalash bo'yicha jiddiy, qat`iy ish olib borish kerak.

Maishiy-xo'jalik mehnatini bajarish bolalarda alohida emotsional kayfiyat, mehnatsevarlik, tirishqoqlik atrofdagilarga xayrixohlik bilan munosabatda bo'lish, mehnat faoliyatining ijtimoiy ahamiyatli sabablari va shu bilan birga bolaning jamoatchilik asoslari kabi axloqiy sifatlarning shakllanishiga yordam beradi.

Maktabda maishiy-xo'jalik mehnati o'z mazmuniga ko'ra xilma-xildir.

Bolalarni maishiy xo'jalik mehnatiga muntazam jalb etish tirishqoqlik ko'rsatib ishlash odatini hamda shaxsning mustaqillik, bir-biriga g'amxo'rlik qilish, kattalarga iltifot ko'rsatish ular uchun biror bir yoqimli ish qilish istagi kabi sifatlarni tarbiyalash imkonini beradi.

Maishiy-xo'jalik mehnati jarayonida bolalarga narsalarga tejamkorlik bilan munosabada bo'lish ko'zga ko'rinmas tartibsizlikni seza bilish va o'z tashabbusi bilan uni bartaraf etishini tarkib toptirish uchun imkoniyatlar yaratadi.

7 yoshli bolalar uchun bunday mehnatni tashkil etishning

eng maqbul shakli navbatchilikdir. O'quvchilar navbatchilik vaqtida binoni(xona poli, eshik va oynani tozalab yuvish), maydonchalarni tartibga keltirish va shu kabilar bilan aloqador mehnat topshiriqlarini bajarish imkoniga ega bo'ladilar.

Maishiy-xo'jalik mehnatining ijtimoiy ahamiyatini bolalarning anglab olishlari uchun ular bilan bo'ladigan tarbiyaviy ishda mazmunan muvofiq keluvchi badiiy adabiyot kitoblar ilyustratsiyali rasmlar (masalan, «navbatchilik», «oilada bayramga tayyorgarlik») mazkur manbalar haqidagi suhbatlardan foydalaniladi.

Maishiy-xo'jalik mehnat mazmuniga kattalarning jamoa mehnatlarini kuzatish ishlari ham kiradi.

Bu kattalar mehnati haqidagi bilimning o'sishiga yordam beradi. Ayniqsa, kattalarning turmushdagi mehnatiga qiziqish va qo'llab-quvvatlashni, ularning har biri boshqalar uchun mehnat qilishi kerakligi haqidagi umumlashtirilgan tasavvurlarni shakllantirish masalasini ham hal qiladi.

Mehnat jarayonida bolalar katta odamning mehnatiga taqlid qiladi. Bu o'z navbatida, faqat ish usullarinigina ko'rsatib qolmay, u kundalik odatiy mehnatga qanday munosabatda bo'lish namunasi ham bo'ladi.

Sinf o'quvchilarini maishiy-xo'jalik mehnatga jalb etishda bir necha bolalarga biror bir ishni bajarish bo'yicha o'qituvchi topshiradigan umumiy topshiriqlar muhim o'rinni egallaydi. Bunday topshiriqlarning tarkibi xilma-xil va ular butun sinf uchun biror narsa qilish zarurligiga asoslanadi.

O'qituvchi bolalarni maqsadni mustaqil qo'yishga, ishni rejalashtirishga, uni oxirigacha yetkazishga asta-sekin odatlantiradi. Garchi sinfni tartibga keltirish zarurati har doim mavjud ekan, demak bu narsa juda muhimdir.

Sinf bolalarning maishiy-xo'jalik mehnatini tashkil etishning asosiy formasi- ularni ijtimoiy ahamiyatli mazmunga ega bo'lgan jamoa mehnat faoliyatiga jalb etishdir.

Xulosa qilib aytganda, 7 yoshli bolalarning maishiy-xo'jalik

mehnatida aktiv ishtirok etishlari bir vaqt 2 yo'nalishda: ijtimoiy ahamiyatli mazmunga ega bo'lgan jamoa mehnat faoliyati va topshiriqlarni, navbatchilik majburiyatlarini, atrofdagilarga foydali bo'lgan faoliyat maqsadini realizatsiya qilish bilan aloqador ishlarni bajarish orqali amalga oshiriladi. O'quvchilarga sinf xonasida tartib o'rnatishni, shkaflarning changini artishda va shu kabi ishlarda kattalarga maqsadlarini qo'yishda ularning o'zlari qilmoqchi bo'lgan ishlarining foydasini tushunishlariga, ularning mehnat faoliyatlari atrofdagilar uchun qanday ahamiyatga ega ekanligini anglay olishga erishish eng muhimdir.

O'quvchilarning atrofdagilarga yordam berishga yo'llangan qandaydir maishiy- xo'jalik mehnati ishlarini bajarishlarini tashkil etarkan, o'qituvchi har qanday vaziyatdan, har qanday tavsilotdan foydalanishga, o'quvchilarning birorta ham harakatlarini e`tiborsiz qoldirmaslikka intiladi.

Tabiat quchog'ida mehnat 2 xil yo'l bilan amalga oshiriladi.

Sinfda bajariladigan ishlar.

Sinfdan tashqari, ya'ni sinf uchun ajratilgan yer uchastkasida ishlash.

Muntazam jamoada ishlash bolalarni birlashtiradi, ularda mehnatsevarlik va topshirilgan ishga mas`uliyatni tarbiyalaydi, ularga qoniqish va shodlik baxsh etadi. Bolalarning sinfdan tashqari ish turlariga yer uchastkasida, jumladan, ekinzorda, gulxonada, mevazorda ishlash, shuningdek, tabiat burchagida o'simliklarni parvarish qilishlar kiradi. Bolalar shularga tegishli ish usullarini o'rganadilar, o'simliklarning o'sishi va rivojlanishi haqida ko'p ma'lumotlarga ega bo'ladilar.

Tabiatdagi mehnat bolalarda kuzatuvchanlik, qiziquvchanlik, tabiatni sevish, Vatanimiz boyligini yaratish va uni ko'paytirish, jonli narsalarga, mehnat natijalariga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishni o'rgatish maqsadida amalga oshiriladi.

O'simliklarni o'stirish va jonivorlarni parvarish qilish

bo'yicha mehnat ularni tabiat burchagida parvarish qilishni, ekinzor tashkil etish va sabzavotlarni o'stirishni, gulxona tashkil etish va gullarni o'stirish, o'simlik va mevali daraxtlarni parvarish qilishni o'z ichiga oladi.

Tabiat burchaklaridagi qushlar, akvariumdagi baliqlarni parvarish qiladilar va jonivorlar haqida ma'lumotlarga ega bo'ladilar.

Tabiat burchagidagi va uchastkadagi jonivorlar va o'simliklarni parvarish qilish bo'yicha eng muhimlari sifatida quyidagi mehnat jarayonlarini ajratib ko'rsatish kerak.

- qush va boshqa jonivorlar qafasini tozalash. (Tagliklarni, kalta tayoqchalarni, qum va suv qo'yiladigan idishlarni yuvish;
- ularni oziqlantirish;
- akvaruimdagi suvlarni almashtirish, mayda toshlarni yuvish, baliqlarni parvarish qilish;
- xona o'simliklarini sug'orish, parvarishlash;
- ekinzordagi ekinlarni, gulzordagi gullarni tagini yumshatish, suv qo'yib turish;
- ekin va mevalarni terib olish.

Qo'l mehnati ham boshqa mehnat turlari kabi bolalarni aqliy va jismoniy jihatdan rivojlantirish va ularni axloqiy jihatdan o'stirish va ularni axloqiy jihatdan tarbiyalashning muhim vositasi hisoblanadi. Qo'l mehnati turlariga o'quvchilarning qog'oz, karton, gazlama va boshqa materiallardan o'z qo'llari bilan turli buyumlar yasash ishlari kiradi.

Bu mehnat jarayonida o'quvchilar turli buyumlar yasash uchun ishlatiladigan materiallarning o'ziga xos xususiyatlari bilan qo'l mehnati uchun kerakli asboblarning tuzilishi va bu asboblarning ishlatilishi yo'llari bilan tanishadilar, matematika, tabiat, rasm va shu kabi boshqa fanlardan olgan bilimlarini amalda qo'llanilishini o'rganadilar.

Boshlang'ich sinflarda qo'l mehnati politexnika ta'limi yo'lidagi birinchi qadam bo'lib bolalarni yuqori sinflarda maktab o'quv ustaxonasi hamda o'quv-tajriba uchastkalarida

o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarga tayyorlaydi. Qo'l mehnati mashg'ulotlarida bolalarga eng oddiy buyumlar – o'yinchoqlar, o'yin uchun kerakli buyumlar, ko'rgazmali qurollar, o'qish asboblari va shu singari narsalar yasash o'rgatiladi. Qo'l mehnati dasrlarida bolalarga asboblarning tuzilishi va ishlashini, buyum yasashga ishlatiladigan materiallarning eng muhim xususiyatlarini ko'rsatib tanishtirish, suhbat chog'ida bu xususiyatlarni yaqqol ko'rsatish uchun eng oddiy tajribalar qilib ko'rish zarur. O'quvchilarda konstruktorlik sohasidan dastlabki ko'nikmalar, fazoviy tasavvur, ko'z bilan chamalash malakasini o'stirib borish nihoyatda katta ahamiyatga ega. Qo'l mehnati darslarida bolalarni buyum yasash uchun qancha material kerakligini eng oddiy ravishda hisoblash va o'lchashga, o'lchab-qirqishga, buyumning katta kichikligini ko'rishga muttasil o'rganib borish kerak.

Bolalarda mehnat madaniyati, botartiblik va shaxsiy gigiyena malakalari hosil qilib borishda ish joyining hamma vaqt tartibli bo'lishi muhim ahamiyatga ega.

Qog'oz va karton bilan ishlashda avvalambor ularning turlari o'rganiladi. Qog'oz va kartonning sanoat va turmushda qo'llanilishi haqida suhbat uyushtiriladi.

Qog'ozga kitoblar, gazetalar bosilishini, unga ruchka qalam bilan yozilishini barcha o'quvchilar yaxshi biladilar. Shuning uchun mehnat ta'limi o'qituvchisi bolalarning ko'proq e`tiborini turmushda tez-tez uchraydigan yoki qo'l mehnati darslarida foydalaniladigan turlariga jalb qilishi kerak. Qog'oz masalan buklanadi, yelimlanadi, unga tasvir tushirsa bo'ladi va hokazo. Uning xususiyati haqida bolada tasavvur hosil bo'lishi darkor.

Qog'ozdan buklash ishi:

sinf o'quvchilari qog'ozdan xatcho'p, bosh kiyimi, bayroqcha, archa bezaklari va turli o'yinchoqlar yasashni o'rganadi.

sinfda turli hajmdagi buyumlar, qutichalar, ona tili va matematika fanlari uchun ulashib beradigan kartochkalar,

qalamdon va hokazo.

sinf daftar, kitob soladigan xaltachalar, andaza asosida geometrik figuralar applekatsiya ishlari, uy shakli.

sinfda harakatli o'yinchoqlar, turli hayvonlarning shakllari, ertak illyustratsiyalar ishlanadi.

Qog'ozni tejash.

Gazlama bilan ishlash.

Boshlang'ich sinflarning texnologiya bo'limida dastur, qog'oz va karton bilan ishlash bo'limiga va gazlama bilan ishlash bo'limiga teng soat ajratilgan.

sinfda gazlama va tolali materiallar bilan ishlash 6 soat bo'lsa, qog'oz va karton bilan ishlashga 8 soat ajratilgan.

sinfda gazlamaga 8 soat bo'lsa qog'oz va kartonga 7 soat ajratilgan.

sinfda gazlamaga 11 soat qog'oz va kartonga 1 soat ajratilgan.

sinfda gazlama 10 soat bo'lsa, qog'oz va karton 12 soat.

sinfda gazlama va tolali materiallar bilan ishlash bo'limi asosan suhbatlar va chok tikish ilk mashqlari o'tkaziladi. Gazlama va tolali materiallarning tayyorlanishi paxta, kanop tolalari, junning qayerda yetishtirilishi, dehqonlar va chorvadorlar mehnati haqida tushuncha beriladi. Gazlamalar turlari haqida gapirilib ularning turlari ko'rsatiladi.

Asosan, gazlamalar va tolali materiallarni ishlatishda tejamkorlik xususiyatini shakllantirish, 1-2 sinflarda keng miqyosda tushuntirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki ko'p soat berilganligi uchun ko'zlangan maqsadga erishish mumkin. 1-sinfda kashta tikish turlari bilan tanishtirishdan boshlab, kiyim-kechaklarni tartibga solish mavzularida ish olib boradilar. Biz 1-sinfda gazlamalarning turlari, xossasi, ishlatish o'rnini suhbat asosida o'quvchiga tushuntirar ekanmiz, xomashyo gazlama bo'lib kelgunga qadar mehnatkashlarning qo'lidan o'tishi ularning ko'p mehnati singanligi, shuning uchun gazlamalardan bo'lgan kiyimlarimizni asrab-avaylashimiz ham

tejamkorlikning 1 turi ekanligini uqtirishimiz lozim.

3-4-sinfda 1-sinfdagi mehnat malakalari davom ettiriladi. Gazlama bilan ishlatiladigan asboblarning to'liq nomini bilishi kerak, ular bilan ishlash ko'nikmasini hosil qilish kerak.

Choklar nomlari va turlarini o'rganish. Kiyimlarga matodan aplikatsiya ishlari bajariladi. 3-sinfda asosan to'r to'qish, fartuk tikish, ularni naqshli kashtalar bilan bezash mavzulari o'tiladi. 3-sinfda tikish malakalari yanada rivojlangan, bemalol igna bilan ishlay oladilar. Eng muhimi ularni tejab, joy-joyiga ishlata bilish kerak.

Rang tanlash.

Sinfning 1-choragida ish fartugi, salfetkalar, sanitar sumkalari tikiladi. Unda o'qituvchi o'quvchilardan bu ishlarni mustaqil talab qilishi kerak.

Nazorat savollari:

1. Mehnatning o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish turi qaysilar
2. Tabiat quchog'ida mehnat necha xil usul bilan amalga oshiriladi.
3. Boshlang'ich sinflarda texnologiya ta'limi orqali qanday ko'nikmalar shakllanadi?
4. Boshlang'ich sinflarda texnologiya ta'limida qanday vositalar va materiallardan foydalaniladi?
5. Boshlang'ich sinflarda texnologiya ta'limi doirasida qanday loyiha va topshiriqlar amalga oshiriladi?

5-mavzu. O'quvchilarning mehnat tarbiyasida mehnat an'analarining o'rni

Reja:

1. Xalq merosida mehnat an'analarining o'rni.
2. Mehnat an'analarining o'quvchilar tarbiyasidagi ahamiyati.
3. Texnologiya darslarida mehnat an'analaridan foydalanishning shakllari.
4. Integratsiyalashgan ta'limning o'ziga xos xususiyatlari.
5. Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida integratsiyalashgan ta'limdan foydalanishning metodik xususiyatlari.

***

Tayanch tushunchalar: texnologiya, aniqlik, hunar, ko'rgaazmali, tabiat, bilim, ko'nikma, malaka, sezgi.

***

Boshlang'ich maktablarda texnologiya fani va an`analarining asosiy vazifalari o'quvchilarni mehnatga tayyorlash, o'qitish va umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida kasb tanlash izchilligini takomillashtirish, davlat ta'lim standartlari talabi bo'yicha tarbiyalash hamda o'quvchilarni kasb-hunar egasi bo'lib yetkazishda nazariy va amaliy bilim berishlardan tashkil topgan.

Mehnat madaniyatini tarkib topishi uchun darslarda doimo bolalarning e'tiborini asbob va materiallarni saqlash qoidasi

hamda joylashtirish tartibiga, ish joyini to'gri jihozlashga, materiallardan tejamkorlik bilan foydalanish usullariga, ish harakatlarini me'yori va sifatiga, ish ko'rsatkichini ta'minlovchi tadbirlarga, ishlov berishda olingan aniqlik va tozalikka rioya qilishga va nihoyat narsani chiroyli qilib bezashga talab qilib borish kerak.

Mehnatga axloqiy tayyorlash deganda eng avvalo, mehnatga ongli munosabatni shakllantirish tushuniladi. Shu o'rinda buyuk allomalarning hadislari- yu ilm, mehnat va hunar haqidagi fikrlaridan foydalanamiz:

1. Ey o'g'il! Qaysi fan bo'lmasin, to uni mukammal egallamaguningcha harakatni to'xtatma, bir ilm ikkinchi ilmni egallashga yordam beradi. Bir ilmni egallashga aqling yo'l berdimi, uni oxirigacha egallamay turib, chala tashlab qo'yma! (A. Sheroziy).

2. Hunarni asrabon netgumdir oxir, Olib tuproqqamu ketgumdur oxir (Alisher Navoiy).

3. Aziz do'stlar, oltin va kumushi bo'lmagan odam kambag'al emas, balki es- hushi va kasb-hunari bo'lmagan kishi kambag'aldir (Abdulla Avloniy).

4. Mehnat inson hayotini farovon qiluvchi davlatdir (Abu Rayxon Beruniy).

5. Mehnat qilmoq insonga xosdur. Agar sen inson bo'lsang, o'z xulqingni mehnat tumori bilan beza (Alisher Navoiy).

6. Sen avvalo mehnatni qadrla va o'zgalar qilgan mehnatni ham qadriga yet, shunda sen o'zingni haqiqiy mehnatsevar deb bilursan (Imom al-Buxoriy).

7. O'z mehnating bo'lsin doim yo'ldoshing,
O'zga minnatidan og'ritma boshing.
Kunlaring o'tarkan terib dur-hikmat,
Kunlaring to'liqdir bo'lsa hur mehnat (Abdurahmon Jomiy).

Mehnatga o'rgatishda bolaning imkoniyatlarini nazarda tutib, hissiy bilish jarayonini takomillashtirish zarur. Ma'lumki, mehnat faoliyati, texnologiya fani uchun ham turli sezgilar

yig'indisining (ko'rish, eshitish, his etish, ta'm bilish, teri, muskul harakati) namoyon bo'lishi xarakterlidir. Shuning uchun o'qituvchilar quyi sinf o'quvchilariga yangi materialni yoki asbobni tanishtirayotganlarida bolalardagi sezgining barcha turlarini faollashtiradilar: bolalar qog'ozni ushlaydilar, silaydilar, aylantirib ko'rib chiqadilar, uning qanday shitirlashiga quloq soladilar. Sezgilarning bunday faollashuvi ma'lumot haqida to'liqroq tasavvurga ega bo'lishga yordam beribgina qolmay, balki bu psixologik jarayonni rivojlantiradi, takomillashtiradi. Mehnatga tayyorlashning yanada muvaffaqiyatliroq bo'lishi uchun bolalarning xotiralarini o'stirish vazifasi ham albatta amalga oshiriladi. Texnologiya fani bo'yicha o'quv materiallarini eslab qolish boshqa buyumlarga nisbatan o'ziga xos xususiyatga ega.

Ta'lim amaliyoti ko'rsatishicha, maktab ta'limida fanlararo aloqadorlikni yo'lga qo'yish fan va jamiyat hayotida bugungi kunda sodir bo'layotgan integratsion jarayonlarning yorqin ifodasidir. Ushbu aloqadorlik o'quvchilarning bilimlarni ongli o'zlashtirishi, dunyo haqidagi yaxlit tasavvurlarni rivojlantirish va amaliy, ilmiy- metodik tayyorgarligini oshirishda muhim o'rin egallaydi. Bunday tayyorgarlik umumiy o'rta ta'lim o'quvchilarini darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda, ishlab chiqarishda va umuman har qanday faoliyatda o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini erkin qo'llash imkonini beradi. Hozirgi vaqtda pedagogik amaliyotda fanlararo bog'lanish asosida ta'lim jarayoni integratsiya yo'llarida izlanishlar davom etmoqda. Fanlararo bog'lanish, ya'ni integratsiya negizida o'quvchilarda fikrlash qobiliyatining har xil turlarini shakllantirish nazarda tutiladi, bu esa o'z navbatida bilim(anglash) jarayoni bilan chambarchas bo'g'liqdir. Professor R. Mavlonova fikriga ko'ra integratsiya(fanlararo bog'lanish):

- tabiatda mavjud bo'lgan obyektlar orqali o'quvchilarning shaxsiyatini shakllantirish;
- "tabiat - inson" tizimida aniq bilimlarga ega bo'lishi

uchun fikrlash qobiliyatini shakllantirish;

- materiallarni anglab yetish va didaktik moslashishni shakllantirish uchun o'rganuvchi materialni bilimning har xil tarmoqlaridan olish;
- bilim, ko'nikma, malaka tizimini ishlab chiqish;
- maktab o'quvchilarida har xil turdagi fikrlash qobiliyatini shakllantirish, buning uchun ruhiy mashqlardan foydalanish, materialni tez o'zlashtirishga yordam beradi, uni eslab qolish va hissiy anglash qobiliyatini shakllantiradi.

Integratsiya (lot. Integratio – tiklash, to'ldirish, integer – butun so'zidan) – o'zida bir qancha ma'nolarni birlashtiruvchi so'z bo'lib, shu ma'nolardan biri " ikki va undan ortiq fanlarning yaqinlashishi va o'zaro aloqa jarayoni" dir. Fanlararo bog'lanish ko'rgazmali ta'lim tizimi bo'lib, integrativ bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish asosida ko'rgazmali, mahoratni vujudga keltirish sirlarini o'rganadi. Ko'rgazmali ta'lim tizimi esa turli xildagi turlar, shakllar, usullar, ob'yektlar asosida quriladi. Boshlang'ich texnologiya fani integratsiyasi asosan, maktabda o'qitiladigan chegaradosh fanlararo tuziladi. Odobnoma, musiqa madaniyati, tasviriy san'at, mehnat, jismoniy tarbiya fanlari bir-biri bilan o'zaro bog'liq va bu fanlarning maqsadi axloqiy, estetik tarbiya berishdir. Bu fanlar bir-biriga yaqin chegaradosh fanlar hisoblanib ular takibiga kiritilgam materiallar bir-biriga juda yaqin. Masalan, tabiat manzaralari rang-barang tasvirlar, xilma-xil ko'rinishlar, o'lchamlarda ifodalangan. Bular kichik maktab yoshidagi bolalarga mos bo'lib bir tizimga tegishli bo'lgan tasavvurlarni boyitish imkonini hosil qiladi.

Bir-biriga yaqin, chegaradosh fanlar mazmuni o'quvchilarni har tomonlama ruhiy rivojlanishiga, ularda turli xil tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan. Har bir o'quv predmetini o'rganish bolaning materialni anglash jarayonini, unda eslab qolishni, ta'sirchanlikni faollashtiruvchi, tafakkurni, nutq va tasavvurni rivojlantiruvchi ruhiy diqqatni yaratishga imkon beradi. Ayniqsa, chegaradosh fanlardan egallangan bilim bir-biri bilan

uzviy bog'liq bo'lgan tafakkurning turlarini rivojlantirishda, fanlardagi mavzular mazmunining farqli va o'xshashlik tomonlarini bilib olishda, bir fandan olgan bilim, malaka va ko'nikmani boshqa fanlarda qo'llash uchun imkoniyatlarni hosil qiladi.

Har bir fandan shakllangan tafakkur bolalar tomonidan fikrlarni umumlashtirish, xulosalar chiqarish, ma'lumotlar to'plash vazifasini bajaradi. Uning xususiyatli tomonlaridan yana biri shundaki, u bolalarni fanlardan, jumladan, texnologiya fanidan real voqeliklarni, shakl va usullarni o'rganib ularni amaliy ishlarda qo'llashga o'rgatadi.

Fanlar aloqadorligida texnologiya fanini tashkil etish uchun o'qituvchi maktabda o'rganiladigan o'quv predmetlari bilan uzviy bog'lasa yaxshi natijalarga erishadi. Buning uchun mehnatning o'quv-ijodiy xususiyati hamda ilmiy bilimlardan foydalanishi kerak. Asosiy maqsad - o'quvchilar boshqa fanlar hamda mehnatdan olgan bilimlarini ijtimoiy foydali mehnat jarayonida qo'llash vazifasi bo'ladi.

Fanlar integratsiyasi bolalar mehnatining mazmuni va tashkil etishini aniq mahalliy ishlab chiqarish, xalq xo'jaligi ehtiyojlariga tayangan holda, zamonaviy ta'lim talablari asosida tuzish lozimligini taqazo etadi. Texnologiya fanining bu xildagi shakli o'quvchilarni umumiy mehnat va aniq kasbiy ko'nikmalar bilan tanishtiradi.

Fanlararo bog'liqlikni o'z o'rnida tashkil etish bilan bir qatorda integratsion o'quv topshiriqlarni tuzish va o'quvchilarni bir jarayonga jalb etish ularning dunyoqarashi kengayishi, tafakkur olamining boyib borishida, bundan tashqari ta'limsamaradorligini oshirishda muhim omillardan biri bo'lib hisoblanadi. Boshlang'ich sinflardagi "Tevarak atrofimizdagi olam", "Texnologiya fani", "Tasviriy san'at" darslari insoniyat tomonidan foydalaniladigan mehnat vositalarini turli tomondan tabiiy materiallar sifatida, uning xossalari, amaliy ahamiyati jihatdan ochib beradi. Bu bilan texnologiya fanining nufuzi

yanada oshadi va bolalarda iqtisodiy tafakkurni har tomonlama rivojlantirishga, uning ijobiy tomonlarga yo'nalganligini shakllantirishga imkon beradi. Fanlar aloqadorligida amalga oshiriladigan texnologiya fani va tarbiyasida har bir o'quv predmetining o'ziga xos xususiyatga ega ekanligini unutmaslik kerak. Masalan, jismoniy tarbiya darslari o'quvchilarning ijtimoiy foydali mehnat qilishda muhim bo'lgan sog'lig'ini yaxshilashga, ularning jismoniy va ruhiy kamchiligini bartaraf qilishga, chaqqonlik va ishchanligini oshirishga qaratilgan. Musiqa darslarida mehnat tarbiyasining muhim xususiyati, predmeti o'rganilibgina qolmay, balki mehnatga hissiy-ma'naviy tayyorgarlik ham ko'riladi.

Ona tili, matematika, tevarak-atrofimizdagi olam, odobnoma darslarida mehnat tarbiyasi alohida ahamiyatga ega. O'quvchilar atrof -muhitni o'rganish asosida og'zaki nutqni o'stirish bilan birga maktab ishchi xodimlarining kundalik mehnati bilan tanishadilar, o'z oila a'zolarining mehnati haqida, uy o'simliklari, ekologiya va salomatlik haqida, oyoq kiyimi va ustki kiyimlarni tozalash haqida tasavvurga ega bo'ladilar. Shuningdek, o'quvchilarga mehnat tarbiyasini singdirishda quyidagilar ham muhim ahamiyatga ega:

- Alifbe, musiqa, tasviriy san'at kitoblarining rasmlariga qarab o'quvchilar turli kasblar haqida tasavvurga ega bo'ladilar, ularda mehnatga nisbatan ijobiy munosabat shakllantiriladi;
- o'qish darsida boshlang'ich sinf o'quvchilari ko'pgina kasblar haqida ma'lumotlar oladilar;
- matematika darsida o'rgatiladigan hisob-kitob, o'lchovga oid bilimlar texnologiya fani darslarida buyumlar tayyorlash uchun zarur bo'lgan amaliy bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantiriladi;
- odobnoma darsida o'quvchilar mehnat qilish, mehnatsevarlik va kasb-hunar tanlashga oid o'zbek va Sharq mutafakkirlarining fikrlari bilan tanishadilar.

Yuqoridagilardan shunday xulosani aytish mumkinki,

integratsiyalashgan texnologiya fani natijalari o'quvchilarning ijodiy fikrlari, amaliy ishlarida namoyon bo'ladi. U texnologiya fanidan o'qish-bilish faoliyatini nafaqat jadallashtirish, tizimlashtirish va optimallashtirishga, balki turli soha madaniyatini egallashga ham imkon beradi.

Texnologiya fani bilan o'qish, odobnoma, ona tili, matematika, tevarak atrofimizdagi olam, jismoniy tarbiya va boshqa fanlari mazmunini integratsiyalash bu o'quv fanlarining turdoshlik xususiyatlaridan kelib chiquvchi ahamiyati shundaki darsning yanada mazmunli, qiziqarli va samarali bo'lishini ta'minlaydi.

Texnologiya darslarida bolalar ovqatlanish odobi, mehmon kutish odobi, kiyinish, dasturxon tuzatish odobi kabi axloqiy tarbiya me'yorlarini o'rganadilar. Bu ko'rinishdagi mavzularni odobnoma, o'qish, tasviriy san'at materiallarida ham ko'rish mumkin. 4-sinf o'qish fanining mavzularida mehnat tarbiyasiga oid materiallar izohlangan. Yana bir misol – matematika darsida o'rganiladigan o'lchov birliklari mehnat darsida gazmollar o'lchamini olishda, tabiatshunoslikda daraxtlarga ishlov berish, gullarni parvarishlash, yer ag'darish, ekin ekishlar haqida berilgan materiallarda texnologiya faniga oid materiallarni ko'ramiz.

Predmetlararo asosda tuzilgan integratsiya didaktik tizimga ega bo'lib, u o'qituvchi (ta'lim beruvchi) va o'quvchi(ta'lim oluvchi) harakatlarining mos kelishini ko'zda tutadi. Ikkala faoliyat ham umumiy tuzilish, ya'ni: maqsad, sabab, mazmun, vosita, natija va nazoratlarga ega. Biroq, o'qituvchi va o'quvchi faoliyatlari mazmunida quyidagi farqlar bo'ladi:

1. Maqsadli bosqichda o'qituvchi umumiy maqsadni qo'yadi, o'quvchilar esa o'qituvchi boshchiligida turli predmetlararo bog'liqliklarni tushunishlari, kerakli va turli predmetlararo bilimlarni tanlab olishlari kerak bo'ladi.
2. Isbotlash bosqichida o'qituvchi o'quvchilarning turli predmetlardan tushunchalarini umumlashtiradi, o'quvchilar

esa o'z bilimlarini kehgaytirishga bo'lgan qiziqishga irodalarini yo'naltirishlari kerak.

3. Faoliyat mazmuni bosqichida o'qituvchi yangi material asosida integratsion dalillar, tushunchalar, muammolar majmuyi darajasida predmetlardan olingan tayanch bilimlarni jalb qiladi.

Nazorat savollari:

1. O'quvchilarni texnologiya darslariga qiziqtirishda siz qanday usullardan foydalanardingiz?
2. Xalq merosida mehnat an`analarining o'rni haqida gapirib bering.
3. Mehnat an`analarining vazifasi nimadan iborat?
4. Texnologiya darslarida mehnat an`analaridan qanday shakllaridan foydalaniladi?
5. Ta'limning asosini tashkil etuvchi tamoyillar qaysilar?
6. Integratsiyalashgan ta'limning o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirib bering.
7. Integratsiyalashgan darslarning samaradorligini oshirishning asosiy omillariga nimalar kiradi?



6-mavzu: Boshlang'ich sinfda matematika o'qitishni tashkil qilish shakllari.

Reja:

1. Dars va uning vazifalari.
2. Matematika darsida asosiy didaktik maqsadlar.
3. Matematikadan dars turlari.

***

Tayanch tushunchalar: Dars,dars turlari, didaktik maqsadlar,darsning vazifalari.

***

Dars va unig vazifalari.

Dars o'qitish jarayoning asosiy bo'ginidir. "Dars" so'zining dastlabki ma'nosi- bu ma'lum muddatga bajarilishiga kerak bo'lgan mehnat topshirig'idir. Dars o'quv shakli sifatida XVII asrdan ya'ni 300 yildan buyon mavjud. Darsni bolalar faqatginia o'qib olmasdan balki jamoa bo'lib ishlaydir unda muloqotga bo'lish qoidalariga o'rganadilar va har biri alohida o'rganilayotgan narsada bir-biriga o'qituvchiga o'z munosabatlarini bildiradilar ana shu narsa tarbiyadir.

Darsning tuzilishi haqidagi masala matematika metodikasining umumiy qismi asosiy masalalardan biridir.

Matematika darslarining tuzilishi xususiyatlarini tamoman tushunib olish uchun har bir darsning tuzilishida hisobga olish lozim bo'lgan didaktik qoidalar bilan tanishib olish va darsning

tuzilishiga qanday bo'lmasin ta'sir qiladigan matematika shu jumladn arifmetikaga xos bo'lgan xususiyatlarni nazarda tutish kerak.

Matematika darslarida asosiy didaktik maqsadlar.

Darsni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rishda eng oldin darsning asosiy maqsadlarini aniq oydinlashtirib olish zarur. Darsda nazariya bilan amaliyotning bog'liqligi, algebraik va geometrik elementlarning arifmetika bilan bog'liqligi, didaktik maqsadlar amalga oshiriladi;

yangi material bilan tanishtiriladi va mustahkamlanadi, malaka, ko'nikmalar hosil qilishga doir ishlar o'tkaziladi.

Har bir darsda turli xil didaktik maqsadlar ko'zlanadi ular orasida bittasi bosh maqsad bo'lib hisoblanadi, uni darsning asosiy didaktik maqsadi deyiladi.

Har bir alohida darsning maqsadi darslar tizimining maqsadini aniqlab, uning yordamida o'qitilayotgan mavzuning mazmunini o'quvchilarga ochib beradi. Bu holda yangi tushunchalar bilan o'quvchilarni tanishtirish bo'lsa, ikkinchi holda tanishtirilgan tushunchani kengaytirsh va chuqurlashtirish, uchinchisida esa, bilim, malaka va ko'nikmalarni tekshirish va h.k. bajariladi. Har bir darsda yuqorida aytilganlarning bir nechtasi yoritilishi mumkin. O'tilganlarni takrorlash, o'tilgan bilimlarni yangi tizimga solish, shu bilan bilimlarni tekshirishni o'z ichiga oladi. Yangi materialni bayon qilish har kuni mashqlar bajarish bilan davom ettiriladi.

Maktablarning tajribasi darsning ma'lum tuzilishini biladiki, ko'pchilik o'qituvchilar bu tuzilishga rioya qilib, ma'lum natijalarga erishmoqda. Odatda darsning boshida uy vazifasi tekshiriladi yoki o'tgan mavzu takrorlanadi, so'ngra o'tgan mavzu yuzasidan savol – javob o'tkaziladi. Shundan keyin yangi material bayon etiladi va uni mustahkamlash uchun o'quvchilarga misol va masalalar yechdiriladi yoki nazorat savollari beriladi. Dars oxirida uyga vazifa va unga ko'rgazmalar

beriladi. Ba'zan bu maqsadlardan bittasiga bag'ishlanishi mumkin. Ana shu bitta maqsadni darsning asosiy didaktik maqsadi deyiladi va boshqalar unga bo'ysunadi.

Misol uchun «Ikki xonali sonlarni xona birliklarining yig'indisi bilan almashtirish» mavzusiga bag'ishlangan darsni qaraylik.

Dars maqsadi:

1. O'quvchilarni 2 xonali sonlarni xona birliklarining yig'indisi bilan almashtirishga o'rgatish.

2. Nollar bilan tugaydigan ikki xonali sonlarni qo'shish va ayirish malakalarini mustahkamlash.

3. Sonni yig'indiga qo'shish xossalarini o'rgatishga doir tayyorgarlik ishini o'tkazish.

Texnologik xarita tuzish darsni aniq rejalashtirishga yordam beradi. Texnologik xarita darslarning to'la ishlanmasidan iborat bo'lmay, balki, shu dars uchun majburiy bo'lgan asosiy bosqichlarini o'z ichiga oladi.

Dars № vaqti.

1. Mavzu:
2. Maqsadi:
3. O'tilganlarni takrorlash
4. Yangi materialni bayon qilish usuli.
5. Mustahkamlovchi mashqlar tizimi.
6. Uyga vazifa.

Dars maqsadlarini muvoffaqiyatli amalga oshirishning to'g'ri yo'llarini topishga darsning ta'limiy va tarbiyaviy vazifalarini, irodani qiziqishlarini va qobiliyatlarini rivojlantiruvchi vazifalarni aniqlash yordam beradi.

Dars mazmunini aniqlash uchun o'qituvchi quyidagi talablarga rioya qilishi kerak.

1. Dars mazmuni dasturiga mos kelishi va uning maqsadlaridan kelib chiqishi.

2. G'oyaviylik va e'tiqodni tarbiyalash. Darsda o'quvchilar dunyoqarashlarini kundalik axloq asoslari sifatida shakllantirish

uchun eng qulay, yaxshi sharoit yaratish zarur.

3. Darsni turmush bilan, o'quvchilarning shaxsiy tajribasi bilan bog'liqligi.

4. O'quv materialining o'quvchilarga tushunarli va ularning kuchlari yetadigan bo'lishi.

Dars mazmuniga har xil masalalar, mashqlar kiradi. O'qituvchi dars mazmuniga mos bo'lgan masalani tanlashi lozim.

Matematika darslarida bajariladigan asosiy ish turlari:

a) og'zaki mashqlar,

b) yozma hisoblashlar va masalalar yechish,

v) yasashga va o'lchashga doir mashqlar.

Hozirgi zamonning muhim talablaridan biri o'quvchilarning bilish va ijodiy faoliyatlarini faollashtirishdan iborat. Har bir dars fikrlash, ijod qilishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Bir necha shunday usullar bilan tanishaylik:

1) Butun sinfga topshirilgan ijodiy ishda har bir o'quvchining maksimal bilimini hisobga olish.

2) Maxsus didaktik materiallardan foydalanish.

3) Muammoli vaziyat yaratish, testlardan foydalanish.

4) Har xil ko'rsatmali va axborot- kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash.

5) Darsda musobaqa shaklidan foydalanish.

Darsda alohida va umumiy ishni birgalikda mohirona olib borish differentsiallashgan o'qitishni amalga oshirishda muhim hisoblanadi. O'qituvchining mahorati darsda o'quvchilar uning tushuntirishlarini qanday qabul qilishlariga, o'quvchilar qanday ishlashlariga, savollarga javob berishiga qarab baholanadi. Ma'lumki, boshlang'ich matematika asosan uchta kursdan iborat: unda arifmetika, algebra va geometriya elementlari bayon qilinadi. Bu yo'nalishlar bir – biri bilan uzviy ravishda bog'liq holda qaraladi. Bu esa kursda o'tiladigan matematika darsi tuzilishi va metodikasiga ta'sir qiladi.

Boshlang'ich matematika kursining xususiyatlari nazariy

bilimlar, amaliy malaka va ko'nikmalarni shakllantirish va o'zlashtirishni nazarda tutadi. Shu sababli har bir darsda yangi materialni o'rganish bilan bir qatorda ko'nikma va malakalarni mukammalashtirish ishlari olib boriladi.

Matematika darslarining xususiyatlari o'quvchilarning matematik materialni o'zlashtirish xususiyatlariga ham bog'liq: materialning abstrakt xarakterda bo'lishi ko'rsatma vositalarini, o'qitish metodlarini to'g'ri tanlashni, o'quvchilarga differentsial va individual yaqinlashishni talab qiladi.

Hozirgi zamon o'qituvchisi o'zida yuqori professional pedagogik madaniyatni, demokratik kelajkni ko'ra bilish sifatlarini mujassamlashtirish; o'zi o'qitadigan fanning so'nggi yutuqlarini, pedagogik va metodik nazariyani yaxshi bilish; psixologiya ma'lumotlariga asoslanishi; o'quvchilarning aqliy va axloqiy rivojlanishi usullarini izlashi kerak.

Matematikadan dars turlari.

Dars samaradorligi o'quv materialining mazmuni bilan uni o'qitish metodlari bilan o'quvchilarning faoliyatlari orasidagi bog'lanishlarning darajasiga bog'liq, shuningdek, dars alohida qismlarning o'zaro bog'liqligini qanday amalga oshirilishiga, o'quvchilarning nazariy va metodik tayyorgarligiga bog'liq. O'qituvchi dars rejasini tuzishda quyidagilarni e'tiborga olish kerak. Shu dars qanday qismlardan iborat bo'lish kerak, ularni qanday ketma-ketlikda joylashtirish, ular o'rtasida O'quv materialni qanday taqsimlash, bu qismlar bir biriga qanday bog'lanishda, ular darsning asosiy didaktik maqsadini amalga oshirishda yetarli miqdorda yordam bera oladimi va h.k.

Matematikadan dars turlari:

1. Murakkab dars.
2. Yangi materialni o'rganish darsi.
3. Bilim, malaka va ko'nikmalarni mustahkamlash darsi.
4. Takrorlash – umumlashtirish darslari.
5. Bilim, malaka va ko'nikmalarni nazorat qilish darsi.
6. Muammoli dars.

7. Noan'anaviy dars.

1. Murakkab darslar **- boshlang'ich sinflarda eng ko'p o'tiladi.**

Tuzilishi:

1. Uy vazifasini tekshirish.
2. Maxsus og'zaki mashqlar.
3. O'quvchilar oldiga dars maqsadini qo'yish.
4. Yangi materialni idrok qilishga tayyorlash.
5. Yangi materialni o'rganish.
6. Yangi materialni mustahkamlash.
7. O'tilganlarni takrorlash.
8. Darsni yakunlash va uyga vazifa berish.

2. Yangi materialni o'rganish darslari - murakkab va yangi materialni o'rganish darslari tuzilishi jihatidan o'xshash. Ammo, yangi materialni o'rganish darslarida asosiy vaqt yangi mavzuga beriladi. M: 20-25 minut. (Mus. 10-15 m).

3. Bilim, malaka va ko'nikmalarni mustahkamlash - bunday darsning maqsadi olingan bilimlarni mustahkamlashga yo'naltirilgan bo'ladi va unda mashqlar, amaliy va mustaqil ishlar asosiy vosita hisoblanadi.

Tuzilishi:

1. Dars maqsadini qo'yish.
2. Uy vazifasini tekshirish va o'rganilgan materialni mustahkamlash.
3. Darsni yakunlash va uy vazifasi berish.

4. O'tilganlarni takrorlash darslari – tuzilishi mustahkamlash dars kabi, takrorlash darslarida asosan o'rganilgan o'quv materiali tizimga solinadi va umumlashtiriladi. Takrorlash turlari:

1) o'quv yili boshida va kundalik takrorlash;

2) mavzu bo'yicha takrorlash;

3) umumlashtiruvchi takrorlash.

5. Bilim, malaka va ko'nikmalarni tekshirish va hisobga olish darslari

Tuzilishi:

1. Dars maqsadini aytish.
2. Nazorat ishining mazmuni bilan tanishtirish.
3. Ishni bajarishga oid qisqacha yo'l - yo'riq berish.
4. O'quvchilarning ishlarni mustaqil bajarishlari.
5. Ishni yig'ib olish.

O'qituvchi dars tugashiga 3-5 minut qolganda o'quvchilarga ishni tugatish zarurligini ogohlantiradi, ya'ni ular hamma yozuvlarni va hamma ishni tekshirishni erkin bajarib ulgursin. Qo'yilgan aniq vaqtda barcha o'quvchilar ishni topshirishlari zarur.

O'quvchilar ishini tekshirib bo'lgandan keyin, ikkinchi kun o'qituvchi nazorat ishining tahlilini o'tkazadi, u ishning natijasi haqida so'zlab beradi, yaxshi ishlarni ajratadi, qo'pol xatolarni aytib o'tadi.

6. Muammoli dars – muammoli dars. Muammoli vaziyatni hosil qilib dars o'tishni nazarda tutadi.

Tuzilishi:

1. Muammoli vaziyat hosil qilish.
2. Qo'yilgan muammoni hal qilish.
3. Yangi bilimlarni tadbiq qilishga doir maxsus mashqlar bajarish.
4. Bajarilgan ishlarga yakun yasash.

Ammo, bu reja o'zgarishi mumkin. Muammoning xarakteriga qarab, to'la yoki qimsman bajarilishi yoki uning ayrim punktlari birlashtirilishi mumkin.

Misol «42:3 ko'rinishdagi jadvaldan tashqari bo'lish» ni o'rganish.

1. Muammoli vaziyat hosil qilish. Siz, 46 ni 2 ga bo'la olasizmi? Buning uchun 46=40+6 almashtiramiz.

Endi 42:3 ni qaraylik, buni yuqoridagi usul bilan ishlab bo'lmaydi. (muammo).

2. Muammoni hal qilish. Buning uchun 42 ni 3 ga bo'linadigan 10 likka ajratimiz va qolgan birliklarga bo'lamiz.

42:3=(30+12):3=30:3+12:3=10+4=14 (og'zaki).

3. Yangi bilimlarni amalda qo'llash. 72:6, 52:4, 34:2.

4. Yakunlash. O'quvchilar bo'linuvchini qulay qo'shiluvchilar yig'indisi bilan almashtirish kerak degan xulosaga kelishadi. Ular shunday tanlanadiki, ulardan biri bo'luvchiga qoldiqsiz bo'linadigan sondagi 10 liklardan iborat bo'ladi.

Uyga vazifa. Uy vazifasining mazmuni bir tomondan darsda o'rganilgan yangi materialni mustahkamlashga qaratilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan keyingi darsga tayyorlashga qaratilmog'i kerak.

Matematika darsi tahlili.

1. Dars ahamiyatini aniqlash, mazmuni, usulini baholash.
2. Ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlari; dasturga mos kelishi, hayot bilan bog'liqligi, ilmiylik darajasi, qiziqishi, mustaqilligi, aqliy faoliyatlarini faollashtirish.
3. O'quvchilar bilan ishlashi, topshiriqlar berishi.
4. O'quv vositalari bilan ishlashi.
5. O'qituvchi qiyofasi.
6. Umumiy baho.

Yuqorida ko'rib chiqqan matematika darsining turlarida darsning mazmuniga bog'liq bo'lgan ba'zi bir xususiyatlar kelib chiqadi. Ya'ni matematika darsi o'quvchilarning amaliy ishlariga ham qaratilishi mumkin: o'lchashga doir, geometrik figura chizish, predmetlarni tortish, o'qituvchi tomonidan ko'rsatmalar kiritish, o'quvchilarning kichik guruhlarda ishlashini tashkil qilish, bajarilgan ishlarni o'qituvchi qabul qilish va boshqa ishlarni amalga oshirish mumkin.

Bunday dasturning xususiyati shundan iboratki, bu yerda o'quvchilar faqatgina darslik va daftar ustida ishlash bilan shug'ullanmay, balki o'lchash, chizish va boshqa qurollar bilan ishlashga o'rganadilar.

Nazorat uchun savollar:

1. Boshlang'ich sinf matematikasidan dars turlarini sanang.

2. Darsda individual va guruhli ishlar olib boorish haqida nimalarni bilasiz?
3. Dastlab uzunlikni o'lchashda qaysi tushuncha orqali kiritiladi?
4. Matematikadan qanday darsturlar bor?



7-Mavzu: Ta'limning darsdan tashqari yordamchi shakllari (to'garak, matematika kechasi va boshqa turlari)

Reja:

1. Ta'limning darsdan tashqari yordamchi shakllari (to'garak, matematikakechasi va boshqa turlari).
2. O'zlashtirmaydigan o'quvchilar bilan ishlash; o'quvchilar uy vazifalari,uni tashkil qilishga qo'yilgan talablar.
3. Xatolar ustida ishlash, o'quvchilar bilimini tekshirish metodlari.
4. Darsdan tashqari mashg'ulot turlari.

***

Tayanch tushnchalar: matematik kecha, to'garak, ekskursiya, sinfdan tashqari ishlar, mustaqil uy ishlari

***

Matematikadan sinfdan tashqari ishlarning mohiyati va uning turlari

Boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari ishlarning asosiy maqsadi– o'quvchilarda fanga qiziqishni rivojlantirish, boshlang'ich matematika asosiy kursida olinadigan bilimlarni to'ldiruvchi va chuqurlashtiruvchi matematik fakt va ma'lumotlar, malaka va ko'nikmalar zahirasini to'plashdan iborat.

Matematikadan «sinfdan tashqari ish»lar deyilganda o'quvchilarning darsdan tashqari vaqtda tashkil qilingan, dastur

bilan bog'liq bo'lgan material asosida ixtiyoriylik tamoyiliga asoslangan mashqulotlar tushuniladi.

O'quv ishini tashkil etishning darsdan tashqari quyidagi shakllari mavjud:

1. Mustaqil uy ishlari.
2. O'quvchilar bilan yakka va guruh mashg'ulotlar.
3. Matematikaga qobiliyatli o'quvchilar bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlar.
4. Matematikadan sinfdan tashqari mashg'ulotlar.
5. O'quvchilar bilan ishlab chiharishga, tabiatga ekskursiya.

Yuqorida sanab o'tilgan ish shakllari va dars bir-birini to'ldiradi. Asosiy masala darsga taalluqlidir. Darsda hamma ishlarga bevosita o'qituvchi rahbarlik qiladi. Qo'shimcha mashqulotlarda esa ish o'qituvchining o'zi tomonidan yoki

o'qituvchi rahbarligida o'quvchilar tomonidan bajariladi.

Sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarning matematik bilimlarini chuqurlashtirishva kengaytirish, murakkab misol va masalalarni echishni mashq qilish, matematikaning hayot bilan bog'liq bo'lgan tomonlarini ochadigan va dasturga kirmagan ba'zi savollar bilan tanishtirishni maqsad qilib oladi.

Sinfdan tashqari ishlarning quyidagi turlari uchraydi:

Matematik o'n minutlik, qiziqarli matematika soatlari, matematik to'garaklar,olimpiadalar, qiziqarli matematik kechalar, matematik ekskursiyalar. Shuningdek, matematik gazetani chiqarish, matematik viktorina va burchaklarni tashkil qilish.

Sinfdan tashqari ishlar orqali quyidagilar amalga oshiriladi:

-bilimlarni va amaliy ko'nikmalarni chuqurlashtirish hamda kengaytirish;

-o'quvchilarning mantiqiy tafakkurlarini, topqirliklarini, matematik ziyrakliklarini rivojlantirish;

-matematikaga qiziqishlarini orttirish, qobiliyatli va

layoqatli bolalarni topish, talabchanlik, irodani tarbiyalash, mehnatga muhabbat, mustaqillik, uyushqoqlik va insoniylikni tarbiyalash.

Sinfdan tashqari ishlar darslarga nisbatan ba'zi farq qiluvchi xususiyatlarga ega:

1. O'z mazmuni bo'yicha matematika dasturiga taalluqli emas. Ammo beriladigan bilimlar o'quvchilarning kuchiga mos bo'lishi kerak.

2. Sinfdan tashqari ishlar imkoni boricha barcha o'quvchilarni jalb qilishi, ya'ni qiziqarli bo'lishi zarur. Past o'zlashtiruvchi o'quvchilar ham qiziqish yordamida faol o'quvchilarga aylanishi mumkin.

3. Sinfdan tashqari ishlar ixtiyoriylik tamoyiliga asosan tashkil qilinadi, lekin qiziqishni ta'minlash lozim. Bu mashqulotlarga baho qo'yilmaydi, ammo faol ishtirok etgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

4. Mashqulot mazmuni va shakllariga qarab, 10–12 minutdan 1 soatgacha mo'ljallangan bo'lishi mumkin.

5. Sinfdan tashqari ishlarning mazmuni va shakllarining turli-tumanligi.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda : qiziqarli matnli masalalar, o'tkir zehnlilikka oid masalalar, hazil masalalar, berilgan ma'lumotlari yetishmaydigan yoki berilgan ma'lumotlari ortiqcha masalalar, mantiqiy masalalar, qiziqarli matematik voqealar, arifmetik rebuslar, o'yinlar, fokuslar, boshqotirmalar tarixiy ma'lumotlar berish va boshqa ko'rinishdagi topshiriqlar bajariladi.

Maktab amaliyotida hozir sinfdan tashqari ishlarning quyidagi shakllari uchraydi: matematik o'n minutliklar, soatliklar, matematika kechalari, matematika to'garaklari, ertaliklar, viktorinalar, tanlovlar, olimpiadalar.

Sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilish va o'tkazish metodikasiquyidagilarga asoslanishi kerak:

1. Darsda o'quvchilar olgan bilim, malaka va ko'nikmalarni

hisobga olgan holda o'tkaziladi.

2. Sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarning xohishi, havaskorligi, ijodkorligi tamoyillariga asoslanishi va ularning individual fikrlarini qoniqtirish maqsadida tashkil qilinadi.

3. Sinfdan tashqari ishlarni o'tkazish shakllari darslardan farq qilib, qiziqarli tomoni kuchli bo'ladi. Buning uchun zaruriy shart shuki, o'tkaziladigan ishning rejalashtirilishi va tizimliligining murakkabligidadir.

Endi sinfdan tashqari ish <u>turlari</u> bilan tanishib chiqaylik.

1. <u>Matematik o'n minutliklar, soatlar.</u>
2. <u>Matematika to'garaklari.</u>
3. <u>Matematik konkurs va olimpiadalar.</u>
4. <u>Qiziqarli matematika kechalari va viktorinalar.</u>
5. <u>Matematik matbuot.</u>
6. <u>Matematik ekskursiya.</u>

Matematik o'n daqiqalik va soatlar, to'garaklar , tanlovlar,olimpiadalar.

<u>Matematik o'n daqiqaliklar-</u> odatda, bu mashg'ulotlar haftasiga bir martabutun sinf bilan o'tkaziladi. Uni dam olish vaqtlarida, tabiatga, maktab hovlisiga chiqib o'tkazish mumkin.

Uning <u>mazmuni</u> o'quvchilarda matematikaga qiziqish uyg'otish va topshiriqlar darslardagi matematik topshiriqlardan farq qilishi kerak; Topshiriqlar o'quvchilarga tushunarli bo'lishi, javoblarning tez topilishi va <u>og'zaki</u> bajarishni hisobga olinishi kerak. ***Misol...***

<u>Qiziqarli matematika soat</u> - darsdan keyin sinfning hamma o'quvchilari bilan o'tkaziladi. U oyida 1-2 marta o'tkazilishi mumkin, mashg'ulotlar I sinfda 20-25 minut, II sinfda 25-30 minut, III-IV sinfda 30-40 minut davom etishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mashg'ulotlarni o'tkazish uchun qiziqarli masalalar, qiyinroq masalalar, rebus boshqotirgichlar, topishmoqlar va boshqalar material bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Quyida sinfdan tashqari mashg'ulotning ko'rinishi bo'lgan " Qiziqarli matematika soati "ini o'tkazishga doir namina quyidagilarni keltiramiz:

M: 1) Yo'limni yoritar ikkita chiroqcha, chiroqcha ustida pilik qalamcha Bular nima? (Ko'z, qosh).

2) Og'zida 4 ta tishi boru,

yegani pichan. Bu nima? (panshaxa). **She'riy masala:**
Sulton tutdi 13 cho'rtanTolib tutdi 4 sazanOlim tutdi 2 laqqa
Necha baliq chiqdi qirg'oqqa? (19)

Matematika to'garagi – sinfdan tashqari ishlarning tizimli ravishda o'tkazilib turiladigan shaklidan biridir. Uning asosiy vazifasi – matematikaga alohida qiziquvchi o'quvchilar bilan bajariladigan chuqurlashtirilgan ish.

To'garaklar, ikkinchi sinfdan boshlab oyiga 1-2 marta o'tkaziladi. To'garaklarda bir maktabning parallel sinflari o'quvchilar yoniga bir necha maktabo'quvchilari ham qatnashishi mumkin (matematika klubi).

To'garak mashg'ulotlarini o'tkazishda o'quvchilar katta mustaqillik va tashabbus ko'rsatadilar: ular qisqacha tarixiy ma'lumotlar tayyorlaydi; ko'rgazmali qurollar tayyorlaydi, matematika kechalariga tayyorgarlik

ko'radilar.

Shu bilan bir qatorda ular to'garakda turli masalalar yechadilar, rebus, boshqotirgichlar, topishmoqlarni topadilar, didaktik o'yinlar o'tkazadilar.

Matematika to'garagini o'tkazish uchun uning oldindan ish rejasi tuziladi. Namuna. I Mashg'ulot.

1. Rebuslar o'ylab topish.
2. Qizizarli masalalar yechish.
3. 100 ichida nomerlashni bilganlikni tekshirishga oid mashq.
4. Boshqotirma.
5. Hazil masala.
6. Topishmoq.

7. «Quvnoq sanoq» o'yini.

Matematika tanlov va olimpiadalar. – matematik konkurslar qiyin masalalar yechish va o'tkir zehn, tez tushuna olishni talab qiluvchi topshiriqlarnibajarish bo'yicha o'ziga xos musobaqalardir. Uning asosiy maqsadi tez tushunadigan, ziyrak matematikni, yaxshi sinfni aniqlashdan iborat.

Konkurs mavzusi va uni o'tkazish vaqti oldindan belgilanadi. Masalan: masalalar yechish, geometrik topshiriqlar, og'zaki va yozma hisoblashlar.

Tajribalarda aniqlanishicha, o'quvchilar 100 ichida amallarni o'rganishi bilanoq konkurslar o'tkazish mumkinligini ko'rsatmoqda. Misol: 1. S. bilan N. birgalikda 30 ta konfetti bor. Ular baravardan eganlaridan keyin S=9 ta N=5 ta konfetti qoldi. Ular nechtadan konfet yeyishgan?

Matematika olimpiadalar maktabning hamma sinflarini ham jalb qilgan holda o'tkaziladi. Olimpiadalar yiliga bir marta matematikaga qobiliyati ko'proq o'quvchilarni aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Olimpiada boshlang'ich sinfning 4 – sinfida o'tkazilishi mumkin. Olimpiadalar qatnashchilarning tarkibiga qarab maktab, tuman, shahar...da o'tkazilishi mumkin.

Maktabda olimpiadasining maktab direktori tasdiqlagan komissiya boshqaradi. Komissiya topshiriqlarning mazmunini, qatnashchilarni tanlash shartlarini aniqlaydi, olimpiada o'tkazilish vaqtini belgilaydi. Maktabda o'tkaziladigan olimpiada ikki turga bo'lib o'tkaziladi.Birinchi turda xoxlovchi o'quvchilar qatnashib o'n balldan sakkiz ball olgan o'quvchi ikkinchi turda ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Matematik kechalar va viktorinalar.

Matematik kechalar va viktorinalar - matematika kechalarini matematika to'garagining hisoboti tariqasida, shuningdek o'quvchilar hisoblashlarni yozma va og'zaki hollarini o'rganib olganlaridan keyin o'tkazish mumkin. Uning **maqsadi** o'quvchilarning matematikadan bilimlarini amalda tadbiq qilish qobiliyatlari, og'zaki va yozma, tez hisoblash

ko'nikmalari, fazoviytasavvurlarini hisobga olishdan iboratdir.

Matematik kechalarni matematika to'garagining hisoboti xarakterida o'tkazish mumkin. Kechaning maqsadi o'quvchilarning matematikadan bilim malakalari , nazariyani amalda tadbiq qilish qobiliyatlari , og'zaki va yozma hisoblash ko'nikmalarini , fazoviy tasavvurlari , geometrik tushunchalaru va boshqalarni hisobga olishdan iboratdir.

Kechani ikki bo'limdan iborat qilib, maktabdagi I – IV sinf o'quvchilarini qatnashtirib o'tkazish mumkin.

I bo'lim.

1. Sanoq o'yini –ashula-qatnashchilarning hammasi bajaradi.

2. " O'nta quyoncha o'yini " (bajaruvchilar – birinchi sinfo'quvchilari)

3. "O'nta quvnoq bola "(bajaruvchilar – birinchi sinf o'quvchilari)

4. "She'riy ko'paytirish jadvali" (bajaruvchilar ikkinchi sinf o'quvchilari)

5. "She'riy masalalar" (bajaruvchilar – uchinchi sinf o'quvchilari)

6. "O'ylagan sonni topish" (bajaruvchilar-to'rtinchi sinfo'quvchilari)

7. "Kim tezroq", " Kim to'g'riroq" topish o'yinlari (bajaruvchilar I – IVsinf o'quvchilari)

Matematika viktorinasi. (I – IV sinf o'quvchilari) II bo'lim.

1. Masalalar yechish (IV sinf)

2. She'riy kvadrat (III sinf)

3. She'riy kub (IV sinf)

4. Topishmoq masalalar (I – IV sinflar)

5. Ajoyib xotira (II – III sinflar)

6. O'yinlar : "Kim tezroq " , " Kim to'g'riroq " (III – IV sinflar).

7. Gimnastika nomerlari (ko'paytirish) (II sinf)

8. Matematik mavzuga oid sahna ko'rinishi qo'yish. (Masalan : Nosovning" Qiyin masala) sahna ko'rinishi va hokazo.)

Kechaning birinchi bo'limi oxirida o'tkaziladigan matematik viktorinaning namunasini keltiramiz. Bunda kechadagi o'quvchilar ikki kichik guruhga bo'linadi: I – II sinf o'quvchilari bir guruhga bo'linib , ular bilan bir o'quvchi (bir o'qituvchi uning ishini kuzatib boradi), III – IV sinf o'quvchilari ikkinchi guruhga bo'linib , ular bilan ikkinchi o'quvchi (u yerda ham ikkinchi o'qituvchiuning ishini kuzatib boradi) matematik viktorina o'tkazadi.

Uning mazmuni tarixiy ma'lumotlar, hisoblashlar va qiziqarli masalalar va matematik o'yinlardan iborat bo'ladi. 1 sinfda «Raqamlar bayrami» kechasini

o'tkazish mumkin. 10 gacha

Misol.

Ikki oyoq ikki qo'l.
Ikki hajmin bildirar.
O'ylab unga ko'p misol.
Qani kimlar keltirar.
Ayirish ham bir yumush,
O'ylab ko'rib qilgin ish,
Katta sondan kichkina,
Mumkin, faqat ayirish.

Kechaga ota – onalar, o'qituvchilar va xoxlovchilar qatnashishadi.

O'quvchilar viktorinaning savollarga qaysi biri ko'p, to'g'ri va aniq javob bersa, unga mukofot yoki matematika kechasidagi viktorinada birinchi o'rinni olganligi uchun " Taqdirnoma" topshirish kerak.

Matematik viktorinaga doir savol va masalalar yengil va qiyin mashqlardan iborat bo'lishi kerak.Buning bilan biz kechadagi yaxshi va bo'shroq o'qiydigan o'quvchilarni qiziqtira olamiz. Chunki yengilroq savollarga ham hamma o'quvchilar javob bera oladi.Unga javob bergan o'quvchilar qiyin savol va

masalalarni yechishda qo'rqmasdan o'z bilimini sinaydi.

Kechaning qiziqarli va jonli o'tishi uchun turli sinf o'quvchilari yakka- yakka va jamoa bo'lib tez – tez chiqib tursalar hamda mavzular bayoni bir - biridan boshqacha bo'lsa,qatnashuvchilarda zo'r qiziqish vijudga keladi. Dasturning asosiy qismi " Kim tezroq topadi " tipdagi matematik o'yinlar bo'lishi kerak. Sahnaga bir sinfning o'quvchilari chiqishadi. Ular ikki qator bo'lib turadilar.Har bir qatorning boshida o'zining rahbari bo'ladi.O'yin shunday o'tadi: bir guruh ikkinchisiga misollar ,masalalar , topishmoqlar, qiyin masalalar, viktorina va boshqalar beradi. Javoblar qarshi tomonning nomma – nom chaqirishi bo'yicha beriladi. Misol yoki masalalarga javob bera olmagan o'quvchi o'yindan chiqadi va o'z o'rtoqlaridan birining orqasiga o'tib turadi. O'yinda yutganlarning soniga qarab qaysi guruhning yutgani aniqlanadi.

Sinflar o'rtasida guruh musobaqalari o'tkazish mumkin. Bularning har bir guruhiga bir necha bir xil masala va vazifa topshiriladi. Qaysi guruh tez va to'g'ri ishlasa, shu guruh yutib chiqadi. Matematik o'yinlar o'tkazilayotgan vaqtda she'riy masalalar, namoyishlar va boshqalar bilan alohida chiqishlar tavsiya etiladi. Bularni yechishda ishtirok etuvchilar hammasi qatnashadi.

Qatnashuvchi o'quvchilar sahnaga chiqib tomoshabinlarga dasturlarini ko'rsatadilar. Kecha dasturiga doiraviy o'yinlar kiritilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan: " Yarimtalab 100 gacha sanash ", " Ilon izi hisoblash " va boshqalar. Og'zaki diktant mashqlari o'tkazish mumkin. Quyidagiga o'xshash qiziqarli masalalar yechish mumkin.

Bolalarning yoshlari va o'qiydigan sinflari bir – biriga qanchalik yaqin bo'lsa, kecha o'quvchilarga shunchalik ko'p foydali bo'ladi. Agar ikkita bir xil sinflar bo'lsa, kechada sinflar qo'shib o'tkazilsa ham bo'ladi. Kechaga doir maxsus matematik gazeta chiqarib, undagi masalalardan bir nechtasini kim to'g'ri yechgan bo'lsa, ularga mukofot berib o'quvchilarni qiziqtirish

kerak. Xuddi shunday maxsus tayyorlangan jadvallar, diagrammalar, sxemalar savollariga to'g'ri javob topgan o'quvchilarni ham qiziqtirish mumkin. Kechani boshlashdan oldin maktab zalini matematikaga doir plakatlar, shiorlar, jadvallar, matematik devoriy gazeta, ulug' matematiklarning rasmlari va boshqalar bilan bezatish mumkin. Kecha orasida matematik viktorina o'tkazish maqsadga muvofiq.dir. Keyingi vaqtlarda matematik kechalardagi yangilik – " Qiziqarli matematik o'yin"ni o'tkazishdir. Buning uchun o'qituvchi oldindan tayyorlangan tangalarni o'quvchilarga tarqatadi. Bu bilan o'quvchilarning bir

qismiga masalaning yoki misolning sharti berilsa, ikkinchi qismiga shu topshiriqning yechimi tarqatiladi. Tanganing har bir kartondan kesilgan qandaydir bir geometrik figura (kvadrat, uchburchak, tog'ri to'rtburchak va hokazo.) bo'lib, ustida yuqoridagilar yozilgan bo'ladi. Kecha davomida o'quvchilar bir – birini topib, ya'ni topshiriq va uning javobini topib, hakamga murojaat qiladilar. Kechada o'quvchilar " Kalendar va uning tuzilishi ", " Odamlar hisoblashni qanday o'rgandilar ", " O'lchovlarning metr sistemasi " va boshqa mavzular yuzasidan qisqacha ma'ruzalar o'tkazishlari zarur. Bulardan tashqari sinf cho'ti yordamida " Kim tez hisoblaydi?" degan o'yinlar o'tkazish mumkin. Bunday mashg'ulotlar o'tkazish natijasida o'quvchilar olgan bilimlarini mustahkamlagan va matematika faniga qiziqishini oshirgan bo'lamiz. Buni tajribali o'qituvchilar o'z ishlarida qo'llab isbotlaganlar.

Matematik matbuot va ekskursiyalar.

Matematik matbuot – Boshlang'ich sinflarda chiqariladigan gazeta mazmuni ko'proq qiziqarli materiallar asosida tashkil qilinadi. Uni to'garak a'zolari chiqarishi mumkin. Gazeta, odatda matematik burchak deb ataluvchi burchakka osib qo'yiladi.

Matematika burchagida matematikaga tegishli o'quv asboblari, materiallari o'quvchilarning namunali ishlari

saqlanadi.

Matematik ekskursiyalar – ning asosiy maqsadi – haqiqiy,hayotiy ma'lumotlar va taassurotlarni talab qilish va o'quvchilarni shu asoslar bilan turmushda uchrashtirish. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar bilan bu turdagi ekskursiyalarni o'tkazish ancha qiyindir, shuning uchun o'qituvchi puxta tayyorgarlik ko'rishi kerak bo'ladi.

U ekskursiya o'tkaziladigan joyga borishi, ekskursovodga qanday tushuntirish berish haqida, vaqti haqida ko'rsatmalar berishi kerak. Ekskursiyadan ko'zlangan maqsad o'quvchilarga tushunarli bo'lishi muhimdir, shunday bo'lgandagina ular oldindan nima qilishlari kerakligini va o'zlarini qanday tutish kerakligini bilib oladilar.

Maktabning joylashgan o'rniga qarab, ustaxonalarga, fabrikalarga,

fermalarga, dalalarga va boshqa joylarga ekskursiyalar o'tkaziladi.

O'quvchilar bunda ishchilarning mehnatlarini kuzatadilar va mahsulot hajmini, materiallar sarfini, ish umumini, tejamkorlikni tavsiflovchi son ma'lumotlarini qayd qilib boradilar. Ekskursilardan olingan «Jonli» sonlar o'quvchilarning o'z masalalarini tuzishi va yechishlariga, ko'rgazmali qurol tayyorlashlariga asos bo'ladi.

O'quvchilar bilimini o'quv jarayonida tekshirishning ahamiyati.

Matematika o'qitishda o'quvchilarning misol va masalalarni to'g'ri yechilganligini tekshirishmuhim ahamiyatga ega.

Matematikadan bilimlarni tekshirishda faqat dastur talabiga yarasha u yoki bu bilimlarning o'quvchilar ongida bo'lishligini hisobga olmasdan, balki sifatini xarakterlaydigan quyidagilarni ham e'tiborga olish kerak:

1) O'quvchilar mulohazasi va tushunchalarining o'qitilayotgan ob'yektgamos kelishi;

2) aniqlik, ya'ni detallarning to'g'riligi;

3) to'liqlik, ya'ni ob'ekt va jarayonlarga taalluqli mulohaza vatushunchalarning yetarli va to'liqbo'lishi;

4) Ob'ekt va jarayonlardagi muhim belgilarni, tushuncha va mulohazalardaaks ettirish;

5) onglilik, ya'ni tushunchalar orasidagi bog'lanishni tushuna olish vamulohazalarni asoslay olish;

6) mustahkamlik, ya'ni o'quvchilar xotirasida uzoq saqlab qolish.

O'quvchilar bilimini tekshirish va baholash didaktikada barcha fanlar uchun umumiy qilib berilgan. Bilimlarni tekshirish va baholash maqsadi o'qituvchi uchun o'quv materialini o'quvchilarning o'zlatirish sifatini, dasturdagi bilimlarni egallash darajasini, malaka va ko'nikmalarni hosil qilinganligini aniqlashdan iboratdir.

Bu orqali o'qituvchi o'quvchilarning o'quv faoliyatini o'quvchilar matematikadan o'zlashtirishi majburiy bo'lgan bilimlar hajmini o'quv dasturi bilan soltshtiradi. Shu hajmni o'zlashtirish va mustaqil masalalar yechishga erishish uchun lozim bo'lgan bilimlar hosil bo'ldimi yoki yo'qmi ekanligini doimo nazorat qilib boradi.

Yangi masalalarni yechishda bilimlarni amaliyotga qo'llash va o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning matematikadan bilim va malakalarini tekshirishning usullari xilma-xil bo'lib, ular o'quvchilarning og'zaki yoki yozma bayon qilishi, masala yoki misol yechishi, aniq bilimlardan foydalanib chizish, o'lchash, laboratoriya ishlarini bajarilishi kabilar orqali aniqlanadi.

Masalan, o'quvchi ko'paytmani ko'paytirishdan hosil bo'lishini bilsada, "ko'payuvchi 15, ko'paytuvchi 6, ko'paytmani toping" – degan masalani yechishda qiynaladi. Shuning uchun o'quvchining har bir javobida yuqorida aytilgan bosqichlarni bajarish zarur.

O'quvchilar bilimini og'zaki aniqlash

O'quvchilar bilimini tekshirishning yana bir usuli o'quvchilardan individual so'rash hisoblanadi. Bu so'rash

uncha katta bo'lmagan og'zaki hisoblash bilan bog'langan bo'lishi kerak. Bunday so'rashni o'qituvchi odatda uy vazifasini tekshirish bilan bog'laydi.

Og'zaki hisoblash malakalarini tekshirish maqsadida sinfning barcha o'quvchilari bilan misol va masalalar yechishda qo'llaniladi. O'qituvchi misolni aytadi, o'quvchilar og'zaki yechib, daftaridagi taalluqli raqam to'g'risiga faqat javoblarini yozib qo'yadilar. Bunday topshiriqni har bir darsda 7–10 minut davomida o'tkazish maqsadga muvofiq.

O'quvchilar bilimini yozma ish orqali aniqlash

Bilimlarni to'laroq tekshirish uchun dasturning o'tilgan bo'limi bo'yichayozma ishlar olinadi.

O'qituvchi o'quvchilar ishini tekshiradi, ularning yo'l qo'ygan xatolarini qayd qiladi, keyinyozma ishni xulosalash maqsadida reyting jadvali tuziladi.

Bilimlarni nazorat qilish turlari

Bilimlarni nazorat qilishning quyidagi turlari mavjud:

1) Joriy (kundalik) nazorat.
2) Oraliq (tematik) nazorat .
3) Yakuniy (davriy) nazorat.

Joriy nazorat qilishda bilimlarni har bir sinf uchun mo'ljallangan darslik va dastur bo'yicha olib boriladi. Har bir darsda o'tilgan mavzuni o'zlashtirish sifatini aniqlaydi va har bir darsda daftardagi uy vazifasini, o'tilgan mavzuni o'zlashtirilganini tekshiradi va baholaydi.

Joriy nazoratning asosiy metodi uy vazifasini tekshirish va ular bilan savol-javob o'tkazishdir. O'qituvchi darsda nimani va kimdan so'rashligini rejalashtirib kelishi zarur. O'qituvchi har bir darsda ilgari o'tilgan materialdan foydalanadi, chunki har bir yangi tushuncha ilgari o'rganilgan bilimlar asosida tushuntiriladi. Joriy nazorat o'tilgan materialni qayta eslashga imkon beradi, yangi material bilan ilgari o'rganilgan material o'rtasidagi uzviy bog'lanishni vujudga keltiradi. O'qituvchi har bir darsni rejalashtirayotganda joriy nazoratning quyidagi uch

xil ko'rinishini e'tiborga olishi kerak:

a) o'tgan darsning materialini so'rash ;

b) ilgari o'tilgan bo'lib, hozir o'tiladigan darsga bevosita bog'liq bo'lgan materialni so'rash;

v) darsda tushuntirilgan materialni mustahkamlash maqsadida so'rash. O'qituvchi darsga tayyorlanganda har uchchala tur nazorat uchun ham savollar majmuasini tuzib kelishi zarur.

2) Oraliq (tematik nazorat).

O'quv dasturidagi asosiy tushunchalar darslar tizimi orqali o'tib bo'lgandan keyin, yoki darslikdagi biror bob tugagandan keyin oraliq nazorat o'tkaziladi. Oraliq nazorat uchun maxsus uquv, malaka va ko'nikmalarni nazorat qilish darsi o'tkaziladi, u o'qituvchining ish rejasida ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

Har bir bobda o'zlashtirilgan tushunchalar keyingi o'quv ishini muvaffaqiyatli olib borish uchun zarurdir. Shu sababdan oraliq nazorat darsini o'tkazishga oldingi bobdagi asosiy tushunchalarni takrorlash, kamchiliklarni to'g'rilash zarurati tug'iladi.

So'rash rejasiga o'qituvchi savollar majmuasini tuzadi, misol, masalalarni yechishni aniqlaydi. Natijada oldingi o'tilgan o'quv materialining qaysi savollarini yaxshi, qaysi savollarini yomon o'zlashtirilganligi aniqlanadi. Yomon o'zlashtirilgan savollarga aniqlik kiritiladi, qayta takrorlanadi. O'quvchilar bilimiga yarasha baholanadi.

Masalan, 2-sinfda «20 ichida sonlarni qo'shish va ayirish» bobidan keyin oraliq nazorat o'tkaziladi.

Yakuniy nazorat

Bu nazorat chorak, yarim yil, yil oxirilarida o'tkazilib, unga ham maxsus

«O'quvchilar bilim, malaka va ko'nikmalarini tekshirish» darsi ajratiladi. Shu vaqt davomida olgan bilimlar yuzasidan savollar tuziladi, yozma ish o'tkaziladi va baholanadi.

Yakuniy nazoratda olgan ballarini to'plash va uni

baholashda o'qituvchi maxsus daftarida quyidagicha qaydnoma yuritsa yaxshi bo'ladi.

Baholash va baho me'yorlari

O'quvchilarning bilimi va malakalaridagi asosiy kamchiliklarining hisobga olib borilishi o'qituvchiga o'zi yo'l qo'ygan kamchiliklarni bilishga va o'quvchilarning yutuq va kamchiliklarini aniqlashga katta yordam beradi. O'quvchilar bilimi, malakasi, ko'nikmasini tekshirish har doim baholash bilan olib boriladi.

O'qituvchi qo'ygan baho o'quvchilar o'z-o'ziga beradigan baho bilan bir

xil bo'lgandagina eng ko'p samara beradi. O'quvchilarning bilimini tizimli baholash, ularning yutuq va kamchiliklarini xarakterlash o'qituvchiga sinfdagi mavjud o'zlashtirish vaziyatini aniqlashga olib keladi.

O'quvchilarning o'zlashtirishini xarakterlash uchun baho ham zarurdir. Chunki, o'quvchi qancha ko'p baholansa, shunchalik ko'p tayyorlanishga, uy vazifasini bajarishga intiladi, doimo dars uchun sergak bo'lib turadi.

Hozirgi paytda baho normalari 100 ballik bo'lib, uni 5 ballikka aylantirish orqali amalga oshirilmoqda.

«2» baho «55» ballgacha.

«3» baho «55-70» ball.

«4» baho «71-85» ball.

«5» baho «86-100» ballar orasida qo'yiladi.

Hisoblashda o'quvchilar yo'l qo'yishi mumkin bo'lgan xatolarni aniqlashva uni bartaraf qilish yo'llari.

Quyidagi chizmani bayon qilamiz:

O'quvchilarni o'z vaqtida rag'batlantirmaslik

O'qituvchining savodxonligi

O'qituvchining ma'naviy dunyoqarashi

O'quvchilar bilimini DTStalablariga muvofiqlik darajasi

Izoh: O'qituvchi tezkor savollar orqali o'quvchilarga rasmlarni ko'rsatadi, o'quvchilar esa javob qaytaradilar.

Xulosa qilib shuni aytmoqchimizki, yuqoridagi brilgan misol va masalalardagi yutuq va kamchiliklardan kelib chiqib, o'quvchilar bilimidagi bo'shliqlarni quyidagicha to'ldirish mumkin.



8-mavzu: Ixtisoslashtirilgan boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish.

Reja:

1. Faoliyat haqida ma'lumot.
2. Ixtisoslashtirilgan boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish
3. Boshlang'ich sinflarda ko'p xonali sonlar ustida nomanfiy butun sonlarni nomerlashga o'rgatish metodikasi.

***

Tayanch tushunchalar: dars turlari, murakkab dars, mummoli dars, noan'anaviy dars.

***

O'quvchilarga matematikaga ixtisoslashgan sinflarda o'qitishda ta'lim berish va maktabdagi o'quv-tarbiya jarayonini takomillashrishning maqsadlaridan biri –bu o'quvchilarni mustaqil fikrlashini shakllantirishdir.

S.L.Rubinshteyn birinchilardan umumiy aqliy rivojlanish borasida qilingan izlanishlarni o'rganishga chaqirganlardan biridir. U ruhshunoslikdagi faoliyat toifasini ruhiy izlanishning ob'ekti va maqsadi qilib kiritdi va asosladi.

Faoliyat nazariyasi asosida Rubinshteyn faoliyat tushunchasini sub'ektdan ob'ekga o'tish deb kiritadi. Rubinshteyn faoliyatning ikkinchi bosqichi ob'ekdan sub'ektga qarab borgan aloqadan deb hisoblaydi. Rubinshteynning diqqat

markazida, inson faoliyat jarayonida faqatgina o'ziga xos bo'lgan shaxs sifatida o'zining xususiyatlarinin amoyon etib qolmay, balki undagi ruhiyatning shakllanishi ob'ekt bo'lib aniqlanadi degan mazmuni turadi. «Faoliyat», «harakat», «operatsiya» tushunchalarining fundamental psixologik tushunchalari A. N. Leontev ishlarida oritilgan.



Faoliyat – sub'ektning bir-biriga bog'langan realligining o'zaro ta'sir ko'rsatishi deb bilgan A.N.Leontev, reallikning inson ongida aks ettirilishi – «ta'sir» ning natijasi bo'lmay, o'zaro ta'sir, ya'ni bir- biriga duch kelgan jarayonlarning natijasidir deb hisoblaydi .A.N Leontev va Rubinshteynning o'qitish amaliyotidagi xulosalariga qaraganda mustaqil fikrlashni rivojlantirishda faoliyat shakllarining ishlanmasi va ishlatilishi, hamda ta'limdagi faoliyat tamoyillarining bir-biriga ketma-ket o'tkazilishi eng foydali va natijali yo'nalishdir.

O'qitishning rivojlanish maydoni deb 2 xil jarayonni aytishimiz mumkin:

1) bolaning yangi bilimlarini kattalar yordamida egallashi;

2) boladagi o'zlashtirilgan bilimlarni masalalarni mustaqil yechishga qo'llash, tadbiq etish qobiliyati.

Bundan tashqari masalani yechish jarayonida «yaqindan rivojlantirish maydoni»ni aniqlash uchun tavsiya etilayotgan usullardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi deb hisoblaymiz.

Didaktlar o'zlarining izlanishlarida ta'lim olish jarayonini va fikrlashning rivojlashini uzviy bog'lanish birligida ko'radilar. Ijodiy fikrlash rivojlanishi tashqi shartlarning o'quvchilardagi ichki imkoniyatlari bilan muvofiq bo'lishida ifodalanadi. Ijodiy fikrlashni rivojlanishi muammolarining ta'limiy uslublari bilan bog'lanishi e'tiborda muhimdir.

Ixtisoslashtirilgan sinflarda matematika boshlang'ich sinflarda turli xil tarzda olib borish mumkin, ayniqsa, III — IV sinflarda qiziqarli,ya`ni: o'quvchilarning matematikaga bo'lgan qiziqishini hartomonlama hisobga olgan holda olib borish lozim.

Ixtisoslashtirilgan sinflarda matematika mashg'ulotlar haftasiga 5+2 bo'lib, dastur mazmuniga 2 soat qo'shimcha o'tiladi. Bunda o'qituvchi o'quvchilarni qiziqishi va o'zlashtirishiga qarab fanlar aro aloqadorlikni hisobga olgan holda olib boradi.

III -IV sinflarda ko'pincha murakkab masalalar ustida ishlash uchun ko'proq vaqt ajratiladi.

Boshlang'ich sinflarda matematika fanidan mashg'ulotlar taxminiy rejasini keltiramiz.

Boshlang'ich sinflarda mashg'ulotlarni tashkiletish mohiyati juda katta ahamiyat kasb etadi. Matematika mashg'ulotlarda darslik materiallarini takrorlamaydigan materiallar o'rganilib, lekin e`tibor boshlang'ich sinf o'quvchilarining darsdan olgan bilimini mustahkamlash va chuqurlashtirishga qaratilishi lozim.

Ayniqsa, sharq mutafakkirlari ijodini o'rganish, matematika darslari samaradorligini oshirishda tarixiy materiallardan foydalanish har bir mashg'ulotlarda tavsiya etiladi. Masalan,

1- mashg'ulotda Abu Rayhon Beruniy;

2- mashg'ulotda Ibn Sino, keyingisida Al-Xorazmiy, Ulug'bek kabi mutafakkirlar merosidan boshlang'ich sinfga xos tomonlari o'rganiladi.

IV sinfda ------ mashg'ulotlarda o'rganish mumkin bo'lgan taxminiy reja- Abu Ali ibn Sinoga bag'ishlangan mashg'ulot namunasini sizlarga havola etamiz.

1- mashg'ulot. Abu Ali ibn Sino haqida ma'lum ot.

2- mashg'ulot. Abu Ali ibn Sinoning „Al-hisob" nomli asari. Ibn Sinoning „Ash-shifo" nomli asari bo'limlaridan biri riyoziyot, hisob (arifmetika), handasa (geometriya) va aljabr (algebra) faniga bag'ishlangan.

Ibn Sino arifmetikasi arab tilida yozilgan bo'lib, to'rt bo'limdan iborat.

Birinchi bo'limda turli ketma-ketlik sonlar xossalari bayon etilgan.

Ikkinchi bo'limda sonlar tengligini tengsizligi bilan solishtirishb amallari ko'rsatiladi.

Uchinchi bo'limda arifmetikaning geometriya qonunlaridan ayrimlari bilan bog'lanish ifodalanadi.

To'rtinchi bo'limda arifmetik va geometrik ko'rsatmali

vositalaraniqlanadi.

IV sinfda matematikadan mashg'ulotlarda quyidagi xossalardan foydalanish mumkin.

Ixtisoslashtirilgan umumta`lim maktabining asosiy maqsadi o'quvchilarni Davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'qitish va tarbiyalash, ayrim fanlar chuqur o'qitiladigan va ixtisoslashtirilgan ta'limni amalga oshirish,shaxsning ta'lim olishga doir konstitutsiyaviy huquqini ro'yobga chiqarishdan iborat.

Ta'limning boshqaruv organlari tomonidan tasdiqlangan o'quv rejasiva dasturlari asosida fan asoslaridan bilimlarning zarur hajmini beradi, ulardagi tashkilotchilik qobiliyatlari va amaliy tajriba ko'nikmalarini rivojlantiradi hamda ularga ta'limning keying! bosqichini ongli ravishda mustaqil tanlashga ko'maklashadi.

Ixtisoslashtirilgan umumta`lim maktabi ta'lim-tarbiya ishlarmi har bir shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini ko'zlagan holda amalga oshiradi, o'quvchi laming har tamonlama kamol topishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratib beradi, shu jumladan o'quvchilarning o'z usiida mustaqil ishlashlari va qo'shimcha bilim olishlari uchun imkoniyat yaratadi.

Bola huquqlarini ta'minlash, uning qadr-qimmatini e'zozlash, bolagado'stona munosabatda bo'lish, ijodiy muhitni shakllantirish varivojlantirish maktabning asosiy vazifalaridan biridir.

Ixtisoslashtirilgan umumta`lim maktabining asosiy vazifalari;umumiy o'rta ta'limning chuqurlashtirilgan fanlari bo'yichao'quvchuilaming davlat ta`lim standartlari talablaridan oshadigan chuqurta`lim tayyorgarligini ta'minlash;

- o'quvchilarning ijodiy salohiyatini namoyon qilish va faollashtirish;

-Ular bir o'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda mustaqil tadqiqotchilik faoliyati ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish;

-professional dastur ta'limlarini ongli taniash va keyinchalik o'zlashtirish uchun asos yaratish.

Ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabining funksiyalari:

- respublika abolishing bolalarni ixtisoslashtirilgan chuqur o'qitishga bolgan ehtiyojini ta'minlash;

- o'quvchilarning qobiliyatlari, qiziqishlarini hisobga olgan holda umumiy va ixtisoslashtirilgan shaxsga yo'naltirilgan o'qitishning ta`lim dasturlarini amalga oshirish;

- o'quvchilaming iqtidori va kamol topishi dinamikasining psixologik-pedagogik diagnostikasini amalga oshirish;

- ta`limning uzviyligi va uzluksizligi asosida intensive intellectual rivojlantirishni, chuqurlashtirilgan ixtisoslashtirilgan o'qitishni ta'minlash;

- asosiy va qo'shimcha ta`lim dasturlarini ishlab chiqish va ular integratsiyasini amalga oshirish, loyihadagi o'qitishga o4tgan holda ta`lim jarayonini individuallashtirish va tabaqalashtirish;

- ta`lim jarayoniga innovatsiya, pedagogika va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni joriy etish;

- o'quvchilaming ma'lumoti darajasi oshishiga, samarali tayyorlanishiga, akademik Iitsey va kasb-hunar kollejlariga kirishiga yordam beradigan shart-sharoitlar yaratish;

- o'quvchilarning respublika va xalqaro seminarlar, konferensiyalar, festivallar va boshqa intellektual-ijodiy tadbirlarda ishtirok etishi uchun shart-sharoitlar yaratish;

- iqtidor va iste'dodni aniqiash hamda kamol toptirish bo'yichao'quvchilarni fanlar olimpadalari, tanlovlar va boshqa tadbirlardaqatnashishga tayyorlash;

- o'quvchilarning ilmiy guruhlarini taslikil etish va faoliyatini yo'lga qo'yish.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar og'zaki hisoblash bilimini shakllantirish hozirgi zamon o'qitish metodikasida yangi texnologiyani joriy etishni asosiy masala qilib qo'ymoqda. Lotin yozuviga asoslangan matematika darsliklarimizda

ayniqsa, yuz ichida, ming ichida arifmetik amallar bajarish jarayoni o'quvchilarni fikrlash qobiliyatlarini o'stiradigan, ijodiy qobiliyatini aniqlaydigan, yig'indidan ko'paytmaga o'tish qoidasi, ko'paytma, bo'linma tushunchalari, ularning komponentlari orasidagi munosabatlarini mukammal o'zlashtirishni talab etadiki, bu yuqori sinf matematika fanidan oladigan bilimini mustahkamlash asosi bo'lsin. Boshlang'ich sinflarda eng qulay usul bilan hisoblash masalasi arifmetik amallar bajarishning asosiy tayanchi bo'lib hisoblanadi. O'qituvchi darslikdagi materiallar bilan cheklanib qolmasdan, balki ijodiy fikrlaydigan materiallar bilan darsni boyitish maqsadga muvofiqdir. Masalan, 10, 100, 1000 ichida ko'paytirishni turli ko'rinishlaridan foydalanish o'quvchilarni qiziqishini oshiradi.

Matematikadan dars turlari. Dars samaradorligi o'quv materialining mazmuni bilan uni o'qitish metodlari bilan o'quvchilarning faoliyatlari orasidagi bog'lanishlarning darajasiga bog'liq, shuningdek, dars alohida qismlarning o'zaro bog'liqligini qanday amalga oshirilishiga, o'quvchilarning nazariy va metodik tayyorgarligiga bog'liq. O'qituvchi dars rejasini tuzishda quyidagilarni e'tiborga olish kerak. Shu dars qanday qismlardan iborat bo'lish kerak, ularni qanday ketma-ketlikda joylashtirish, ular o'rtasida O'quv materialni qanday taqsimlash, bu qismlar bir biriga qanday bog'lanishda, ular darsning asosiy didaktik maqsadini amalga oshirishda yetarli miqdorda yordam bera oladimi va h.k.

Matematikadan dars turlari:

1. Murakkab dars.
2. Yangi materialni o'rganish darsi.
3. Bilim, malaka va ko'nikmalarni mustahkamlash darsi.
4. Takrorlash – umumlashtirish darslari.
5. Bilim, malaka va ko'nikmalarni nazorat qilish darsi.
6. Muammoli dars.
7. Noan'anaviy dars.

1. **Murakkab darslar** - boshlang'ich sinflarda eng ko'p

o'tiladi. Tuzilishi:

1. Uy vazifasini tekshirish.
2. Maxsus og'zaki mashqlar.
3. O'quvchilar oldiga dars maqsadini qo'yish.
4. Yangi materialni idrok qilishga tayyorlash.
5. Yangi materialni o'rganish.
6. Yangi materialni mustahkamlash.
7. O'tilganlarni takrorlash.
8. Darsni yakunlash va uyga vazifa berish.

2.Yangi materialni o'rganish darslari - murakkab va yangi materialni o'rganish darslari tuzilishi jihatidan o'xshash. Ammo, yangi materialni o'rganish darslarida asosiy vaqt yangi mavzuga beriladi. M: 20-25 minut. (Mus. 10-15 m). 3.

3.Bilim, malaka va ko'nikmalarni mustahkamlash - bunday darsning maqsadi olingan bilimlarni mustahkamlashga yo'naltirilgan bo'ladi va unda mashqlar, amaliy va mustaqil ishlar asosiy vosita hisoblanadi. Tuzilishi:

1. Dars maqsadini qo'yish.
2. Uy vazifasini tekshirish va o'rganilgan materialni mustahkamlash.
3. Darsni yakunlash va uy vazifasi berish.

4. O'tilganlarni takrorlash darslari – tuzilishi mustahkamlash dars kabi, takrorlash darslarida asosan o'rganilgan o'quv materiali tizimga solinadi va umumlashtiriladi.

4.Takrorlash turlari:

1) o'quv yili boshida va kundalik takrorlash;
2) mavzu bo'yicha takrorlash;
3) umumlashtiruvchi takrorlash.

5. Bilim, malaka va ko'nikmalarni tekshirish va hisobga olish darslari Tuzilishi:

1. Dars maqsadini aytish.
2. Nazorat ishining mazmuni bilan tanishtirish.
3. Ishni bajarishga oid qisqacha yo'l - yo'riq berish.
4. O'quvchilarning ishlarni mustaqil bajarishlari.

5. Ishni yig'ib olish. O'qituvchi dars tugashiga 3-5 minut qolganda o'quvchilarga ishni tugatish zarurligini ogohlantiradi, ya'ni ular hamma yozuvlarni va hamma ishni tekshirishni erkin bajarib ulgursin. Qo'yilgan aniq vaqtda barcha o'quvchilar ishni topshirishlari zarur. O'quvchilar ishini tekshirib bo'lgandan keyin, ikkinchi kun o'qituvchi nazorat ishining tahlilini o'tkazadi, u ishning natijasi haqida so'zlab beradi, yaxshi ishlarni ajratadi, qo'pol xatolarni aytib o'tadi.

6. Muammoli dars – muammoli dars. Muammoli vaziyatni hosil qilib dars o'tishni nazarda tutadi.

Tuzilishi:

1. Muammoli vaziyat hosil qilish.
2. Qo'yilgan muammoni hal qilish.
3. Yangi bilimlarni tadbiq qilishga doir maxsus mashqlar bajarish.
4. Bajarilgan ishlarga yakun yasash. Ammo, bu reja o'zgarishi mumkin. Muammoning xarakteriga qarab, to'la yoki qimsman bajarilishi yoki uning ayrim punktlari birlashtirilishi mumkin. Misol «42:3 ko'rinishdagi jadvaldan tashqari bo'lish» ni o'rganish.

1. Muammoli vaziyat hosil qilish. Siz, 46 ni 2 ga bo'la olasizmi? Buning uchun 46=40+6 almashtiramiz. Endi 42:3 ni qaraylik, buni yuqoridagi usul bilan ishlab bo'lmaydi. (muammo).

2. Muammoni hal qilish. Buning uchun 42 ni 3 ga bo'linadigan 10 likka ajratimiz va qolgan birliklarga bo'lamiz. 42:3=(30+12):3=30:3+12:3=10+4=14

3. Yangi bilimlarni amalda qo'llash. 72:6, 52:4, 34:2.

4. Yakunlash. O'quvchilar bo'linuvchini qulay qo'shiluvchilar yig'indisi bilan almashtirish kerak degan xulosaga kelishadi. Ular shunday tanlanadiki, ulardan biri bo'luvchiga qoldiqsiz bo'linadigan sondagi 10 liklardan iborat bo'ladi. Uyga vazifa. Uy vazifasining mazmuni bir tomondan darsda o'rganilgan yangi materialni mustahkamlashga qaratilgan bo'lsa, ikkinchi

tomondan keyingi darsga tayyorlashga qaratilmog'i kerak.

Sonlarni nomerlashni og"zaki va yozma nomerlashni o"rganish ishini bir necha bosqichga bo"lish mumkin.

I. Tayyorgarlik ishi.

Bu bosqichning vazifasi bir, ikki va uch xonali sonlarni nomerlashning asosiy masalalarini takrorlash.

Shu maqsadda 3-sinfda ishlangan mashqlar sistemasidan foydalaniladi.

1. 28, 90, 99 sonlarining har biridan keyin keladigan sonni ayting.

2. 25 dan 32 gacha, 243 dan 251 gacha, 987 dan 1000 gacha bittalab sanang. 30 dan 90 gacha, 250 dan 340 gacha 10 talab sanang.

3. Sonlarni o"qing: 426, 803, 600, 111, 999, 1000, 528, 808. Bu sonlarning har birida hammasi bo"lib qancha birlik, o"nlik, yuzlik bor.

4. Quyidagidan iborat sonlarni yozing. 9 yuz 5 o"n 6 birl, 8 yuz 4 bir, 5 yuz 9 o"n 7 bir.

5. Mingda nechta yuzlik, o"nlik va birlik bor?

6. 1, 3, 4 raqamlaridan foydalanib, mumkin bo"lgan hamma uch xonali sonlarni yozing. Bu sonlarni xona qo"shiluvchilari yig"indisi shaklida ifodalang.Bu bosqich bolalarni 1-sinf-birliklari sinfi va 2-sinf-mingliklar sinfi bilan ularning tuzilishlari, har bir sinf xonalarining nomlari bilan tanishishdan iborat.

Sonli krossvordni yeching:

Bo'yiga: a) 870 · 706;
h) 100 000 – 43 535;
j) 1412 · 435.

Eniga: a) 12 · 5303;
b) 820 820 : 9020;
d) 143 412 : 7548;
e) 148 · 159;
f) 50 381 : 83;
g) 460 312: 652.



Sonli labirint Tashqi aylanada turgan sonlarga ichki aylanada turgan qaysi sonni qo'shsa, markazdagi son hosil bo'ladi?



$$\begin{array}{r} **89 \\ +\ 385* \\ \hline 9\,245 \end{array} \qquad 18\,332 \,\Big|\, \begin{array}{l} * \\ \hline 4*8* \end{array} \qquad \begin{array}{r} **66 \\ \times\quad * \\ \hline 16\,264 \end{array}$$

So'roq belgilari o'rnida qanday son bo'lishini toping:



Nazorat uchun savollar:

1. Ixtisoslashtirilgan maktablar haqida ma'lumot topib yozing!

2. Faoliyat nima? O'quvchilarni matematik iqtidorini oshirishga xizmat qiladigan qanday dasturlarni bilasiz

3.Matematik savodxonlikni oshirishga yordam beradigan metodlar, texnologiyalar haqida ma'lumotlar yozing!



9-mavzu: Boshlang'ich sinf matematika darslarida mantiqiy masalalar ustida ishlash

Reja:

1. Masalalar yechish – nazariyani amaliyotga tadbiq etishning muhim yo'li
2. Mantiqiy masalalar yechishga o'rgatish
3. Mantiqiy masalalarni yechish usullari
4. Mantiqiy masala yechishning eng ratsional usulini tanlash
5. Vaqtga doir mantiqiy masalalar bilan ishlash metodikasi

***

Tayanch tushunchalar: Mantiqiy masalalar, matnli masalala, "Shuncha katta (kichik)", "Shuncha marta katta (kichik), Analitik - sintetik metod

***

Matematikada masallar yechish nazariyani amaliyotga tadbiq qilishning eng muhim tabiiy yo'lidir. Boshlang'ich sinf matematika kursi maqsadga muvofiq tanlangan masalalar sistemasi asosida bayon qilinadi. Bu sistemada matnli masalalar kata o'rin egallaydi. Arifmetik amallar orasidagi mavjud mazmunni ochishda tegishli oddiy matnli masalalardan foydalaniladi. Matnli masalalar bolalarni "Shuncha katta (kichik)", "Shuncha marta katta (kichik) so'zlari bilan

ifodalanuvchi matematik munosabatlar bilan tanishtiruvchi muhim vosita hisoblanadi. Matnli masalalar ulush tushunchasini uqib olishda, geometrik tasavvurlarni shakllantirshda, shuningdek algebraik elementlarni qarab chiqishda katta yordam beradi. Bolalarni baho, miqdor, vaqt, tezlik va masofa orasidagi mavhud bog'lanishlar bilan tanishtirishda matnli masalalarning ahamiyati kattadir. Matnli masalalarning sodda va murakkab turlari bo'lib, sodda masalalarning ifodalanishi sistemasi kursdagi tegishli tushunchalarni singdirish mantiqiga buysundirilgan. Oddiy masalalar qatori 1-sinfdan boshlab murakkab masalalar ham yechiladi. Ular ham egallangan nazariy bililarni takomillashtirish ishiga xizmat qiladi.

I-IV sinflarda berilgan maslalarni quyidagi uchta guruhga ajratish mumkin.

1. Birinchi guruh masalalar arifmetik amallarning ma'nosini ochib berishga qaratilgan. Bunday masalalarning har biri darsturga asosan konsentrlar bo'yicha mos amallarni tanishtirishga muvofiq kiritiladi.

2. Ikkinchi guruh sodda masallarga sonlar orasidagi o'zaro xilma-xil munosabatlarni ochishga tegishli bo'lgan masalalar kiradi. Bu o'rinda munosabat tuhsunchasi bir sonni boshqasiga bo'lganda chiqadigan bo'linma sifatida qo'llangan.

Boshlang'ich sinf matematikasida "teng bo'lish", "Shuncha ko'p"(kam), " shuncha marta katta" kabi so'zlar bilan ifodalanishi mumkin bo'lgan sonlar orasidagi munosabatlar ustida ishlashga alohida e`tabor beriladi. Bu munosabatlarning ma'nosi ikki to'plam elementlari o'rtasida o'zaro bir qiymatli moslik o'rnatishga bog'langan xilma-xil mahaliy mashqlar asosida ochib beriladi. Bunday munosabatlarni ochish maqsadida matnli maslalardan keng foydalaniadi.

3. Uchinchi guruh soda masalalarga arifmetika nazariyasining ayrim yangi masallari-arifmetik amallarning komponentlari va natihalari orasidagi bog'lanishlarni ochib beradigan masalalar kiradi. Bunday maslahatlar

komponentlardan biri va amal natijasi berilgan bo'lsa, ikkinchi komponentni topishdan iborat bo'lgan masallardir. Masalan, qutida 6 ta sariq sharlar va bir necha qizil sharlar bor edi. Agar hamma sharlar 10 ta bo'lsa , nechta qiizil sharlar bo'lgan?

2. Hovlida 8 ta kaptar don yemoqda. 2 tasi oq rangda bo'lib, qolganlari qora rangli kaptarlardir. Qora kaptarlar nechta?

O'qituvchi bunday masallarni ko'rsatmali qurollar yordamida yechishni namoyish qilib ko'rsatadi. Uchinchi guruh maslalarga quyidagilarni ko'rsatish mumkin.

1. Berilgan yig'indi va qo'shivchiga ko'ra ikkinchi qo'shiluvchini topishga doir masalalar.
2. Ayirma va ayriluvchiga ko'ra kamayuvchini topishga doir masallar .
3. Ayirma va kamayuchiga ko'ra ayriluvchini topishga doir masalalar.
4. Ko'paytuvchilardan biri va ko'paytmaga ko'ra ikkinchi ko'paytuvchini topishga doir masalalar.
5. Bo'linma va bo'luvchiga ko'ra bo'linuvchini, bo'luvchiga ko'ra bo'luvchini topishga doir masalalar.

Sodda masalalar o'quvchilarda murakkab masalalarni yechish uchun zarur bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmallarni tarkib toptirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Yechilishi uchun bir nechta o'zaro bog'liq amallarni bajarish talab etiladigan masalalar murakkab masalalar deyiladi. Sodda masalalar kabi murakkab masalalar ham olingan bilimlarni mustahkamlashga mukammlashtirishga xizmat qiladi. Sodda va murakkab masalalar bolalarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishning eng samarali vositasi bo'lib, odatda, o'z ichiga "yashiri informatsiyani" oladi. Bu informatsiyani qidirish masala yechuvidan analiz va sintezga mustaqil murojaat qilish, faktlarni taqqoslash, umumlashtirish va hokazolarni talab qiladi.

Bilishning bu usullarini o'rganish matematika o'qitishning muhim maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Shunday qilib , o'quvchilar matnli masalalar yechish orqali matematik qonuniyatlarni amalda tadbiq etish, shuningdek ba'zi fizik tushunchalarni o'zlashtiradilar.

Mantiqiy masalalar yechishga o'rgatish

Boshlang'ich sinf o'quvchilari sodda masalalarni o'zlashtirib olganlaridan keyin, ya'ni ular shart va natijani ajratib olganlaridan keyin ma'lum va noma'lumlarni qiynalmay ajratadigan bo'ladilar, masala yechishning dastlabki ko'nikmalarini oladilar, shundan keyin darsga tarkibli masalalar kiritila boshlaydi. Mantiqiy masalalarni yechishga tayyorlash sodda masalalarni yechishdanoq boshlanadi. Eng oldin berilgan masala shartiga savol qo'yish bilan bog'liq bo'lgan topshiriqni aytish kerak. Berilgan ma'lumotlardan foydalanib, qanday savolga javob berish mumkinligini to'g'ri aniqlash malakasi tarkibli masala ustida bundan keyin ishlashda muhim rol o'ynaydi. Bu malaka hamma o'quvchida bir xil va tez shakllanmasligini hisobga olib, bu yo'nalishdagi ishni o'quvchilarning kuchlari yetadigan materialdan foydalanib, ya'ni sodda masalalardan foydalanib ilgariroq o'tkazish kerak.

O'quvchilarni mantiqiy masalalarni yechishga o'rgatishda o'quvchi aqliy faoliyat bilan fikr yuritishi lozim. Mantiqiy masalalarni yechishga kirishishdan oldin ularni turlari (xillari) bo'yicha bo'lib, so'ngra yechimini izlash metodlarini tanlash va tadbiq etishga kirishilsa, ish ma'lum darajada osonlashadi. Mantiqiy masalani sodda masalalarga ajratish va sodda masalani yechish natijasida izlanayotganlar bilan berilganlar o'rtasidagi bog'lanish xarakteri aniqlanadi. Buning asosida bu masalani yechish uchun arifmetik amal tanlanadi va natija hisoblanadi.

Mantiqiy masalani yechish bosqichlari quyidagi reja asosida amalga oshiriladi:

1) O'quvchilar tomonidan masala mazmunini o'zlashtirish

2) masalaning tahlil qilish va reja tuzish (Mantiqiy masalani sodda masalalarga ajratish va yechish rejasini tuzish)

3) masala yechish (amallar tanlash, ularni bajarish, yechishning borishini va hisoblashlarni yozish);

4) Masala yechimini tekshirish

Birinchi bosqich. Masala mazmunini o'zlashtirish uchun o'quvchilar bilan quyidagi usulni tajriba qilib ko'rish mumkin. O'qituvchi masalaning raqamini aytadi va o'quvchilarga masalaning shartini ovoz chiqarmasdan o'qib chiqishni, shartlarini tushunib olishni buyuradi. Shundan keyin chiqarilgan o'quvchi masalaning shartini takrorlaydi. Bu usul o'quvchini kitobdan mustaqil foydalanishga o'rgatadi.

Agar o'quvchi masalaning shartini masalalar to'plamidan mustaqil o'qisa, o'qituvchi masalani ichida ikki-uch marta o'qib chiqishni, so'ngra kitobni yopib qo'yib, masala shartini takrorlashni buyurish lozim. Bunda o'qituvchi masalaning son ma'lumotini emas, balki asosiy mazmunini esda tutishni tavsiya qiladi. O'quvchilar shartlarni o'qishga va uni ichlarida takrorlashga diqqat-e'tibor berishlari uchun o'qituvchi masalaning shartini kitobga qaramasdan takrorlash kerakligi to'g'risida ularni ogohlantiradi. Masalaning shartini eslab qolish maqsadida uning matnini o'qish o'quvchini masalaning mazmunini chuqurroq tushunib olishga majbur qiladi, bu esa o'z navbatida masalaning to'g'ri yechilishiga yordam beradi.

O'quvchilarni masalaning sharti bilan tanishtirishning boshqa usuli: o'qituvchi masalaning shartini masalalar to'plamidan ovoz chiqarib o'qiydi yoki bir o'quvchiga masalani ovoz chiqarib o'qishni buyuradi. Qolgan o'quvchilar masalaning o'qilishini masalalar to'plamidan kuzatib turadilar. Masalalarning sharti mantiqiy bo'lganda ayrim hollardagina masala shartini takror o'qishga ruxsat etiladi. Agar o'quvchilar masala shartining ikki-uch marta takrorlanishini bilsalar, ular birinchi marta o'qilishiga yetarli darajada e'tibor bermaydilar. O'quvchilar masala shartining o'qilishini qanchalik diqqat bilan kuzatayotganliklarini tekshirib ko'rish uchun o'qituvchi nazorat savollari beradi, masalan: "Masalada nima to'g'risida

gapirilmoqdi?", "Masalada nima deyilgan?..." Bunday savollar o'quvchilarni masala shartining mazmunini diqqat bilan kuzatishga, masalaning mazmunini yaxshi o'ylab ko'rishga majbur qiladi.

O'quvchilar masalaning shartini tushunib olishga yordam berish uchun masalaning shartini doskaga va daftarga qisqa qilib yozishlari lozim. Masalaning matni yozilmaydi, sonlarning joylashish tartibi, ular orasidagi bog'lanishni ko'rsatishi kerak.

O'quvchilar masalaning shartidagi har bir so'zni tushunibgina qolmay, balki masala sharti olingan muhitni va sharoitni ko'z oldiga keltira olishlari hamda amaliy turmushda bunday masala qachon va kimlarga kerak bo'lishini tushunishlari kerak.

Mantiqiy masalani yechishning **ikkinchi bosqichi** yechish rejasini tuzish, ya'ni miqdorlar orasidagi bog'lanishni topish va mantiqiy masalani sodda masalalarga ajratishdir. Har bir sodda masala uchun o'zaro bog'lanishda bo'lgan berilgan sonlar va izlangan son ko'rsatilishi kerak. Berilganlar oldin masalaning shartidan, so'ngra hisoblab topilgan izlanuvchi sonlardan tanlab olinadi.

Masalani quyidagi usullar bilan tahlil qilish mumkin: analitik, sintetik va analitik-sintetik.

Analitik metod – analiz, fikrlash usuli bo'lib, bunda tekshirilayotgan obyekt (bizda mantiqiy masala) ni qismlarga ajratib, ajratilgan qismlarni alohida o'rganishdan iborat. Qismlarga ajratish bir necha marta takrorlanishi mumkin. Analitik metod analizdan bir necha marta va ketma-ket foydalanishdan iborat. Shunday qilib analitik metod mantiqiy masalani bir necha sodda masalalar sistemasiga ajratish imkonini beradi. Buni quyidagi misol orqali tushuntirib beraylik. « 4 m jun gazlamaga qancha so'm to'langan bo'lsa, 14 m ipak gazlama uchun ham o'shancha to'landi. Ipak gazlamaning 1 metri 6 so'm tursa, jun gazlamaning 1 metri necha so'm turadi? Masala yechimini izlashga quyidagicha kirishamiz:

1 m jun gazlamaning narxini topish uchun xarid qilingan jun gazlamaning miqdori va unga to'langan pulni bilish kifoya. Ammo masala shartida jun gazlamaga to'langan pul aniq emas. Buning uchun «14 m ipak gazlamaga necha so'm to'langan?» degan sodda masalani yechamiz. 1 m 6 so'm bo'lsa, 14*6=84 so'm to'langan. Bundan 4 m jun gazlama uchun ham 84 so'm to'langanligini o'quvchilar masalaning shartidan bilib oladilar. Endi «1 m jun gazlama necha so'm turadi?» degan sodda masalani yechish talab qilinadi.

84 : 4 = 21. Javob: 1 m jun gazlama 21 so'm turadi.

Sintetik metod – tekshirilayotgan obyektni alohida qismlari o'rtasidagi aloqalarni o'rnatib, uni yagona butun sifatida o'rganish to'g'risidagi mantiqiy operatsiyadir. Ya'ni predmetlarning qismlarini bir butunga keltirib (birlashtirib) o'rganish uslubidir. Masala yechishda qaralayotgan predmet masalaning talabida va uning elementlari esa masala shartida bayon qilingan bo'ladi. Masala yechimini izlashda sintetik metodning mohiyati masala shartida berilganlar o'rtasida aloqalar o'rnatish va shu asosda yangi ma'lumotlar olishdan iborat. Shundan keyin talab qilingan javob olinguncha ma'lumotlar o'rtasida bog'lanishlar o'rnatiladi. Buni yuqorida ko'rilgan masala misolida tushuntiraylik. Masalaning shartida quyidagi raqamlar berilgan: «4 m jun gazlama olingan», «14 m ipak gazlama olingan»,

«jun gazlamaga qancha to'langan bo'lsa, ipak gazlama uchun ham shuncha pul to'langan», «ipak gazlamaning 1 metri 6 so'm». Sintetik metodni savollar sistemasi va mos javoblar singari tasavvur qilamiz. U holda shartda berilganlar orasidagi bog'lanishni quyidagicha o'rnatish mumkin.

1. «14 m ipak gazlama olindi va uning 1 metri 6 so'm» shularni bilgan holda nimani aniqlash mumkin? Javob: 6*14 = 84 so'm, sotib olingan ipak gazlama uchun to'langan pul.

2. «4 m jun gazlama va 14 m ipak gazlama sotib olindi» dan nimani bilish mumkin? Javob: hammasi bo'lib (14 + 4 = 18

m) gazlama va 14 – 4 = 10 m ortiq ipak gazlama sotib olingan.

3. Ipak gazlama uchun 84 so'm to'langan emasmi? Javob: ha, jun gazlama uchun ham 84 so'm to'langan.

4. 4 m jun gazlama uchun 84 so'm to'langan bo'lsa, bundan nimani aniqlash mumkin? Javob: jun gazlamaing narxini (84 : 4 = 21 so'm).

Analitik - sintetik metod – amalda analitik va sintetik metodga nisbatan tez- tez foydalaniladigan metodni qaraylik. U analiz va sintez elementlarini o'z ichiga oladi. Masalan: maktab mehnat darslari uchun ip, gazlama va qaychilar olishdi. Ip uchun 2 so'm, gazlamaga 15 so'm, qaychi uchun esa ip va gazlama uchun birgalikda to'langaniga qaraganda 3 so'm ortiq to'landi. Hammasi bo'lib necha so'm xarid qilingan?

I. ***Analiz – xarid bahosini aniqlash uchun nimalarni bilish kerak?***

Javob: Ip, gazlama va qaychi uchun to'langan pullarni

l) ipning puli aniqmi? Javob: 2 so'm 2)Gazlamaning pulichi? Javob: 15 so'm

3)Qaychiga to'langan pulchi? Javob: yo'q

II. ***Sintez – masalaning shartidan nimalarni bilish mumkin? Javob: Ip va gazlama*** birgalikda necha so'm turadi? (2 + 15) = 17

III. Sintez – ip va gazlamaning pulidan nimani aniqlash mumkin? Javob: qaychi uchun to'langan pulni. (17 + 3) = 20

Shunday qilib masalani yechish g'oyasini quyidagicha ifodalash mumkin. Dastlab ip va gazlamaning birgalikda necha pul turishini topish so'ngra qaychi necha pul turishini topish, so'ngra qaychiga necha pul va nihoyat ip, gazlama va qaychi uchun hammasi bo'lib necha so'm pul to'langanini topish kifoya.

Kichik yoshdagi maktab o'quvchilarini masalalar yechimini izlashga o'rgatishning asosiy manbai o'qituvchi namoyish qiladigan mulohaza (savol- javob) namunalari hisoblanadi.

Mantiqiy masalalarni yechish usullari

Masala yechimining yozilishining har bir shakli va yechishning har bir yangi usuli masalaga yangicha qarash, yechish jarayonini oydinroq tushunish, berilganlar bilan izlanayotganlar orasidagi bog'lanish va munosabatlarni chuqurroq tushunish imkonini beradi. Bu esa mantiqiy masalaning ham didaktik, ham tarbiyaviy va rivojlantiruvchi funksiyalarini to'laroq amalga oshirishga yordam beradi. Shu sababali darsning aniq maqsadlariga mos ravishda va matematika darslarida matnli masalalardan foydalanish maqsadlariga mos ravishda yechishning har xil usullaridan va masalalar yechilishining o'quvchilar daftarlarida har xil shaklda yozilishlaridan omilkorona foydalanish kerak.

Mantiqiy masalalarni yechishga o'tishda tahlilning roli ancha ortadi. U mantiqiyroq va har tomonlama bo'lib qoladi. Bu vaqtda o'qituvchi bolalarga mantiqiy tafakkur qobiliyatlarini rivojlantirish zaruratini va uni xususiydan umumiyga olib borishni unutmasligi kerak.

Masalalarni yechishda shunday taxlash tavsiya etiladiki, oson masala mantiqiy masaladan oldin yechilsin, ammo shu bilan birga mantiqiy masalani yechishning biror kalitini o'z ichiga olsin. Oson masalani aniq yo'l bilan yechishni berilganlardan izlanayotganga borish yo'li bilan qarash kerak. Bunda shartni tahlil qilishdan ham, kattaliklar orasidagi bog'lanishlardan ham, navbatdagi amal uchun sonlar juftini tanlashdan ham, tahlilning ba'zi elementlaridan ham foydalanish kerak. Bunda har doim tanlangan amal nima uchun kerakligini va u nimaga olib kelishini qarash kerak.

Masalada berilgan vaziyatni tushunib yetish va undan masala yechilishining har xil usullarini izlashda foydalanish katta ahamiyatga ega. Buni har xil masalalar misolida ko'rsatamiz.

Masala: «Bolalar lagerdan ikkita avtobusda qaytishdi. Bir avtobusda 38 ta, ikkinchi avtobusda ham shuncha o'quvchi

bo'lib, ularning 43 tasi o'g'il bola edi. Lagerdan nechta qiz bola qaytgan?»

Bu masala ustida ishlash vaqtida o'quvchi diqqatni «shuncha» so'ziga tortadi va ikkinchi avtobusda qancha bola qaytganini aniqlaydi. Shundan keyin ko'pchilik o'quvchi yechishning uddasidan osongina chiqadi va yechishning bunday usulini taklif qilishadi: (38 + 38) – 43 = 33 ta (qiz bolalar.) Bu masalani boshqacha usul bilan yechish savoli o'quvchilarda ham o'qituvchida ham paydo bo'lmaydi. Ammo masalani tahlili vaqtida «43 ta o'g'il bolaning hammasi bitta avtobusga sig'adimi?» deyishning o'zi yetarli. (Yo'q, bitta avtobusga 38 ta o'g'il bola sig'ishi mumkin, boshqalari ikkinchi avtobusda ketadi.) Shundan keyin masala yechilishining ikkinchi usuli haqida takliflar paydo bo'ladi: 43 – 38 = 5 (o'g'il bolalar) 38 – 5 = 33 (qiz bolalar)

Berilgan masalaning ikki usul bilan yechilishi shunisi bilan qiziqki, bu masalalarning yechilishini (38+38)–43=33 ifoda bilan yozilishida uning qiymatini bir usul bilangina topish mumkin. Ikkinchi usulga masalada berilgan vaziyatni tahlil qilishgina olib keladi. Bunga o'quvchilarning e'tiborlarini qaratish foydali. Ushbu masalani qaraymiz: «Tikuv ustaxonasi 300 m jun gazlama oldi. Undan l00 ta bir xil kostyum tikish mumkin. 99 m gazlamani ishlatishdi. Yana nechta kostyum tikishlari kerak?»

Masalani tahlil qilishda savol qo'yishni o'ylab ko'rib, o'quvchilarni yechishning turli usullariga olib kelish mumkin bo'lgan variantlarni qaraymiz.

1- **variant.** Bitta kostyumga qancha gazlama ketishini topish uchun qaysi berilganlardan foydalanish mumkin? (300 : 100 = 3 m) Shundan keyin qancha kostyum tikkanlarini bilib bo'ladimi? (Bo'ladi. 99 : 3 = 33 kostyum) Masala savolini o'qing unga javob bera olamizmi?

2- **variant**. Masalani tahlil qilish bolalarga beriladigan ikkinchi savolning o'zgarishi bilan bog'liq: necha metr gazlama

qolganini bila olamizmi? (Bila olamiz. 300 – 99 = 201 m). Masala savoliga javob berish uchun qanday muhokama yuritish kerak? (201 : 3 = 67 kostyum)

Masala: «Bir xil vaqtning o'zida teploxod 216 km, paraxod esa 72 km masofa bosib o'tdi. Agar paraxodning tezligi soatiga 24 km bo'lsa, teploxodning tezligi qanday?»

Masalani tahlil qilishda yechish usulini tanlash savollar bilan qanday yo'naltirilishini ko'rsatamiz.

1) Masalani birinchi usul bilan yechishda tahlil ushbu savollar bo'yicha o'tkaziladi: teploxod bilan paraxod yo'lda bo'lgan vaqt haqida nimani bilamiz? (Masalada paraxod bilan teploxod bir xil vaqt davomida yo'lda bo'lishgani aytilgan.) Vaqtni topish uchun qanday kattaliklarni bilish kerak? (Tezlik, masofa.) Masalada berilganlar bo'yicha nimani topa olamiz, paraxod vaqtinimi yoki teploxod vaqtini? (Paraxod vaqtini topa olamiz, chunki u 72 km o'tgan va uning tezligi soatiga 24 km.) Shundan keyin masala savoliga javob bera olamizmi? (Ha bera olamiz. Teploxodning harakat vaqti ham 3 soatga teng, u o'tgan masofa esa 216 km, demak, uning tezligini bilish mumkin.)

2) Masalaning ikkinchi usul bilan yechilishini qarashda suhbat ushbu savollar bo'yicha olib boriladi: teploxod qanday masofani o'tgan? (216 km.) paraxod qanday masofani o'tgan? (72 km.) Teploxod o'tgan masofa paraxod o'tgan masofadan necha marta ortiqligini bilib bo'ladimi? (216 : 72 = 3 marta.) Teploxod va paraxod yo'lda bo'lgan vaqt haqida nima ma'lum? (Paraxod va teploxod yo'lda bir xil vaqt bo'lishgan.) Siz nima deysiz, teploxodning tezligi kattami yoki paraxodning tezligimi? (Teploxodning tezligi katta, chunki teploxod paraxod bilan bir xil vaqt davomida yo'lda bo'lgan, ammo undan ko'p masofa o'tgan.) Teploxodning tezligini bilish uchun olingan natijadan foydalanish mumkinmi? (Ha, u paraxodning tezligidan 3 marta ortiq, 24*3=72 (soatiga km).

Darsning maqsadi va o'quvchilarning tayyorgarlik darajalariga qarab masalalarni har xil usullar bilan yechishni

o'rgatishning boshqa yo'llaridan ham foydalanish mumkin. Masalan, boshlang'ich yechimni davom ettirish usulidan foydalanish mumkin. Guruh bo'lib bajariladigan ish shaklidan foydalanib, yechimni tugatish va har qaysi amalga tushuntirish berish topshirig'i taklif qilinadi.

Shunday qilib, xulosa qiladigan bo'lsak masala tahliliga har xil yondashish uni yechishning har xil usullariga olib kelar ekan.

Mantiqiy masala yechishning eng ratsional usulini tanlash

Masalalarni har xil usullar bilan yechishda masalalar yechimlarini taqqoslash usulidan ham foydalanish kerak. Bu usul ushbu savollarga javob berish imkonini beradi: qaysi usul ratsional? Bir usulning ikkinchi usuldan afzalligi nima?

O'quvchilar tafakkurining rivojlanishida va ularda masala yechish malakasini shakllanishida masalaning yechilishiga har xil yaqinlashish imkoniyatlarini tushunib yetish va bu yaqinlashishlardan eng ratsionalini tanlashning ahamiyati katta. Masalalarni har xil usullar bilan yechishga intilish ham kursning amaliy yo'nalganligini xarakterlaydi, chunki bolalar turmushda uchratishlari mumkin bo'lgan amaliy masalalar har xil yechilish usullariga ega, matematika darsligida berilgan masalalardan foydalanib, ularni shunga tayyorlash kerak.

Amalda o'qituvchilar tekshirishning natijani chamalash yoki uning chegaralarini aniqlash, masalani boshqa usul bilan yechish, yechish natijasining masala shartiga to'g'ri kelishini aniqlash, masala sharti bo'yicha tuzilgan amallarning ma'nosini aniqlash va hisoblashlarning to'g'riligini tekshirib ko'rish kabi har xil usullaridan foydalanadilar. Oxirgisidan tashqari hamma usullar natijani tekshirishga yo'naltirilgan va o'qituvchi uchun qiyinchiliklar tug'dirmaydi.

Yuqorida ko'rib o'tilgan misolimizda ikkinchi usul eng ratsional usul ekani shubhasiz. Ammo, bu yechishning boshqa usullarini qarash kerak emas degan gap emasmi? Yo'q.

Birinchidan, boshqa usullarni qaramasdan o'quvchilar

qaysinisi ratsional va nega ratsional ekani haqida xulosa chiqara olmaydilar. Ikkinchidan, o'tkazilgan ish rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi rejada, buning ustiga didaktik jihatdan foydali ekani ma'lum, chunki o'quvchilarning savollarga bergan javoblari noma'lum miqdorni boshqa ikkita miqdor bo'yicha topishga doir o'ziga xos mashqlar deb qarash mumkin. Bunday mashqlarni o'qituvchi odatda o'quvchilarga og'zaki sanoq bosqichida beradi. Mazkur holda ular maqsadga yo'nalganlik xarakteriga ega. Bu ishning o'rgatuvchi funksiyasi shundan iborat. Bundan tashqari masala tahliliga har xil yaqinlashish imkoniyati faktining o'zi bilan tanish bo'lishlik o'quvchilarning rivojlanishlarida izsiz o'tmaydi. Bitta masalani to'rt usul bilan yechish imkoniyati emotsional sferaga ta'sir qiladi. Bu qiziqarli hamdir. Bunda ham qilingan ishning tarbiyaviy ahamiyati kam emas.

O'quvchilarning yuqori darajada tayyor bo'lishlari boshqa usuldan – masala yechilishining tayyor usullarini muhokama qilish usulidan foydalanish imkonini beradi.

Masalan, berilgan masalani ikkinchi usul bilan yechish mumkin, shundan keyin o'quvchilarga yechishning yana uchta usulini (ularni doskaga yozish kerak) berish va ishning kollektiv formasidan foydalanib, har qaysi usulni muhokama qilish kerak. Guruh bo'lib bajariladigan ish formasidan foydalanish ham mumkin: har bir qatorga bittadan yechish usulini tushuntirish topshirig'ini berish kerak.

Qaralgan usulni, masalan, ushbu masalani yechishda qo'llash maqsadga muvofiq: "Poyezd bir shahardan ikkinchi shaharga borishda yo'lning 180 km ini soatiga 60 km tezlik bilan o'tdi. Qolgan yo'lni xuddi shu tezlik bilan o'tishi uchun 4 soat ortiq vaqt kerak bo'ldi. Poyezd hammasi bo'lib necha kilometr o'tishi kerak bo'lgan?"

Doskada masalaning uchta yechilish usuli yoziladi va qatorlarga har qaysi usulni tushuntirish topshirig'i beriladi:

1-usul 2-usul

1) 180 : 60 – 3 (soat) 1) 60*4 = 240 (km)

2) 3 + 4 = 7 (soat) 2) 180 + 240 = 420 (km)

3) 60*7 = 420 (km) 3) 180 + 420 = 600 (km)

4) 180 + 420 = 600 (km)

3-usul

1) 180 : 60 = 3 (soat)

2) 3 + 4 - 7 (soat)

3) 7 + 3 = 10 (soat)

4) 60* 10 = 600 (km)

O'quvchilar har bir usulni tushuntirib berishga harakat qilishadi. Shundan keyin qaysi usul o'quvchilarga eng tushunarli bo'lgani, qaysi usul eng ratsional ekani aniqlanadi.

O'quvchi qaysi usul bilan masalani yechmasin, albatta bu usullardan tushungan holda foydalanishlari lozim.

Vaqtga doir mantiqiy masalalar bilan ishlash metodikasi

Boshlang'ich sinflarda vaqtga doir misol va masalalar qaraladi. Boshlang'ich sinflarda ayniqsa, III-IV sinfda ko'proq vaqtga doir misollar qaraladi, quyidagicha masala turlari ishlanadi:

1. Hodisalarniiig boshlanish vaqti va o'tgan vaqtiga ko'ra hodisaning boshlanish vaqtini topishga doir masalalar.

2. Hodisanmg tamom bo'lish vaqti va o'tgan vaqtga ko'ra hodisaning tugagan vaqtini topishga doir masalalar.

3. Hodisalar orasidagi vaqt oralig'ini topishga doir masala.

Bu xildagi masalalar o'zaro teskari masalalardir. Darsliklarda bu xildagi o'zaro teskari masalalarni bir vaqtda kirish va qarash tavsiya etiladi. Masalan, maktabda darslar soat 9 da boshlanadi va 4 soat davom etadi. Maktabda darslar qachon tugaydi?

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga "Vaqt o'lchovlari" mavzusini o'rgatishda bolalar vaqt o'lchovining asosiy birliklari haqida konkret tasavvurga ega bo'lishlar kerak. Bular yil, oy, hafta, sutka, soat, minut. O'qituvchining vazifasi o'quvchilarni vaqtni

aniqlashlarida soatdan amalda foydalanishga shuningdek, hodisaning qancha vaqt davom etganligi, boshlanishi va oxirini aniqlash bilan bog'liq bo'lgan har xil masalalarni yechishda foydalanishga o'rgatishdan iborat.

O'quvchilarga vaqtni tushuntirish dastlab tobel-kalendarning hafta kunlari aniq tasavvurlar orqali amaliy faoliyatlari, kuzatishlari asosida shakllantiriladi.

1 minutning qancha davom etishini shakllantirish uchun shunday mashqlar kiritiladiki, bu mashqlar yordamida bolalar 1 minutda nima qilishga ulgurishi mumkinligini bilib oladilar.

O'quvchilrning o'zi hayotlarida 1 minutning ahamiyatini o'z tajribalaridan olib tushuntirish katta samara beradi.

Masalan: Ikki guruh qatnashchilari o'rtasida yugurish musobaqasi olib borildi. Bu musobaqada Yoqub Muzaffardan marraga bir minut oldin keldi. Agar Muzaffar yana ham tezroq harakat qilganida shu 1 minut ichida kelgan bo'lardi.

1. Dars soat 2 da boshlanadi va 45 minut davom etadi. Soat modelida dars qachon tugashini ko'rsating. Masalan:



2. Maktabda dars soatlari 8 da boshlanadi. 4 soat dars o'tilgandan keyin soat necha bo'ladi?

3. Agar kechasi soat 2 da yomg'ir yog'ayotgan bo'lsa, 48 soatdan keyin quyosh chiqib turishi mumkinmi?

Javob: yo'q mumkin emas, chunki 48 soatdan keyin yana kechasi bo'ladi. Ikkinchi masalani yechishda yana o'sha

chizmadan foydalanish mumkin.

Chizmada o'quvchilar oldin darslarning kirish vaqtini belgilaydi va 13 sonini qo'yilgan belgidan chapga qarab 4 ta bo'lak sanaladi 9 raqamli belgi topiladi.

Yechilishi: 13 – 4 = 9

Javob: Maktabda darslar soat 9 da boshlanadi. Shundan keyin o'quvchilar bilan birgalikda berilganlarga teskari bo'lgan uchinchi masalani tuzish kerak. Maktabda darslar soat 9 da boshlanib soat 13 da tamom bo'ladi. Maktabda darslar qancha davom etadi.

O'quvchilar chizmaga asoslanib ushbu yechimni topadi. Javob: 13 – 9 = 4 maktabda darslar 4 soat davom etadi.

O'quvchilar masalalarning shartlari, savollari va yechimlarini taqqoslab bu masalalarning hammasi o'zaro teskari masalalar ekaniga ishonch hosil qiladilar.

Bundan keyin shunga o'xshash masalalarni chizmaga asoslanmay yechish kerak

Vaqtga doir bu xildagi bir qator masalalarni og'zaki yechish mumkin.

Sutka ichidagi vaqtni hisoblashga doir qaralgan holdagi masalalar bilan bir qatorda darslikda ham masalalar ham berilganki, ularning matematik mazmuni shu vaqtda o'rganilayotgan mavzu mazmuni bilan o'rganiladi. Masalan; "Vaqt o'lchov birliklari bilan yozilgan ismli sonlarni qo'shish mavzusini o'rganishda o'quvchilarga yechish uchun quyidagilarga o'xshash masala1ar beriladi ".

O'quvchi birinchi kuni 12 soatu 45 minut, ikkinchi kuni 10 soatu 35 minut havoda bo'ldi. O'quvchi ikki kun davomida qancha vaqt havoda bo'lgan?

Yechilishi:

12 soat 45 minut
+ 10 soat 35 minut
22 soat 80 minut

80 minut – 1 soatu 20 minut, shu sababli 22 soat 80

minutni o'zgartirib, 23 soat 20 minutni hosil qilamiz. Bolalarda vaqt haqidagi tasavvurlar uzoq kuzatishlar, tajribalarning jamlanib borishi, boshqa miqdorlarni o'rganish jarayonida sekin rivojlanib boradi.

Vaqt haqidagi dastlabki tasavvurlarni bolalar maktabgacha bo'lgan davrda oladilar. Tun va kunning, yil fasllarining almashinishi, bolalarning hayotidagi rejimli momentlarning takrorlanishi bularning barchasi vaqt haqidagi tasavvurlarni shakllantiradi.

1-sinf o'quvchilarida vaqt haqidagi tasavvurlar maktabgacha yoshdagi bolalardagi kabi eng avvalo, ularniiig amaliy faoliyatlarida shakllanadi: kun rejimi tabiat kalendarining yuritilishi va hikoyalar, ertaklar o'qiganlarida va kinofilm ko'rganlarida voqealarning ketma-ket kelishini qabul qilishi, har kuni daftarlarda ish kunini yozib borishi bularning hammasi bola vaqt o'zgarishini ko'rishga, vaqt o'tishini his qilishga yordam beradi. Dastur 1 sinfda bolalarni hafta kunlari va ularning kelish tartibi bilan tanishtirish ishini ko'zda tutadi.

I sinfdan boshlab bolalarning tajribalarida ko'p uchratadigan tanish vaqt oraliqlarini taqqoslashga kirishish zarur. Masalan; nima uzoqroq davom etadi; darsmi yoki tanaffusmi, o'quv choragimi yoki ta'tillarmi, nima vaqt bo'yicha qisqaroq; bolalarning mashg'ulotlardagi vaqtimi, ota-onalarning ish kunimi?

Katta amaliy ehtiyoji borligi munosabati bilan 1-sinf o'quvchilariga vaqtni soat yordamida qanday aniqlashni o'rgatish foydali, bunda bolalar vaqtini hozircha 1 soatgacha aniqlikda hisoblashga o'rganishlari yetarli.

Vaqt birliklari bilan tanishtirish bolalarning vaqt haqidagi tasavvurlarini aniqlashtirishga yordam beradi. Bolalar har bir vaqt birligi haqidagi konkret tasavvurlarni shakllantirish, ular orasidagi munosabatlarning o'zlashtirilishiga erishish kalendar va soatdan foydalanishga o'rgatish va tugash vaqti ma'lum bo'lsa, uning davom etish vaqtini hisoblashga doir

uncha mantiqiy bo'lmagan masalalarni ular yordamida yechish, shuningdek, unga teskari masalalarni yechishi zarur.

"Mashinist poyezdni bir shahardan ikkinchi shaharga haydab bormoqda. U 4 soatu 45 minut yurganidan keyin yana 2 soatu 35 minut ortiqroq yuradigan yo'l qoladi. Mashinist poyezdni bir shahardan ikkinchi shaharga qancha vaqtda haydab kelishi zarur?"

Masala shartini qisqacha bunday yozish mumkin:

Yurdi – 4 soatu 45 minut

Qoldi – ? Yurganidan 2 soat 35 minut ortiq.

Yechilishi:

4 soat 45 minut
+ 2 soat 35 minut
6 soat 80 minut = 7 soat 20 minut.

7 soat 20 minut
+ 4 soat 45 minut
11 soat 65 minut = 12 soat 5 minut

O'quvchilarni mantiqiy masalalarni yechishga o'rgatish 4-sinf matematikasining asosiy vazifalaridan biridir. Bunda amallar soniga nisbatan cheklanmaydi, ya'ni o'quvchi nafaqat ikkita, balki uchta va to'rtta ko'paytmalarning yig'indisini topish talab etilgan, hayotiy masalalarni yecha olishi kerak.

Tarkibli masalalarda sodda masalalarning barcha turdagi ko'rinishlari uchrashi mumkin. Bu masalalarni o'rganish uchun alohida dars qo'shimcha dars soatlari shart emas. Bunda o'qituvchi dastlab masala haqida tushuntirishlar olib boradi, so'ngra o'quvchilar o'zlari mustaqil ishlashlari uchun metodik tavsiyalar taklif qilishi mumkin.

Mantiqiy masala yechishda asosiy bosqichlarni quyidagicha belgilash mumkin:

1. masalani o'qish;
2. ma'lum va noma'lumlarni aniqlash;
3. qisqa yozuv yoziladi;

4. yechish rejasi tuziladi;
5. yechish bajariladi;
6. javob aniqlanadi:
7. javob tekshiriladi.

Masala yechishda materiallar asosan tevarak-atrofdan olinishi maqsadga muvofiq.

Mavzu yuzasidan quyidagi tavsiyalarni bildirish mumkin:

a) boshlang'ich sinf matematika darslarida matnli masalalar, xususan, mantiqiy masalalar yechish alohida o'rin egallaydi

b) o'quvchilarni baho, miqdor va qiymat, vaqt, tezlik, masofa orasidagi va boshqa miqdorlar orasidagi mavjud bog'lanishlar bilan tanishtirishda mantiqiy masalalarning ahamiyati katta;

c) o'quvchilarni mantiqiy masalalarni yechishga o'rgatish ular ustida ish olib borish usullariga bog'liq;

d) masalalar ustida ishlash jarayonida uni turli usulda yechish malakasini shakllantirib borish g'oyat muhim;

e) mantiqiy masalalar yechishda mulohaza yuritishning analitik va sintetik usulidan foydalanish o'quvchilarni ancha jiddiy fikrlashga o'rgatadi;

f) fikrlashning sintetik usulida o'quvchi masaladagi son ma'lumotlaridan boshlab, izlanayotgan ma'lumotga qarab tahlil etishni o'rganadi;

g) masalada izlanayotgan miqdordan ma'lum miqdorlarga qarab tahlil etish orqali analitik usulda yechish malakasi shakllanadi;

h) masalalar yechishda muammoli vaziyatni hosil qilish o'quvchining idrokini, fikrlashini o'stiradi;

i) geometrik mazmundagi masalalar ustida ish olib borishda o'quvchilarning geometrik tasavvurlarini o'stirishga, geometrik figuralar ustida ko'proq amaliy ishlar olib borish lozim;

j) o'qituvchi masala yechishning u yoki bu usulini qo'llaganda didaktika tamoyillarini hisobga olishi lozim.

Yuqorida bildirilgan tavsiyalarga amal qilish mantiqiy masalalar ustida ishlash bilan bog'liq bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirishga, hayotiy kompitentligini oshirishga xizmat qiladi.

Nazorat savollari:

1. Masalalar yechish – nazariyani amaliyotga tadbiq etishning muhim yo'llarini ayting
2. Mantiqiy masalalar yechishga o'rgatish ay tartibda amalga oshiriladi
3. Mantiqiy masalalarni yechish usullari haqida ma'lumot bering
4. Vaqtga doir mantiqiy masalalar bilan ishlash metodikasi haqida gapirib bering

10-mavzu: Interfaol ta'lim vositasida o'quvchilarda mustaqil fikrlash madaniyatini shakllantirish va kompetentli yondashuv

Reja:

1. Interfaol ta'lim tushunchasi
2. O'quvchilar mustaqil fikrlash madaniyatini shakllantirish
3. Kompetentli yondashuv

***

Tayanch tushunchalar: interfaol, tanqidiy fikr, xorijiy tadqiqotchilar, mustaqil ta'lim, nazariy va amaliy mashg'ulotlar

***

Mashg'ulot maqsadi: Har bir pedagogning bosh maqsadi - pedagogik mahorati bilan o'z individualligini yorqin namoyon etish, interfaol ta'lim vositasida mustaqil fikrlash madaniyatini shakllantirish, uning sifatida oldindan o'quvchilarni ta'lim-tarbiya samaradorligini ko'ra bilish.

Interfaol ta'lim vositasida o'quvchilarda mustaqil fikrlash madaniyatinishakllantirish

Bir qator tadqiqotchilar fikricha o'quv adabiyotlari tanqidiy mulohaza yuritishga imkoniyat yaratuvchi vosita bo'lishi kerak. Har bir fan ma'ruzalari muammoli tarzda bo'lishi bilan tanqidiy asosda o'qitilishi, o'quvchilarda o'rganishga, shuningdek tanqidiy fikr yuritilgan o'quvadabiyotlarga nisbatan qiziqishini

orttiradi, ular qator fikrlar asosida o'z fikrini mustahkamlashga harakat qiladi, ma'ruza o'qigan pedagog bilan muloqot qilish uchun intiladilar, o'z fikr- mulohazalarni ifoda qilish yo'llarini topadilar. Demak, o'quvchi o'z bilimini tanqidiy fikrlar asosida oshirib boradi va har qanday holatda ham fikr-mulohaza yuritish qobiliyatini namoyon etadi.

Darsliklarda berilgan matn, mashq va masalalarni illyustrativ materiallar, jadvallarni tanlashda o'quv-biluv faoliyatini boshqarish, ya'ni dars jarayoniga rahbarlik qilish, darslik materiallari vositasida o'quv-chilarning bilim, ko'nikma, malakalari, egallagan shaxsiy sifatlarini na-zorat qilish mexanizmini ishlab chiqish lozim.

Xorijiy tadqiqotchilar fikricha, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, maqsadga intilish, individual va guruhiy ishlari, hamda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va kollejdan tashqari ta'lim olish imkoniyatlarini ham yaratish, kasb-hunar ta'limi muassasalarining asosiy vazifasi bo'lishi kerak.

Frantsuz olimi K. Allegr ta'kidlaganidek, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, maqsadga intilish, ularning individual va guruhiy ishlarini, hamda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish ham kasb-hunar o'quv yurtlarining asosiy vazifasidir.

Psixologlarning tadqiqotlari tahlili shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarda bilimlarini shakllantirish o'qituvchi rahbarligida, maqsadli tashkil qilingan faoliyat jarayonida samaralirivojlanadi va bu pedagogik jarayonda o'z aksini topadi.

Faqatgina samarali tashkil etilgan ta'lim jarayonida o'quvchida o'quv muammosini mustaqil hal qilish ko'nikmasini rivojlantirish va o'rganilayotgan bilimlar yuzasidan kelib chiqqan muammolarni ijodiy yechish imkoniyatini yaratadi.

Shuning uchun ham biz bugungi kunda zamonaviy ta'limning vazifasi, maqsadi, o'rni va rolini yaqqol tasavvur qila olishimiz kerak.

Biz hozirgi vaqtda qo'llanilayotgan o'quv-tarbiya jarayonida va pedagogik adabiyotlar va tadqiqot ishlarida, "mustaqil

ta'lim", "mustaqil ish" tushunchalarining mohiyatini yoritishga harakat qildik. Ba'zan mustaqil holda o'qish va mustaqil ta'lim tushunchalari adashtiriladi.Mustaqil holda o'qish rasmiy o'quv jarayonidan tashqarida kechishi mumkin, ya'ni muayyan ta'lim muassasiga bormay turib, uyda o'zi o'quv materiallari asosida mustaqil, individual holda o'qishi va o'rganishi mumkin.

N.Muslimovning fikricha mustaqil ta'lim - bilimlarni o'zlashtirish tasavvurlarini rivojlantirish tushunchalari, ko'nikma va malakalarni hosil qilish bo'yicha o'quv jarayonining sub'ektiv maqsadiga muvofiq muntazam, mustaqil hamda avtonom faoliyatni tashkil etish demakdir.

Mustaqil ta'lim - belgilangan o'quv topshiriqlarini tahsil oluvchilarning mustaqil va ijodiy bajarishlari asosida o'tadigan o'quv faoliyatidir. Mustaqil ta'lim negizini mustaqil ishlar tashkil etadi.

Biz mustaqil ta'limni pedagogik tamoyillarga asoslanib tashkil etish kerak, deb o'ylaymiz. Masalan, o'quvchilarning ongliligi va faolligi tamoyili o'qitishni shunday tashkil etishni nazarda tutadiki, bunda o'quvchilar ilmiy bilimlarni hamda ularni amalda qo'llash metodlarini ongli va faol egallab oladigan, ularda ijodiy tashabbuskorlik, o'quv faoliyatida mustaqillik, tafakkur, nutqrivojlanadigan bo'lsin.

Masalan: Mustaqil bilim olish va o'rganishda o'quvchilar harakati guruhdagi o'quvchilar quyidagi tartibda bo'lishi mumkin:

1. O'quvchilar kichik guruhlarga bo'linadi (odatda 3-4 ta)

2. Har bir kichik guruh o'tilgan mavzular bo'yicha bir nechta savol (yokitopshiriq) lar tuzadilar.

3. So'ngra guruhlar o'zaro savollar bilan almashadilar.

4. Guruhlar "raqib" guruh tuzgan savollarga javob beradilar va eng ko'p savolga to'g'ri javob bergan guruh muvaffaqiyat qozongan deb hisoblanadi.

Demak, kasb-hunar kollejlarida o'quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlash faoliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan

mashg'ulotlarni samarali tashkil etish o'quv jarayonining muhim omillaridan biri bo'lib hisoblanadi. Mustaqil va ijodiy ishlash jarayonida o'quvchida mustaqil fikrlash qobiliyatining rivojlanishi natijasida, o'quvchida jarayonlar va hodisalar, obyektlar haqida bilimlarni tizimlashtirish ularni chuqur o'rganish hamda tegishli qarorlar qabul qilish, nazariy bilimlarni amalda qo'llash ko'nikmalari shakllanadi.

Nazariy va amaliy mashg'ulotlar

Nazariy dars, tajriba va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish davomida o'qitish jarayonining ko'zda tutilgan ketma-ketligini saqlab qolish hamda rejalashtirilgan o'quv maqsadlariga erishishni ta'minlash lozim.

O'qituvchi tomonidan o'quvchilarning mustaqil va ijodiy faoliyatlarini rivojlantirish uchun mashg'ulotlarning dars ishlanmasi hamda texnologik xaritasi ishlab chiqilishi kerak. Har bir mashg'ulot bo'yicha dars ishlanmalari va texnologik xaritalarni ishlab chiqish o'quv jarayonini to'laqonli loyihalashtirish hamda samarali tashkil etish imkonini beradi.

Mustaqil ish

O'quvchilarining mustaqil va ijodiy ishlash qobiliyatlarini shakllantirish hamda rivojlantirishda mustaqil ishlar-ning ahamiyati juda katta.

Mustaqil ishlar o'quvchining umumiy rivojlanishiga va kasbiy mahoratini o'stirishga xizmat qilishi kerak. SHuningdek o'quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlarini tashkil qilish tarbiyaviy, ta'limiy ahamiyatga ham ega bo'lishi kerak. Tarbiyaviylik ahamiyati shundaki o'quvchi o'z bilimini oshirish va mustahkamlash uchun o'zini-o'zini tarbiyalab boradi. Ta'limiy ahamiyati esa o'quvchi bo'sh vaqtdan samarali foydalangan holda mustaqil bilim olish jarayonining shakllanishiga olib keladi.

O'quvchilarning mustaqil ishlarini samarali tashkil etish va boshqarish o'quv jarayonining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Mustaqil va ijodiy ishlarning turlari, shakllarini tanlashda "oddiydan-murakkabga" hamda "umumiydan-xususiyga", "mavhumdananiqlikka" tamoyillariga amal qilish lozim. Mustaqil va ijodiy ish topshiriqlarini ishlab chiqishda har bir o'quvchining shaxsiy imkoniyatlari, tushunuvchanlik, o'quv materialini o'zlashtirish darajasi inobatga olinishi, shaxsga yo'nal- tirilgan o'qitish texnologiyalarini qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Mashg'ulotlarda o'quvchilarning ijodiy ishlashiga ahamiyat berish kerak. O'qituvchi o'quvchi bajaradigan mustaqil ishlarni hajmini aniqlab, bajarish uchun ularga aqliy mehnat qilish yo'llarini o'rgatadi hamda ishni bajarish jarayonida kelib chiqadigan kamchiliklar va xatoliklar bo'yicha ko'rsatmalar beradi.

Mashg'ulotlarni tashkil etish shakllari.

O'quvchilarning mustaqil izlanuvchanlik faoliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlar kichik guruhlarda hamda individual shaklda olib borilishi lozim. Individual shakl asosan ijodiy topshiriqlarni bajarishga yo'naltiriladi. Har bir o'quvchi o'zining individual (jismoniy, psixik va b.) xususiyatlariga egaki, bu uning o'quv faoliyatiga katta ta'sir etadi. Pedagogning bu xususiyatlarni o'rganishi va inobatga olishi o'qitish sifatini oshirish hamda har bir o'quvchining ijodiy qobiliyat-larini rivojlantirish uchun sharoit yaratadi.

Pedagog o'quvchilarning darslardagi va tajriba mashg'ulotlari vaqtida dars jarayonidagi ishini, mustaqil ish va topshiriqlarini bajarishini kuzatadi, ularning bilimi, nazorat ishlarini tekshiradi, maslahatlarda, darsdan tashqari vaqtlarda ular bilan ishlaydi. O'quvchining kuchli va ojiz tomonini bilib olishga, uning qiziqishlari, tafakkuri, nutqi, xotirasi, diqqati, xayoliga xos bo'lgan xususiyatlarni o'rganishga, uning xarakteri hamda irodaviy sifatlarini yaxshi bilib olishga harakat qiladi, ularning hayotiy va mehnat tajribalarini, muassasaga kelishdan

oldingi faoliyati xususiyatlarini o'rganadi.

Kichik guruhlarda ishlash maxsus bilimlar bilan bir qatorda amaliy ko'nikmalar o'rganilishi kerak bo'lganda, shuningdek o'quvchilarda mustaqil ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun qo'llaniladi. Bir nechta o'quvchilar birgalikda ishlagan paytda, ularning shaxsiy xususiyatlari va xarakterlari orasida o'zaro hamkorlik vujudga keladi.

Guruhli bo'lib ishlashda ikkita holat farqlanadi:

- bir xil mavzuda olib boriladigan guruh ishi;
- har xil mavzuda olib boriladigan guruh ishi

Bir xil mavzuda olib boriladigan guruh ishida bir necha guruhlarga bir xil topshiriqlar beriladi. Topshiriq va mashqlarni yechish sharoitlari ham bir xil bo'ladi. SHunday qilib har xil yechimlar guruh ishi tugaganidan so'ng bir-biri bilan taqqoslanishi mumkin. Ko'pincha bunday hollarda raqobat holati yuzaga keladi. Yechim topilishi vaqtida esa raqiblikka o'xshash holatlar vujudga keladi. Bu yerda muhim narsa shuki, guruhlardagi o'quvchilarning bilim va ko'nikmalari imkon qadar bir xil bo'lishi kerak.

Har xil mavzuda olib boriladigan guruh ishida beriladigan ish topshirig'i bir necha qismlarga bo'linadi. Faqat bu qismlar birlashtirilgandagina topshiriqning mazmuni aniq ko'rinadi. Har bir guruh bu holda qisman topshiriq oladi va mustaqil ravishda uning ustida ishlaydi.

Bunday yondashuvda bir guruh o'quvchilari faqat o'zlariga berilgan topshiriqlarni bilishadi xolos, ya'ni boshqa guruhlar ishlari haqida deyarli xabarlari bo'lmaydi. SHuning uchun ham natijalar qisman birlashtirilishi zarur.

Kichik guruhlarda ishlashda berilgan topshiriqlar puxtalik bilan o'ylab chiqilgan bo'lishi kerak, chunki ularda o'quvchilar orasida muloqot va hamkorlik qobiliyatini rivojlantirish kabi maqsadlar bor.

1) "Reja o'yini" shaklidagi guruhiy ish:

"Reja o'yinlari" belgilangan vaziyatda turli xil yechimlarni

sinab ko'rish imkonini beradi. O'quvchilar bunda muammoga bo'lgan har xil ta'sirlar natijaga qanday ta'sir qilishini o'rganadi. Buning uchun sabab va oqibat bir-biri bilan bog'liq ravishda ko'rilishi kerak. O'quvchilar o'yin jarayonida o'zaro raqobat munosabatida bo'ladilar.

2) Loyiha shaklidagi guruhiy ish:

Loyihaviy ish bir loyihani aniq belgilangan chegara doirasida ishlab chiqishni talab qiladi. Loyiha shaklidagi guruhiy ish juda ham katta ahamiyatga ega, chunki bunda vazifalar topshiriqlar majmuasi bo'yicha aniq taqsimlanishi kerak bo'ladi.

O'quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlash faoliyatlarini rivojlantirishda elektron ta'lim resurslaridan maksimal foydalanish muhim ahamiyatga ega. O'quv va didaktik materiallarga qo'shimcha tarzda tasviriy-vizual vositalar (fotosuratlar, rasmlar, chizmalar, grafiklar) ham kiradi. Ular umumiy va keng qamrovli tasavvurlarni vujudga keltirishni osonlashtiradi.

Shuningdek, tasviriy tasavvurlarni shakllantiradigan audio-vizual vositalar texnologik jarayonlar va funktsiyalar to'g'risidagi keng qamrovli real tasavvurlarni vujudga keltiradi.

Predmet vositalari tasvir va matnlarni yozib olish, saqlash imkonini beradi. Ularga doska, flipchart, kodoskop (proektor) kamera va компьyuterlar kiradi.

Tajriba ishi sohasiga tegishli kerakli tajriba uskunalari, namunalar, jihozlar va asboblar nazariy dars yoki amaliy mashg'ulot paytida didaktik funktsiyaga ega bo'lsa, o'quv vositasi sifatida qo'llanilishi mumkin.

Ushbu vositalardan foydalanishda ularni muayyan maqsad soha va usullarga mos holda tanlash muhim o'rin tutadi. O'qituvchi o'quv va ko'rsatmali vositalarni ishlata olishni, ulardan maqsadga muvofiq va oqilona tarzda foydalanishni bilishi kerak. Texnik vositalardan foydalanilayotganda yuzaga keladigan texnik muammolarni mustaqil hal qila olishi kerak.

O'quv materiallari bir paytning o'zida didaktik materiallar

sifatida, ya'ni o'qitish va o'rganish uchun ishlatiladi. Agar o'quv va didaktik materiallar yetarli bo'lmasa, u holda o'qituvchi tomonidan ularning tanlanishi hamda nazariy yoki amaliy mashg'ulotlar maqsadiga moslashtirib tayyorlanishi kerak.

O'qitish jarayonida o'quvchilarni faollashtirish - shuni nazarda tutadiki, bunda o'quvchilar ilmiy bilimlarni hamda ularni amalda qo'llash usullarini ongli va faol egallab oladigan, ularda ijodiy tashabbuskorlik, o'quv faoliyatida mustaqillik, tafakkur, nutq rivojlanadi.

O'quvchilarning faolligi ularning o'quv materialni egallab olishida o'quv, tajriba xonasi sharoitlarida topshiriqlarni bajarishdagi harakatlarida namoyon bo'ladi. Faollilik o'quvchilarning o'quv va mehnat faoliyatidagi mustaqilligini rivojlantirish bilan mustahkam bog'langan.

Faol usullarini tanlash birinchidan, darsdan ko'zda tutilgan o'quv maqsadlariga bog'liq. Masalan, agar darsning maqsadi yangi bilimlarni egallashdan iborat bo'lsa, o'qituvchi bu bilimlarni o'zi bayon qiladi yoki o'quvchilarning o'quv adabiyotlari va boshqa materiallar bilan mustaqil ishlashini tashkil qiladi.

Ikkinchidan, ta'lim usullarini tanlash o'rganiladigan fanning mazmuni va darsning aniq o'quv materialiga bog'liq bo'ladi. Bir mashg'ulotning o'zida bir nechta faol usullar qo'llanilishi mumkin.

Uchinchidan, o'quvchilarning ilgarigi tayyorgarlik darajasiga va shaxsiy tajribasiga bog'liq. Agar yangi o'quv materiali o'quvchilarga butunlay notanish bo'lsa, o'qituvchi buni o'zi bayon qiladi, buni didaktik vositalar va tajribalarni ko'rsatish bilan qo'shib olib boradi.

Ta'lim oluvchilarning bilim olish, mustaqil ishlash va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning ongli faolligi, mustaqilligi hamda ijodkorligini, o'quv bilish faoliyati natijasining sifatini xarakterlaydi.

Faollik-ta'lim sharoitida o'zlashtirilgan nazariy bilim va

amaliy ishharakat usullarini turli ishlab chiqarish vaziyatlarida qo'llanishga imkon beradi.

O'qitish jarayoni. O'quvchilarning mustaqil izlanuvchanlik qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlar dars ishlanmalari hamda texnologik xaritalari asosida o'qitish jarayoni tashkil etiladi. Mashg'ulotlar asosini mustaqil va ijodiy ish topshiriqlarini bajarish tashkil etadi. Har bir mashg'ulot o'quv maqsadiga to'la erishish uchun qo'shimcha mashg'ulotlar ham o'tkazilishi mumkin.

O'quvchilarga mustaqil bilish, fikrlash va ijodiy izlanishga majbur qiladigan, muammoli hayotiy dalillarga asoslanadigan vaziyatli topshiriqlarni berish maqsadga muvofiqdir. O'quvchi topshiriqlarni ijodiy fikrlash va mustaqil ishlash orqali bajarishlari lozim.

O'qituvchilar mustaqil va ijodiy ish topshiriqlarini bajarish bo'yicha o'quvchilarning intilishlarini olqishlashi hamda to'g'ri yo'naltira olishlari lozim. O'quvchi yakka xolda samaraliroq ishlaydimi; yoki bir necha kishidan iborat guruh bilan birgalikda ishlashni yoqtiradimi; yoki unga elek-tron darsliklardan foydalanish qulayroqmi buni o'qituvchi yaxshi bilishi kerak.

O'quvchi topshiriqni o'zi anglashi va uni bajarishga harakat qilishi, o'qituvchi esa, o'z navbatida, o'quvchilarning mustaqil izlanish olib borish ko'nikmalarini, o'tilgan materiallarniyanada chuqurroq o'zlashtirish uchun qo'shimcha ma'lumotlarni izlab topish qobiliyatlarinirivojlantirishga undashlari lozim.

Savollar yoki topshiriqlar orqali o'quvchilarning ijodiy fikrlashlarni rivojlantirish, noma'lum yoki noaniq ma'lumotlar mohiyatini tushunish uchun mustaqil izlanishlarini vujudga keltiradi. Biz tomondan olib borilgan pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, o'quvchining ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish, uning mustaqil bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshirishda mustaqil ish ijobiy ta'sir ko'rsatar ekan. Lekin, auditoriyadan tashqari mustaqil ishni tashkil qilish birmuncha murakkab jarayon. CHunki bu jarayonda o'quvchi

mustaqil tarzda fanlar bo'yicha berilgan topshiriqlarni o'quv-uslubiy adabiyotlaridan foydalangan holda bajarishlari kerak.

O'quvchilar tomonidan o'quv materiallari o'zlashtirilganligini, ko'nikma va malakalar hosil bo'lganligini tekshirish hamda baholash ta'lim jarayonining zaruriy tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu faqat o'qitish natijalarini baholash emas, balki o'qitish jarayoni davrida o'quvchilar bilim olish va mustaqil ish faoliyatiga rahbarlik qilish hamdir.

Bilim va ko'nikmalarni tekshirish hamda baholashning ta'limiy ahamiyati shundan iboratki, bunda o'quv materialining o'zlashtirilishi to'g'risida o'quvchi va o'qituvchi muayyan ma'lumotga ega bo'ladi. O'qituvchiga o'quvchilarning qaysi o'quv materialini yaxshi o'zlashtirilganu, qaysi ish yetarli darajada o'zlashtirilmaganligi ma'lum bo'ladi. Bu esa o'quvchining o'rganish faoliyatini tashkil etish va boshqarish uchun asos bo'lib hisoblanadi. Baholash orqali o'quvchilarning o'quv materiallarini bilish, tushunish, xotirada saqlab qolish, amalda qo'llay olish, tahlil qilish va o'zo'zini baholash darajalari aniqlanadi.

Bilimlarni, ko'nikma va malakalarni baholashning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, bunda o'quvchilarning o'qishga qiziqishi, o'z yutuqlari yoki muvaffaqiyatsizliklariga nisbatan munosabati shakllanadi, o'quv qiyinchiliklarni yengish ishtiyoqi tug'iladi.

Natijalarni baholash orqali butun ta'lim jarayoni tekshirilib ko'rilishi kerak. Bu bilan ta'lim jarayonida kutilayotgan o'quv maqsadiga erishilayotganlik darajasi tekshiriladi. Ta'lim berish davomidagi o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarni baholash o'quvchining o'zligini anglashi uchun bir imkoniyatdir.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib, o'quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlash faoliyatlarini ham inobatga olib baholashda quyidagilarni e'tiborga olish muhimdir:

- o'quv maqsadlariga erishilganlikni aniqlash;
- ta'lim jarayonidagi yutuq va kamchiliklarni aniqlash; -

o'qituvchi o'z faoliyatidagi kamchiliklarni bartaraf etish; - joriy va oraliq o'zlashtirish darajasini aniqlash;

- baholash natijalari bo'yicha ota-onalarga ma'lumot berish; - dastlabki bilim va ko'nikmalar ta'lim natijasini baholash; - o'quvchilarning qiziqishlarini aniqlash uchun.

Baholashni quyidagi uch bosqichda o'tkazish tavsiya etiladi:

Boshlang'ich baholashta'lim jarayoni boshida o'quvchilarning dastlabki bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash uchun o'tkaziladi. Bunday baholash natijalari orqali maxsus fanni o'qitish jarayonining mazmuni, metodlari va shakllarini tanlash imkoniyati yaratiladi.

Joriy (shakllantiruvchi) baholashmuntazam ravishda o'tkazib borilishi lozim. U ta'lim jarayonidagi yutuq va kamchiliklarni, samarasini tezkor aniqlab borish, o'quv jarayonini muvofiqlashtirish hamda ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi qaytar aloqani ta'minlash imkonini beradi.

Oraliq baholash maxsus fan asosiy bo'limlari yoki modullari bo'yicha mashg'ulotlar o'tib bo'lingandan keyin o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirganliklari baholanadi. Bu bilan o'quvchining bo'lim yoki model bo'yicha o'quv materialini qanchalik darajada o'zlashtirganligi haqida ma'lumotga ega bo'linadi. Lozim bo'lsa o'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchilar bilan qo'shimcha mashg'ulotlar olib boriladi.

Kompetentli yondashuv asosida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy shakllantirish.

"Kompetentsiya" atamasi keng ma'noda umumiy masalalarni hal etishda amaliy tajribalar asosida bilim va malakalarni qo'llash, muvaffaqiyatli harakat qilish qobiliyatini bildiradi. Lotincha "campetere"- muvofiq bo'lmoq so'zidan kelib chiqqan.

Hozirgi kunda "kompetentsiya" atamasi turli sohalarda qo'llaniladi: huquqshunoslik, tilshunoslik, madaniyat sohalarida, shuningdek tashkilot, muassasa yoki kompaniyaning

muhim kompetentsiyalari. Lekin xodimlarni boshqarish nuqtai nazaridan "kompetentsiya" atamasi qiziqtiradi, shuning uchun xodimlarning kasbiy kompetentsiyasi haqida fikr yuritamiz.

Amerikalik psixolog va inson motivatsiyasi tadqiqotchisi Devid Makliland tashkilot, muassasa yoki kompaniyaga kompetentli yondashuvning boshlanishida shuni ta'kidlaydiki, "Inson shaxsi o'rganilayotganda nomzod yoki xodim o'zining kasbiy faoliyatidagi muvaffaqiyatlari haqida to'g'ri javob bermaydi, chunki odam doimo o'zining meniga yuqori baho beradi, shuning uchun kompetentli yondashuv tashkilot, muassasa yoki kompaniya administratsiyasi tomonidan qonun doirasida ishlab chiqilishi kerak

Xodimlarbilanishlashdakompetentliyondashuvxodimlarni tanlash, baholash, o'qitish va rivojlantirishga qaratilgan. Bunda aniq xodimning tegishli kasbiy kompetentsiyaga ega ekanligi va darajasi aniqlanadi.

"Kasbiy kompetentsiya" atamasi shunday izohlanadi: "bu xodimning lavozim talablariga muvofiq ishlash qobiliyatidir": Kasbiy kompetentsiyalar shaxsiy tavsiflar kabi bayon etilishi mumkin, masalan, "stressga chidamli", "komanda ishiga layoqatlilik", "kreativlilik" kompetentsiyalari, xuddi shunday egallagan malakalari kabi ko'rsatilishi ham mumkin, masalan: "muzokara olib borish", "biznes-reja tuzish" kompetentsiyalari.

Lavozim kompetentsiyasi ro'yxatini shakllantirishda quyidagi ikkita qoidani yodda tutish lozim:

•fe'l-atvori (bevosita ko'rish mumkin bo'lgan);

•aniq jihatlari (kompetentsiya darajasini aniqlashdagi asos) Kasbiy kompetentsiya namunalaridan bir nechasini keltiramiz:

"Ishontira olish" kompetentsiyasi. Aniqlash: Boshqalarga ta'sir ko'rsatib, ularni o'z qarorva harakatlariga ko'ndirish.

"Tashabbuskorlik" kompetentsiyasi. Aniqlash: harakatni boshlab berish va shaxsiy ijobiy jihatlari bilan voqeaga samarali ta'sir ko'rsata olish. Doimo izlanishda bo'lish, yangi vazifalarni,

qo'shimcha ishlarni o'z zimmasiga olish

Odatda har bir lavozim uchun 5-10 ta asosiy kasbiy kompetentsiya belgilanadi. Ular bayon etiladi. Bunday holatlarda rahbar tomonidan test savollari shakllantirilsa maqsad muvofiq bo'ladi. Berilayotgan test savollarining har biri ma'lum kompetentsiyaga moslashtiriladi. Test hodimlarning ushbu kompetentsiyalarni qanchalik egallanganliklarini ko'rsatadi. Test natijalariga ko'ra xodimlarning kompetentsiyani egallash darajalari aniqlanadi, masalan:

Kompetentli yondashuv quyidagilarni amalga oshirish imkonini beradi:

•xodimlarning egallagan lavozimiga munosibligini baholash;

•ishga qabul qilishda yangi loyihani amalga oshirishda hodimlarni tanlash, vakantlavozimga nomzodni tanlash;

•hodimlarni ma'lum vaqtda attestatsiyadan o'tkazish, kamchilik aniqlanganda qo'shimchao'qitish.

Bundan tashqari, baholash omili sifatida kompetentsiya bilan ishlash, ishxonaning hamma uchun yagona tasdiqlangan standartlari asosida xodimlarning real tavsifnomalarini va malakalarini baholash imkonini beradi. Xodimning ish tajribasini baholash, shuningdek og'zaki suhbat o'tkazish ko'pincha bir tomonlama amalga oshiriladi va har doim to'g'ri bo'lavermaydi. Talab etiladigan kompetentsiyalarning mavjudligiga o'tkaziladigan test quyidagi savollarga to'liq javob bera olishi lozim bo'ladi, masalan: "Xodim tashkilot, muassasa yoki kompaniyamizdagi vazifalarni biz talab qiladigan darajada bajara oladimi?" "Unda yetarli tajriba, zaruriy tayyorgarlik, alohida malaka va shu kabilar bormi?".

Umuman olganda **kompetentli yondashuv** - bu tashkilot, muassasa yoki kompaniyaning rivojlanishi va gullab-yashnashi uchun asosiy omildir. Ish jarayonini yuqorida keltirilgan tartibda tashkil etilsa, biz jamiyat rivojlanishiga o'zimizning munosib darajada hissamizni qo'shishimiz mumkin.

Nazorat savollari:

1. Interfaol ta'lim vositasida mustaqil fikrlash madaniyatini shakllantirish va kompetentliyondashuv omillari.

2. Interfaol ta'lim vositasida o'quvchilarda mustaqil fikrlash madaniyatini shakllantirish xususiyatlari.

3. Kompetentli yondashuv asosida o'quvchini kasbga yo'naltirish omillarini bilasizmi.

4. Zamonaviy metodlar yoki interfaol usullarni o'qitishning samarasini oshirishga nimalar yordamberadi.

5. An'anaviy va noan'anviy o'qitish usulini farqini izoxlab bering.

11-mavzu: Boshlang'ich sinda tabiiy fanlarni o'qitishda STEAM yondashuv

Reja:

1. STEAM integratsiyalashgan ta'lim tizimi
2. STEAM texnologiyasi
3. O'zbekiston Respupblikasida STEM ta'lim tizimini davlat ta'lim tizimi

***

Tayanch tushunchalar: STEAM, integratsiya, zamonaviy pedagogik texnologiya, ilg'or tajribalar, TIMSS.

***

Yosh avlodni kelgusi hayoti uni inson qilib ko'rsatuvchi ruhiy va ma'naviy jarayonning mezonini belgilaydi. Bu borada ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish va dunyo talablari darajasiga olib chiqish ta'limni ilg'or tajribalar asosida boyitib borish, yangi pedagogik tajribalar asosida olib borish ayniqsa muhimdir. Xalqimizning milliy qadriyatlari, an'analari, urf-odatlari asosida barkamol avlodni voyaga yetkazish ularni ko'proq o'z millatini sevishga g'ururlanishga sharqano g'oya va ta'limotlarni o'rganib ularni kelajakka tadbiq etishga zamin yaratiladi.

Bolaning ongi va tafakkuri endi shakllanib kelayotgan boshlang'ich sinflarda o'qituvchining mahorati, ta'lim jarayoniga mohirona tadbiq eta olishi, ta'limning yangi yo'l va usullarini

izlashi, ilg'or pedagogik tajribalardan ijodiy foydalana olishi juda muhimdir.

Shuning uchun ham boshlang'ich sinf o'qvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotda joriy etishga tayyorlash bugungi boshlang'ich ta'lim oldiga qo'yilgan muhim talablardan biridir. Chunki zamonaviy pedagogik texnologiyalar, birinchidan, o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalarni oson va qiziqib o'rganishlari uchun imkoniyat yaratsa, ikkinchidan, o'qituvchining ham professional o'sishiga, ham ma'naviy rivojlanishiga yordam beradi.

Ta'lim oluvchilarning bilim va malakasini umumiy ravishda tahlil qilish mamlakatdagi ta'lim sifati darajasini belgilaydi. Shu maqsadda o'quv yili davomida har bir ta'lim muassasasida ichki va tashqi monitoring o'tkazib boriladi. Uning natijasiga ko'ra, eng namunali maktablar ketma-ketligi, pedagoglar salohiyati va ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasi aniqlanadi. Bu jarayon ta'lim taraqqiyotini belgilovchi muhim mezon bo'lgani uchun Xalq ta'limi vazirligi tashabbusi bilan umumiy o'rta ta'lim maktabi ta'lim oluvchilari bilimini baholash bo'yicha xalqaro dasurlarni amaliyotga joriy etish maqsadida ilk qadamlar tashlandi. Ya'ni, ta'lim oluvchilar bilimini xalqaro talablarga yetkazish, unga mosligini o'rganib borish maqsadida PISA (Programme for International Student Assesment), TIMSS (Trends in Mathematics and Science Study), STEAM kabi baholash dasurlarini keng qo'llash rejalashtirilmoqda. STEAM - hozirgi kunda dunyo ta'lim tizimining eng asosiy urf bo'lgan innovatsion metodlaridan biri hisoblanadi. Bir qaraganda STEAM abbreviaturasi juda murakkab ko'rinadi, lekin uni alohida ko'radigan bo'lsak sodda va aniq ekanini ko'rishimiz mumkin, ya'ni: S – science, T – technology, E – engineering, A – art, M – mathematics, yoki tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik san'ati, ijod, matematika. Oddiy so'z bilan aytganda, zamonaviy dunyoda eng ko'p talab etilayotgan fanlardir. Hech kimga sir emaski, ko'plab fan tarmoqlarida

katta yutuqlarga erishish uchun o'zlashtiriladigan turli sohalardagi bilimlarning integratsiyasi talab etiladi. Lekin bunga o'quvchilarni qanday qilib tayyorlashimiz mumkin, chunki maktab dasrlari orasidagi bog'liqlikni ko'rish juda murakkabdir. Aynan shunday muammolarni xal qilishda STEAM yordam beradi. Bu metodika ta'limni aralash turda olib borish va egallangan nazariy bilimlarni kundalik hayotda qo'llay olish ko'nikmalarini shakllantirishga imkon beradi. STEAM bu maktabda va maktabdan tashqarida loyixa va o'quv–tadqiqot faoliyatini amalga oshirish imkoniyatini beruvchi innovatsion texnologiyadir. Ushbu metod yordamida fanlar alohida tarmoqlarda emas, balki integratsiyalashgan holda, umumiy bog'liqligini ko'rsatib o'rgatiladi. Fanlarni kundalik hayot bilan bog'liqligini ko'rsatishdan tashqari, texnologiya o'quvchilarning ijodkorligini ham ko'rsatib berishi mumkin. Ushbu yondashuv o'quvchilarning faoliyatiga bir qancha vazifalarni taqdim etadi, o'quvchi ularni hal qilishida ijodkorligini namoyon qilishni o'rganadi. Bunday vazifalar yordamida o'quvchi g'oyalarni nafaqat o'ylab topadi, balki ularni kundalik hayotida amalga oshirishni ham o'rganadi.

Informatika va matematika darslariga ijodiy topshiriqlar qo'shish barcha o'quvchilarga STEM fanlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.



STEAM dasturlari ham faol muloqot va guruh ishi bilan ajralib turadi. Muhokama bosqichida ular fikr bildirishga qo'rqmaslikka o'rganadilar. Ko'pincha, stol atrofida o'tirmaydi, o'zlarining

dizaynlari asosidagi "mahsulot" larni sinovdan o'tkazadi va rivojlantiradi. Ular hamma vaqt hamkorlikni ta'minlaydigan jamoada tarbiyachilar va ularning do'stlari bilan muloqot qilish bilan band bo'lishadi. Texnik fanlar bo'yicha qiziqishlarni rivojlantirish. Maktabgacha va boshlang'ich maktab yoshidagi STEAM ta'limi vazifasi qiziqishning rivojlanishi uchun dastlabki shart-sharoitlarni yaratishdir. Bolalar uchun tabiat fanlari va texnik fanlar bo'yicha, qilgan ishni yaxshi ko'rish, qiziqishni rivojlantirish uchun asosdir. STEAM – bolalar uchun juda qiziqarli va dinamik bo'lib, bolalarning zerikishlariga to'sqinlik qiladi. Ular vaqt o'tayotganini sezmaydilar va charchamaydilar.

STEAM farzandlarimizga - ixtirochilar, kashfiyotchilarning kelajak avlodi, olim sifatida tadqiqotlar olib borish, texnologiyani shakllantirish, muhandis sifatida loyihalash, rassom sifatida yaratuvchi, matematik sifatida analitik fikr yuritishni o'yin orqali yuzaga keltiradi. Bugungi kunda STEAM-ta'lim dunyodagi asosiy tendensiyalardan biri sifatida rivojlanmoqda va amaliyot yondashuvni qo'llashda beshta sohani yagona o'quv sxemasiga integratsiyalashga asoslangan. Bunday ta'limning shartlari uning uzluksizligi va bolalarning guruhlarda o'zaro muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirish bo'lib, bunda ular fikrlarni to'plashi va fikrlar almashadi. Shuning uchun, asosiy ta'lim dasturiga quyidagilar; Lego- texnologiyalar, bolalar tadqiqotlari kabi mantiqiy fikrlashni rivojlantirish modullari kiradi. STEAM (S-fan, T-texnologiya, E-muhandislik, A-san'at, M- matematika) - ilm-fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematikani birlashtiruvchi zamonaviy yondashuv. STEAM bolalarda quyidagi muhim xususiyatlar va ko'nikmalarni rivojlantirishga quyidagicha yordam beradi:

- Muammolarni keng qamrovli tushunish;
- Ijodiy fikrlash;
- Muhandislik yondashuv;
- Tanqidiy fikrlash;
- Ilmiy metodlarni tushunish va qo'llash;

- Dizayn asoslarini tushunish.

STEAM yondashuvi tufayli bolalar tabiatni tushunib, dunyoni muntazam o'rganishadi va shu bilan qiziqishlarini, muhandislik fikrlash uslubini, tanqidiy vaziyatlardan chiqish qobiliyatini, jamoaviy ish qobiliyatini rivojlantirish va liderlik, o'z-o'zini namoyon qilish asoslarini o'rganishadi, o'z navbatida, bolalar rivojlanishining tubdan yangi darajasini ta'minlaydi. Quyida dastur mazmuniga to'xtalamiz:

O'z-o'ziga ishonchni shakllantirish. Bu yondashuvda bolalar o'z qo'llari bilan yaratgan ko'prik va yo'llar, samolyotlar va avtomobillarni "ishga tushirib", suv osti va havo tuzilmalarini "rivojlantirib", sinovdan o'tkazib, har safar ular maqsadga yaqinlashib borishadi. Yaxshi natija bermagan "mahsulot"ni qayta-qayta sinovdan o'tkazib, takomillashtirib borishadi. Natijada barcha muammolarni o'zi hal qilish, maqsadga erishish bolalar uchun ilhom, g'alaba, adrenalin va quvonch olib keladi. Har bir g'alaba, o'zlarining qobiliyatlariga ko'proq ishonch uyg'otadi. Faol muloqot va jamoaviy ish. STEAM dasturlari ham faol muloqot va guruh ishi bilan ajralib turadi. Muhokama bosqichida ular fikr bildirishga qo'rqmaslikka o'rganadilar. Ko'pincha, stol atrofida o'tirmaydi, o'zlarining dizaynlari asosidagi "mahsulot"larni sinovdan o'tkazadi va rivojlantiradi. Ular hamma vaqt hamkorlikni ta'minlaydigan jamoada tarbiyachilar va ularning do'stlari bilan muloqot qilish bilan band bo'lishadi.



Texnik fanlar bo'yicha qiziqishlarni rivojlantirish. Maktab yoshidagi STEAM ta'limi' vazifasi qiziqishning rivojlanishi uchun dastlabki shart-sharoitlarni yaratishdir. Bolalar uchun tabiat fanlari va texnik fanlar bo'yicha, qilgan ishni yaxshi ko'rish, qiziqishni rivojlantirish uchun asosdir. STEAM – bolalar uchun juda qiziqarli va dinamik bo'lib, bolalarning zerikishlariga to'sqinlik qiladi. Ular vaqt o'tayotganini sezmaydilar, lekin ham charchamadilar. Raketalar, avtoulovlar, ko'priklar, osmono'par binolarni qurish, elektron o'yinlar, fabrikalar, logistika tarmoqlarini yaratish, dengiz osti kemalari, ilm-fan va texnologiyaga qiziqishi ortib borada. Loyihalar uchun ijodiy va innovatsion yondashuvlar. STEAM ta'limi oltita bosqichdan iborat: savol (vazifa), muhokamalar, dizayn, qurilish, test va takomillashtirish. Ushbu bosqichlar muntazam ravishda loyiha yondashuvining asosidir. O'z navbatida hamkorlik yoki turli imkoniyatlardan birgalikda foydalanish ijodkorlik asosi hisoblanadi. Shunday qilib, bir vaqtda bolalarda fan va texnologiyalarni qo'llash, yangi innovatsiyalarni yaratishi mumkin. Oqilona tashkil etilgan sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhit bolalarda izlanishga, tashabbus ko'rsatishga va ijodkorlik qobiliyatlarini namoyon etishga rag'bat uyg'otadi. Bunda tarbiyachilar bola rivojlanishi qanday kechayotganligi to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lishlari, buning uchun esa ularni doimiy raviщda nazorat qilib borishlari zarur bo'ladi.

Tabiiy fanlar alohida fan sifatida o'qitish 1-sinfdan boshlanadi. O'quv materiali hisoblanadigan darsliklarda - «Tabiat jismlari», «O'simlik va hayvonot olami», «Sog'ligimizni saqlaymiz» va «Ekologiya» mavzulari birlashtirilgan kitoblar o'rgatiladi. Tabiiy fanlar bo'yicha dastur kichik yoshdagi maktab o'quvchilariga faqat jonajon tabiat go'zalligi va boyliklarinigina emas, balki respublikamizning tabiatini o'rganishga ham ham imkon beradi.

Tabiiy fanlarni o'qitishda o'quvchilarning ilmiy-tabiiy dunyoqarashlarini shakllantirish va kengaytirish, mantiqiy

fikrlashga o'rgatishda har bir dars mavzuyini bayon qilishga e'tibor beriladi. O'quvchilar topshiriqlarni individual bajarish jarayonida ularning aqliy faoliyati jalb etiladi, o'z bilimi, kuchi va qobiliyatiga bo'lgan ishonch ortadi. Buning natijasida har bir shaxs o'z imkoniyati darajasida rivojlanadi. Shu tarzda tashkil etilgan bilish faoliyatida vaqtdan unumli foydalaniladi. Pirovard natijada ta'lim samaradorligi ortadi.

Ta'limning zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan foydalanib o'tiladigan darslarda o'quvchilarning bilish faoliyati individual tarzda tashkil etiladi. O'quvchilarga zamonaviy usullar yordamida dars o'tilsa o'quchilarning qabul qilishi o'rganishi juda yuqorilab boradi buni amalda ko'pchilik tadqiqotchilar sinashgan. O'quvchilarning bolajak kasbiy sifatlarini shakllantirishda nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliyot ham muhim orin egallaydi.

Tabiiy ilmiy bilimlar uzoq yillar davomida amaliy faoliyat tufayli qo'lga kiritilgan. Bilim odamlar miyasida o'z-o'zidan paydo bo'lmasdan, balki muayyan ish faoliyatida shakllanadi. Amaliyot insonnitabiat bilan munosabatida asosiyomilbo'lib, buoz navbatida, odamlarning o'zaro munosabnatlari tizimida, ijtimoiy ishlab chiqarishda muhim ro'l o'ynaydi. Amaliyotning asosiy turlari moddiy ishlab chiqarish va ilmiy tajriba hisoblanadi. Ilmiy - tabiiy amaliyot quyidagi vazifalarni bajaradi. Masalan, amaliyotda o'rgatilgan bilimlar nazariy qilib o'tkazilgan darslarga qaraganda ko'proq narsalarga tushunishi mumkin bo'ladi o'quvchilarni.

Mavzuning dolzarbligi sifatida didaktik ko'rgazmali qurollardan foydalanish metodi qadim zamonlardan beri ishlatilib kelinayotgan eng qulay samarali va tushunarli metod hisoblanadi. Didaktik tarqatma materiallardan foydalanib dars o'tish ya'ni ko'z bilan ko'rish orqali eshitishga nisbatan 5 marta ko'proq va 13 marta ko'proq taktik organlarga nisbatan ancha ko'p ma'lumotni miyaga yetkazadi. Shunday ekan o'quvchilarga dars o'tishni boshlang'ich sinflardan boshlab didaktik o'yinlar

va dasturlar orqali o'tgan maqsadga muvofiq bo'ladi. Xorij tajribasiga yuzlanadigan bo'lsak xorijiy davlatlarda ta'lim berishning eng yangi usullaridan foydalanilmoqda. Hattoki shunday maktablar borki ularda o'quvchilar faqat amaliyotda ko'rib o'rganishadi. Nazariy ma'lumotlar esa faqat o'zlari mustaqil ravishda o'rganishlari mumkin bo'ladi.

O'qituvchi o'quv materialini bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda ularga munosib tarzda yetkazadi. Boshlang'ich ta'lim pedagogik jamoasining o'rni shundan iboratki, ular har bir bolaning qiziqishi, qobiliyati va ehtiyojini inobatga olgan holda mos keladigan maqsadlar qo'yishlari, bolalardagi tabiiy qiziqishlarni qo'llab-quvvatlashlari, ularda borliqni birgalikda o'zlashtirish ko'nikmalarini shakllantirishlari kerak.

Bu yondashuv kelajakda bolalarda hayotiy muammolarni hal etishda yordam beradi. Ko'pgina rivojlangan davlatlarda, jumladan AQSH, Yaponiya, Isroil, Singapur, Rossiyada boshlang'ich ta'lim bolalarni ijodiy va ixtirochilik qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida mazkur yondashuv metodlaridan samarali foydalanib kelinmoqda.

Bola rivojlanishining o'ziga xosligini inobatga olishda, avvalo shuni tushunib yetish kerakki, barcha bolalar rivojlanishning ma'lum bosqichlarini bosib o'tadilar, biroq bunda har bir bola noyob va takrorlanmasdir. O'qituvchi bolalarni aynan bir xil, o'xshash narsalar va faoliyat turlari bilan ta'minlashlari uchun ularning o'ziga xos, boshqalardan ajralib turadigan rivojlanish ko'rsatkichlari to'g'risida to'liq tasavvurga ega bo'lishlari lozim. Shuningdek, o'qituvchilar bir xil yoshdagi turli bolalarning qobiliyatlari va qiziqishlaridagi farqlarga e'tibor bilan munosabatda bo'lishlari kerakligini mutaxassislar alohida ta'kidlashadi.

Bunda bola rivojlanishining o'ziga xosligiga doir, bolalar qiziqishlariga javob beruvchi faoliyat turlari, ya'ni ularning aqliy, ijtimoiy va ma'naviy etuklik darajasi nazarda tutiladi.

Bunday faoliyat turlari bolalarning tabiatga qiziqishlariga, tajribadan qoniqish hosil qilishlariga va o'z g'oyalarini tajribada sinab ko'rish xoxish-istaklariga qaratilgandir. Rivojlanish markazlaridagi ta'lim jarayonida bolalarning o'zlari tegishli rivojlanish markazini ixtiyoriy tanlay boshlaydilar. Bolalarni mustaqil guruhlarda ishlashi, individuallashtirishda o'qituvchi shunday faoliyat turlarini o'ylab topadiki, unda barchaga birdek ko'rsatma berilsa-da, biroq har bir bola undan kelib chiqqan holda o'zi mustaqil ravishda muvaffaqiyatga erishishiga imkon beriladi. Individuallashtirish darajasini optimallashtirish mumkin. Epchillik va topqirlik talab etiladigan faoliyat turini tanlagan va bolalarni diqqat bilan kuzatgan holda tarbiyachi zaruriyat tug'ilib qolsa topshiriq va materiallarni o'zgartirishi yoki moslashtirishi mumkin.

"Ilk qadam" o'quv dasturi asosida boshlang'ich ta'limda quyidagi rivojlanish markazlari faoliyati yuritilishi nazarda tutiladi:

- Qurilish va konstruksiyalash markazi
- Syujet-rolli o'yinlar va dramalashtirish markazi
- Til va nutq
- Ilm-fan va tabiat markazi
- San'at markazi
- Musiqa va ritmika markazi.

Rivojlanish markazlari bolalarga o'zlarining shaxsiy ko'nikmalari va qiziqishlaridan kelib chiqqan holda ta'lim-tarbiya jarayonini mustaqil individuallashtirish imkoniyatini beradi. Masalan, san'at markazida bir bola qog'oz qirqadi, boshqa bola esa shu qog'ozdan qaychi bilan o'zi o'ylagan shaklchani kesib oladi. Stol ustida o'ynaladigan o'yinlar markazida bir bola to'rtta yog'och kubikdan shakl yasaydi, boshqa birovi esa yigirma besh bo'lakli karton qog'ozli tasvirni tuzishni ma'qul ko'radi. O'qituvchi jarayonda bolalarni kuzatadi va ularning rivojlanishiga daxldor fikrlarni yozib boradi. Ancha vaqtdan so'ng u bolalarga vazifani murakkablashtiruvchi materiallarni

taklif etadi yoki vaziyatga qarab ana shu vazifalarni bajarishda bolaga to'g'ridan to'g'ri yordam beradi. Bunday yo'l tutish tufayli bola yaxshi sur'atda o'sib-ulg'ayishi mumkin. O'qituvchilar rivojlanish markazlarida bolalarning yordamchilari rolini o'ynaydilar, mashg'ulotlar olib boriladigan joyda imkoniyatlar kengligini ta'min etadilar va har bir bola individual rivojlanishi darajasini egallay olgan holda faoliyat turlarini rejalashtiradilar. Kun tartibi turli mashg'ulot turlarini o'zida qamrab olishi lozim: kichik guruhlarda birgalikda va tarbiyachi hamkorligida yakka tartibda (individual) yoki mustaqil (ular tomonidan tanlagan mashg'ulotlarga vaqt ajratish kerak, chunki bolalar ongli tanlab olishni o'rganadilar, o'z qiziqish va qobiliyatlarini amalga oshiradilar). Bolalarning o'z tanlovlarini amalga oshirishi, muammolarni hal etishi, atrofdagi kishilar bilan birgalikda harakat qilishi, indivdual maqsad qo'yishi va unga erishishni bilishlari lozim.

Tabiiy fanlarni boshlang'ich sinflarga ona tili va o'qish savodxonligini turli xil usullar va STEAM tizimida o'qitishda didaktik ko'rgazmalardan foydalanish orqali o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish mumkin bo'ladi desak mubolag'a bo'lmaydi. Masalan, metodik tavsiya ishlab chiqish orqali biron bir maktabda eksperiment o'tkazish uchun guruh tanlab olinib ularga didaktik materiallardan foydalanib darslar olib borilsa, boshqa sinflarga esa shu doimgidek o'quv dasturi asosida darslar o'tilsa. Buning natijasida albatta tanlab olingan sinf o'quvchilari boshqa guruhdagi tengdoshlariga nisbatan ancha ko'p narsani o'zlashtirishgan bo'ladi.

Nazorat savollari:

1. STEAM nima?
2. SETAM ta'lim tizimi nima uchun kerak?
3. STEAM tizimida o'qitishda didaktik ko'rgazmalardan foydalanish orqali o'quvchilarning qanday qobiliyatini rivojlantirish mumkin bo'ladi?

12-mavzu: Boshlang'ich sinflarda aniq va tabiiy fanlardan ochiq darslarni o'tkazish vadarsni tahlil qilish

Reja:

1. Aniq va tabiiy fanlar darslarini kuzatishdan ko'zlangan maqsadlar.
2. Darsni kuzatish va tahlil qilish.
3. Dars tahlilining maqsad va vazifalari. Dars tahliliga qo'yilgan talablar. Ochiq, ko'rgazmali, namunaviy, hisobot darslari va ularga qo'yilgan talablar.
4. Darsni tahlil qilish usullari.

***

Tayanch tushunchalar: Aniq va tabiiy fanlar, darsni kuzatish va tahlil qilish, ochiq, ko'rgazmali,namunaviy, hisobot darslar, sinf doskasi, darslik, o'quvchi daftari

***

Chunonchi, o'qituvchining o'quv dasturi materiallariii bilish darajasi, yaigi mavzuni tushuntirish jarayonida asosiy fikrni ajratib olishi, ilmiylik va soddalik, ko'rgazmalilik tamoyillariga rioya qilishi, dars maqsadini to'g'ri qo'yishi, dars jarayonini to'g'ri rejalashtirishi, darsda hamkorlikka erisha olishi, bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishni nazorat etishi, o'quvchilar bilan yakka va jamoada ishlashni tashkil eta bilishi, dars mobaynida vaqtdan unumli foydalanishi va pedagogik muomala madaniyatini egallaganlik darajasi kabi jihatlar

inobatga olinadi.

O'qituvchining darsini bir necha marta kuzatish va tahlil qilish, uning pedagogik mahorati, ish tizimi, o'quvchilarining o'zlashtirishi, bilim darajasi kabi sohaviy va kasbiy layoqati yuzasidai xulosa chiqarish imkonini beradi.

Takidlash joizki, umumiy o'rta ta'lim maktab o'qituvchilarining darslarini tahlil qilishda ko'pincha kuzatuvchilar darsga yaxlit tizim sifatida qaramay ko'proq tashqi jihatlariga baho beradilar, darsning mazmun-mohiyati xususida yuzaki mulohaza yuritadilar. Shuningdek, dars tahlilida o'qituvchining ko'rsatmali qo'llanmadan foydalanishi, didaktik kartochkalar bilai ishlashi va hokazolar aytiladi-yu, ammo ulardan nima maqsadda, qaysi vaziyatda foydalanilgani,

qanchalik samara berganligi, vaqt taqsimotiga to'g'ri amal qilinganligi, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan-olmaganligi kabi masalalar to'g'risida fikr yuritilmaydi. Bundan tashqari yana bir jiddiy kamchilik o'qituvchining o'zini o'zi tahlil qilishiga e'tibor qaratmaslikdir. O'zini-o'zi tahlil qilish tamoyili o'qituvchining o'z faoliyatidagi yutuq va kamchiliklarini aniqlash va bartaraf etishga oid maqsadli yo'lni belgilab olishiga asos bo'ladi. O'qituvchilar aksariyat hollarda dars jarayonida quyidagi xato va kamchiliklarga yo'l ko'yadilar. Jumladan, bu:

- dars maqsadi bilan o'quvchilarni tanishtirmaslik;
- interfaol metodlardan samarasiz foydalanish;
- dars jarayonida barcha o'quvchilarning ishtirokini ta'minlay olmaslik;
- o'quvchilar bilan yakka va jamoa tartibda ishlashga erisha olmaslik:
- o'quvchilarning mustaqil ishlashini ta'minlamaslik;
- o'quvchilar bajargan ishlarini vaqtida baholamaslik;
- o'qituvchi nutqiniig ravon ta'sirchan emasligi;
- mavzuni amaliyot bilan bog'lab tushuntirmaslik;
- mavzuni ilmiy va amaliy nuqtai nazardan tushuntirshga

e'tibor bermaslik;

- sinf doskasi, darslik, o'quvchi daftari, qo'shimcha adabiyotlardan foydalanishning tizimli yo'lga qo'yilmaganligi;
- o'quvchilarga beriladigan savollarning muammoli tarzda tuzilmaganligi kabilar.

Darslar aniq maqsad asosida kuzatilishi va tahlil qilinishi lozim. SHundagina natijasi samarali bo'ladi va o'quv jarayoni yuzasidan aniq xulosa chiqarish imkonini beradi. Dars tahlilida izchillikning aniq bir maqsadning yo'qligi, darsga tasodifan qatnashish, darsni chuqur tahlil qila olmaslik, o'qituvchiga amaliy yordam ko'rsata olmaslik kabi jihatlar darslar sifatining va saviyasining pasayib ketishiga olib keladi.

Darslarni tahlil qilish faqatgiia metodik ahamiyatga ega bo'lmay, balki maktabda o'quv- tarbiya jarayoniga rahbarlik va nazoratning muhim Shakllaridan biridir. O'qituvchi darsini kuzatish va tahlil qilish amaliyotining tizimli amalga oshirilishi darslarni qiyoslash va yo'l qo'yilgai xatolarning bartaraf etilganligini aniqlash imkoniyatini beradi. O'qituvchilarning o'zaro dars kuzatishi tajriba almashinuv jarayoni bo'lib, dars o'tayotgan o'qituvchi bor mahoratini ishga solib, yuqori ishchanlik bilan faoliyat ko'rsatsa, tahlil qiluvchi o'qituvchi esa taklif va mulohazalar berish orqali tajribasini boyitadi, metodik malakasini oshiradi.

Darsni kuzatish va tahlil qilishdan maqsad va uning turlari.

Dars tahlili o'quv mashg'ulotini kuzatish, o'rganish Shaklida olib boriladi. Shu o'rinda savol tug'iladi. O'qituvchining darsi kim tomonidan kuzatilishi lozim? Qanday maqsad bilan kuzatiladi ia tahlil qilinadi? O'qituvchining darsi viloyat XTB, tuman xalq ta'limi bo'limi, ta'lim muassasalari rahbarlari, xodimlari, metodistlar va o'qituvchilar tomonidan kuzatiladi va tahlil qilinadi.

Buning uchun, eng avvalo, darsga kirishdan maqsad nimadan iborat ekanligini aniqlab olish zarur.

Dars quyidagi maqsadda kuzatiladi va tahlil qilinadi:

- ta'lim va tarbiya jarayoni sifatini aniqlash;
- o'qituvchining pedagogik mahoratini oshirishga yordam berish;
- ilg'or ish usullari va metodlarini o'rganish va ommalashtirish;
- o'qituvchilarning o'zaro tajriba almashishi;
- o'quvchilariing bilimi va tarbiyalanganlik darajasini aniqlash;
- ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish;
- o'quvchilarning bilish faoliyatini o'rganish;
- o'qituvchiga amaliy va metodik yordam ko'rsatish;
- ta'lim-garbiya jarayonida o'quvchilar psixologik xususiyatlarining o'ziga xosliginie'tiborga olish;
- darsda o'quvchilarni faollashtirish va mavzuni o'zlashtirish darajasining e'tiborgaolinganligi.

Dars - o'quv jarayonining juda ko'p talim-tarbiya qirralarini hal qiluvchi asos hisoblanadi.Shunga ko'ra darsni kuzatuvchi va tahlil qiluvchilardan maxsus tayyorgarlik ko'rish talab etiladi.

Darsni tahlil qilish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi.

1. Darsni kuzatishga tayyorgarlik.
2. Darsning borishini kuzatish.
3. O'z-o'zini tahlil qilishni taminlash.
4. Dars tahlili va takliflar berish.

Darsni tahlil qilishda quyidagilarga e'tibor qaratish tavsiya etiladi.

2. **Darsni kuzatishdan oldingi tayyorgarlik:**

- dars kuzatishdan ko'zlanayotgan maqsad va vazifalarni Shakllantirish;
- kuzatiladigan darsni aniq belgilab olish;
- dars kuzatish tuzilmasini tayyorlash;
- kerakli materiallarni tayyorlash; o'qituvchi bilan suhbatlashish.

3. **Darsning maqsadlarini tahlil qilishda:**

- o'quv fani va mavzuning o'ziga xos tomonlari, o'quvchilar yoshi va bilim darajasi e'tiborga olingan holda ta'lim-tarbiya maqsadiniig to'g'ri va asosli qo'yilganligi;
- o'quvchilarning tayyorgarligi, o'rganilayotgan mavzu bo'yicha darslar tizimidagi aynan shu darsning o'rnini hisobga olgan holda maqsad qo'yilishining to'g'riligi va asoslanganligi;
- dars asosiy g'oyasining to'g'ri qo'yilishi va o'quvchilarga maqsadning yetkazilishi,maqsadga erishish darajasi.

4. **Dars tuzilmasi va darsning tashkil qilinishini tahlil qilishda:**

- dars tuzilmasining dars maqsadlariga mosligi;
- dars turi va strukturasining puxta o'ylanganligi;
- dars bosqichlarining mantiqiy ketma-ketligi va bir-biri bilan bog'liqligi;
- dars bosqichlari uchun vaqtning to'g'ri taqsimlanganligi;
- o'qitish Shakllariniig to'g'ri tanlanganligi;
- dars rejasiiing mavjudligi va uning o'qituvchi tomonidan bajarilishini tashkilqilishi;
- dars jihozlari.

5. **Dars mazmunini tahlil qilishda:**

- dars mazmunining Davlat ta'lim standarti talablariga mosligi;
- materiallarning to'liqligi, tushunarligi;
- bayon qilinayotgan materialning ilmiy darajasi;
- darsniig tarbiyaviy yo'nalishi, ta'limiy ta'sir darajasi;
- darsning hayot, mehnat tarbiyasi va kasbga yo'naltirish bilan bog'lanishi;
- o'quvchilar tomonidan yangi bilimlarni qabul qilishdagi qiyinchiliklarni bartarafetish;
- yangi materialning asosiy g'oyasini ajratish. Yangi tushunchalarni Shakllantirish.

Tayanch bilimlarning muhimligini ko'rsatish.

Dars tahlilini quyidagi asosiy 5 turga bo'lish mumkin.

1. Ilmiy tahlil.

2. Metodik tahlil.
3. Didaktik tahlil.
4. Umumpedagogik tahlil.
5. Umumpsixologik tahlil.

Ilmiy tahlil berilayotgan bilimlarning ilmiy-nazariy jihati, o'quvchi bajarayotgan mustaqil ishning maqsadga muvofiq bo'lishi jihatdan to'g'riligini aniqlash demakdir. Bunda asosan quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiqdir.

1. O'qituvchining shu kungi darsga ilmiy-metodik tayyorlanganlik holati.
2. O'z mutaxassisligiga oid eng yangi ilmiy-nazariy axborotlar bilan qurollanganligi.
3. Dars jarayonida ilmiy qoida va ta'riflarning to'g'ri bayon etilishi hamda ilmiyatamalarning o'quvchilarga singdirib borilishi.
4. Darslik materiallarining qo'shimcha adabiyot materiallari bilan boyitilishi.
5. O'quvchi va o'qituvchi bajarayotgan laboratoriya, amaliy hamda mustaqil ishlarning ilmiy-nazariy jihatdan maqsadga muvofiqligi.
6. O'quvchilar mavzuni ilmiy jihatdan to'g'ri, qisqa va mukammal bayon etishinio'qituvchi tomonidan nazorat qilishi.
7. Dars davomida yangi mavzuni bayon etish jarayonida ta'limning tarbiya bilanbog'lanishi.
8. O'qituvchi va o'quvchilarning nutq madaniyati.

Metodik tahlil. O'qituvchining dars jarayonida qo'llagan usullarining maqsadga muvofiq ekanligi ta'limning turiga va uning o'ziga xos xususiyatlariga qarab belgilanadi. O'quv materialini o'quvchilarga bayon qilish qv tushuntirish jarayonida qo'llanilgan usullarining shu materialga mosligi yoki mos emasligi metodik tahlil davomida aniqlanadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, o'qituvchi darsda qo'llagan usullarning samaradorligi, rang-barangligi, namunaviyligi, uning o'tgan, yangi mavzu materialini o'quvchilarning qay darajada

o'zlashtirilganligi bilan belgilanadi. Shu boisdan har bir dars kuzatuvchi dars tahlilining bu turiga alohida e'tibor bilan qarashi kerak. Dars metodlarini tahlil qilishda quyidagilarni hisobga olish maqsadga muvofiqdir:

1. Dars jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatining tashkiliy Shakllariga ko'ra:

a) hikoya usuli;
b) og'zaki usuli;
v) suhbat usuli.

2. O'quvchilarning o'zlashtirishiga ko'ra:

a) o'qituvchining so'zlash usuli;
b) ko'rsatmali qurollardan foydalanish usuli;
v) darslik, diagramma, jadvallar bilan ishlash usuli;
g) laboratoriya asboblari bilan ishlash usuli;
d) texnik vositalaridan (informatika elektron hisoblash texnikasi, diafilm, radio, televizorkabidan) foydalanish usuli;
e) sinf doskasidan, turli kartalarda foydalanish usuli.

Didaktik tahlil. Ta'lim turlari samaradorligi va uni belgilovchi qonun va qoidalarning darsda qanchalik to'g'ri hamda mukammal bajarilganligini tahlil qilish demakdir.

Darsni didaktik tahlil qilishda quyidagilarga e'tibor berish o'rinli bo'ladi:

1. O'qituvchi bayonining g'oyaviy jihatdan ta'lim-tarbiya talabiga mos bo'lganligi.
2. O'qituvchi fikrining sinf o'quvchilari jamoasiga to'la tushunarli bo'lishi va bu bayonning izchil ravishda o'quvchi ongiga etib borishi.
3. Barcha o'quvchilarning o'qituvchi berayotgan materialni ongli ravishda o'zlashtirishlari.
4. O'qituvchi bayonida rivojlantiruvchi va muammoli ta'limning mavjudligi.
5. O'qituvchi fikrining izchilligi.
6. Dars jarayonida ko'rsatmali qurollardan, tarqatma materiallardan va texnika vositalaridan foydalanishning

qanchalik maqsadga muvofiqligi.

7. Ekskursiya, tajriba, amaliy ishlarda maqsadga erishganligi.

8. Darslik bilan ishlashning to'g'riligi.

9. Misollarning ta'lim-tarbiya birligi asosida yo'nalishi.

10. Darsni ma'lum bir tizimda olib borilishi.

Umumpedagogik tahlil. Bu darsdagi hamma jihatlarning qisqa va o'zaro bog'liqligitahlilidir. Bunda quyidagilarni hisobga olish o'rinli bo'ladi:

1. O'quv yoki dars xonasining dars o'tishga tayyorgarlik holati (dars jihozlari).

2. O'quv xonasining sanitariya-gigiena holati.

3. O'qituvchining dars mavzusi bo'yicha ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadi.

4. O'qituvchining mazkur darsga ilmiy-metodik va umumiy pedagogik jihatdan qanchaliktayyorlanganlik darajasi.

5. O'qituvchining dars etaplaridan to'g'ri foydalanganligi.

6. O'qituvchining o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda pedagogik jihatdan namunalilikdarajasi.

7. O'quvchilar bilimiga qo'yiladigan bahoning adolatli va izohli bo'lishi.

8. O'quvchilarning darsdagi faolligi, intizomi, mustaqil fikr yuritishi hamda mazkur fanasoslarini o'zlashtirib olganlik darajasi.

9. O'quvchilarning o'qituvchi darsiga munosabati va hurmat bilan qarashi.

10. O'qituvchining darsdagi rahbarlik roli va ish uslubi, ta'limni tarbiyaga bog'lashi.

11. Dars jarayonida o'lkashunoslik, ekologiya va tabiatni muhofaza qilish materiallaridanfoydalanishi.

12. O'qituvchining darsda asosiy maqsadiga erisha olganligi.

13. O'qituvchining ilmiy, metodik va umumpedagogik jihatdan yordamga muhtojligikabilar.

Umumpsixologik tahlil. Darsni umumpsixologik tahlil qilish sxemasi:

I. Darsning aniq maqsad va vazifalariga bog'liq ravishda tuzilishiga psixologik baho berish.

a) darsning mavzu, maqsad va vazifalari;

b) darsning psixologik jihatdan maqsadga muvofiqligi.

II. Darsning mazmuniga psixologik jihatdan baho berish.

a) mazkur material o'quvchilar bilim faoliyatining yoki xususiyatlariga, ularning hayotiy tajribasi va bilimlari darajasiga mos kelishi;

b) o'qituvchining murakkab o'quv materialini mazkur yoshdagi o'quvchilarning idrok etishi uchun qulay, tushunarli va qiziqarli uyushtirish (bayon qilishning oddiyligi, ravonligi, qiyoslarning mavjudligi, hayot bilan bog'lash);

v) o'rganilayotgan materialning tarbiyaviy ta'siri.

III. Darsda o'quvchilar bilim faoliyatining namoyon bo'lishi va uni boshqarish.

1. Diqqatni tashkil etish.

2. Idrokni tashkil etish.

3. Xotirani faollashtirish – ya'ni bayon qilinayotgan ma'lumotlarni yaxshiroq eslab qolish usullaridan foydalanishi, takrorlash, masalalar yechish, muammoli vaziyatlar vujudga keltirishva ularni yechimini topish.

4. O'quvchilar fikrlash faoliyatini kuchaytirish. Mavzuga doir muammoli vaziyatlar qanday yo'llar bilan yaratildi. O'quvchilar javoblarni izlashda faollik ko'rsatdilarmi? Ular qo'yilgan muammoning yechimini topish uchun qanday aniq fikrlash harakatlarini mustaqil ravishda amalga oshirdilar. O'quvchilarda ana shu ko'nikmalar hosil qilinganligi.

5. O'qituvchining bosqichlarida o'quvchilar bilan munosabati. O'qituvchi muomila madaniyatining tarbiyaviy ahamiyati.

Ma'lumki, kuzatilgan darsning tahlili umumiy pedagogika va xususiy metodika talablari nuqtai nazaridan bir xil

bo'lsa ham lekin har bir fanning o'z talablari bor. Geografiya darslarida o'quvchilarning amaliy mashg'ulot o'tkazishlari, olingan bilimlarga doir muammolar, masalalar yechilishiga ahamiyat ko'proq beriladi. Biroq hamma fan bo'yicha dars kuzatish va uni tahlil qilishdan assoiy maqsad o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini takomillashtirishga o'qituvchilarning ma'suliyatini oshirishga qaratilmog'i lozim.

Maktabda dars kuzatish va uni tahlil qilish masalasi to'g'ri tashkil qilish o'quv-tarbiya ishlarini yanada takomillashuvida katta ahamiyat kasb etadi. Dars kuzatuvchi – darsga kirishdan oldin o'z oldiga aniq maqsadni qo'yishi va shu maqsad asosida fan o'qituvchisining darsini maxsus tayyorgarlik asosida kuzatish va uni to'g'ri tahlil qilib borishi lozim.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, maktab doirasida o'qituvchi va tarbiyachilar o'rtasida dars kuzatish uni tahlil qilish ishini aniq ob'ekt, aniq mavzu va aniq maqsad yo'nalishida tuzilgan reja-grafik asosida tashkil qilish bu borada muhiti pedagogik ahamiyat kasb etadi (Mazkur reja-grafik namuna Shaklida ilova qilindi. Siz unga ijodiy yondoshib o'z faoliyatingizda undan foydalanasiz degan umiddamiz). Darslarni kuzatish va tahlil qilish tartibi, qanday bo'lishidan qat'iy nazar uning asosiy maqsadi o'quvchilarning bilim malakalarini yanada yaxshilashga, darsning sifat va samaradorligini oshirishga qaratilmog'i lozim.

O'zaro dars kuzatish va uni tahlil qilish rejasi.

Dars kuzatish kuni	Sinf	Fan	Dars kuzatish vaqti	Dars olib boruvchi fan o'qituvchisining ismi vafamiliyasi	Dars mavzusi	Dars kuzatuvchisining ismi va familiyasi	Dars kuzatuvchisining maqsadi

IV. **Kichik guruhlarda "Dars tahlili"ning optimal xaritasini ishlab chiqish va tqdimotqilish – 40 daqiqa.**

Metod: ijodiy ish; **forma:** guruhda; **usul:** og'zaki, yozma, taqdimot; **jihoz:** vatmanqog'ozi, marker.

Suhbat jarayonida tinglovchilarda hosil bo'lgan bilimlar

asosida ko'nikma va malakaning Shakllanishi uchun ular 3 ta guruhga bo'linib, ularga "Ijodiy topshiriq" beriladi.

Topshiriq: Biologiya fanining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda dars tahlilining optimal xaritasini ishlab chiqish va taqdimot qilish.

Guruh taqdimoti tahlil qilinib, yagona dars tahlili namunasi ishlab chiqiladi.

V. **Darsni yakunlash – 5 daqiqa.**

Xulosa: Ta'limning asosiy Shakli – dars jarayonini kuzatish, tahlil qilish o'qituvchidan chuqur ilmiylikni, yuqori muloqot madaniyatiga ega bo'lishni talab etadi.

Uyga vazifa. Keyingi o'tiladigan dars mavzusiga tayyorlanish. Mavzuga doir adabiyotlarbilan tanishish.

Izoh. O'qituvchi uchun taxminiy "Dars tahlili xarita"lari ilova etiladi.

Nazorat savollari:

1. Dars qanday maqsadda kuzatiladi va tahlil qilinadi?
2. Dars tahlilini nechta asosiy turga bo'lish mumkin?
3. Didaktik tahlil haqida ma'lumot bering
4. Umumpsixologik tahlil ma'lumot bering

Ilova–1

Dars tahlili namunasi

_____Viloyat_____ tumani_ _____-maktab_____f a n o'qituvchisi _____n i n g dars tahlili

Fan_____ sinf____Mavzu _____ _____

№	Texnik bilim 10%	Maks ball	Baho
1	Tilni mukammal bilishi.		
2	Ta'limiy maqsad uchun jarayonda muloqot tilini tanlay olish.		
3	Tilshunoslik bo'yicha nazariy bilimini ko'rsata olishi.		
	O'qitish metodikasi 50 %		
1	Darsni oldingi o'tilgan mavzu bilan bog'lay olishi.		
2	O'tgan mavzuga yakun yasay olishi.		
3	O'quvchilarni yangi mavzuga tayyorlash muhitini tashkil eta olishi.		
4	Yangi mavzuni tushunarli bayon eta olishi.		
5	Turli o'qitish strategiyalari orqali o'quvchilar bilim salohiyatiga e'tibor bera olishi		
6	Turli texnik vosita va tarqatma materialdan foydalanishi.		
7	Mashqlarni bajartirishda turli metodlarni qo'llash orqali savol-javobdan foydalanishi.		
8	O'quvchilar nutq faoliyati turlarini egallashni mantiqan tashkil eta olishi.		
9	O'quvchilarni individual, juftlikda, guruhda ishlashini va boshqa faoliyatini tashkil eta olishi		
10	O'quvchilar faoliyatidagi xatolarni o'z vaqtida aniq mukammal to'g'rilay olishi		
11	O'quvchilar egallagan bilimini nazorat qila olishi va o'z vaqtida to'g'ri baholay olishi		
12	Dars maqsadiga erisha olishi.		
	O'qituvchi va o'quvchi hamkorligi 30 %		

1	Darsning borishi tartibi (ketma-ketligi) vaqtga e'tibor berilishi.		
2	Savol javoblarda aniq vaqt reglamentiga rioya qilishi.		
3	Yangi nutq faoliyati haqida ma'lumot berishda mulohaza qila olishi.		
4	O'quvchini ruhlantira olishi va rag'batlantira olishi.		
5	O'quvchilar tartibi va ijobiy holatlariga baho bera olishi.		
6	O'quvchilar bergan savollarga mukammal tushunarli javob bera olishi.		
7	Ma'lum holatlarga oid turli savollarni tanlab bera olishi.		
8	O'quvchilarning ismlaridan foydalanishi va har bir o'quvchi holatiga e'tibor bilan qarashi.		
	Umumiy rahbarlik va muomila madaniyati. 10 %		
1	Darsga o'z vaqtida kirish		
2	Dars jarayonida o'ziga ishonch hosil qilish.		
3	O'quvchilarni o'ziga jalb qila olish.		
4	Sinfdagi vaziyatni, muhitni nazorat qila olish.		
5	Muloqot madaniyatiga oid muomila leksikasini tanlay olish.		
6	Kiyinish madaniyati.		
	Jami		

1. Qo'llangan interfaol metodlarning mashg'ulot mavzusi turi va Shakliga mosligi, mahoratbilan namoish qila olishi _____

2. O'quv mashg'ulotlarning DTSga mos kelishi _____

3.Ijobiy yutuqlari: _____ _____

Tavsiya, taklif va mulohazalar:_____

Xulosa:_____

Darsni tahlil qildi _

Dars o'tuvchining imzosi _____ __yil

13-Mavzu: Boshlang'ich maktabda integratsiyalashgan ta'limdan foydalanish

Reja:

1.Ta'lim jarayonini integrallashning nazariy asoslari.
2.Ta'limni integrallash - ijtimoiy-pedagogik hodisa ekanligi.
3.Ta'limni integrallashning hozirgi zamon muammolari.
4. Integralli ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan talablar.

***

Tayanch tushunchalar: integratsiya, differensiatsiya; boshlang'ich, oraliq va yakuniy integratsiya.

***

Hozirgi globallashuv davrida boshlang'ich sinflardan boshlab o'quvchilarni ilm olish jarayonlarini va bosqichlarini yanada takomillashtirish uchun xorijiy tajribalar o'rganilib kelinmoqda hamda eng saralari bugungi kunda boshlang'ich sinf maktab doirasida tatbiq etilyapti. Xorijiy tajribalar shuni ko'rsatib kelmoqdaki, boshlang'ich sinflardagi fanlarni o'zaro bog'lab, umumlashtirib o'tish ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Fanlararo o'zaro bog'liqlik ya'ni fanlarni integratsiya qilish o'quvchilar faolligini oshirishda, darsni yananda qiziqarli olib borishda, yangicha metodlardan foydalanishga olib keladi. Integratsiyalashgan ta'lim o'quvchilarga bir nechta fanlar bo'yicha(chegaradosh va asosiy fanlar) asosida o'z bilim va ko'nikmalarini namoyish qilish uchun o'quv kurslari orasidagi imkoniyatlarni ta'minlaydi. Ushbu oliy ta'lim konsepsiyasi

ta'lim sohasidagi mutaxassislarni fan fanlarini birlashtiruvchi faoliyatni rag'batlantirishga undaydigan integratsiyalashgan o'quv dasturlarini ishlab chiqish dasturining bir qismini tashkil qiladi. Yosh bolalardan yangi va ilgari kashf etilmagan kontentga yaqinlashganda, oldingi o'rganishlari va bilimlari o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishlari integratsiyalashgan darsning sifat va samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Integratsiya hamda integratsiyalash so'zining ma'nosiga keladigan bo'lsak, (lot.dan) - qayta tiklash; tizimning alohida differensiyalangan qismlari va funktsiyalarining bir butunga o'zaro bog'lanish holati, shuningdek, bunga olib keladigan jarayon hisoblanadi.Integratsiya tushunchasini biz nafaqat ta'lim vositasi sifatida balki sifatli ta'limga erishishning eng oson yo'li sifatida ham ko'rishimiz mumkin. Hozirgi kunda O'zbekistonda ham boshlang'ich sinflar doirasida integratsiyalashgan darslar keng tus olib bormoqda. Eng quvonarlisi shundaki, bu usul orqali boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarni o'qitish har jihatdan ustuvorlikni beradi.Ular quyidagicha:

Birinchidan, Boshlang'ich sinf yoshidagi bolalar uchun qiyin deb hisoblangan fanlar integratsiyalashgan darslar yordamida hamda qo'llaniladigan metodikalar orqali yana ham oson va tushunarli bo'ladi. Kichik maktab yoshidagi bolalar uchun tabiiy fanlarga nisbatan ham qiziqish uyg'onadi desak adashmagan bo'lamiz.

Ikkinchidan, Boshlang'ich maktab yoshidagi o'quvchilar doimo diqqatlarini bir nuqtaga qarata olmaydilar. Bu jarayon uzog'i bilan 10-15 daqiqani olishi mumkin. Shunday vaziyatlarda biz mana shu vaqt oralig'ida 1 ta fanga oid bo'lgan tushunchani 2-3 ta bir-biriga aloqador bo'lgan fanlarni ham birlashtirib o'tishimiz mumkin. Qisqa vaqt ichida bolaga o'zi bilmagan holatda ko'p ma'lumotni singdirishimiz mumkin.

O'qitish metodikalari haqida gap borganda, kichik maktab yoshidagi o'quvchilar uchun foydalanishimiz mumkin bo'lgan metodikalar ro'yxati juda ham katta. Biz o'qitish metodikalarni

tanlagan vaqtimizda ham eng avvalo, bolaning yoshini, sinfini, qiziqishini inobatga olishimiz zarur.Shu o'rinda zarur bir eslatmani aytib o'tmasak bo'lmaydi. Bir o'qituvchi uchun samarali bo'lgan yondashuv yoki yechim boshqa metodist uchun foydali bo'lishi shart emas, chunki har bir usul, vosita va uslub o'z shakl va mohiyatiga ega, umumiy ta'lim maqsadlariga erishish uchun turli xil vositalar va usullardan foydalanadi. Shuning uchun ko'plab o'qituvchilar turli xil yondashuvlardan ba'zi g'oyalarni ajratib olishga harakat qiladilar, ularni aralashtirib, o'quvchilar va maktab ehtiyojlari va boshqa holatlarga qarab yagona o'qitish usuliga qo'shishadi. Bu har doim ham to'g'ri yechim emas.Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni o'qitadigan metodist va o'qituvchilar yagona o'qitish usuli bilan cheklanib qolmasliklari kerak.Har bir dars o'zgacha yondashuv, kreativlik hamda zamon bilan hamnafas tarzda o'tilishi kerak.

Yosh bolalarga ma'lumot va bilim o'rtasidagi kognitiv aloqalarni rag'batlantiradigan keng ko'lamli fanlarni o'rganish imkoniyatini berish orqali biz o'quvchilarga ularning kattalar hayotiga va keyingi ta'lim sayohatlariga o'tadigan asosiy ko'nikmalarni, yo'l-yo'riqlarni beramiz. Shu o'rinda Irlandiya maktablaridagi o'qitish tizimini aytib o'tmasak bo'lmaydi. Bu davlatdagi boshlang'ich ta'lim maktablarini muvaffaqqiyat siri shundaki, o'qituvchilar ma'lumotni aniq o'rgatmasdan va ajratmasdan, bir qator mavzu g'oyalarini o'qitishga yaxlit yondashuvni qo'llash o'rganish uchun tabiiy asos yaratadi. Shuningdek, ular yangi mavzu doirasidagi yangi bir termin yoki tushunchani yarmini aytib yoki qiziqarli joyida to'xtatishadi, bunday vaziyada kichik maktab yoshidagi bolalarda shu ma'lumotni tezroq bilish va o'rganish istagi paydo bo'ladi.

Integratsiyalashgan ta'limni sinfga qanday kiritish mumkin?

Farzandlarimizga yangi ko'nikma va bilimlarni o'rgatishda biz ko'pincha yaxlit yoki umumiy bo'lgn mahorat to'plamiga hissa qo'shadigan muayyan elementlar ustida ishlash

uchun ko'p vaqt sarflaymiz. Misol uchun, biz til o'rganishni o'rganayotganimizda, biz o'qish, yozish, tinglash va gapirish qobiliyatlariga e'tibor qaratishimiz mumkin, ammo bu to'rtta asosiy savodxonlik ko'nikmalari samarali muloqot qilish qobiliyatimizga hissa qo'shishiga qaramay, muqobil vaqtda va alohida. Agar biz o'quvchilarimiz o'z ta'lim imkoniyatlarini maksimal darajada oshirishlarini va turli xil vositalar orqali ajoyib kommunikator bo'lishlarini istasak, biz ushbu asosiy elementlarni haqiqiy o'rganish tajribasiga birlashtirishimiz kerak.

Masalan, gapirish va tinglash qobiliyatlarini oling. Bu ikki ko'nikma ham qabul qiluvchi va biz tinglaganimizda va keyin javob berganimizda miyaning turli qismlarini jalb qilishimizni talab qiladi. Yakka holda o'qitilganda, biz o'quvchilarga ikkalasi o'rtasida kognitiv bog'lanishni qiyinlashtiramiz. Biroq, integratsiyalashgan usulda o'qitilganda, biz o'quvchilarga boshqalar bilan muloqot qilishda ko'pincha haqiqiy dunyoda foydalanadigan asosiy ko'nikmalarni kontekstuallashtirish imkoniyatini beramiz. Integratsiyalashgan darslarni amalga oshirish uchun eng avvalo bilishimiz kerak bo'lgan asosiy jihatlar quyidagilardan iborat:

Birinchidan, mana shunday keng bosqichdagi darslarni, o'qitish usullarini boshlash uchun ikkita asosiy ko'nikma va malakani rivojlantirishni o'z ichiga olgan bitta topshiriqlarni kiritishdan boshlashimiz kerak. Mana shu bitta topshiriq asosida bolada bir necha fanlar kesimida bilim va malaka hosil bo'ladi.

Ikkinchidan, Integratsiyalashgan ta'lim strategiyalari biron bir aniq fan sohasi yoki bilim sohasi bilan cheklanishi kerak emas. Ushbu samarali o'qitish usuli tom ma'noda butun o'quv dasturida qo'llanilishi mumkin. Bu yerda biz qanday qilib haqiqiy o'rganish tajribasini yaratishingiz mumkin bo'lgan bir nechta misollarni ko'rib chiqamiz.

1-misol - Tasavvur qiling-a, siz birinchi va ikkinchi

sinf o'quvchilaringizga o'qishni tushunishni o'rgatyapsiz. Darsingizning asosiy maqsadi o'quvchilaringizni qiyin so'zlar, jumla tuzilmalari bilan kurashishga va tushunishni oshirish uchun til to'siqlarini yo'q qilishga undashga qaratilgan. Buni samarali amalga oshirish uchun biz o'quvchilarning qiziqishlarini, yoshini, jinsini, hattoki harakter jihatini ham hisobga olishimiz va ularga turli janr va shakllarni qamrab olgan bir qator o'qish materiallarini o'rganishga imkon berishimiz kerak. Bu yerda imkoniyatlar cheksizdir. Bu boshqa fan sohalariga kirib boradigan va tashqariga chiqadigan o'qish materiallari manbalarining ochiq tabiati bilan bog'liq.

2-misol - Shu bilan bir qatorda, siz o'quvchilaringizdan ma'lum o'lchamdagi shakllarning aniq tasvirlarini yaratishni talab qiladigan san'at darsini o'rgatayotgan bo'lishingiz mumkin. Bu yerda ular matematikadan o'rgangan ko'nikmalarini birlashtirish, shu bilan birga ularni ijodiy va chizish mashqlarida ishlashga undash uchun ajoyib imkoniyat hisoblanadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, integratsiyalashgan dars har jihatdan sifatli va samarali vosita hisoblanadi. Integratsiyalashgan fanlar tabiat haqidagi bilimlarni rivojlantirishga qaratilgan hamda xorijiy mamlakatlarning o'quv rejalariga kiritilgan. Bu shuni ko'rsatadiki, integratsiyalashgan fanlar, ayniqsa, tabiiy fanlarga ko'proq e'tibor qaratilganligini anglashimiz mumkin. Shuning uchun ham tabiat-jamiyat munosabatlarni uyg'unlashtirish masalalari, murakkab fanlararo aloqalarni o'rnatishning o'quv rejalari va dasturlarida atrof-muhit bilan mamlakatimizning umumta'lim maktablari katta ahamiyatga ega.

N.N.Skatkin, I.Ya.Lerner, Aleksyuk Yu.K.Babanskiylarning tekshiruvlarida ta'lim uslublariga taalluqli ikkilamchi tur belgilarining ta'rifi beriladi, Ular uslub-ifoda, mazmun va ta'lim usuli ekanligi isbotlab berishgan.

Gegel falsafadagi uslubni mazmun harakatining shakli sifatida ko'rsatadi. Ta'lim jarayonida turli xil mantiqiy tizimlar

orqali o'qituvchi va u bilan birgalikda o'quvchilar o'z bilim, qobiliyat va ko'nikmalarini deduktsiya, induktsiya, sintez, umumlashtirish, konkretlashtirish, taqqoslash shaklida ifodalaydidar.

Barcha mantiqiy jarayonlar uslubning mazmun bilan uzviy bog'langan ichkinchi tomonini tashkil qiladi.

Boshlang'ich sinflarda o'quv jarayoni foydalanilayotgan usul, uslub va shaklarining turli tumanligi bilan ajralib turadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yangi o'quv rejalari va dasturlariga o'tish davrida jamiyat va atrof-muhit o'rtasidagi aloqalarni uyg'unlashtirish, atrof-muhitga jiddiy munosabatni o'rnatish va shakllantirish masalalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Atrof-muhitga jiddiy munosabatlarning poydevori boshlang'ich sinflarda o'rgatiladi. Shuning uchun iqtisodiy ta'limning natijasi maktab ta'limining birinchi bosqichiga bog'liq. Yangi psixologik-pedagogik tadqiqotlar kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining bilish faoliyatlari cheklanganligi haqida ilgarigi tushunchalarni ko'rib chiqishga imkon beradi. Bu boshlang'ich iqtisodiy ta'limning barcha tarkibiy qismlarini o'zgartirish va yangilashga asos yaratadi. Boshlangich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlariga javob beradigan va dars talablariga mos keladigan, maqsadni aniqlash bunday yangilanishning asosiy masalasidir.

XIX-XX asrlar oralig'ida pedagogikada kichik maktab o'quvchilarining tabiiy muhit bilan tanishtirishning integratsiyalangan kursini yaratish fikri paydo bo'lgan. Bu fikr A.Ya.Gerd, D.N.Kaygorodov, A.P.Pavlov nomlari bilan bog'liq bo'lib, ular boshlang'ich maktabga atrofdagi jonli va jonsiz dunyo haqidagi bo'linmagan kursni kirgizishni talab qilishdi.

Integratsiyalashgan ta'lim-tarbiya, fanlararo aloqalariing ayrim jihatlari mashhur pedagoglarning (Ya. Komenskiy, D.Lokk, I. Gsrbart, M. Pestalotstsi, K.Ushinskny va boshqalar), didaktikalarning (I.D.Zverev, M.A. Danilov, V.N. Maksimova,

S.P.Baranova, N.M.Katkina na boshqalar) psixolog olimlarning (E.N.Kabanova, Meller, N.F.Talizina, Yu.A. Samarina, G.I.Vergeles), medist olimlarning (M.R.Lvo», V.G.Goreskiy, N. N.Svetlovskaya. Yu.M.Kolyagin, G.N.Pristupova) ishlarida ko'rib chiqilgan.

Bir qator ishlar boshlang'ich ta'limdagi fanlararo va fanlar ichidagi aloqalarga bag'ishlangan. By muammolar o'quv fanlarini integratsiyalashga o'tishning yaqin rivojlanish zonasidir.

Boshlang'ich maktab fanlarining integratsion aloqalari kam ishlab chiqilgan, qarama-qarshi ifodalangan. Bu aloqalarning mohiyati haqida olimlar orasida qarama -qarshiliklar ko'p.

Integratsiya atama va uslubiy nuqtai nazardan hodisa sifatida nima ekanligann ko'rib chiqaylik.

«Intergratsiya» so'zi lotincha integratio-tiklash, to'ldirish, «integer» butun so'zidan kelib chiqqan.

Ikkita tushunchaga egamiz:

1.Tizim, organizmning alohida tabaqalashtirilgan qism va vazifalarning bog'liqlik holatini bildiruvchi tushuncha va shu holatga olib boruvchi jarayon.

2. Tabaqalashtirish jarayonlari bilan birga amalga oshirilayotgan fanlarni yaqinlashtirish jarayoni.

Differentsiatsiya - frantsuzcha (diffe'rentiofion lotincha differentia - farq har xillik, ya'ni butunni bo'laklarga bo'lish, ajratish. Ta'lim mazmunini intergratsiyalash-dunyo tendentsiyasi (g'oya, fikr, intilish), Integrativ yondoshishi turli darajadagi tizimli aloqalarning ob'ektiv yaxlitligili aks ettiradi. (tabiat-jamiyat-inson). Integratsiya ilgari bo'lishyan qismlarni bir butunga birlashtirish bilan bog'liq. U tizim elementlarining yaxlitlik va uyushqoqlik darajasining oshirishga olib keladi.

Integratsiyalash mobaynida bir-biriga bog'liqlik hajmi oshadi va tartibta tushadi, shu tizim qismlarniig ishlashi va o'rganish ob'ektining yaxlitligi tartibga solinadi.

Bu umumiy qoidalarni qanday qilib maktab ta'limida qo'llash mumkin? Zamonzviy didaktik va metodikada

ta'kidlanishicha, o'quvchilarni o'qitish, rivojlanishi va tarbiyasining muvoffaqiyatlari ularning dunyosining birligi haqida tushunchaning shakllanganligi, o'z faoliyatlarini umumiy tabiat qonunlari asosida yo'lga solish zaruriyatini tushunishlari. tabiatshunoslik kursida predmentlararo va predmetlar ichidagi aloqalarni yecha olishlari bilan bog'liq. Ta'limdagi integratsiya o'quv predmetlari mazmunini konstruktsiyalashga tizimli yondoshish orqali ko'rib chiqiladi.

Integratsiyaning turli darajalari ajratiladi:

boshlang'ich- tabiat haqidagi elementlar bilimlarni birlashtiradi;

oraliq - predmetlar bo'limlarini bo'lish intergratsiyasi;

yakuniy - tabiatshunoslikni o'rganish bilam bog'liq bo'lgan talmmninng oxirgi bosqichi integratsiyasi. Shu bilan birga, tabiiy-ilmiy ta'limini to'liqroq va kengroq integratsiyalash imkoniyati ham inkor etilmaydi. Maktab ta'limini integratsiyalash jarayonining psixologik asosi sifatida psixolog Yu.A.Samarinning assotsiativ tafakkur to'g'risidagi fikrlari) olinishi mumkin. Bu fikrlarniig mazmuni shundaki, har qanday bilim bu o'xshatish, bilimlar tizimi esa o'xshatishlar tizimidir. Yu.A.Samarin o'xshatishlarning quyidagi turlarnni ajratadi:

lokal (mahalliy, ma'lum bir joy, narsa bilan chegaralangan), biror tizimga tegashli bo'lgan, tizim ichidagi, tizimlar orasidagi va aqliy faoliyat darajalarini o'xshatishlarining mos keladigai darajasiga birlashgirish xususiyatiga qarab tasniflaydi).

Tabiat yoki predmet haqidagi eng oddiy bilimlarni hosil qiluvchi bog'liqlikning eng soddasi ma'lum bir joy yoki tushuncha bilan chegaralangan lokal tasavvurdir. Bu bog'liklik boshqa bilimlardan nisbatan ajralgan, shuning uchun eng oddiy aqliy faoliyatni ta'minlaydi. Bu kichik maktab yoshiga xos. Biror bir tizimga tegishli bo'lgan tasavvurlar eng solda tizimli tasavvurlardmr. Ular biror bir mavzu, predmet yoki hodisani o'rganishi asosida hosil bo'ladi. Biror bir predmetni bilish yangi fakt va tushunchalarming tanlanishi ularni bir bilimlar bilan

taqqoslanishi orqali amalga oshiriladi. Bilimlarning eng odliy umumlashtirish sodir bo'ladi, lekin olingan bilim hamma unga yaqin bo'lgan bilimlar bilan bog'lansa edi.

Bunda o'quuvchilarning tahlil qilish va umumlashtirtl faoliyatlari vujudga keladi. Tizim ichidagi tasavvurlar o'quvchilarning butun bir fanlar bilishini ta'minlaydi. (fizikaviy, kimyoviy, biologik, bilimlar tizimi) o'rganilayotgan fan doirasida bilimlardai keng foydalanish kuzatiladi. Tizim ichidagi tasavvurlar, vaqt, muhit, son bog'lanishlari aks ettnradn. Predmetlararo tasavvurlar aqliy faoliyatining eng yuqori pog'onasi hisoblanadi. Ular bilimlarning turli tizimlarini birlashtiradi, hodisa yoki jarayonning xilma-xilligini bilishiga imkoniyat beradi. Shu bilimlar asosida umumiy tushunchalar kelib chiqadi. Tizimlararo tasavvurlarning shakllanishi, ularni bilimlardan foydalanishga, ularin bir-biriga bo'ysundirishga, bilimlar chegarasida bo'shliqliklarni aniqlashga imkoi beradi

Bayon qilingan psixologik dalillar boshlang'ich, to'liqsiz o'rta va o'rta maktab ta'liminn integratsiyalashnnng asosiy xususiyatlarini aniqlashga imkon beradi.

S.P.Baranov, L.R.Bolotin, V.A.Slastennnming «Pedagogika» kitobida darslarda qo'llaniladigan fanlararo bog'lanish ko'rsatiladi, lekin integratsiyalashgan ta'lim muammolari aks etmagai.

«Boshlang'ich ta'lim» jurnalarnda maktab ta'limini iitegratsiyalash muammosiga katta ahamiyat beriladi. L.N.Baxareva o'zining «Boshlang'ich maktab o'quv mashg'ulotlarini o'lkashunoslik asosida integratsiyalash» maqolasida integratsiya-differentsiatsiya jarayonlari bilan birgalikda amalga olayotgan fanlarni yakunlashtirish va bog'lash jarayoni bo'lib, yangi, butun, yaxlit bo'limlar yaratshshga yordam beruvchi, fanlararo aloqalarni amalga oshiruvchi yuqori ko'rinishdir.

O'quv predmetlarn orasida integratsiya predmetlar tizimini inkor etmaydi integratsiya tizimini takomillashtirishning,

kamchiliklari bartaraf etishning yo'li bo'lib predmetlar orasidagi aloqalar va bog'liqliklarni chuqurlashtirishga qaratilgan bunday yondoshuv differentsimattsiya va integratsiya orasidagi munosabatlarni tushuniilga tayanadi.

Pedagogikaning maqsadi bir xil maqsad vazifalarga ega bo'lgan turli fanlarning element va qismlarni bir butunga birlashtirishga yo'naltirilgan intergratsiyani amalga oshirishda o'qituvchilarga yordam berishdir. Ko'p yillik kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, boshlangich sinf o'qituvchilari, keyinchalik esa bitiruvchilar u yoki bu fanlarni o'rganib shu bilim ko'nikmalarni boshqa fanlarni o'rganishda qo'llashga qiynalyaptilar, ularga mustaqil fikrlash, olingan bilimlarni o'xshash yoki yangi vaziyatlarga ko'chira bilish ko'nikmalari yetishmayapti. Bularniig hammasi boshlang'ich sinflardagi turli fanlar bo'yicha mashg'ulotlarning o'zapo kelishmovchiligi tufayli sodir bo'layaptn. Bu holatda intergratsiya bir predmet bo'yicha bilimlarni ikkinchisiga ko'chirish va faoliyatining almashinishi emas balki zamonaviy fanlar integratsiyasi yo'nalishlarini aks ettiruvchi yangi dedaktiv ekvivalent (mos bo'lgan, o'xshash, keng ksladigan narsa) larni yaratish jarayonidir. Psixolog YE.N.Kabanova-Millerning aytishicha «O'qituvchiga hali uchramagan vazifa asosida bilim ko'knikma va qobiliyatlarini mustaqil ko'chirilishi aqliy rivojlanishning muhim ko'rsatkichdir». L.P.Elinko o'zining «Boshlang'ich sinflarda ta'limni integratsiyalash tajribasi» ichida maktab ta'limini integratsiyalashning muhimligiga e'tiborni qaratsa, L.P.Elenko integratsiya darsini samarali qilish vositasi, predmetlar aloqalarini yangi pog'onalarga ko'tarish shakli deb hisoblaydi. Integratsiya o'qituvchilarning turli fanlar bo'yicha kuzatishlari va xulosalarini tasdiqlab yoki chuqurlashtirib beruvchi yangi dalillarni topib berish manbaidir.

Ular faoliyatining turli shakllarining almashib turishi orqali o'quvchilarning charchashi va asabiylashishining oldini oladi.

Nazorat savollari:

1. Integratsiya hamda integratsiyalash so'zining ma'nosi nima?
2. Integratsiyalashgan ta'limni sinfga qanday kiritish mumkin?
3. Integratsiyaning darajalari?
4. Integralli ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan talablar nim?

14-mavzu: Inklyuziv ta'limni rivojlantirishda psixologik-pedagogik yondashuv

Reja:

1. Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim
2. Inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflar
3. Inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirish
4. Inklyuziv ta'limni psixologik qo'llab-quvvatlash

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida ro'y berayotgan ijtimoiy o'zgarishlar bolalarning ta'lim va tarbiyasiga bo'lgan qarashlarning o'zgarishiga, bu esa mamlakatimiz ta'lim tizimida jiddiy o'zgarishlarni yuzaga keltiradi. Umumiy va maxsus ta'limning integratsion jarayonlarida tendensiyalar mavjud bo'lib, buning natijasida nogironligi bo'lgan bolalarni tarbiyalash muammosi asosiylardan hisoblanadi. Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarga erta tashxis qo'yish va ularga yordam ko'rsatish davlat tizimi ilmiy o'rganish va amaliyotga joriy etish uchun dolzarb bo'lib bormoqda. Shunga ko'ra, turli yosh guruhlari va toifalaridagi bolalarga, ularning yaqin atrofiga, shuningdek, ta'lim jarayonining boshqa ishtirokchilariga psixologik, tibbiy va pedagogik yordam va qo'llab-quvvatlash zarur.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasida "Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir" deb belgilab qo'yilganligi ham ta'lim sohasiga bo'lgan ulkan e'tibordir. Undan tashqari O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi qonunga alohida modda kiritilishi va ushbu modda inklyuziv ta'limga bag'ishlanganligi diqqatga sazovordir.

20-modda. Inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan. Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim tashkil etiladi.

Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalar inklyuziv ta'limini yanada takomillashtirish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son qarori qabul qilindi. Qarorda inklyuziv ta'limning barcha subyektlari uchun psixologik- pedagogik va ijtimoiy rivojlantirishga yo'naltirilgan texnologiyalarni ishlab chiqish va takomillashtirib borish hamda inklyuziv sharoitlarda ta'lim oluvchilar uchun psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash ishlarini tashkil qilish vazifalari yuklatilgan.

2021/2022 o'quv yilidan respublikamiz miqyosida umumta'lim muassasalarida tajriba sinov tariqasida inklyuziv ta'lim joriy etildi. Bunday birinchi inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflariga o'quvchilar ular yetti yoshga to'ladigan yilda qabul qilinadi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ta'lim olish huquqini ta'minlash maqsadida umumta'lim maktablari uchun belgilangan yosh me'yoridan ikki yilga oshgan bolalarni qabul qilishga ruxsat etiladi.

Inklyuziv ta'lim subyektlarini psixologik- pedagogik qo'llab-quvvatlash alohida ta'lim ehtiyojli o'quvchilari kamsitilmasdan sifatli ta'lim olish, rivojlanish buzilishlarini tuzatish va ijtimoiy moslashish, maxsus pedagogik yondashuvlar va usullar asosida erta tuzatish yordami ko'rsatish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish nazarda tutiladi.

Inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarga qabul qilinadigan bolalar:

- eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar (eshitish qobiliyatining yo'qotilishi 60 Db gacha bo'lgan rivojlanishida qo'shimcha buzilishlar bo'lmagan bolalar);
- ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar (ko'rish qobiliyatining buzilishi 0,1 gacha bo'lgan rivojlanishida qo'shimcha buzilishlar bo'lmagan bolalar);
- somatik kasalliklar (psixofizik va nutqning rivojlanish darajasi yoshiga mos kelmaydigan bolalar);
- nutqida og'ir nuqsonlar bo'lgan bolalar (alaliya, dislaliya, afaziya, rinolaliya, dizartriya, psixik-nutqiy rivojidagi sustlik, duduqlanish);
- tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo'lgan bolalar (bolalar tserebral falaji, skolioz, poliomiyelit, miopatiya, osteomiyelit, amputatsiya, bo'y o'sishining yetishmovchiligi — pakanalik);
- aqliy rivojlanishi saqlangan holda tayanch-xarakat tizimidagi buzilishi bo'lgan bolalar;
- aqliy rivojlanishi saqlangan yoki ruhiy rivojlanishda orqada qolgan bolalar (o'zi harakat qila oladigan yoki qo'shimcha moslamalar va nogironlik aravachasida harakatlana oladigan bolalar tserebral falaji);
- intellektual rivojlanishning potensial buzilmagan imkoniyatlari bilan ruhiy rivojlanishda orqada qolgan bolalar;
- hulq-atvor va ruhiyatning qo'pol buzilishlarisiz autistik spektri buzilgan bolalar;
- intellektual rivojlanishi saqlanib qolingan, tutqanoq

holatida bo'lgan bolalar (agar bola antikonvulsant dorisini qabul qilganda, tutqanoq 1 oyda 1-martadan oshmagan paytda).

Ushbu shaxslar uchun eng mos muloqot va ma'lum darajadagi va ma'lum bir yo'nalishdagi ta'lim olish, shuningdek, ushbu o'quvchilarning ijtimoiy rivojlanishi, shu jumladan alohida ta'lim ehtiyojli bolalar uchun inklyuziv ta'limni tashkil etish orqali eng qulay bo'lgan sharoitlarni yaratish lozimdir.

Shunday qilib, inklyuziv ta'limni qo'llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish va takomillashtirish ushbu ta'lim modelida tashkiliy, huquqiy, uslubiy axborot va kadrlar muammolarining paydo bo'lishiga olib keladi.

Kadrlarni tayyorlash sohasida:

- umumta'lim muassasalarida inklyuziv ta'lim tizimi mazmunini yetkazib berish va sifat jihatidan yangilash talab etayotganligi;
- pedagogik kadrlarning kasbiy tayyorgarligi hamda kasbiy

malaka darajasi inklyuziv ta'lim uchun yetarli emasligi natijasida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishda qator muammolar yuzaga keltirib chiqarayotganligi;

- pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari o'quv dasturlariga inklyuziv ta'lim berish metodikasiga oid fanlar kiritilmaganligi;
- pedagogika va metodika fanlariga oid darsliklarda inklyuziv ta'lim dasturlari kiritilmaganligi, shuningdek bo'lajak pedagoglarning alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar jalb qilingan ta'lim muassasalarida amaliyot o'tamayotganligi ularning kasbiy tayyorgarlik sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganligi;
- umumta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlari inklyuziv ta'lim haqida yetarli ma'lumotlarga ega emasligi natijasida inklyuziv ta'limni joriy etishning samarasizligiga olib kelayotganligi;

malaka oshirish va qayta tayyorlash ta'lim muassasalarida

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'limi bo'yicha malaka oshirish kurslari tashkil etilmagan, ular faoliyatiga inklyuziv ta'lim bo'yicha zamonaviy axborot- kommunikatsiya texnologiyalari joriy qilinmaganligi;

O'quv jarayonini tashkil etish sohasida:

- umumta'lim muassasalarida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga inklyuziv ta'lim berish metodikasi ishlab chiqilmaganligi;
- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga inklyuziv ta'lim berishning sifati va samaradorligini aniqlash mezonlari ishlab chiqilmaganligi;
- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'lim oladigan ta'lim muassasalari zarur maxsus o'quv adabiyotlari va metodik-qo'llanmalar bilan yetarli darajada ta'minlanmaganligi shu vaqtgacha inklyuziv ta'limni rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatib kelayotgan edi.

Inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirishning maqsadi esa - ta'lim olish uchun teng imkoniyatni ta'minlash va barcha bolalarning individual xususiyatlaridan, oldingi ta'lim yutuqlaridan, tili, madaniyati, ota-onalarning ijtimoiy va iqtisodiy holatidan qat'iy nazar ta'limda muvaffaqiyatga erishishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdir.

Inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari quyidagilardir:

- inklyuziv ta'lim tizimi uchun pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish (maqsadli malaka oshirish kurslari):
- pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'lim dasturlarini joriy etish, inklyuziv ta'lim metodikasiga oid o'quv materiallarini takomillashtirish;
- inklyuziv ta'lim berishning zamonaviy nazariyalarini o'zlashtirish, inklyuziv ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan pedagoglarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazlarini tashkil etish hamda ta'lim berishda

shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar asoslarini egallashga sharoit yaratish (olg'or xorijiy tajribalarni o'rganish);

- o'qituvchi, o'quvchi, ota-ona, jamoat tashkilotlari mutaxassislari, keng jamoatchilik uchun inklyuziv ta'lim bo'yicha o'quv-uslubiy majmualar va ommabop nashrlar yaratish (metodik qo'llanma va tavsiyalar);

- inklyuziv ta'lim tizimi joriy etilgan mumta'lim muassasalarida o'qituvchilarning

- sifat tarkibini, xususan magistrlik darajasiga ega bo'lgan pedagoglar sonini

- bosqichma-bosqich oshirish;

- inklyuziv ta'limni joriy etishda avvalo chekka hududlarda joylashgan, o'quvchilar soni kam bo'lgan umumta'lim aktablaridagi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni o'qitishga e'tibor qaratish;

- inklyuziv ta'lim sifatini mustaqil baholash tizimini shakllantirish va alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun qo'shimcha pedagogik ta'lim xizmatlarini yo'lga qo'yish;

- xalq ta'limi sohasida rahbar kadrlar tayyorlash bo'yicha standartlashtirilgan dastur ishlab chiqish, ularga inklyuziv ta'limini amalga oshirish mexanizmlarini ko'zda tutuvchi o'quv kurslarini kiritish;

- masofaviy kurslarni yo'lga qo'ygan holda, inklyuziv ta'lim tizimi joriy qilingan umumta'lim muassasalarida faoliyat olib boruvchi pedagoglarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimi samaradorligini kuchaytirish va qamrovini kengaytirish;

- pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarining "Maxsus pedagogika" ta'lim yo'nalishi bo'yicha qabul parametrlarini oshirish;

- inklyuziv ta'lim tizimi joriy etilgan umumta'lim muassasalarida yosh o'qituvchilarni, ularning xizmat mavqeyi o'sishini hisobga olgan holda, kasbiy qo'llab-quvvatlash va hamkorlikda ishlash mexanizmini takomillashtirish;

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga inklyuziv ta'lim-tarbiya berishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash yuzasidan pedagog xodimlar uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish;

Inklyuziv ta'limda o'qitish usullarini takomillashtirish, mazkur jarayonga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish:

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan har bir bolaning inklyuziv ta'lim olishiga bo'lgan huquqini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar belgilash va amalga oshirish;

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni kamsitish, ularga nisbatan shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomalada bo'lishning oldini olishga qaratilgan mexanizmlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish;

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni erta aniqlash va qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish;

Inklyuziv ta'lim jarayonida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, bolaning jismonan sog'lom va baquvvat shakllanishiga erishish:

- inklyuziv ta'lim muassasalarida o'quvchilar uchun sog'lom ovqatlanish tamoyillarini ommalashtirish;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun sport to'garaklarini tashkil qilish;

- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan ota-onalar o'rtasida inklyuziv ta'lim tizimi to'g'risida tushuntirish ishlarini olib borish;

- rivojlangan mamlakatlarning ilg'or tajribasini o'rgangan holda inklyuziv ta'lim tizimi joriy qilingan ta'lim muassasalarida o'quvchilar o'rtasida zo'ravonlik (bulling) ning oldini olishga qaratilgan dasturlarni joriy etish;

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash maqsadida:

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'lim oladigan ta'lim muassasalari binolariga qo'yiladigan talablarni

ishlab chiqish va tasdiqlash zarur;

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar o'qitiladigan ta'lim muassasalarini zarur adabiyotlar, metodik qo'llanmalar, turli kasblarga o'qitishga mo'ljallangan uskuna va jihozlar bilan ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

Inklyuziv ta'limga jalb qilingan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora- tadbirlarni o'z ichiga olgan tashabbusni amaliyotga tatbiq etish:

- "Barkamol avlod" bolalar maktablari to'garaklarida inklyuziv ta'lim ishtirokchilarining qamrovini oshirish;
- Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni madaniyat va san'at muassasalariga keng jalb etish;
- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni jismoniy tarbiya va sportga jalb etish;
- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish;
- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish;
- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchi-qizlarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish;
- lohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning madaniyat, san'at, sport va boshqa yo'nalishlarda erishgan yutuqlari to'g'risida targ'ibot tadbirlarini o'tkazish.

O'quvchining sog'lig'ini saqlash va mustahkamlash, sog'lom va sog'lig'i bilan bog'liq muammolari bo'lgan o'quvchi shaxsining har tomonlama barkamol rivojlanishi imkoniyatlarini oshirishga e'tibordan chetda qolmasligi kerakligini hech qachon yodimizdan chiqarmasligimiz zarur.

Hozirgi vaqtda inklyuziv ta'lim subyektlarini psixologik-pedagogik qo'llab- quvvatlash mazmuni o'rganishning asosiy yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Bu jarayon alohida ta'lim ehtiyojli bolaning ijtimoiy muhitga samarali

integratsiyalashuvini ta'minlashga, uning o'zini o'zi belgilashiga, o'zini o'zi anglashiga, o'zini o'zi tasdiqlashiga hissa qo'shishga qaratilgan barcha ta'lim subyektlarining faoliyati bilan o'zaro bog'liqdir. Psixologik va pedagogik yordam muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashish va har qanday ta'lim tashkiloti talabalarining shaxsiy hayoti va kasbiy o'zini o'zi belgilashi bilan bog'liq turli vaziyatlarda maqbul yechimlarni tanlashning zaruriy shartidir.

Inklyuziv ta'limning barcha ishtirokchilarini psixologik-pedagogik qo'llab- quvvatlashni samarali tashkil etish g'oyasi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- inklyuziv ta'limni umumta'lim muassasalarining amaliy faoliyatida rejalashtirish va amalga oshirish uchun asos sifatida qo'llab-quvvatlashning xilma- xilligini hisobga olish;
- o'zaro bog'liq bo'lgan bosqichlarni aniqlash asosida qo'llab-quvvatlash jarayonini yaratish: strategiyalar, taktikalar va texnikalar;
- yuqorida qayd etilgan ta'lim muassasalari uchun aniq texnologiyalar, mos uslub, yo'l va vositalarni ishlab chiqish;
- ta'lim muassasalarining integratsion faoliyatini rivojlantirish sharoitida o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvini qo'llab-quvvatlash jarayonini takomillashtirilib boriladi.

Shunday qilib, ta'lim jarayoni qo'llab-quvvatlash obyekti bo'lib, bolaning tashqi dunyo, atrofdagi odamlar (kattalar va tengdoshlar), o'zaro munosabatlar tizimi va ularni rivojlantirish, tuzatish, tiklash hamda qo'llab-quvvatlash predmeti hisoblanadi.

Yuqoridagilar bizga inklyuziv ta'lim sharoitida ta'lim jarayoni ishtirokchilarini qo'llab-quvvatlashning bir qator yetakchi tamoyillarini aniqlash imkonini beradi:

- alohida ehtiyojli bolani ivojlantirishning har qanday muammosini hal qilishda kompleks, fanlararo yondashuv;
- ta'lim va tarbiya ishlarida dastur va yondashuvlarni o'zgartirish;
- oddiy bolalarning ham,alohida ehtiyojli bolalarning ham qiziqishlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda individual va jamoaviy faoliyatning turli xil turlarini tashkil qilish;
- uyg'unlashgan rejimda ishlaydigan o'qituvchilarning professionalligi va malakasi;
- o'quv jarayonini tashkil etishda o'qituvchilar, ota-onalar, o'quvchilarning bir-birini to'ldiruvchi faoliyati;
- alohida ehtiyojli bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish;
- ta'lim jarayonida alohida ehtiyojli bolaning rivojlanishini doimiy qo'llab- quvvatlash kafolati;
- hududiy xususiyatlarni, hududdagi ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy vaziyatni hisobga olgan holda.

Umuman olganda, alohida ehtiyojli bolalarni ta'limga jalb qilishni qo'llab- quvvatlash jarayonining muvaffaqiyati bir qator shartlarga bog'liq bo'ladi, ya'ni:

- bolalar rivojlanishidagi og'ishlarni erta ijtimoiy-psixologik va pedagogik tuzatish;
- umumiy turdagi maktabgacha va maktab ta'lim muassasalarida zarur dasturiy ta'minot, uslubiy va kadrlar bilan ta'minlanganligi;
- tabaqalashtirilgan ta'lim jarayonini yaratish, o'qitish va ta'lim dasturlarining yuqori o'zgaruvchanligi, moslashuvchanligi;
- bolalar jamoasida, shuningdek, o'qituvchilar va bolalar, o'qituvchilar va ota- onalar o'rtasida qulay shaxslararo munosabatlarni shakllantirish va qo'llab- quvvatlash.

Ushbu shart-sharoitlar majmuasi alohida ehtiyojli bolalarning inklyuziv ta'limini qo'llab-quvvatlash, ularni reabilitatsiya qilish va shaxsiy salohiyatini integratsiyalashning samarali tizimini yaratishga yordam beradi.

Nogironligi bo'lgan bolalarning inklyuziv ta'limini psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlashning asosiy umumiy maqsadlari quyidagilar:

- bolaning rivojlanishidagi mumkin bo'lgan muammolarning oldini olish;
- bolaga rivojlanish, tarbiya va ijtimoiylashuvning dolzarb muammolarini hal qilishda yordam berish;
- individual ta'lim yo'nalishlarini ishlab chiqish;
- ta'lim dasturlarini psixologik qo'llab-quvvatlash;
- adekvat o'zini o'zi qadrlashni shakllantirish;
- jismoniy va ruhiy salomatlikni muhofaza qilish va mustahkamlash;
- o'quvchilar, ota-onalar, o'qituvchilarning psixologik-pedagogik kompetensiyasini (psixologik madaniyatini) rivojlantirish;
- jamiyatda alohida ehtiyojli bolalarga nisbatan bag'rikenglik munosabatini shakllantirish.

Shuni ta'kidlash kerakki, ta'lim tizimiga qarab, psixologik-pedagogik yordamning mazmuni o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Maktabgacha ta'lim bosqichida rivojlanish buzilishlarini erta tashxislash va tuzatish, sog'lig'ida muammolar bo'lgan bolalarning integratsiya sharoitida maktabda o'qishga tayyorligini psixologik qo'llab-quvvatlash zarur.

Boshlang'ich sinf ta'limi bosqichida maktabda o'qishga tayyorgarlikni aniqlash, maktabga psixologik moslashuvni ta'minlash, o'quvchining o'quv faoliyatiga qiziqishini rag'batlantirish, kognitiv va o'quv motivatsiyasini rivojlantirish, istakni shakllantirishga yordam berish muhimdir. Undan tashqari o'rganish, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish ham juda muhimdir.

Boshlang'ich sinf darajasida - alohida ehtiyojli o'quvchini qo'llab-quvvatlash, yangi o'quv sharoitlariga moslashish, shaxsiy muammolar va ijtimoiylashuv muammolarini hal qilishda yordam berish, hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish, nevrozning oldini olish, konstruktiv munosabatlarni o'rnatishga yordam berishdan iborat. Ota-onalar va tengdoshlar bilan, deviant xatti-harakatlarning oldini olish.

Yuqori sinfda kasbiy o'zini o'zi belgilash, ekzistensial muammolarni hal qilishda yordam berish (o'zini o'zi bilish, hayotning ma'nosini izlash, shaxsiy o'ziga xoslikka erishish), vaqt nuqtai nazarini rivojlantirish, rivojlanish psixo-ijtimoiy kompetensiya va deviant xatti- harakatlarning oldini olish.

Inklyuziv ta'limni tashkil etish jarayonida integratsiya nuqtai nazaridan ta'lim-tarbiya va rivojlanish muammolarini hal etishda alohida ta'lim ehtiyojli bolaga zarur psixologik-pedagogik yordam ko'rsatuvchi sinf rahbari, maxsus o'qituvchi, psixolog, tyutor yetakchi rol o'ynaydi. Ular faoliyatining asosiy maqsadi alohida ta'lim ehtiyojli bolaning noto'g'ri moslashishini oldini olish , ta'lim jarayoni ishtirokchilari bilan muammoli o'zaro munosabatlarda tanqidiy vaziyatlarning paydo bo'lishi.

Shunday qilib, turli darajadagi qo'llab-quvvatlashni o'z ichiga olgan rivojlanishda nuqsonlari bo'lgan bolalarni rivojlantirish va tarbiyalashning o'tish bosqichlariga alohida e'tibor qaratish lozim.

Inklyuziv ta'limni psixologik qo'llab-quvvatlash

Inklyuziv ta'lim - bu umumta'lim (ommaviy) maktablarda sog'lom o'quvchilar bilan alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarni birga uyg'unlashgan tarzda o'qitish jarayonidir. Inklyuziv ta'lim bolalarga nisbatan har qanday kamsitishni istisno qiluvchi, barchaga teng munosabatda bo'lishni ta'minlovchi, hamda alohida ta'limga ehtiyojli bolalar uchun alohida shart-sharoitlar yaratuvchi ta'limdir. Tajriba shuni ko'rsatadiki (2021-2022 o'quv yilida tajriba-sinov tariqasida tashkil etilgan umumta'lim maktablaridagi) inklyuziv sinflardagi,

ba'zi sog'lom bolalar ota-onalari o'z farzandlarini alohida ta'lim ehtiyojli o'quvchi bilan birga ta'lim olishini istamay boshqa sinf yoki maktabga olib ketdilar. Siz tushunishingiz kerakki, bolalar muvaffaqiyatsizlikka uchramaydi, balki bolalar orasida do'stona muhitni yaratadi, kamsitmaslik, bag'rikenglik va bir-biriga yordam berish xissini uyg'otadi. Inklyuziv yondashuvlar bu bolalarni o'rganish va muvaffaqiyatga erishishda qo'llab-quvvatlaydi, ularga yaxshi hayot uchun imkoniyatlar beradi.

Inklyuziv ta'limni psixologik qo'llab-quvvatlashning maqsadi har xil boshlang'ich imkoniyatlariga ega bo'lgan barcha toifadagi bolalarning sifatli ta'limga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishdir.

Asosiy maqsadlar:

- inklyuziv ta'lim jarayonini samarali psixologik-pedagogik qo'llab- quvvatlash tizimini tashkil etish;
- alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarni moslashtirish, tuzatish va ijtimoiylashtirish jarayonining samaradorligini ta'minlash;
- yosh avlod ongida tolerantlik munosabatlarini tarbiyalash.

Inklyuziv ta'lim muhitiga qo'shilishning dastlabki bosqichida o'qituvchilar bilan treninglar o'tkazish kerak, unda barcha ishtirokchilar o'z qo'rquvlari, umidlari va noto'g'ri tushunchalarini erkin ifoda etishlari mumkin. Trening davomida o'qituvchilarga turli xil xususiyatlarga ega bo'lgan bolalar haqida tushunarli ma'lumotlar, hissiy sohaning tipik xususiyatlari va bunday bolalarning xatti- harakatlari tavsifi haqida tushuntirish. Psixologik nuqtai nazardan, maktab o'qituvchilari alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan xotirjam va etarli darajada muloqot qilishga harakat qilishlari, boshqa bolalar oldida ularning ususiyatlarini ajratib ko'rsatishga harakat qilishlari juda muhim, bu etarli darajada sabr-toqat va noziklikni talab qiladi. Ijtimoiy- psixologik yordamda psixologik- pedagogik testlar olinadi.

Ommaviy maktabda alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarni o'qitishning asosiy vazifalaridan biri bu ijtimoiy moslashuv - turli xil kommunikativ o'yinlar bilan darsdan tashqari dars davomida bolalarni ta'limga jalb qilishdir. Ushbu muammoni hal qilish uchun tuzatish va rivojlantiruvchi sinflarda quyidagi maqsadlar qo'yiladi:

1. O'zingiz va boshqa bolalar o'rtasidagi farq va o'xshashliklarni aniqlash.

2. Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarga o'xshamaydigan bolalar bilan muloqot qilishda qiyinchiliklarni aniqlash.

3. "Tolerantlik" tushunchasi bilan tanishish.

4. Jamiyatimiz ishtirokchilari orasida alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarga nisabatan bag'rikenglik va murosasizlik ko'rinishlarini muhokama qilish.

Ta'lim muassasasining psixologik xizmati oldida yana bir muhim vazifa – alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan farzandi mavjud oilalar va ularga nisbatan bag'rikenglik munosabatini shakllantirishga qaratilgan oddiy bolalar va umumta'lim maktab o'quvchilarining ota-onalari bilan ishlash. Bugungi o'quvchilar bir necha yildan so'ng jamiyatimizni tashkil qiladi, shuning uchun ular yoshligidan nogironligi bo'lgan bolalarni tushunib, ular bilan birga yashashni o'rganishlari muhim.

O'quvchilarlar so'rovi natijalariga ko'ra:

1. ismoniy nuqsonlari, nogironligi bor odamlarga qanday munosabatdasiz?

Javob: yaxshi -85%, javob berish qiyin - 15%;

2. Sinfda alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarning borligi sizni bezovta qilmaydimi?

Javob: yo'q - 65%, ba'zan - 25%, ha - 10%);

Inklyuzivlik sohasidagi ijtimoiy-psixologik ish faoliyatining istiqbolli yo'nalishlari sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatishimiz mumkin:

- inklyuziv ta'limning yangi dasturlarini ishlab chiqishda

faol ishtirok etish;
- ota-onalar klubini tashkil etish;
- ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini jalb qilish.

Inklyuziv ta'lim jarayoni ishtirokchilarining vazifalari va ularni psixologik-pedagogik qo'llab quvvatlash

1. Maktab - Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'limga qamrab oladi va alohida ta'lim olish ehtiyoji bo'lgan bolalar va ularning ota- onalariga korreksion pedagogikyordam olishida va kasbga yo'naltirishda har tomonlama yordam ko'rsatadi.

Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolani o'ziga o'xshagan nogironligi bo'lgan bolalar emas sog'lom bolalar bilan birgalikda ta'lim olishiga zamin yaratadi.

Inklyuziv ta'lim haqida ushunchaga ega bo'lgan ota-onalarni endilikda inklyuziv ta'limda o'qiydigan farzandi bo'lgan oilalarga tashriflarini tashkil etish;

- ota-onalar uchun uyushma yoki o'z-o'ziga yordam guruhini tashkil etishga yordam berish (telegram guruhlari);
- ta'lim jarayonida sinfdagi biror narsani tuzatishga yoki tuzishga yordam berish uchun otalarni taklif qilish;
- maktab komissiyalari yoki yig'ilishlarida ota-onalarning vakilligini ta'minlash;
- ota-onalarga bolalar uchun sevimli mashg'ulotlarni tashkil etishda yordam berish;
- ota-onalarning o'z huquqlarini himoya qilishlarini ta'minlash, qonunchilik va xizmatlar ko'rsatishga ta'sir ko'rsatadigan jamoat tashkilotlarining ishlariga jalb qilish.

2. Maktab direktori: Direktor qo'llab-quvvatlash guruhining a'zosi. U dastur rejalarini tayyorlash, amalga oshirish va baholashni ta'minlaydi. Direktor

o'quvchilarning ehtiyojlarini inobatga olgan holda, yordamchi hodimlarni ta'minlaydi, talabga muvofiq tegishli materiallar va o'quv mashg'ulotlarini

o'tkazadi. Direktor ko'pincha jamoaviy qarorlarning

bajarilishini ta'minlaydigan shaxsdir.

- o'quvchini maktabga qabul qilish;
- jamoaviy qarorlarni qonuniylashtirish;
- o'quvchini maktab faoliyatiga qo'shish;
- ota-onalarning kutib olish;
- ilg'or tajribalarni qo'llab- quvvatlash.

Shuningdek direktorning vazifasiga moslashtirilgan adaptiv dasturni baholash vazifasini bajaradi. Maktab direktori o'quvchining individual moslashtirilgan adaptiv dasturini muvofiqlashtirish va ishlab chiqish uchun asosiy mas'uliyatni o'qituvchiga, odatda maxsus ta'lim o'qituvchisiga yuklaydi. Xodimlar ota-onalar va kerak bo'lganda o'quvchilar va boshqa mutaxassislar yordamida dastur rejalarini ishlab chiqadilar.

3. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi: Butun dunyo hamjamiyati tomonidan qabul qilingan bola huquqlariga doir xalqaro va O'zbekistonda qabul qilingan qonunlar, qarorlarni bilishi va ularga amalga oshirishi zarur.

- ta'lim-tarbiya jarayonini davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'quv reja va dastur asosida maxsus korreksion tuzatish usullaridan foydalanilgan holda olib boradi;
- alohida ehtiyojlari bo'lgan bolalarning psixologik xususiyatlarini bilishi va ta'lim jarayonini shunga mos ravishda olib bora olishi.
- alohida ehtiyojlari bo'lgan bolalarning imkoniyatiga mos ravishda individual yondoshuvni amalga oshirish (dars davomida va darsdan tashqari);
- ta'lim jarayonida hamkorlikda faoliyat olib borishning samaradorlikka erishish va unda ota-onaning o'rnini ko'rsatib berish;
- ta'limda zamonaviy, innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish (kompyuter, monitor, tarqatma materiallar va hokazo);
- inklyuziv ta'lim bo'yicha rivojlangan davlatlar tajribasini doimiy ravishda o'rganib borish, va ularning ish faoliyatida

qo'llash;

- innovatsion bilim, malaka hamda ko'nikmalar bilan qurollanib yurishi (har qanday vaziyatda ham qiziquvchilarning savollariga javob beraoladigan bo'lishi);
- alohida ehtiyojlari bo'lgan bolalarni sinf, maktab jamoasiga moslashishi uchun zarur bo'lgan chora-tadbirlarni amalga oshirib borishi;
- sinf jamoasi orasida do'stona munosabat muhitini o'rnatish va nazorat qilib birish.
- doimiy ravishda o'z ustida ishlash va tajriba almashib borish;
- o'quvchilarning yutuqlarini baholash va yetkazish strategiyasini ishlab chiqishi lozim.

Inklyuziv boshlang'ich sinf o'qituvchisi har doim alohida ta'lim ehtiyojli o'quvchilar va ularning ota-onalari bilan muloqotda bo'lishadi. Ushbu muloqot uchun ba'zi tavsiyalar:

- ota-onalar bilan muloqot o'rnatish jarayonida sof adabiy tilda (samimiy) ochiq va muntazam ravishda muloqot qilish;
- ota-onalarni ta'lim jarayonida qanday qilib ishtirok etishlari mumkinligini tushuntirish ya'ni maktabga har qanday vaqti kelib ta'lim jarayoni kuzatib borishi, farzandini dars jarayonidagi ishtirokini kuzatishi mumkin;
- ota-onalarga bolaning milliy ta'lim dasturida qanday va qay darajada ishtirok etishini o'rgatish (asosan yakka mashg'ulotlarda);
- ota-onalarga tarbiya dasturlari va qo'llab- quvvatlash guruhlariga kirish huquqini berish (sinf va maktab yig'ilishida qatnashishini ta'minlash va ularni jalb qilish);
- ota-onalar bilan aloqa bog'lash ya'ni: telefon yoki yozma aloqa bog'lash, ularni qo'llab-quvvatlash guruhi yig'ilishlari to'g'risida xabardor qilish;
- qo'llab-quvvatlash guruhi yig'ilishlarida muhokama qilinadigan va ishtirok etadigan mavzular bo'yicha ota-onalarga maslahatlar berish;

• yig'ilish oldidan ota-onalarga tanishish uchun uyga maqsad va vazifalarning taxminiy loyihasini yuborish;

• maktab vakili ota-onalarni kutib olishi, ularni konferensiya zaliga olib borishi va mavzu yuzasidan tanishtirishi kerak;

• ota-onalarning jamoa yig'ilishida qulay bo'lishini ta'minlash (zerikarli va ota-onalar tushunmaydigan bo'lmasligi kerak);

4. Maxsus o'qituvchi: Maxsus o'qituvchi butun ta'lim jarayonida korreksion rivojlantiruvchi faoliyat olib boradi. Sinf o'qituvchisi tomonidan o'tilgan mavzuni mustahkamlaydi va yangi mavzu yuzasidan alohida ehtiyojli o'quvchiga individual tarzda tushuntirib beradi.

• o'quvchilarning kuchli tomonlarini va ehtiyojli sohalarini aniqlash uchun diagnostik baholashni ta'minlaydi;

• o'qituvchiga baholash jarayonida materiallar va manbalardan foydalanish borasida maslahatlar beradi;

• milliy dastur asosidagi ta'limni samarali o'zlashtirilishida muhim o'rindagi maxsus yondoshuvlarni amalga oshiradi;

• o'quvchilarning bilimini nazoratini to'g'ri amalga oshirilishi va baholanishi uchun tavsiyalar ishlab chiqadi;

• o'quvchilar bilan individual ta'lim dasturlarini, nuqsonlarni tuzatish (korreksiya) va ular bilan bog'liq bola rivojlanishining o'ziga xosliklarini bartaraf etish ishlarini amalga oshiradi;

• maktabda sog'lom ijtimoiy muhitni shakllantirishda ishtirok etadi;

• ota-onalar va keng jamoatchilikka maslahat beradi.

Tyutor (yordamchi pedagog xodim) - Inklyuziv ta'lim sinflari joriy qilingan maktablarga tyutorlar (yordamchi pedagog xodim) sifatida tegishli malakaga ega oliy ta'lim muassasalarining pedagogika yo'nalishidagi yuqori kurs talabalari pedagogik amaliyot davrida ixtiyoriylik asosida jalb

qilinadi. Talabalarni inklyuziv ta'lim sinflari joriy qilingan maktablarga jalb etish O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan belgilanadi.

Tyutor:

- ta'lim jarayonida sodir bo'ladigan muammolar va qiyinchiliklarni yengishga ko'maklashadi;

- o'quvchilarning o'quv dasturlarini davlat ta'lim standartlari talablariga muvofiq darajada o'zlashtirishiga ko'maklashadi, bolaning o'quv yuklamasi va imkoniyatlarini tahlil qiladi, tegishli o'zgartirishlar kiritish bo'yicha takliflar beradi;

- ota-onalar bilan o'zaro hamkorlikda ta'lim oluvchilarning ta'limiy qiziqishlarini aniqlash, shakllantirish va rivojlantirish yuzasidan hamkorlikni o'rnatadi.

Tyutorlar dastlab o'zi biriktirilgan sinfni kuzatadi. Har bir bola haqida barcha ma'lumotlarni to'liq o'rganadi. Dars davomida o'qituvchiga yordamlashadi, lekin o'zining faoliyatini iloji boricha o'quvchilarga sezdirmasligi kerak bo'ladi. Sinf o'qituvchisi yo'q bo'lgan hollarda, tyutor o'qituvchi o'rnini bosuvchi sifatida ham faoliyat olib borishi mumkin. Shunda tyutorga sinfdagi o'quvchilar uchun javobgarlik yuklatiladi. O'quvchi haqida asosiy ma'lumotlar ham yig'ma jildlar tyutorda ham bo'lishi talab qilinadi.

Maktab psixologi - Maktab psixologi inklyuziv sinfdagi har bir o'quvchining psixologik-pedagogik tavsifi bilan tanishadi;

- ularning ruhiy, jismoniy holatidan kelib chiqqan holda bu bolalar bilan yakka va kichik guruhda psixologik moslashuv treninglarini olib boradi;

- inklyuziv sinf o'quvchilari bilan yalpi psixologik o'yinlar va mashg'ulotlar olib boradi;

- sinfdagi ota-onalar bilan sinf jamoasida do'stona munosabat muhitini shakllantirishda ota-onaning o'z farzandi bilan olib borilishi zarur bo'lgan ishlar yuzasidan maslahatlar

odib boradi;

- o'quvchilarni doimiy ravishda psixolog-pedagogik jihatdan o'rganish va ularni tarbiyalash bo'yicha ota-onalarga maslahatlar berish.

Maktabdagi jismoniy tarbiya o'qituvchisi o'quvchilarning sog'lomlashtirish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish maqsadida quyidagi vazifalarni bajaradi:

- o'quvchilarning jismoniy va psixik xususiyatlaridan kelib chiqib ular bilan yakka va guruhli tarzda mashg'ulotlar olib borish;
- o'quvchilar bilan birgalikda sport tadbirlari va musobaqalarni tashkil etish;
- ota-onalarga o'quvchilarni jismoniy tarbiya va sog'lomlashtirish sohasida maslahatlar berish;
- tibbiyot xodimlari bilan birgalikda har bir o'quvchining jismoniy yuklamasini tartibga solish.

Tibbiyot xodimi - Maktabdagi inklyuziv sinfdagi alohida ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilarni alohida hisobga olgan holda tibbiyot xodimi o'quvchilarga maxsus tibbiy yordam ko'rsatiladi.

Tibbiyot xodimi:

- o'quvchilarning ruhiy asab holatini tekshiradi, zarurat bo'lganda davolash muolajalarini tavsiya etadi;
- korreksion-pedagogik ta'lim jarayonida bolalar sog'ligini nazorat qiladi hamda aqliy va jismoniy yuklamaning me'yorini belgilaydi;
- o'quvchilarning somatik va ruhiy salomatligini saqlash yuzasidan ota-onalarga maslahat beradi va boshqa mutaxassislar bilan xamkorlikda ularni sog'lomlashtirish ishlarini olib boradi.

Oila bilan ishlashning asosiy maqsadi - Barcha oila a'zolarining (jismoniy, ijtimoiy, ma'naviy, axloqiy, intellektual) shaxsiy rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, har tomonlama ijtimoiy va psixologik yordam ko'rsatish, shuningdek bolani va oilani himoya qilish, turli omillarni bolaning shaxsiy rivojlanishiga salbiy ta'siridan himoya qilish.

Oilani ta'lim jarayoniga jalb qilishning afzalliklari:

- ta'lim jarayoniga qamrab olingan kunga qadar o'quvchi hayotining tarixini yetkazib bera oladi;
- o'quvchi haqidagi muhim tibbiy ma'lumotlarni taqdim etishi mumkin;
- vaqt o'tishi bilan dasturlashning uzluksizligini ta'minlashga yordam berishi mumkin;
- bolaning uyga va jamiyatga bo'lgan qiziqish va intilishlari, hayotiy ko'nikmalarga oid muhim ma'lumotlarga ega bo'ladi;
- maqsad va samarali strategiyalarni ishlab chiqishda yordam berishi mumkin;
- uy sharoitida bolaning shaxsiy mahoratini mashq qildirish, ularni mustahkamlash, umumlashtirish va saqlash uchun imkoniyatlarni taqdim etishi mumkin.

Ota-onalar hech qachon farzandining o'zlashtirishi tushib ketishidan cho'chimasligi kerak. Odatiy shaklda maxsus maktab-internatlarda ta'lim olayotgan bolalarning ko'rsatkichlaridan inklyuziv ta'lim sharoitda o'qiyotgan bolalarning natijalari yuqoriroq chiqqanligi isbotlandi.

Nazorat savollari:

1. Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim qay tarzda olib boriladi?
2. Inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflar haqida ma'lmot bering
3. Inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirish uchun yurtimiz ta'lim tizimida olib borilayotgan ishlar
4. Inklyuziv ta'limni psixologik qo'llab-quvvatlash deganda nimani tushunasiz?

15-mavzu. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi va pedagogik faoliyatda yuzagakeladigan kasbiy muammolarni bartaraf etish strategiyalari

Reja:

1. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi.
2. O'quvchilarga ta'lim tarbiya berishda undan foydalanishning didaktik imkoniyatlari.
3. Har bir o'quvchida boshqaruvchilik ko'nikmalarini egallash imkoniyatini paydo qilish

***

Tayanch tushunchalar: hamkorlikda o'qitish, psixologik qulaylik, shaxsiy o'sish, ijtimoiy yetuklik, akademik o'zlashtirish, girish, ttinlash, o'qish

***

Hamkorlikda o'qitish bo'yicha birinchi tajribalar 1898 yilda amalga oshirilgan.

O'sha vaqtdan beri aynan mana shu mavzu yuzlab ilmiy ishlar bajarilga va o'qitishn ing uchta asosiy usuli hamkorlikda, individual va musobaqa tarzidagi usullar bo'yicha bir qator q iyosiy tadqiqotlar bajarilgan.

Hamkorlikda o'qitish g'oyasining o'zi juda oddiy. Sinf bir nechta kichik guruhlarga bo'linadi, har bir guruh ma'lum topshiriqni bajarishga kirishadi va guruh a'zolarining barchasi

ishning o'z qismini tushunib bajarmagun cha ishlaydi. Bunda guruhning barcha a'zolari »Biz hammamiz birga suzib chiqamiz yoki birga g'arq bo'lamiz» degan g'oyaning mazmunini tushunadi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, birga o'qish nafaqat engilroq va qiziqroq bo'ladi, balki sezilarli darajada samaradorliroqdir. Muhimi shuki, bu samaradorlik o'quvchilarning nafaqat akademik muvaffaqiyatlari, intellektual rivojlanishi, balki ularning ma'naviy o'sishiga ham taalluqlidir. Bir- biriga yordam berish, hamkorlikda har qanday muammolarni echish, o'rtoqlari muvaffaqiyat qozonganda ularning quvonchiga sherik bo'lishdek olijanob sifatlarni tarbiyalaydi.

Hamkorlikda o'qitishning asosiy g'oyasi biror narsani birga bajarish emas, balki hamkorlikda o'qish, o'rganishdir!

Hamkorlikdagi ish natijalarini to'rt turkumga to'plash mumkin:

1. Psixologik qulaylik.
2. Shaxsiy o'sish.
3. Ijtimoiy yetuklik.
4. Akademik o'zlashtirish.

Psixologik qulaylikka o'quvchilarga kengroq erkinlik berish orqali, ijobiy o'zaro bog'lanish va o'zaro qo'llab-quvvatlash uchun sharoitlar yaratish, guruh va sinf a'zolari o'rtasida muloqotlar va o'zaro munosabatlarning har xil turlarini yaratish hisobiga eri shiladi.

Shaxsiy o'sish qiyinchiliklarni engib o'tishni bilish, o'z emotsiyalarini boshqarish qobiliyati, o'zini- o'zi baholash ko'nikmalarini rivojlantirish, jamoada ishlashni bilish kabi muhim ko'rsatkichlarda namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy yetuklik shaxslararo munosabatlar madaniyati (quloq solish va eshitish qobiliyati, murosaga kelish, chidamlilik, o'zaro hurmatda bo'lish, gender muloqotlarida bo'lish ko'nikmalari va b.) hamda hamkorlikda mehnat qilish bo'yicha bilim va ko'n ikmalarda ifodasini topadi.

Akademiko'zlashtirish o'quvchilar passiv tinglovchilardan faol arboblarga aylanishi hisobiga ta'minlanadi. Undan tashqari, o'qituvchi kichik guruhlar

imkoniyatlariga tayanib quyidagi topshiriqlarni qo'llashi mumkin: tadqiqotlar o'tkazish, lo yihalar bajarish, konseptual plakat va sxemalarni yaratish, hamkorlikdagi insholarni yozish, ma'ruzalarni tayyorlash va b. Odatda bunday topshiriqlar fan mazmuni doirasidan tashqari ga chiqadi va fanlararo bog'lanishlarga ega.

Hamkorlikda o'qitishning samaradorligi

1. Axborotga tanqidiy yondashuv va o'z nuqtai nazarini dalillar bilan asoslashni shakllantiradi. Bu ko'nikmalar hamkorlikda o'qiyotganlarda bir-biri bilan raqobat qilayotgan yoki individual o'qiyotganlarga qaraganda yaxshiroq rivojlang an. Xattoki, hamkorlikda bajarilgan yozma ishlar chuqur mazmunga egaligi bilan farqlanadi.

Ijodiy qobiliyatlar rivojlanadi. Hamkorlikda o'qiyotgan guruh a'zolari betakror g'oyalarni ko'proq ishlab chiqadi, turli maqsadlarga erishishda va dars jarayonida paydo bo'lgan har xil o'quv masalalarining yangi echimlarini topishda ijodiy iobiliyatlar rivojlanib boradi.

2. Bir vaziyatda olingan bilimlar boshqa vaziyatda qo'llanishiga ko'maklashadi. Bugun guruh bajargan topshiriqni ertaga har o'quvchi mustaqil bajara olishi mumkin.

3. Dars mazmuniga ijobiy yondashuv shakllantiriladi. Hamkorlik bilimlarga ko'proq q iziqish uchun ham sharoitlar yaratadi. Mashg'ulot o'tkazish usuli qanchalik takomillashgan bo'lsa, o'quvchilarning o'rganilayotgan masalaga qiziqishi va faolligi ortib boradi.

4. Topshiriqlarni bajarish uchun ko'proq vaqt sarflanadi. Hamkorlikda o'qiyotganlar topshiriqlarni bajarish uchun raqobat qilayotgan yoki individual o'qiyotganlarga nisbatan ko' proq vaqt sarflaydilar.

Hamkorlikda o'qitishning asosiy afzalliklari

Hamkorlikda o'qiyotgan o'quvchilar bir-birining muvaffaqiyatiga ko'maklashadi.

1. Yordam va madad beradilar va yordamni qabul qiladilar, gap faqat o'qish to'g'risida emas, balki insoniy, do'stona munosabat to'g'risida ketayapti.

2. Axborot va »moddiy resurslar», ya'ni topshiriqni bajarish uchun zarur bo'lgan barcha narsalar bilan almashadi.

3. O'rtoqlari bergan ma'lumotlarni o'zlashtiradi va qo'llashga harakat qiladilar. Og'zaki tushuntirishlar, axborotni o'ylab ko'rish va umumlashtirish, o'z bilimlari va ko'nikmalarini boshqalarga uzatish bularning hammasi bilimlarni tartibga solish, ularni yaxshiroq anglab o'zla shtirish va umumiy maqsadga erishishga shaxsiy ulushini qo'shishga olib keladi.

4. Bolalar bir- biri bilan muzokara olib borishga va dalillar keltirishga o'rganadi. Intellektual maydondagi zidliklar qiziquvchanlikni rivojlantiradi, bilimlarni o'zlashtirish va ularni qayta anglash, o'rganilayotgan muammoga chuqurroq kirishishga undaydi hamda boshqa ko'p foydali sifat va ko'nikmalarni shakllantiradi.

5. O'quvchilar yaxshiroq o'qishga intilishda bir- biriga ko'maklashadi. O'qishda o'rtoqlariga yordam berayotgan o'quvchi o'zi ham sezilarli darajada yaxshiroq o'qiydi.

6. Bir-biriga ta'sir etadi. Hamkorlikda o'qiyotgan guruh a'zolari o'rtoqlariga ta'sir etishning har qanday imkoniyatidan foydalanadilar va o'z navbatida ta'sir uchun ochiqlar.

7. Aniq ifodolangan motivatsiyaga ega. Bilimlarni o'zlashtirishga intilish umumiy maqsadga erishishga qaratilgan hamkorlikdagi mehnat tufayli kuchayadi.

8. O'zaro ishonch sharoitini yaratadi va talablarni yuqori darajada ushlab turadi. Guruh a'z olari o'z o'rtoqlariga ishonadilar va o'zlarini o'rtoqlari ishonchini qozonadigan tarzda tutad ilar, bu katta muvaffaqiyatlarga erishish uchun sharoitlar yaratadi. O'zaro ishonch –har birining yuqori yutuqlari uchun yaxshi asos.

Juftliklarda ishlash usullari

Turli o'quv fanlar bo'yicha jamoaviy mashg'ulotlar tashkil qilishning ko'p variantlari ishlab chiqilgan va sinovdan o'tkazilgan. "Nimadan boshlash kerak?" va "Guruhda ishlash ko'nikmalariga ega bo'lmagan o'quvchilar bilan sinfda guruhiy ishni qanday tashkil etish kerak?" degan savollarga quyidagicha javob berish mumkin: "Ishni juftliklarda ishlashdan boshlab ko'ring"

Bu partalarning odatdagi joylanishiga o'zgartirishlar kiritishni talab etmaydi lekin, bolalarni guruhiy ishga o'tishga tayyorlaydi. Bolalar juftliklarda bir-biriga o'rgatadigan, yangi materialni o'rganadigan, mashq qiladigan, tekshiradigan turli usullar mavjud. Juftlikdagi ish qisman ma'lum algoritm hisobiga ta'minlanadi. U birinchi navb atda samarali o'zaro o'qitish, tekshirish, muhokama qilish, tushunishni to'g'ri ta'minlash uc hun beriladi. Lekin, hamma boladan birdaniga yaxshi ish kutishni iloji yo'q. Ishni tashkil etish juftliklarda ishlashning og'zaki meyorlari va qoidalarini asta sekin o'zlashtirishi hisobiga ta'minlanadi.

Juftlikda ishlash uchun o'quvchilarga qanday ko'nikmalar zarur?

Juftlikda sifatli ishlash uchun o'quvchi quyidagi ko'nikmalarni o'zlashtirishi kerak:

- o'qish – o'zi uchun emas, balki ovozini chiqarib, sherigi uchun, past ovoz bilan o'zi tushunadigan va sherigi hammasini tushunadigan qilib o'qish;
- gapirish –past ovoz bilan, dona-dona qilib;
- tinglash – o'qiyotgan yoki gapirayotgan sherikni nutqini to'g'rilash va fikrini aniqifodalashga yordam berib, diqqat bilan tinglash;
- savollar berish – bu oson ish emas: savollar muhokama qilinayotgan mavzu mohiyati bo'yicha bo'lishi kerak; savol sherik gapirayotgan narsani chuqurroq

anglashiga yordam berishi kerak; savol mavzudan ortiqcha

chetlashib ketishi kerakemas;

- yozish –o'z sheriklari uchun ularning daftarlariga yozish kerak bo'ladi, bu esa katta mas'uliyat: yozilgan narsani har qanday odam osongina tushunadigan qilib yozishkerak;
- juftlik va guruh ishi jarayonini boshqarish;
- hisob-kitob va nazoratni yuritish.

Hamkorlikdagi o'qish tamoyillari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

guruhga bitta topshiriq;

-bitta rag'bat: guruh barcha ishtirokchilari hamkorlikdagi ish bahosi (umumiy natijaga erishish uchun barcha guruh a'zolari sarflaydigan kuchi baholanadi) va akademik natijalari yig'indisidan tashkil topgan bitta baho oladi, ya'ni guruh (koman

da) muvaffaqiyati har bir ishtirokchining hissasiga bog'liq;

- har birining o'z muvaffaqiyati va guruhning boshqa a'zolari muvaffaqiyati uchunshaxsiy mas'uliyati;

- hamkorlikdagi faoliyat: guruhiy muzokara, hamkorlik, o'zaro yordam berish kabi o'zaroharakat usullari asosida tashkil topadi;

- muvaffaqiyatga erishishda teng imkoniyatlar: har bir o'qiyotgan o'z shaxsiy yutug'ini takomillashtirish, shaxsiy imkoniyatlari, qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda o'qishga berilgan bo'lishi zarur, chunki u boshqalar bilan teng baholanadi.

Guruhlarda hamkorlikda o'qishni tashkillashtirishda o'qituvchi quyidagilarga e'tiborqaratadi:

1. Ta'limiy maqsadni belgilaydi va natijalarni rejalashtiradi.
2. Mavjud o'quv rejasiga muvofiq vaqt bo'lagini, belgilangan maqsad va ko'zlanayotgan natijalarga erishishni amalga oshirish uchun muhim bo'lgan vaqt bilano'zaro bog'lash. Guruhli ishni o'tkazish mumkinligi to'g'risida xulosa chiqaradi.
3. Guruhli ishga zarur bo'lgan va o'quv rejasida ajratilgan vaqt bo'lagini o'zaronisbatini belgilaydi.

4. Eng yaxshi model:

1) o'quv topshirig'ini barcha o'quv guruhlariga tushuntirish, 2) kichik guruhlarda, avval alohida, so'ngra birgalikda ishni tashkillashtirish, 3) guruh ishi natijalarini taqdimoti va uni jamoaviy yakunlash.

5. O'quv mashg'ulotining modelini tanlash Auditoriya shunday bo'lishi kerakki, bunda bir-birlariga halaqit bermasdan, bir necha guruh ishlashi zarur. Stollar va o'rindiqlari polga mahkamlangan auditoriya to'g'rikelmaydi.

6. Gurhlar ish joyini tanlash. Ta'limiy maqsadga mos keluvchi bir xil yoki turli topshiriqlarni tanlaydi. Uni ta'lim oluvchilarning qobiliyatlari, Bilimi, ko'nikmasi va malakasi darajasi va xususiyatlaridan kelib chiqib ifodalaydi. Bu esa barcha guruh a'zolarini topshiriqni bajarishda birgalikda ishtirok etishini ta'minlash imkonini beradi.

6. Topshiriqni tanlash va uni ifodalash.

Bir turdagi guruhli ish – o'quv guruhlari uchun bir turdagi topshiriq bajarishni nazarda tutadi.

Tabaqalashgan (turli topshiriqli) guruhli - ish guruhlarda topshiriqlarni bajarishni nazarda tutadi.

O'qituvchi o'quv materialini va yo'riqnomani tayyorlaydi. Bular yozma yo'riqnoma va topshiriqlarni tayyorlashda o'quvchilar tushunishi va shu asosda o'quv topshirig'ini bajarishiga qaratilgan, samarali ishni tashkil etilishiga bog'liq bo'ladigan jarayonlarni o'z ichiga qamrab oladi.

Yo'riqnomaga talab:

Yo'riqnoma quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi kerak:

- topshiriqni aniq ifodalanishi;

-kutilayotgan natijalarga aniq yo'naltirish;

- tajribada sinalgan bo'lishi kerak. Bu yo'riqnomani avval o'zi yoki hamkasbidanbajarishini iltimos qilishi kerak;

- guruh topshiriqni mustaqil bajarishi uchun to'la tavsiyanomani olishi kerak undan;

-har bir ta'lim oluvchi uchun tushunarli qilib yozilishi kerak.

Ta'lim oluvchilarni hamkorlikda ishlashga tayyorlash – O'quv guruhida xayrihona munosabat muhitini yaratadi. Faqat shunda hamkorlikda ishni samarali va ijodiy bajaradilar. Ta'lim oluvchilar topshiriqlarni guruhlarda bajarish qoidasini bilishlari va yo'naltirilgan bo'lishlari kerak.

Guruhda ishlash qoidalari:

Har kim o'z o'rtoqlari nutqini xushmuomalalik bilan tinglashi zarur;

Har kim faol, birgalikda ishlashi, berilgan topshiriqqa mas'uliyatli yondashishizarur;

Har kim yordamga muhtoj bo'lganda uni so'rashi zarur;

Har kim aniq tushunishi kerak;

Boshqalarga yordam berib, o'zimiz tushunamiz!

Biz bitta kemadamiz: yoki birga suzib chiqamiz, yoki birga cho'kib etamiz!

1-bosqich

Guruh ish joyini tayyorlash – stol va o'rindiqlar shunday joylashtiriladiki, bunda ta'lim beruvchi auditoriyada erkin harakatlana olsin, har bir guruh a'zosi bir joyda bo'lishlari va bir-birlarini ko'rishlari va eshitishlari kerak, zarur o'quv qo'llanmalar barchagaetarli bo'lishi kerak.

2-Asosiy bosqich

Ta'lim oluvchilarni guruhlarga taqsimlash – tanlangan kichik guruhlarga birlashtirish yo'li asosida ta'lim oluvchilarni guruhlarga bo'ladi.

O'quv topshiriqlarini tarqatish – muammoli vaziyatni taklif qiladi, ta'lim oluvchilar bilan birgalikda uni echish yo'li va tartibini muhokama qiladi, guruhlarda hamkorlikdagi faolyatni taqdim etish shaklini ma'lum qiladi. Har biri va butun guruhning natijalarini baholash mezonlarini tushuntiradi.

O'quv topshiriqlarni bajarish bo'yicha yo'riqnomani tushuntirish. Guruhlar bo'yicha ishni bajarish uchun zarur

materiallarni tarqatadi. Topshiriqni baajarishda qanday qo'shimcha materiallaridan foydalanish mumkinligini tushuntiradi. Guruhlarda ishlash qoidalarini eslatadi.

Doskada guruhli ishni bajarish bo'yicha yo'riqnomani yozadi yoki tarqatadi.

Ta'lim oluvchilar bilan qaytar aloqani amalga oshirish Ta'lim oluvchilar bilan guruhli ishni bajarish bo'yicha yo'riqnomani muhokama qiladi;hammalari uni tushunganlariga ishonch hosil qiladi.

Guruhlarda o'quv topshiriqni bajarish jarayonini tashkil etish – o'quv topshiriqni bajarish bo'yicha ishni boshlanishi haqida e'lon qiladi; Guruh ishini nazorat qiladi. Guruh ishini rejalashtirish, vazifalarni guruh a'zolari o'rtasida taqsimlash,vazifani bajarish bo'yicha yakka tartibda ishlash, yakka tartibda topilgan echimlarni muhokama qilish, guruh uchun umumiy echimni ifodalash, guruh ishi natijalarini taqdimotini tayyorlash, aniq topshiriqni baajarish uchun zarur bo'lgan alohida bo'lib ishlashga, ko'nikmalarni shakllantirishga e'tiborini qaratadi. Ish borishini sharhlaydi, yutuqlarni baholaydi, ayrim aniq, va samimiy tanbeh qiladi.

Guruh ishi taqdimotini tashkil qilish – bajarilgan ish natijalari to'g'risida ma'lumot berish uchun guruh vakillarini tayinlaydi. Baholash mezoni va ko'rsatkichlarini eslatadi.

3-Nazorat –yakuniy bosqichi

Yakun yasash – natijalar tekshiruvini o'tkazadi:

-guruhning har bir ishtirokchisi bilan gaplashadi;

Guruh ishini tahlil qiladi, topshiriq bajarilishining yakunini qiladi, erishilgan maqsad to'g'risida xulosalar chiqaradi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi jarayonida o'quvchi quyidagilarga ega bo'ladi:

1. Axborotni tanqidiy yondashuv va o'z nuqtai nazarini dalillar bilan asoslashnishakllantiradi.
2. Ijodiy qobiliyatlar rivojlanadi.
3. Bir vaziyatda olingan bilimlar boshqa vaziyatda

qo'llanigshiga ko'maklashadi.

4. Dars mazmuniga ijobiy yondashuv shakllantiriladi.

Topshiriqlarni bajarish uchun ko'proq sarfini talab etadi. Kichik guruhlarda ishlashning afzalligi

1. O'qitish mazmunini yaxshi o'zlashtirishga olib keladi;
2. O'z vaqtida har tomonlama aloqalarni ta'minlashydi;
3. Muloqotga kirishish ko'nikmasini takomillashtirishga olib keladi;
4. Vaqtni tejash imkoniyati mavjud;

Barcha ta'lim oluvchilarni faol ishlashga jalb etadi;

O'z-o'zini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud. Guruhda sog'lom sharoit yaratishga yordam beradigan yo'llar Quyidagicha bajarish lozim:

1. Murosa izlash, a'zo va ular fikrlari o'rtasidagi zidliklarni yumshatish;
2. Bildirilgan turli fikrlardan umumiylikni topish, xulosa chiqarish;
3. Guruh yutuqlariga e'tibor berish;
4. Fikr bildirish uchun xavsiz muhit yaratish (qatnashchi fikri ustidan hech kimkulmasligiga ishonch hosil qilishi kerak;)

Guruhning umumiy manfaati uchun o'z fikridan qaytish;

Keskinlikni hazil bilan yumshatish;

Har bir vaziyatda o'zini madaniyatli tutish.

Guruhning miqdori va tarkibi aniq masala va sharoitlarga bog'liq. Guruh tarkibini aniqlashda rioya qilinadigan asosiy qoida - »qanchalik kamroq bo'lsa, shunchalik yaxshiroq». Agar hamkorlikdaikki kishi ishlasa, ular bir-biri bilan munosabatda bo'ladi, agar uch kishi bo'lsa – oltita kontakt hosil bo'ladi, agar to'rt kishi bo'lsa –ularning soni o'n ikkita bo'ladi.

Quyidagi esingizda bo'lsin!

1. Guruh qanchalik katta bo'lsa, shunchalik shaxsiy xususiyatlarning kattaroq majmui – qobiliyatlar, bilimlar, ko'nikmalar, odatlar bilan ish tutishingiz kerak bo'ladi.
2. Guruh qanchalik katta bo'lsa, shunchalik uning

tarkibiga kirgan bolalarga yuqoriroq talab qo'yiladi: ular o'zlarini shunday tutishi kerakki, har biri o'z fikrini ifoda qilish, o'z harakatlarini o'rtoqlari harakatlari bilan muvofiqlashtirish, rozilikka erishish, o'rganilayotgan materialni tushuntirish, hech kim yalqovlik qilmaganini kuzatish, ishchi atmosferani saqlash imkoniga ega bo'lishi kerak.

3. Guruh miqdorini aniqlashda bajarilishi zarur bo'lgan topshiriqning xususiyati va bunga zarur bo'lgan material (resurs) lar bilan ta'minlanganlik katta rol o'ynaydi.

4. Topshiriqni bajarish uchun qanchalik kam vaqt ajratilgan bo'lsa, guruh shunchalik kichikroq bo'lishi kerak. Agar qisqa muddatli dars o'tkazilishi kerak bo'lsa, kichik guruhlar bo'lgani ma'qul, chunki ularni tashkil qilish osonroq, ular tezroq ishlaydi.

O'quvchilarni guruhlar bo'yicha taqsimlash Guruhlarni shakllantirishning ko'p jihatlari mavjud:

1. O'quvchilarni tasodif bilan taqsimlash, lekin o'qituvchi o'z xohishiga muvofiq harakat qilishi mumkin. Masalan, o'ttizta o'quvchilarni har birida uch kishidan o'nta guruhga bo'lish mumkin. Bu erda o'yinli tomonlardan foydalanish mumkin, masalan, tug'ilgan oylari bo'yicha, bo'ylari bo'yicha, ranglar bo'yicha, meva yoki geometrik figuralar nomlari bo'yicha va h.k.

2. Dastlabki testlash yordamida. Natijalari bo'yicha o'qituvchi o'quvchilarni uch toifaga ajratishi mumkin - a'lochilar, o'rtachalar va o'zlashtirmovchilar. Keyin u triadalarni shakllantiradi, ularning tarkibiga har bir toifadan bittadan »vakil» kiradi.

3. Bolalar kim bilan ishlashini o'zlari tanlaydilar, lekin bu yo'l eng noma'qul hisoblanadi, shuning uchun eng kam tavsiya etiladi. Bolalarning o'z tanlovi bo'yicha tuzilgan guruhlar odatda bir tekis: a'lochilar a'lochilar bilan ishlashni xohlaydi, o'g'il bolalar - o'g'il bolalar bilan va h.k. Ko'pincha o'quvchilar o'zlari yaratgan guruhlarda pedagog shakllantirgan guruhlarga qaraganda kamroq muvaffaqiyatlarga erishadilar.

Hamkorlikda o'qitishning samaradorligi

1. Axborotga tanqidiy yondashuv va o'z nuqtai nazarini dalillar bilan asoslashnishakllantiradi.

2. Ijodiy qobiliyatlar rivojlanadi.

3. Bir vaziyatda olingan bilimlar boshqa vaziyatda qo'llanishiga ko'maklashadi.

4. Dars mazmuniga ijobiy yondashuv shakllantiriladi.

5. Topshiriqlarni bajarish uchun ko'proq vaqt sarfini talab etadi.Kichik guruhlarda ishlashning afzalligi

- O'qitish mazmunini yaxshi o'zlashtirishga olib keladi.
- O'z vaqtida har tomonlama aloqalarni ta'minlaydi.
- Muloqotga kirishish ko'nikmasini takomillashishiga olib keladi.
- Vaqtni tejash imkoniyati mavjud.
- Barcha ta'lim oluvchilarni faol ishlashga jalb etadi.
- O'z-o'zini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud.

Kichik guruhlarda ishlashning kamchiliklari

- Ba'zan kichik guruhlarda kuchsiz ta'lim oluvchilar bo'lganligi sababli kuchli ta'lim oluvchilar ham past baho olishi mumkin.
- Barcha ta'lim oluvchilarni nazorat qilish imkoniyati past darajada bo'ladi.
- Guruhlararo o'zaro salbiy raqobat paydo bo'lib qolishi mumkin.
- Guruh ichida o'zaro nizo kelib chiqishi mumkin.

Guruhda sog'lom sharoit yaratishga yordam beradigan yo'llar. Quyidagicha bajarishlozim:

- Murosa izlash, a'zo va ular fikrlari o'rtasidagi zidliklarni yumshatish;
- Bildirilgan turli fikrlardan umumiylikni topish, hulosa chiqarish;
- Guruh yutuqlariga e'tibor berish;
- Fikr bildirish uchun xavfsiz muhit yaratish (qatnashchi fikri ustidan hech kimkulmasligiga ishonch hosil qilishi kerak);
- Guruhning umumiy manfaati uchun o'z fikridan qaytish;

- Keskinlikni hazil bilan yumshatish;
- Har bir vaziyatda o'zini madaniyatli tutish.

Shaxsning barcha faoliyat turlari kabi ta'lim jarayoni ham o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, u kishining bilish jarayonlari, individual xususiyatlariga alohida talablar qo'yadi. Mazkur faoliyatga munosabat shaklida u yoki bu psixik holatlar paydo bo'ladi. Ta'lim jarayonida vujudga keladigan psixik holatlar doimo bir xil sifat va davomiylikka ega bo'lavermaydi. Ijobiy kechinmalar faoliyat samaradorligiga ta'sir etib, uni yanada qiziqarli bo'lishini ta'minlasa, salbiyhis-tuyg'ular ta'lim jarayoni samaradorligini tushurib yuborishi ham mumkin. Bir necha ob'ektiv, sub'ektiv sabablar ta'lim jarayonida o'ziga xos stresslarni vujudga kelishiga turtki bo'lib hisoblanadi. Ta'lim faoliyatida paydo bo'ladigan stresslarni bartaraf etish ta'lim samaradorligini oshirishning eng muhim omillaridan biridir.

Psixolog Morin Parsin ham quyidagicha maslahat beradi:

- O'z g'azabingizni tadqiq qiling. O'zingizni tuta olmay janjal chiqargan voqeani, albatta yozib qo'ying. Unga g'azabingiz qo'zg'ashiga sababchi bo'lgan gap, so'zlarni ham kiritishingiz kerak. Yana daftarda mojaroda kim ishtirok etgani, o'zingizni qanday his qilganingiz, g'azab olovi qanchagacha o'chmay turgani yozilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bir-ikki xafta o'tib, buning o'ziga xos qonuniyatga ega ekanini anglab olasiz. To'g'ri janjal insonga ko'p narsani o'zgartirishga yordam berishi ham mumkin, ammo uni boshqacha yo'l bilan ya'ni go'zallik va sog'liqqa putur yetkazmay o'zgartirsa ham bo'ladi. Agar vaziyat o'zgarmasa unga boshqacha yondoshishga harakat qilish kerak.

Haddan ortiq serjahl insonlarda sekin-asta depressiya, gipertoniya, yurak xastaliklari, artritlar, aroq yoki dori-darmonlarga bog'lanib qolish va xatto semirib ketish xollarini hamkuzatish mumkin. Bundan tashqari jahlini haddan ziyod namoyish etadigan ayollarda sut bezi raki ham kuzatilishi mumkin.

Hissiyotlarini mutlaqo yuzaga chiqarmaydigan, ichiga yutadigan insonlarda ham stress holatlarini kuzatish mumkin.

Buning ustiga ular semirib ketishlari yoki aksincha, ozib ketishlari, infarktga ham chalinishlari mumkin. Umuman bunday stress holatlariga psixologlar sovuqqon munosabatda bo'lish kerakligini ta'kidlab, sovish jaxldan tushish uchun jismoniy mashqlarga zo'r berish kerak ekanligini ta'kidlab o'tadilar, chunki jaxl chiqqanda jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish ikki kara foydali ekan. Shunda inson tetiklashadi.

Inson kuchli stressli holatlarni, zo'riqtiruvchi vaziyatlarni muvaffaqiyatli bartaraf etsa kelajakda yana shunday vaziyatlarni yengishga o'zida ishonch va kuch paydo bo'ladi. Stress holatlarini yengishga katta jur'at bilan kirishish va hal etish xuddi shunday vaziyatlarda o'z emotsiyalarini boshqarishni egallaganligiga bog'liq bo'ladi.

Stressni yengillashtiruvchi usullardan biri bu yumor hissini faollashtirishdir. Chunki yengil yumor, kulgu, tabassum bezovtalik va sezgirlikning pasayishiga olib keladi. Yumor orqali inson voqeaning axamiyati haqidagi bahoni o'zgartiradi.

Inson vaziyatni o'ta og'ir deb idrok etayotganida bosh miya po'stlog'ida dominant qo'zg'alish o'chog'i yuzaga keladi. Bu vaziyatda insonga yordam berish uchun unga yangi dominant qo'zg'olish o'chog'ini yuzaga keltirishi lozim. Bosh miya po'stlog'idagi yangi qo'zg'olish o'chog'i qo'zg'olishning kuchini kamaytiradi va ba'zan umuman bosib ketadi. Masalan, ichki nizolar tufayli kuchli ruhiy tenglik holatida turgan inson o'ziga yaqin odamiga havf tahdid solganda o'z kechinmalarini unutib, butunlay sog'ayib ketadi. Albatta, bunday vaziyatlarda jamoatchilik ishlariga chalg'ish, ilmiy yoki badiiy ish bilan shug'ullanish shaxsiy kechinmalarning yengillashishiga yordam beradi.

Ko'proq o'z ichki dunyosi bilan band bo'luvchi insonlar uchun musiqa stressni bartaraf etuvchi, yengillashtiruvchi vosita bo'lib xizmat qiladi.

O'quv jamoalaridagi sog'lom, ishchan vaziyatning shaxs emotsional xushvaqtligiga (komfortlik) ta'sirini alohida qayd etish lozim. Inson umuman o'ziga ijobiy munosabatda bo'lgani

holda muayyan xatti-harakatidagi qusurlarni, kamchiliklarni, noetuklik holatlari haqidagi tasavvurni anglay olsa, bu holda u kamchiliklarni bartaraf etish yo'liga o'tadi. U o'z hulqini o'zgartirishga erishishi mumkin, bu yangi hulq esa uning ongiga ta'sir etishi tufayli butun hayotini o'zgartirib yuborishi mumkin. Chunki psixologik himoya mexanizmlarining

harakati insonning qadriyatlar tizimiga ziyon yetkazadigan va shuningdek, uning ichki dunyosiga jarohat yetkazuvchi barcha narsalarni ong sohasidan siqib chiqarish evaziga ichki muvozanatni saqlab qolishga yo'naltirilgandir. Ba'zida psixologik himoya mexanizmlari insonning o'z-o'zini rivojlantirishga to'siq bo'lib qolishi ham mumkin.

Hozirgi jamiyatimizda pedagogning mustaqil ravishda bilimlarni egallab, o'z malakasini oshirib borishi - bir tomondan o'qituvchilik faoliyatining borgan sari naqadar muvaffaqiyatli borayotganligini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan muhim vazifa ekanligidan dalolat beradi - chunki, bu kechiktirib bo'lmas jarayon shaxsni intellektual qashshoqlikdan qutqarib qoladi.

Psixologik nuqtai-nazardan pedagog doimiy ravishda o'z bilimlarini oshirish bilan shug'ullanishi zarurdir. Chunki o'qituvchilik mehnatining asosiy xususiyati ham shudir. Pedagog har doim odamlar orasida bo'larkan, u birinchidan, odamlarni ko'pdan beri qiziqtirib kelayotgan haqiqatni o'z qarashlari bo'yicha to'g'ri tushuntirib berishi lozim. Albatta, pedagogdagi bu tariqa qarashlar ko'p yillar davomidagi mehnat va hayot faoliyati jarayonida shakllanadi; ikkinchidan, pedagogning o'zi axborotlar olish uchun o'quvchilarga nisbatan cheklangan vaqt imkoniyatiga ega; uchinchidan, u o'ta tor doiradagi tengqurlari bilangina muloqotda bo'lish imkoniyatiga ega bo'lib, ko'pincha o'z kasbiga xos qiziqishlar bilangina cheklanib qoladi.

Pedagogga jamiyat tomonidan qo'yiladigan talablar, turli xilda ijtimoiy kutishlar, pedagogning individualligi, uning shu tariqa talablarga javob berishga sub'ektiv tayyorligi muayyan o'qituvchining pedagogik faoliyatga naqadar tayyorligidan dalolat beradi.

Pedagog o'z kasbidan va hayotdan doimo mamnunligini dildan his qilib, bu holatni atrofdagilarga, jumladan o'quvchilariga, hamkasblariga, oila-a'zolariga ham namoyon qilishi zarur. Doimo optimistik kayfiyatda bo'lish, birinchidan ta'lim samaradorligiga ta'sir qiladi; ikkinchidan o'quvchilarda pedagogik kasbga qiziqish uyg'onadi. O'quvchilarda kelajakda men o'qituvchi bo'lsam, ustozimga o'xshab, hayotda o'z o'rnimni topaman, hayotdan mamnun yashayman, degan fikr shakllanadi. Shunday qilib, o'z hayotidan va kasbidan mamnun o'qituvchilarimizda stressga barqarorlik shakllanadi, kuchli zo'riqish holati bo'lmish stress ularni chetlab o'tadi.

Shuni aytish joizki, pedagogik faoliyat eng murakkab sohalardan biri hisoblanadi. Chunki bunda har bir bolaning individual xususiyatlarini hisobga olib, ularga moslashib, pedagogik talablardan chetga chiqmay faoliyat yuritish har bir pedagogda stresslarni kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Stresslarga barqarorlikni esa pedagogning o'zi egallagan bilim, ko'nikma va malakasi orqali nazorat qiladi. Pedagogning barcha ijobiy, umuminsoniy ahloq me'yorlariga mos keluvchi hislatlari katta ahamiyatga ega. Agar biz quyidagi hislatlarini olib qaraydigan bo'lsak, bularning barchasi ham o'ta muhim omillardir. Jumladan, o'qituvchining tashqi qiyofasi uning obro'si shakllanishiga ta'sir etadi. O'kituvchining ozodaligi, ixchamligi, uning pokizaligi, saranjom - sarishtaligi, o'zini chiroyli tutishi qaddi-qomati va yurish-turishlari o'quvchilarda juda yaxshi taassurot qoldiradi.

Nazorat uchun savollari:

1. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi haqida ma'lmot bering
2. O'quvchilarga ta'lim tarbiya berishda undan foydalanishning didaktik imkoniyatlarini ayting
3. Har bir o'quvchida boshqaruvchilik ko'nikmalarini egallash imkoniyatini paydo qilish uchun qilinadigan ishlar nimalardan iborat?

Glossariy

Darslik-o'quv fani, uning biror yo'nalishi yoki tarkibiy qismining davlat standartlariga va o'quv dasturiga mos holda, yuqori ta'lim muassasalari tomonidan tasdiqlangan sistemali ravishda bayon etilgan o'quv maxsulotidir.

Diplom ishlari -eng yaxshi o'zlashtiruvchi va ilmiy izlanish ishlari olib borishga qobiliyati bo'lgan talabalarga beriladi.

Elektron o'quv qo'llanma - darslikni qisman yoki to'la o'rnini bosuvchi, yoki to'ldiruvchi va qo'llanma sifatida ta'lim muassasalari tomonidan tasdiqlangan elektron maxsulot hisoblanadi.

Elektrondarslik-yangiaxborot-kompyutertexnologiyalari asosida va yuqori ilmiy va metodologik darajada yaratilgan Davlat ta'lim standarti mutaxassisliklari va yo'nalishlarining mayyan o'quv fani (yoki bir necha fan)ga to'la mos kelgan asosiy o'quv elektron maxsuloti hisoblanadi.

Joriy nazorat-o'tilayotgan amaliy seminar yoki laboratoriya darslarini talaba tomonidan qanday o'zlashtirayotganini muntazam ravishda dars jarayonida baholash.

Kurs ishlari-oliy o'quv yurtlarida oxirgi kurs talabalarini ilmiy tadqiqod ishlarini olib borish malakasini xosil qilishga, ma'lum ilmiy harakterga ega bo'lgan, qisqacha ma'ruza yozishga o'rganishga chorlaydi.

Malakaviy ishlar-O'qitish jarayonida keng qo'llaniladigan dars formalaridan biri bo'lib, ayniqsa, tabiiy fanlarni to'laroq o'zlashtirishda juda qulaylik tugdiriladi.

Ma'ruza -auditoriyada olib boriladigan dars formasidir.

Mutaxassis – bu moxir tashkilotchi, pedagogik jarayonni mahorat bilan tashkil eta oladigan o'qituvchi hisoblanadi. U bolalar bilan ishlaydi, sinfni boshqaradi, jamoa va shaxsiy tajribasiga tayanib ish ko'radi, o'z haamkasblarining maslahatiga quloq soladi, qo'lga kiritilgan yutuqlarga tanqidiy yondoshadi. Bunday o'qituvchi yuqori madaniyatli, keng mulohazali, aktyorlik mahoratiga ega, o'z ishining ustasi va ziyolisidir.

Oraliq nazorat-fan bo'yicha o'tilgan nazariy darslarning bir necha mavzularini o'z ichiga olgan bo'lim yoki qism bo'yicha talabaning o'zlashtirish ko'rsatgichini aniqlashga qaratilgan.

O'quv qo'llanma - darslikni qisman yoki to'la o'rnini bosuvchi, yoki to'ldiruvchi va qo'llanma sifatida ta'lim muqssasalari tomonidan tasdiqlangan mahsulotdir.

Tarbiyachi – ustoz bo'lishi uchun, boshqalarning aql – idrokini o'stirish, ma'rifiy ziyosidan bahramand qilish, haqiqiy vatanparvar, haqiqiy fuqoro etib etishtirish uchun, eng avvalo, tarbiyachining o'zi ana shunday yuksak talablarga javob berishi, ana shunday yuksak fazilatlarga ega bo'lishi kerak (Zuhra Ismoilova).

Tarbiyaning yo'naltirilganligi – ta'lim muassasalaridagi ta'lim – tarbiya jarayonining markaziy nuqtasida tarbiyaviy ishlar dasturi, tadbirlari, shakl, metod va vositalari emas, balki talabi turganligini anglatishga xizmat qiluvchi faoliyatdir, chunki tarbiya jarayonida talabaning shaxsiy xususiyatlari, qiziqishlari o'ziga xos tavsifi, o'z qadr - qimmatini anglash tuyg'ulari rivojlantirib boriladi.

Tarbiyada milliy va umuminsoniy qadriyatlar ustunligi – xalqning ko'p asrlik qadriyatlarini va ulkan hamda boy merosini chuqur bilish, milliy o'zlikni anglash, millat g'urur tuyg'usini qaror toptirishlarga qaratilgan faoliyatdagi asos.

Tarbiyaviy soatlar – bilim yurti sharoitida darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning asosiy shakllaridandir.

Tarbiyaviy maqsad – fan asoslarini o'zlashtirish orqali uning mazmunida yotgan g'oyalar, dunyoqarashlar ta'sirida o'zining shaxsiy sifatlarini, iymon-e'tiqodlarini shakllantirishni ko'zlashdir.

Tarbiyaviy jarayon – rivojlanib borayotgan avlodning katta yoshdagilar tajribasini egallab borish jarayoni bo'lib, insonlarning rivojlanishini boshqarish hamda ularning shaxsiy hislatilari shakllanishiga zarur sharoitlar yaratib beradi.

Tizim – bu ma'lum qonuniyat asosida (yaxlitlik nuqtai

nazaridan) tartiblangan, o'zaro uzviy bog'langan hamda belgilangan maqsad sari birgalikda umumiy funksional vazifani bajaruvchi elementlar (qism tizimlar) majmuasi **tizim** deb aytiladi. Tizimlar tarkibida qatnashayotgan elementlar (qism tizimlari) xarakteriga qarab sodda, murakkab, dinamik va statistik tizimlarga bo'linadi.

O'quv-uslubiy adabiyotlar va elektron ta'lim resurslari ro'yxati.

Asosiy darslik va o'quv qo'llanmalar

1. O'zbekistin Respublikasi "Ta'lim to'grisi"gi qonun-T: Sharq 1997

2. O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"-T: Sharq 1997

3.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi"-T:O'zbekiston" 1992

4. Jumayev M.E. Matematika o'qitish metodikasi (OO'Y uchun darslik)Toshkent. . "Turon- Iqbol" 2016 yil 426 b.

5. Jumayev M.E, Tadjiyeva Z.G'. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. (OO'Y uchun darslik.) Toshkent. "Fan va texnologiya" 2015 yil.

6. Jumayev M.E, Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasidan praktikum. (O O'Y uchun) Toshkent. "O'qituvchi" 2018 yil 242 b.

7. Jumayev M.E, Boshlang'ich sinflarda matematikadan laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi. Toshkent. "Yangi asr avlodi" 2006 yil. 20 b.

8. Tadjiyeva Z.G.,Abdullayeva B.S.,Jumayev M.E.,Sidelnikova R.I.,Sadikova A.V.Metodika prepodavaniya matematiki.-T. "Turon-Iqbol" 2011. 336s.

9. A.Avloniy "Turkiston guliston yohud ahloq" –T: "O'qituvchi", 1992

10. Al Buxoriy.Hadislaar 4-jild-T: Qomuslar bosh muharriri" 1997

11. Oliy ta'lim. Oliy o'quv yurtlarida bakalavr bitiruvmalakaviy ishni bajarishga kuyiladigan talablar.O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 1998 yil 31 dekabr №362 sonli buyrug'i.

12. A.R. Xodjaboev, N. Urolova, J.J. Xujaboev Diplom ishlarini tashkil etish va o'tkazish metodikasi. -UMKX,TTKMO va UKTI, T.: 2006. - 446.

13. Muslimov N.A. va boshqalar Bakalavrlarning bitiruv malakaviy ishini bajarish uchun metodik qo'llanma. - Toshkent.: TDPU, 2005. - 34 b.

14. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2021-yil 17- dekabrdagi 406-son buyrug'i

15. O'quvchilarda tayanch va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirishda zamonaviy o'quv jarayonini tashkil etish yo'llari «Ўқитувчи» канали. January 15, 2019

16. Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. –T.: Noshir, 2009. – 163 b.

17. Matlab Tilavova Texnologiya va uni o'qitish metodikasi. -Toshkent Muharrir nashriyoti. 2021.-268 b

18. Jumayev M. Matematika o'qitish metodikasi. – T.: Fan, 2018, - 482 b.

19. Adizov B.R., Najmiddinova G.N., Roziqova O.R. Didaktika. –Toshkent, 2012, -336 b.

20. Nuriddinova M.I. Tabiatshunoslikni o'qitish metodikasi. –T.:Cho'lpon, 2005. - 240 b.

21. Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh.

22. Ona tili o'qitish metodikasi. -T.: Noshir, 2009. - 163 b.

23. G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Mamatova G., Boqiyeva H.,

24. Masharipova U., Sattorova X. Husnixat va uni o'qitish metodikasi. -T.: TDPU,

25. Adizova N.B, Jumayev R.X., Qo'ldoshev R.A., Ismatov S.R. Ona tili o'qitish metodikasi. Buxoro, Durdona.: 2021. -292 b.

26. Safarova R., Inoyatova M. Alifbe kitobi (1-sinf uchun darslik). –T.: O'zbekiston. 2021. – 80 b.

27. Husanboyeva.Q. Tahlil - adabiyotni anglash yo'li. Toshkent.—Muharrir" nashriyoti. 2013.-432 bet.

28. Husanboyeva.Q. Adabiyot – ma'naviyat va mustaqil fikr shakllantirish omili. Toshkent. Alisher Navoiy nomidagi

O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti.2009.-368 bet.

29. Husanboyeva Q.Adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishning ilmiy-metodik asoslari. Ped.f.dok.ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. T:.-2006. 262 b

30. Ruvshenskiy L.I. Tarbiyaviy ishlar metodikasi.

31. Mavlonova R., To'raeva O., Holiqberdiev K. Pedagogika.

32. Valieva Z. Konstitutsiya alifbosi. 3-4 sinf.

33. Hasanboeva O. Tarbiyaviy ishlar metodikasi.

34. Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. –T.: Noshir, 2009. – 163 b.

35. Matlab Tilavova Texnologiya va uni o'qitish metodikasi. -Toshkent Muharrir nashriyoti. 2021.-268 b

36. Jumayev M. Matematika o'qitish metodikasi. – T.: Fan, 2018, - 482 b.

37. Adizov B.R., Najmiddinova G.N., Roziqova O.R. Didaktika. –Toshkent, 2012, -336 b.

38. Nuriddinova M.I. Tabiatshunoslikni o'qitish metodikasi. –T.:Cho'lpon, 2005. - 240 b.

39. Matlab Tilavova Texnologiya va uni o'qitish metodikasi. -Toshkent Muharrir nashriyoti. 2021.-268 b

40. Jumayev M.E, Tadjiyeva Z.G'. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. (O O'Y uchun darslik.) Toshkent. "Fan va texnologiya" 2005 yil.

41. Jumayev M.E, Bolalarda matematik tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. (KHK uchun) Toshkent. "Ilm Ziyo" 2005 yil.

42. Jumayev E.E. Boshlang'ich matematika nazariyasi va metodikasi. (KHK uchun) Toshkent. "Arnoprint" 2005 yil.

43. Jumayev M.E.Bolalarda boshlang'ich matematik tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. O'quv qo'llanma. (KHK uchun) Toshkent. "Ilm Ziyo" 2014yil.

44. Jumayev E.E,Boshlang'ich matematika na'ruzaasi va

metodikasi.(KHK uchun) Toshkent."Turon-iqbol,"2011 yil.\

45. Jumayev M.E.Tadjiyeva Z. G'. Boshlang'ich sinflarda matematikadan fakultativ darslarni tashkil etish metodikasi. Toshkent. "TDPU" 2005yil.

46. Jumayev M.E, Matematika o'qitish metodikasi. (OO'Yuchundarslik.) Toshkent. "Turon-iqbol" 2016yil. 426 bet.

47. Tadjiyeva Z.G'. Boshlang'ich matematika darslarida tarixiy materiallardan foydalanish. Toshkent. "Uzkomzentr" 2005 yil

48. Bikbayeva N. U. "Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi". Toshkent, "O'qituvchi", 1996 yil

49. Jumayev M. E., Tadjieva Z. G'. "Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi" Toshkent, 2005 yil

50. Toshmurodov B. "Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishni takomillashtirish " Toshkent "O'qituvchi", 2000 yil

51. Mavlonova R. A. Raxmonqulova N.X. "Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi" Toshkent "Ilm ziyo", 2009 yil

52. Suvonqulov A. K. Hamzayev H. X. "Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasidan amaliy mashg'ulotlar" Jizzax, 2006 yil

53. Asqarova O'.M. Pedagogika: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik / O'.M. Asqarova, M. Xayitboyev, V.S. Nishonov; O'zR oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi. – T.: "Talqin", 2008. – 288 b.

54. Ф.Ўринова, Ж.Отажонов. К проблеме ситуационно-позитционного обучение педагогов системы повышения квалификации.«Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук». Журнал научных публикаций. Москва. 2015. 171 -172 стр.

55. Didactic games in preschool educational system. F.U. Urinova- Problemы sovremennoy nauki i obrazovaniya, 2020-elibraru.ru

56. F.U.Urinova. The development logical thinking of primary school students in mathematics. European journal of

Research and Reflection in Educational Sciences. Vol.8/No 2, 2020.Part II/ISSN. 2056-5852. AQSH

57. Urinova Feruza Uljaevna, Sharofutdinova Rano Shavkatovna. DOI: 10.5958/2249-7137.2021.00358.X "Development and education of preschool children" ACADEMICIA. An International Multidisciplinary

58.Karimov I.A Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent "O'zbekiston" 1997

59. Barkamol avlod orzusi. Tuzuvchi muallif. SH. Karimov va boshqalar. Toshkent "Sharq" 1999

60. Mavlonova R, Raxmonqulova N Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi. Toshkent "O'qituvchi" 2006

61. Tursunov I, Nishonaliyev U pedagogika kursi. Toshkent "O'qituvchi" 1997

Elektron ta'lim resurslari:

1. w.w.w.tdpu.uz
2. 2.w.w.w.pedagog.uz
3. 3.w.w.w.ziyonet.uz
4. 4.w.w.w edu.uz
5. https://lex.uz/docs/-5193564
6. Elektron o'quv qo'llanma. http://fayllar.org

Artikova Nargiz Shuxratovna

MUTAXASSISLIKKA KIRISH

Muharrir: X. Tahirov
Texnik muharrir: S. Meliquziyeva
Musahhih: M. Yunusova
Sahifalovchi: A. Isxoqov

Nashr. lits № 2244. 25.08.2020 y.
Bosishga ruxsat etildi 13.09.2024 y.
Bichimi 60x84 1/16. Ofset qog'ozi. ''Cambria''
garniturasi. Hisob-nashr tabog'i. 25,625.
Adadi 100 dona. Buyurtma № 2306810.

«Sarbon LLS» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

+998 (94) 673-66-56, +998 (97) 017-01-01

ISBN 978-9910-9397-3-0